

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlarini

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali

Jurnal bir yilda to'rt marta nashr etiladi

Bosh muharrir –

Yo'ldoshev Ibrohim Jo'rayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari –

Jumayev Sobirjon Saidovich
professor

Tahrir hay'ati

Rushanin Vladimir Yakovlevich –

Chelyabinsk davlat madaniyat instituti rektori, tarix fanlari doktori, professor

Tulyaxodjayeva Muhabbat Turobovna – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Qodirova Sarvinov Muhsinovna – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Ibrohimov Oqilxon Akbarovich – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Umarov Absalom Adilovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor

Mavrulov Abduxalil Abduxayevich – tarix fanlari doktori, professor

Yo'ldoshev Ma'rufjon Muxammadjonovich – filologiya fanlari doktori, professor

Xalikulova Go'zal Erkinovna – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Ismoilov Hamdam – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Kosheleva Antonina Fedorovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rashidov Temur Maxmudovich – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Shermanov Eldor Uralovich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Tursunov Farrux G'ulomovich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Abdujabbarova Musallam Lafasovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Turg'unova Nasiba Mamatovna – san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Jamoatchilik kengashi

Sayfullayev Baxtiyor Sayfullayevich – Senatning yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Nazarbekov Ozodbek Ahmadovich – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

Hakimov Akbar Abdullayevich – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi

Akilova Kamola Baltabayevna – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Mahmudov Jasur Xusanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.

Karimova Nigora G'aniyevna – san'atshunoslik fanlari doktori

Qosimov Nozim Kozimovich – filologiya fanlari nomzodi, professor

Ismoilov Abdurahim Isroilovich – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor

Muxtarov Ildar Asxadovich – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi
245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

1. I. Yo‘ldoshev. Navoiy va Xondamir	3
2. E. Shermonov. Loqaydlik ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	6

I. TEATR VA KINO

1. M.Axmetjanova. Uchinchi renessans va ijtimoiy ma‘naviy taraqqiyot: teatr san‘atida innovatsion izlanishlar.....	8
2. M.Ahmetjanova. Mixael Haneke rejissurasida realistlik an‘analari talqini.....	13
3. M.Abdreymov. Qoraqalpog‘istonda ekran san‘atining rivojlanish tarixini o‘rganishning dolzarb jihatlari.....	15
4. E.Ganiyeva. Milliy seriallar formatining yangilanishi va ularning asosiy tendensiyalari.....	19

II. MUSIQQA SAN‘ATI

1. B.Matyayubov. Xorazmshohlar davrida musiqa san‘ati.....	22
2. Sh.Umarov. O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligida applikator, barmoqlar holati va ularni almashinuvining ahamiyati (dutor bas cholg‘usi misolida).....	26
3. F.Mansurbekova. Yoshlarda xor san‘ati haqidagi dastlabki bilimlarni shakllantirishning eng samarali usullari.....	29
4. U.Kurbanova. Xorazm xalfachilik san‘ati haqida.....	32
5. A.Abdugapparov. O‘zbekistonda tanbur cholg‘usi ijrochiligi uslublarining turfa xilligi.....	35
6. A.Yuldasheva. “Vokal” kafedrasini yaratish tarixi.....	37
7. G.Xodjametova. Opera va balet – talabalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim vosita sifatida.....	40

III. SAN‘AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. S.Baybosinova. Tarixiy shaxslar obrazi.....	42
2. G.Aximetova, G.Munteyeva. Yoshlar tarbiyasi va folklor san‘atining konseptual talqini.....	44
3. F.Ataxanova. Liboslarni yaratishda innovatsiyalarni qo‘llash masalalari.....	48
4. N.Arzimurodova. “Alla” – qalb qo‘shig‘i yoxud eng mo‘tabar kuy.....	52

IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. M.Abdujabbarova, X.Xaydarov. Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta‘limi masalalariga.....	55
2. O.Davlatov. Ta‘lim oluvchilarda axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati.....	59
3. R.Usnatov. Aktyorlik san‘atida pedagogikaning ahamiyati	61
4. G. Eshbayeva. Ijodiy ish uchun tadbir ssenariysi rejasini tuzish va sahnalashtirish.....	63
5. V.Rustamov. O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar sifatini oshirish istiqbollari.....	66
6. O.Останина. Пластического воспитания актера театра кукол.....	70
7. O.Alimbekova. Ommaviy madaniyatning jamiyatimiz madaniy o‘zagiga tahdidi	73
8. H.Karimova. Yangi davr kutubxonalari faoliyatiga innovatsion yondashuv: jurnalistika va blogerlik.....	76

V. YOSH TADQIQOTCHI

1. I.Yuldashev. Madaniyatda sinkretizm: ilmiy-nazariy tahlil.....	79
2. M.Xakimova. Alohida ehtiyojli foydalanuvchilar: bolalar, o‘smirlarga, kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish... ..	83
3. X.Abdujabborova. Yosh avlodni chin san‘atga muhabbat ruhida tarbiyalashda mumtoz adabiyot namunalari foydalanish.....	86
4. S.Sobirova. Fate of a man contemporary feature films.....	88
5. Z.Xudoyorova. Bahodir Yo‘ldoshevning so‘nggi suhbatlaridan biri... ..	90
6. D. Qurbonova. Yangi O‘zbekistonda gender madaniyati va oilaviy munosabatlar.....	93
7. I.Xudoyazarov. Til va madaniyatning mental-aksiologik xususiyatlari.....	96

VI. KO‘NGIL SO‘ZLARI

1. H.Rajabov. Abdreim Sultonov ijodiga bir nazar	99
2. I.Meliqo‘ziyev. Abdurahim Ismoilov – kinooperator, kinorejissor, ustoz.....	101
3. M. Umarov. Olimlar kafedrasini.....	104
4. F. Zuparova. Ustozni yod etib... ..	106

NAVOIY VA XONDAMIR

Buyuk mutafakkir, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy haqida shu kunga qadar juda ko'plab muhim ma'lumotlar yozilgan va bunday xayrli ishlar hamon davom etmoqda. Shu o'rinda Alisher Navoiyning zamondoshi, u bilan bir muhitda yashagan Xondamir va uning Alisher Navoiy haqidagi "Makorim ul-axloq" ("Go'zal xulqlar") asari xususida fikr yuritishni joiz bildik.



O'zbekiston Qahramoni, professor Suyima G'aniyeva "Makorim ul-axloq"ning 2015-yil G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop qilingan nashriga yozgan kirish so'zida quyidagilarni bayon etadi: "1981-yilda afg'onistonlik adabiyotshunos, shoir Abdulg'affor Bayoniy "Makorim ul-axloq"ning to'liq matnini Kobulda Axborot va madaniyat vaziri Majid Sarbalandiyning qisqacha so'zboshisi bilan nashr qildi. Kitob 241 sahifadan iborat. Unda Xondamir asari to'liq bosilgan bo'lib, Bayoniy Xondamirning tarjimai holi, asarlari to'g'risida alohida boblar tarzida maqolalar bergan".

Xondamirning otasi Xoja G'umomiddin ibn Burhoniddin Hiraviy, onasi mashhur tarixchi Mirxondning qizi bo'lgan. Xondamir Mirxond tarbiyasida ulg'aygan. Keyin Navoiy huzurida bo'lib, uning katta kutubxonasida xizmat qilgan. Badiuzzamonning vaziri ham bo'lgan. U olimni "Habib us-siyar" nomli asar yozishga undagan.

Mamlakatda boshlangan taloto'plar tufayli Xondamir 1528-yilda Hindistonga ketadi. Yetti oy yo'l azobini chekib, Agraga yetishadi. "Hasht behisht" bog'ida Bobur bilan uchrashadi. Bobur vafotidan keyin Xumoyunning mulozimi bo'ladi. "Qonuni Humoyuniy" asarini yozib, "Amir ul-muarrixin" ("Tarixchilar amiri") darajasiga erishadi.

Xondamir 942 (1535 – 1536) yilda Dehlida vafot etadi. Uning vasiyatiga ko'ra, Dehli yaqinidagi Nozomiddin Avliyo va Xusrav Dehlaviy qabrlari yoniga dafn qilinadi.

Xondamirning o'g'illari haqida Britaniya muzeyi qo'lyozmalari katalogi muallifi sharqshunos Charlz Rye yozgan: "Xondamirning o'g'li Akbarning zamondoshi bo'lib, uning saroyida xizmat qilgan. Akbar tomonidan unga "Xoniy" taxallusi berilgan. U Sayyid Abdullohxon nomi bilan mashhur bo'lgan va 996/1588-yili Kashmir viloyatida vafot etgan". Eron olimi Said Nafisiy "Dastur ul-vuzaro" asarining so'zboshisida qayd etishicha, Xondamirning Mirmahmud ismli farzandi otasining vafotidan so'ng Hindistondan Hirotga qaytgan yoki otasi bilan Hindistonga bormagan. U Shoh Ismoil va Shoh Tahmosblar haqida kitob yozgani ma'lum bo'ladi, u otasi vafotidan 15 yil keyin ham hayot bo'ladi.

Ikki og'iz Abdulg'affor Bayoniy to'g'risida. U 1952-yili Mullo Abdurahmon oilasida tug'ilgan. 1972-yili Kobul universitetining adabiyot fakultetiga o'qishga kirgan. Keyin radio, televideniye, matbuot, madaniyat vazirligida xizmat qilgan, hatto Saripul shahri hokimi ham bo'lgan. Bayoniy 1998-yili Tojikistonga ketishga majbur bo'ladi. U yerda litsey tashkil qilib, turmush o'rtog'i Oyxon bilan dars beradi. 2000-yilning yozida Bayoniy Dushanbe shahrida vafot etadi.

"Makorim ul-axloq"ning to'liq matni va asardagi mulohazalar, izohlar va talqinlar Bayoniydan bizga qolgan ajib bir yodgorlikdir.

Mazkur kitobni fors tilidan o'zbek tiliga to'liq tarjimasini Komiljon Rahimov amalga oshirdi.

Xondamir o'z asarini "Makorim ul-axloq" deb ataganda, bu ibora Payg'ambarimiz ta'rifida aytilganini

nazarda tutgan, deyish mumkin. Zero, Xondamir Alisher Navoiy siyomosida, hayoti, faoliyati, ijodida poklikni his qilgan, e'tiqodini e'zozlagan"¹.

Ko'rib o'tganimizdek, Xondamir umrining asosiy davrlarini Alisher Navoiy hamda Boburiylar davrasida o'tkazgan. Demak, ularning hayoti va ijodini bevosita shohidi bo'lgan va u yozib qoldirgan meros ulug' ajdodlarimiz tarixini o'rganishda juda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois Alisher Navoiy hayoti va ijodiga befarq bo'lmagan har bir inson "Makorim ul-axloq"ni o'qib chiqishi katta naf keltirishiga ishonamiz.

Xondamir "Makorim ul-axloq"ning² "Debocha"ida Yaratganga hamdu sanolardan so'ngra buyuk Navoiyga ta'rif berib, asarning yaratilishi haqida quyidagilarni bitadi: "... o'tkir ko'zli egalariiga maxfiy va yashirin qolmasinki, **sharaf va ulug'lik osmonining oftobi, olam rahamosining xizmatkori, eng yaxshi xulqlarni o'zida mujassam etuvchi, Rahmonning rahmat oyatlari tajassumi, janobi Subhon inoyatlari nurlari jilvagohi, ilm va irfon ahli yo'lboshchisi, haqiqat va e'tiqod ahli qiblasini, hoqon davlatining ishongani, hazrati sultonning yaqin kishisi, "faqr (lik)da boyu saxovatda botir bo'lib chiqdi"**, degan gapga muvofiq keluvchi oliy hazrat Nizom ul-haq va-l-haqiqat va-d-dunyo va-d-din Amir Alisherning (Alloh taolo uning ruhini shod qilsin va siddiqlar orasida uning fayzu futuhini ko'paytirsin) inoyat nuri va mehr-muhabbat quyoshi faqir banda va kichik zarra bo'lmish Xondamir taxallusi bilan mashhur bo'lgan kamina G'iyosiddin ibn Humomiddin (Alloh taolo uning ahvolini yaxshilasin va uning ezgu maqsad va ishlariga najot bersin) boshida toblandi. [Bu faqir bandaning] mavjudlik niholi bolalik chog'laridan yigitlik davrining oxirlariga qadar ul Hazratning lutfu ehson arig'i yoqasida unib-o'sdi. "Ne'mat berguvchiga shukr qilmoq vojibdir" naqlidan kelib chiqqan holda, uning bergan cheksiz ne'matlaridan ayrimlarining shukrini ado qilishning uddasidan chiqish uchun qanday xizmatga bel bog'lasam ekan, degan fikr hamisha ko'ngildan o'tar va xayolda charx urardi. Axiyri aql murshidi ruh qulog'iga aytdiki, **ezgu ishlarni qiluvchi bu Amirning** katta ishlari va qahramonliklari shuhrati, xizmatlari va sharafli ishlari ovozasini butun dunyoga tarqalgan, barcha yurtlar va go'shalargacha borib yetgan, turli xalqlar orasida tildan tilga ko'chib, og'izdan og'izga o'tib yurgan, "Ularning yuzlarida ne'matlarning tarovatini tanirsiz (ko'rursiz)"³ [oyati]ga ko'ra Oliy Maxdum nurlari nuroniy peshanasida jilvalanib turgan hamda "Ularning yuzlarida sajda asoratidan qolgan izlar bordir"⁴ [oyati]ga ko'ra buyuklik

¹ G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – B.3-4.

² Parchalar quyidagi manbadan olindi: G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – B. 206.

³ Qur'oni karim, "Mutaffifun" surasi, 24-oyat.

⁴ Qur'oni karim, "Fath" surasi, 29-oyat.

⁵ G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2015. –B. 8-10.

va ulug'lik belgilari saodatli chehrasida namoyon bo'lib turgan bo'lsada,

Qit'a:

Sening madhingda so'z aytishdan maqsad shuki,

San'at ahli orasida biz ham muvaffaqiyatga erishaylik.

Yo'qsa, [shusiz ham] quyoshning fazilatlarini barchaga ma'lum,

Go'zal chehraga pardozning nima hojati bor?

Bu **omadli va saodatli Amirning** fazilatlarini, olijanob xulqlari va chiroyli odoblaridan bir qisminigina hikoya qiladigan bir necha bob yozilsa va unda uning ajoyib siyratlari, maqtovg'a sazovor xulq-atvorlari, boshqalarda kam uchraydigan holatlari va kayfiyatlarini, qiziq va g'aroyib ishlari, sehrlil iste'dodi xususiyatlari va nozik iboralarni qog'ozga tushiradigan qalami hosilalari sharhlansa, [qilingan] yaxshiliklarni bilish, qadrlash va uning haqqini ado etish kabi vojib amallarning bir daqiqasini bo'lsa-da, bajara olgan hamda to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi oliy hazrat tomonidan berilgan ne'matlarga shukr qilishning ozgina bo'lsa-da, uddasidan chiqqan bo'larding. Zero, bu ish qiyomatga qadar bo'lgan davrda va qiyomat chog'ida ham ul hazratning maqtovg'a sazovor amallari va ma'qul ishlari to'g'risida eslatmalar zamona kitoblari hamda davron varaqlarida mangu qolishiga sabab bo'ladi.

Misra:

Yaxshi nomni ikkinchi umr demish ulug'lar.

Shundan kelib chiqqan holda, san'at ulug'ligi osmoni quyoshiga sano o'qishdan boshqa hunarim bo'lmagan men banda

Bayt:

Maqtashdan boshqa biror hunarim yo'q,

Duodan boshqa biror yaxshi narsa topolmadim.

Ko'nglimdagilarni yozishga kirishdim va yozganlarimni muqaddima, o'n maqsad va xotima shaklida tartib berib, uni "Makorim ul-axloq" deb nomladim"⁵.

Xondamirning Alisher Navoiyga nisbatan bo'lgan hurmati shu qadar cheksiz bo'lganki, asarning Navoiyga tegishli qismida yoki uning nomini tilga olishda unga nisbatan qirqa yaqin turli sifatlardan foydalanadi. Biz o'rganib chiqqan kichik hajmdagi parchaning o'zida Navoiy shaxsiga nisbatan aytilgan quyidagi ta'riflarni ko'ramiz: **sharaf va ulug'lik osmonining oftobi, olam rahamosining xizmatkori, eng yaxshi xulqlarni o'zida mujassam etuvchi, Rahmonning rahmat oyatlari tajassumi, janobi Subhon inoyatlari nurlari jilvagohi, ilm va irfon ahli yo'lboshchisi, haqiqat va e'tiqod ahli qiblasini, hoqon davlatining ishongani, hazrati sultonning yaqin kishisi, "faqr (lik)da boyu saxovatda botir bo'lib chiqdi"**, degan gapga muvofiq keluvchi oliy hazrat Nizom ul-haq va-l-haqiqat va-d-dunyo va-d-din Amir Alisher, **ezgu ishlarni qiluvchi bu Amir, omadli va saodatli Amir, rahmdil va kechirguvchi bo'lgan Zot marhamatlari jilvagohi va hazrati sultonning yaqin kishisi, Hazrati sultonning yaqin kishisi hisoblangan ul oliy hazrat, dono Amir, oliyanob Amir, hamisha unga omad va g'alaba yor bo'lgan Amir, Rahmdillikni o'ziga**

odat qilib olgan bu Amir, ul oliy hazrat, hidoyat nasabli Amir, shohlik belgilariga ega bo'lgan Amir, tadbirli va dono Amir, shoh sifatli Amir, yuqori mansabli Amir, ushbu saodatli Amir, maqtalغان xislatlarga ega bo'lgan Amir, yuqori martabali ushbu Amir gavharlar sochuvchi tillari bilan, Hazrati sultonning yaqin kishisi, oliy nasabli Amir, Hazrati sultonning yaqin kishisi, oliy nasabli Amir, dunyo ulug'larining tayanchi va pushti panohi bo'lgan ul hazrat, maqtalغان xislatlar sohibi bo'lgan bu Amir, keng fe'lli Amir, saxovat va karam manbai bo'lgan ul hazrat, yuqori mansabli Amir, salobat va viqorga ega bo'lgan bu Amir, saxovatli Amir, qalbi dengizday keng bo'lgan bu Amir, saodatli Amir va h.z.

Ana, ustozga ehtiromning yaqqol namunasi! Har qancha o'rnak olsak arziydi.

Xondamirning Alisher Navoiy haqidagi ikkinchi asari "Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor" (1498–1500) deb nomlangan. Mazkur asar ham XV–XVI asrlardagi ijtimoiy-madaniy tarixni o'rganishda juda qimmatli sanaladi. Asar bevosita Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liqligi tufayli yana ham ahamiyatlidir. Asarda, ayniqsa, Navoiyning musiqa va qo'shiqchilik borasidagi faoliyatining yoritilishi biz uchun yanada muhimdir. E'tirof etilishicha, Xirotda boshqa san'at turlari qatorida musiqa va qo'shiqchilik madaniyati ham nihoyatda taraqqiy etgan. Buni biz Xondamirning mazkur asarida to'liq kuzatishimiz mumkin. Xondamir o'z asarida Husayn

Boyqaro saroyida xizmat qilgan kuy va qo'shiq ijrochilari atab alohida sahifalar ajratgan. Ularda ta'rif berilgan har bir san'atkor o'sha davrning mashhur va mahoratli ustalari bo'lgan. Alisher Navoiy ham musiqa ijrosi bo'yicha juda yuksak mahorat sohibi bo'lgan. U qonun va udni yuksak iste'dod bilan chala olgan. Shu bois, Navoiy saroy sozandalarining musiqa borasidagi bilim va mahoratlarini muttasil ravishda yuksaltirib borishlarida har tomonlama dastak ko'rsatgan. Xususan, Alisher Navoiyning dastagi va homiyligi ostida Husayn Boyqaro saroyida faoliyat ko'rsatgan Ustod Sayyid Ahmad g'ijjak ijrosida eng yetuk san'atkor sifatida dovrug' qozongan bo'lsa, Ustod Shohquli ham g'ijjakda mahorat bilan o'ynagan. Navoiy o'zining sevimli shogirdi Shohquliga uning bolaligidan g'amxo'rlik ko'rsatadi. Ustod Shohquli keyinchalik ud, qo'biz kabi musiqiy asboblarda ham mahorat bilan kuy ijro eta oladigan san'atkor darajasiga ko'tariladi. Asarda yana **ud** va **qonun** ustasi Ustod Husayn, o'z davrining nay ustasi Ustod Shayh Nayi, musiqa san'ati bobida tengi yo'q mahorat egasi Mavlono Alishoh, mahoratli nay ijrochisi Mavlono Sulton Muhammad Xandon, musiqa borasida tengsiz san'atkor Xo'ja Abdulqodir go'yanda kabi san'atkorlarning nomlari alohida tilga olinadi. Xondamirning mazkur asari Alisher Navoiyning kuy va qo'shiq san'ati homiysi bo'lganligi, shuningdek, XV – XVI asrlardagi keng tarqalgan asosiy cholg'ulardan **qonun, ud, qo'biz, g'ijjak, nay** kabilar haqida qimmatli ma'lumotlar berishi bilan bebahodir.

LOQAYDLIK IJTIMOY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi va faolligini oshirish misolida ilmiy-pedagogik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ishtirok, dunyoqarash, jamiyat, zamonaviy madaniyat, sezgirlik, ijtimoiylashuv.

Эльдор ШЕРМОНОВ,

первый проректор ГИИКУз, доктор философии (PhD) по педагогике

РАВНОДУШНОСТЬ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье даются научно-педагогические рекомендации на примере повышения духовного мировоззрения и сопричастности молодёжи

Ключевые слова: сопричастность, мировоззрение, общество, современная культура, ценность, социализация.

Eldor SHERMONOV,

First Vice-Rector of the UzSIAC Doctor of Philosophy (PhD) for Pedagogy

INDIFFERENCE AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. The article provides the scientific and pedagogical recommendation on an example of the spiritual world and increase ownership among young people

Key words: ownership, worldview, society, modern culture, values, socialization



Hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish zarur.

Ogohlikni, daxldorlikni o'sib kelayotgan o'g'il-qizlarimizning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash har bir ta'lim muassasasi pedagogik jamoasining shu muqaddas yurt fuqarolari sifatidagi muqaddas burchidir.

Insoniyat boshiga uzoq-yaqin tarixida qancha kulfat, kasofat tushgan bo'lsa, insonning o'z hayotiga, taqdiriga loqaydligi, beparvoligi sabab bo'lgan. Loqaydlik xodisasining mohiyatini aniqlash uchun, dastlab uning lug'aviy ma'nosi haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Buning uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning 436 betida "loqayd" degan so'z arab tilidan olinib: ahamiyat, e'tibor bermaslik, beparvolik, qiziqmaslik, befarqlik ma'nolarida ishlatilishi ko'rsatilgan¹. Darhaqiqat, bu so'zda insonning tashqi olam ta'sirini sezgan taqdirda ham, o'jarligi, mutaassibli, nodonligi va amaliy faoliyatsizligining oqibati, eng avvalo daxldorlik fazilati maqsadli tarbiyalanmaganligi o'z ifodasini topgan.

Tarixdan ma'lumki, loqaydlik daxldorlikning ziddi sifatida nafaqat shaxs, oddiy odamlar, balki butun boshli davlatlarning barbod bo'lishiga sabab bo'lgan. Masalan, O'zbekiston davlati hududida yashagan xalqlar uch ming yillik tarixida bir qancha asrlar bosqinchilar zulmi ostida yashaganligi ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bunda, ikki sabab keltirilmoqda. Biri jaholat, ikkinchisi

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. – M.: 1981. – B. 436.

² Mirziyoyev. Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxt – T.: O'zbekiston, 2018. – B. 146 – 150

g'aflat. G'aflat bu – loqaydlikning oqibati, asorati, natijasi, deb qarasa, bizning bir necha asrlik mustamlakalik domida yashashimiz, dunyo taraqqiyoti, texnologiya, ilmfan yutuqlaridan bebahra qolishimizga yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiriga loqaydligi, kelajagiga loqaydligi, millat haqida qayg'urish o'rniga o'zlarini aysh-ishratga urib, aysh ahliga daxldor bilganlari sabab bo'lganligi kelib chiqadi. Xullas, bu uzoq davom etgan milliy fojeaning birdan-bir asosiy sababi – millatning g'oyaviy-mafkuraviy tarqoqligi, parokandaligi va o'z erkiga, mustaqilligiga, kelajak avlodlar taqdiriga nisbatan loqaydligi bo'lgan. Ularning xalqni uyushtirib, ommaviy ravishda ozodlik, mustaqillik g'oyalari sobit ergashtira olmaganliklari, loqaydlik kayfiyatlarini bartaraf qilish usullari, vositalarini topolmaganliklari sababli, mag'lub bo'lganlar. Mamlakat asrlar davomida moddiy va ma'naviy vayronaga aylangan. Shuning uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "O'zimiz o'zimizga xiyonat qilmasak, o'zimiz o'zimizni aldamasak, halol-pok bo'lib mehnat qilsak, men aminman, ko'zlagan barcha marralarimizga albatta yetamiz. Bu borada men avvalo ko'p sinovlardan yorug' yuz bilan o'tgan olijanob xalqimizning mustahkam irodasi va bunyodkorlik salohiyatiga ishonaman"², degan fikrlardan to'g'ri pedagogik xulosalar chiqarishimiz zarur bo'ladi.

Insonning o'z ma'naviy borlig'iga loqaydligi va beparvoligi negizini: bir tomondan, milliy g'urur-iftixor tuyg'usining so'nishi, kelajakka umidsizligi, rahbarlarga ishonchsizligi va atrofidagi salbiy, g'ayriahloqiy xodisalarga ko'nikishi, ikkinchi tomondan, qo'yilgan maqsadning mohiyatini bilmaslik, mutaassiblik va ma'naviy ojizlik tashkil qiladi. Millatning hayotida asrlar davomida uning ustidan hukmronlik qilib, davron surgan mustamlakachilik siyosatiga loqaydligi va ko'nikishi millat fojiasi bo'lgan.

Biz bugun xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan, istiqbol yillarida bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g'oyat sharafli yo'limizni sarhisob qilar ekanmiz, tarixan qisqa bir davrda o'z taqdirimizni

o'zimiz hal etish, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash, milliy davlatchiligimizni, azaliy qadriyat va urf-odatlarimizni, muqaddas dinimizni tiklash, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritganimizni faxr bilan tilga olamiz"³. So'nggi yillarda Prezidentimiz boshchiligidagi o'tkazilayotgan barcha turdagi uchrashuvlar, davra suhbatlari va videoselektor yig'ilishlarida rahbarlarning xalq taqdiriga loqaydligi xususida tanqidiy fikrlarni bildirmoqda.

"Bundan keyingi eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni xalqimizni xayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz avvalo, biz-rahbarlarning faoliyatidan rozi bo'lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o'z aravasini o'zi tortishi, o'z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o'zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o'zgarish bo'ladi, rivojlanish bo'ladi"⁴. Demak, ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamlariga tushuntirilsa, yanada samarali hamda yuksak natijalarga erishiladi. Buning uchun daxldorlik tushunchasining pedagogik mazmuni lug'aviy, ma'naviy, huquqiy, falsafiy, ijtimoiy, keng pedagogik, tor pedagogik va amaliy ma'nolarda talqin qilinishi va uzluksiz ta'lim tizimi amaliyotiga joriy qilinishi ham juda muhim vazifa hisoblanadi. Talaba yoshlarga islohotlarning ma'no-mohiyatini aniq-ravshan tushuntirib, jamiyatda ishonch uyg'otish va bunyodkorlik sari safarbar etish zarur.

Global axborot oqimi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlari nafaqat yaratuvchanlik, balki millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros barqarorligi va vorisligini izdan chiqarishga yo'naltirilgan buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkurali vayronkor tuzilmalariga ham xizmat qilmoqda. Bunda asosiy omil sifatida Internet XXI asrda dunyo aholisining, ayniqsa, yoshlarning istalgan mavzu va yo'nalishdagi axborotga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira oladigan, ulkan elektron maydonga aylandi. Bu tuzilmaning o'ta chigal tarmog'ida joylashgan axborot va uning qurshovi, ta'siri va muhitida mustaqil hayotga tayyorlanayotgan yoshlar ongi, kayfiyati, ruhiyati, ma'naviyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi o'ta kuchli vositadir. G'araz niyatli kimsalar yoki guruhlar davlat, jamiyat rivojini izdan chiqarishga qodir ruhiy ta'sir mexanizmlari va vositalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali mustaqil fikri, nuqtai nazariga ega bo'lmagan yoshlarni to'rga tushirib va o'zining salbiy niyatlarini, maqsadlarini amalga oshirish yo'lida foydalanmoqda.

Bugungi kunda o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 mingdan ortiq sayt mavjud. 4 mingdan ziyod saytlar erotik mazmunga ega. Shu bois, 42 foiz bolalar va o'smirlar onlayn pornografiya ta'siriga tushmoqda. 49 foiz kompyuter o'yinlari zo'ravonlik va yovuzlik ruhida, 41 foiz o'ta jangari – beshavqat urushlar, o'ldirishlar, otishmalar, portlashlardan iborat⁵.

³ Mirziyoyev. Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxt – T.: O'zbekiston, 2018. – B. 146 -150.

⁴ Mirziyoyev Sh.M.: Tankidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi lozim, 2017-yil. – B. 53.

⁵ Ismoilov B.I., Maxmudova M.M. Voyaga yetmaganlarning axborot xavfsizligini muhofazalash: xorijiy va milliy tajriba. Ilmiy-uslubiy qo'llanma, Toshkent "Spectrum Media Group" 2015. 14-bet.

Ommaviy axborot vositalari ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi kunda mamlakatimizda 22 milliondan ortiq mobil aloqa foydalanuvchilar ro'yxatga olingan. Shularning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilmoqda. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan aholi qatlami ya'ni yoshlar yurtimiz aholisining 64 foizini tashkil etishini hisobga olsak bu ko'rsatkich arifmetik darajadagi ulkan raqamlarni hosil qilishi mumkin. Demak, hozirda mobil telefon nafaqat texnik yutuq, balki ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, yoshlararo kommunikatsiya tizimining shiddatli tezligini ta'minlovchi birlamchi omillardan biriga aylanib ulgurdi.

Bundan tashqari, inson ongi va qalbiga tez ta'sir etuvchi va eng keng tarqalgan ommaviy axborot vositalaridan biri televideniye bo'lib, OAV ichida teletomoshabinlar auditoriyasi ko'lami kengligi, barcha yoshdagilarni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Televideniye turli xildagi axborot manbaidir. Bular tijorat, siyosiy, madaniy, ta'lim, ko'ngilochar va boshqalar. Bularning barchasi reklama bilan qo'shib ommaviy ongga egalik qilishning qudratli mexanizmiga aylandi. Ayniqsa, teleko'rsatuvlarning psixologik ta'siriga beriluvchanlik kuchli kuzatiladigan yosh tomoshabinlar auditoriyasining axborotni qabul qilish, qayta tahlil qilib uzata olish qobiliyati, telekommunikatsiya tizimi orqali uzatilayotgan ko'rsatuvlar va eshittirishlarning yosh avlod ruhiyati, ma'naviyatiga ta'siri hamda ularda shaxsiyatni shakllanishiga ta'sirini ilmiy o'rganish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Sun'iy yo'ldosh va kabel televideniylari orqali namoyish etilayotgan seriallar o'smirlarga zo'ravonlik, behayollik g'oyalarini huddi bir oddiy holat, g'arb madaniyati normasi sifatida singdirmoqda. Aslida g'arb davlatlari aholisining aksariyati ham bunday ahloqiy normalarni qo'llab-quvvatlamaydi.

Ushbu telemahsulotlarni ko'rib anglab ulg'ayayotgan yoshlar o'z atrofidagi olamni obrazlar orqali tasavvur qila boshlaydi va ular asosida o'zining shaxsiy dunyoqarash modelini quradi. Masalan, o'smir qizlarimiz multfilmlardagi ayol qahramonlarini tomosha qilgan ekan, beixtiyor o'zlarining kelajak obrazlarini yaratadilar, ularga taqlid qilishga harakat qilishadi.

Psixologlarning tadqiqot natijalariga qaraganda, ba'zi xorijiy multfilmlardagi ayol obrazidagi qahramonlar shunday yaratilganki, ushbu multfilmlarni surunkali ravishda tomosha qilish yoshlarning ongida avlod va nasl qoldirish funksiyalarini so'ndirishga olib keladi. Shunday ekan, "yoqimli... va xavfli" mahsulotlar yot g'oyalari bilan farzandlarimiz ongini o'zgartirishiga tinch qarab turib bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida yoshlar orasida uchrayotgan maishiy qulaylikka ortiqcha intilish, tashqi go'zallikka haddan tashqari berilish, buyumparastlik, boqimandalik va milliy turmush tarzida odatiy hol bo'lib qolgan afzalliklar va ne'matlardan ongsiz ravishda foydalanish illatlaridan qutilish uchun ular qalbiga milliy mafkuramizga daxldor bo'lgan fazilatlarini yanada ko'proq singdirib borish lozim. Shuningdek, ularni o'z Vatanida amalga oshirilayotgan islohotlar va yutuqlardan xabardor bo'lmagan holda xorij hayoti, ijtimoiy tarmoqlar tarqatayotgan ma'lumotlarga tobe bo'lib qolish illatidan asrash uchun, har bir ta'lim muassasida, o'z o'quvchisini milliy g'oyani o'zining g'oyasi deb bilishini va uning ro'yobi uchun o'zini mas'ul deb hisoblashi kabi ijobiy fazilatlarini singdirish birlamchi vazifa sifatida qaralishi lozim.



I BO' LIM

TEATR VA KINO

Muqaddas AXMETJANOVA,

O'zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti dekani, san'atshunoslik fanlari nomzodi

UCHINCHI RENESSANS VA IJTIMOY MA'NAVY

TARAQQIYOT:

TEATR SAN'ATIDA INNOVATSION IZLANISHLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning Uchinchi Renessansga qadam qo'yishida ijtimoiy-madaniy taraqqiyot, jumladan, sahna san'atining o'rni, oxirgi yillarda teatr sohasida olib borilayotgan innovatsion izlanishlar; dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san'atidagi tajribalar, milliy va umuminsoniy tamoyillar, innovatsion g'oya va loyihalarning hayotga tatbiq etilishiga qaratilgan ishlar hamda bu yo'lda davlatimiz tomonidan ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun olib borilayotgan siyosat mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: teatr, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, modernizatsiya, resipiyent, innovatsion tendansiyalar, badiiy-estetik ong.

Мукаддас АХМЕТЖАНОВА,

декан факультета народного творчества ГИИКУз, кандидат искусствоведческих наук

ТРЕТЬЕ ВОЗРОЖДЕНИЕ И СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЕ

РАЗВИТИЕ:

ИННОВАЦИОННЫЕ РАЗВИТИЯ В ТЕАТРАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Аннотация. В данной статье обсуждается роль социокультурного развития, включая исполнительское искусство в вступлении Узбекистана в эпоху Третьего Возрождения, а также новаторские исследования в области театра в последние годы; анализируется опыт драматургии, режиссуры и актёрского мастерства, общенациональные и общечеловеческие принципы, работа по реализации новаторских идей и проектов, а также суть проводимой государством политики поддержки художников в этом направлении.

Ключевые слова: театр, национальные и общечеловеческие ценности, модернизация, реципиент, инновационные тенденции, художественно-эстетическое сознание.

Muqaddas AKHMETZHANOVA,

Dean of the Faculty of Folk Art of UzSIAC, candidate of arts

THIRD REVIVAL AND SOCIO-SPIRITUAL DEVELOPMENT:

INNOVATIVE DEVELOPMENTS IN THEATER

Annotation. This article discusses the role of socio-cultural development, including performing arts, in Uzbekistan's entry into the era of the Third Renaissance, as well as innovative research in the field of theater in recent years; analyzes the experience of drama, directing and acting, national and universal principles, work on the implementation of innovative ideas and projects, as well as the essence of the state policy of supporting artists in this direction.

Keywords: theater, national and universal values, modernization, recipient, innovative trends, artistic and aesthetic consciousness.

Teatr san'atining bosh maqsadi retsiyent (tomoshabin, shaxs)ning ijtimoiy-ma'naviy shakllanishiga ta'sir etishdir. Mazkur funksiyasini u retsiyentning bo'sh vaqtini, badiiy-estetik qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish orqali amalga oshiradi. Shunday funksiyani madaniyatning

boshqa institutlari bo'lmish muzeylar, konsert zallari, madaniy markazlar, kutubxonalar, yoshlar ijod uylari kabilar ham bajaradi. Shuning uchun teatrlar retsiyent shaxsning ijtimoiy-ma'naviy shakllanishiga o'sha institutlar bilan birga hissa qo'shadi.

Retsipiyyent shunchaki tomoshabin bo'lmashligi, balki teatrni innovatsion izlanishlarga undovchi, badiiy-estetik ongi va bilimi yetarli munaqqid, dramaturg, innovator, investor, ijodkor bo'lishi kerak, degan fikr asoslanadi. Teatr va retsiipiyyent ijodiy hamkorligi zamonaviy teatrni rivojlantirish kafolatidir. Ammo bu hamkorlikni tashkil etuvchi, uni samarali natijalarga yetaklovchi subyekt professional san'atkoridir.

San'at asari ijodkor orzusidagi, uning aqli, ko'ngli buyurgan tuyg'ular, fikr va g'oyalar aks etgan badiiy olamdur. Teatr san'ati vakillari badiiy olam yaratarkanlar, ijod mahsullari – spektakllarning shaxs ijtimoiy-ma'naviy shakllanishiga ta'sirini, ularning jamiyat strategik maqsadlariga muvofiqligini nazarda tutadilar. Spektakllar predmeti va obyektini ijtimoiy hayot muammolari, umumjamiyat manfaatlarini, jamiyat a'zolarining o'yi va dilini qamragan falsafiy-estetik qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib tanlaydilar

Bugun teatrlarimiz uchun umumijtimoiy g'oya Yangi o'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurish g'oyasidir. Bu umumijtimoiy taraqqiyotga oid g'oyani teatrlar sahanasiga olib chiqish ma'lum bir vaqt va tayyorgarlikni talab etayotgan bo'lsa-da, bu borada ma'lum bir innovatsion izlanishlar olib borilmoqda. Uchinchi Renessans poydevorini qurish g'oyasi butun ijtimoiy ma'naviy borliqqa, madaniyat va san'at institutlari faoliyatiga, ta'lim-tarbiya tizimlari, targ'ibot muassasalari, shu jumladan, teatrlarga ham taalluqli dolzarb voqelikdir. Shu munosabat bilan respublikamizda o'tkazilayotgan keng miqyosdagi ijtimoiy ma'naviy tadbirlar teatrlar va retsiipiyyentlarga ham taalluqlidir. Teatrlarimiz ushbu tadbirlarda goh sahlashtiruvchi, goh u yoki bu rolni ijro etuvchi, goh tarixiy obrazlarni yorituvchi, goh esa butun tomoshani uyushtiruvchi, boshqaruvchi rejissor sifatida qatnashadi. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" (2017-yil 17-noyabr), "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida" (2018-yil 1-noyabr), "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish chora tadbirlari to'g'risida" (2018-yil 1-noyabr), "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2019-yil 14-may), "Sharq taronalari xalqaro musiqa festivalini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlari to'g'risida" (2019-yil 26-fevral) kabi farmon va qarorlari bo'yicha tashkil etilgan va o'tkazilgan tadbirlarda teatr vakillari katta rol o'ynagan.

Xalq teatr ijodkorlari ijro etgan turli qahramonlar obrazlariga, ular gavdalantirgan ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy ideallarga ishonadi, yosh avlod ularga taqlid qiladi, ergashadi, ulardek mard, jasur, halol va adolatli inson bo'lishni maqsad qiladi. Buning uchun ijodkorlarning o'zlari har tomonlama komil, ilg'or fikrlaydigan inson bo'lishlari, zamon bilan hamnafas bo'lib, muntazam yangilikka intilishlari lozim. Shu bois Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Yurtimizdagi bugungi ijodiy muhitni kuzatsak, u qandaydir turg'unlikka tushib, bir joyda deysinib turganday, ko'pchilik ijodkorlarimiz o'z tashvish va muammolari bilan o'ralashib qolganday taassurot qoldiradi. Holbuki, madaniyat va san'at arboblari hamisha jamiyatning eng oldingi saflarida bo'lishi, o'z asarlari, faol grajdanlik pozitsiyasi bilan odamlarni ezgu maqsad va

marralar sari boshlashi, ilhomlantirishi kerak emasmi?", – deb ta'kidlaydi [1]. Keyingi yillarda mamlakatimizda teatr san'atini rivojlantirish, ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual va mulkiy huquqlarini himoya qilish, madaniyat maskanlarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta jihozlash, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida yangi teatrlarni tashkil etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun aksariyat teatr maskanlarida, ayrim san'at dargohlarini hisobga olmaganda, rejissor va aktyorlarga ishlash va ijod qilish uchun yetarli shart-sharoit yaratib berilgan.

Teatrlarning chinakam san'at asarlari yaratishi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, bu jamiyatda badiiy ijod uchun yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari sahna ijodkorlarining ahil-inoqlikda mehnat qilishi, truppada asl iste'dodlarning jamlanishi, san'at dargohining zamonaviy moddiy-texnik imkoniyatlar bilan ta'minlanganligi singari ko'plab omillarga bog'liqdir. Rejissor B.Yo'ldoshev ta'kilaganidek, "Teatrning asosi – uning muhiti. Aktyorlarning o'zaro munosabati, kuchli rejissura, rassom, pardoovchi, libos ustasi va boshqa sahna ishchilari uning muhitini tashkil etadi"[2]. Demak, teatrdan muhim bo'lmagan kasb-sohning o'zi yo'q. Barcha soha va tarmoqlar yaxlit halqani tashkil etadi. Halqadagi bir qismning risoladagidek ishlamasligi umumiy ijodiy ish mukammal chiqmasligiga, badiiy-estetik jihatdan sayoz asarlarning dunyoga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun san'at dargohining barcha xodimlari bir butun jamoa bo'lib faoliyat yuritishsa, ulkan ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlari mumkin.

Aslida bugun teatrlarda kechayotgan va ko'pchilikka sir bo'lmay qolgan o'zaro nizo va kelishmovchiliklarni yig'ishtirgan holda, teatrlarni Yangi O'zbekistonning innovatsion rivojlanish talablariga moslashtirish xususida o'ylash, bosh qotirish zarur. Keyingi yillarda paydo bo'lgan "Kabel TV", "DVD", "I-TV" va boshqa axborot-kommunikatsiya imkoniyatlari borgan sari teatr san'ati faoliyatiga ham kreativ yondashishni, ilg'or fikrlashni, jahonda kechayotgan badiiy-estetik jarayonlardan, ijodiy yangiliklardan xabardorlikni, retsiipiyyent bilan muloqot qilishning innovatsion usullarini izlashga undamoqda. Teatrlarimizdagi innovatsiya ko'proq ularning tashkiliy-uslubiy, tomoshalarni namoyish etish tarzi, sahnalarning zamonaviy yoritish vositalari bilan jihozlanishida ko'rinmoqda. To'g'ri, teatrlarda moddiy poydevor, texnikalar yangilanishi yangi spektakllar yaratish imkoniyatlarini oshiradi. Ammo texnika, avvalo ko'makchi vosita, inson boshqaruvidagi uskunadir. Teatrlarni xorijdan texnikalar sotib olib zamonaviylashtirish mumkin, lekin fikrlash texnologiyasi, ijodiy usul va uslublar yangilanmasa, har qanday yangi texnika teatr san'atini taraqqiy ettirishga qodir bo'lmaydi. Innovatsiya avvalo, badiiy-estetik ongda ro'y berishi, so'ngra shakllangan ilg'or fikr va yangi g'oyalar sahnaga ko'chirilishi kerak. Innovatsiyaga moyil iste'dodlarni izlab topish, ularning eksperimentlari o'tkazishiga sharoitlar yaratib berish darkor. Aksincha, barpo etilgan binolar, o'rnatilgan dekorativ uskunalar "xo'jako'rsin"ga, yaratilgan spektakllar "mendan ketguncha, egasiga yetguncha" qabilida bo'lib qolaveradi. Chunki "Haqiqiy san'at asarida hech qanday ortiqcha keraksiz qismlarning ichki garmoniyasini buzadigan

narsa bo'lmaydi, unda odamlar aytganday, hamma narsa o'z joyida, hamma narsa yaxshi bo'ladi, biror joyini olib yoki biror joyiga qo'shib bo'lmaydi" [3]. Teatrlarda ham ortiqcha unsur, keraksiz murvat bo'lmasligi, direktor ma'muriy ishlarini qilishi, mukammal tashkil etishi, dramaturg pyesa yozishi, rejissor sahnaviy talqinlarini o'ylashi, aktyor mukammal ijro xususida bosh qotirishi lozim. Afsuski, o'zbek teatrlaridagi tashkiliy jarayonlarni kuzatish ushbu dargohlarda barcha xodimlar lavozim yo'riqnomalarida belgilangan vazifalarni bajarayapti, hamma o'z ishini qilayapti, deyincha imkon bermaydi.

Jamiyatimizda qaror topgan fikr, ijod erkinligi bugungi kun o'zbek dramaturgiyasi ufqlarini yoritib yubordi, turli janrdagi asarlar yaratildi, deyincha hali erta. Iqtisodiy qiyinchiliklar, adiblarga to'lanadigan qalam haqlarining nihoyatda kamligi bois dramaturglar soni nihoyatda kamayib ketdi, bir qator yetakchi dramaturglar ijodida ham birmuncha turg'unlik, sustlashish sezildi. Chamasi o'tish davri tafakkuridagi transformatsiya jarayonlari ushbu san'at turida ijod qiladigan adiblarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Dramatik asarning dunyoga kelishi to'g'risida turlicha yondashuvlar, qarashlar mavjud. Adabiyotshunos olim Sh.Rizayevning fikricha, mukammal dramatik asarning dunyoga kelishi avvalo, ijodkordagi ijtimoiy dard salmog'iga bog'liq. "... Chunki badiiy asar ommalashtirilgan ekan, demak, undagi dard ham ko'pchilikning qalbida aksado bermog'i kerak bo'ladi. Ayni chog'da qayd etish joizki, dard namoyon bo'lishidan qat'i nazar, xususiy holatga taalluqli bo'lishi yoki ijtimoiy voqelik bilan bog'liq bo'lishi mumkin" [4]. Ijtimoiy dardni professional sahnaga olib chiqish o'sha paytda o'zbek teatri uchun innovatsiya edi. Professionallashuv bosqichi badiiy-estetik ijodni "ijtimoiy dard" tomon burdi.

Qayd etish joizki, jamiyatimizda kechayotgan shiddatli yangilanish jarayonlarini, odamlar ongida ustuvorlik kasb etayotgan pragmatik yondashuv va Uchinchi Renessans g'oyasini amalda qaror toptirayotgan zamondoshlarimiz obrazini yaratish bir tomondan, yangilanishga qarshi – korrupsiya, fohishabozlik, poraxorlik va giyohvandlik kabi illatlarni qo'llab-quvvatlayotgan salbiy kuchlar xususiyatlarini ochib berish ikkinchi tomondan, dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, bugun ayni oddiy inson yaqin suhbatdoshga, hammaslak do'stga ehtiyoj sezganidek, ijodkorlar ham hamfikr va hamnafas maslahatchiga, xolis tahlil qilib, baholaydigan, "tashqi ko'z" bilan qaray oladigan retsipiyent munaqqidga muhtoj. Teatrga ko'p retsipiyentlar kerak, ayniqsa, retsipiyent-munaqqid, retsipiyent-dramaturg, retsipiyent-jurnalist, retsipiyent-tadqiqotchi, retsipiyent-hamkasb, retsipiyent-investor, retsipiyent-innovator kerak. Teatr rivoji uchun shunchaki retsipiyentning bo'lishi yetarli emas, davrning ilg'or, masalan, Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston g'oyalarini teatrga joriy etish texnologiyalarini biladigan, uni innovatsion izlanishlarga unday oladigan, bu borada uni qo'llab quvvatlaydigan retsipiyent ijodkorlar kerak. Badiiy-estetik bilimli va didli retsipiyent teatrnii hayotga, innovatsiyaga yaqin qiladi. To'g'ri, teatr san'ati publitsistika emas, ammo u publitsistika ilgari suradigan g'oyalarni o'ziga tatbiq etishi mumkin. Uchinchi Renessans g'oyasini anglash, mohiyatini tushunish va uni

teatr sahnasiga olib chiqish uchun vaqt va eksperimental izlanishlar kerak. Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasi Prezidentimiz tomonidan 2016-yilda ilgari surilgan va u Harakatlar strategiyasida mujassamini topgan edi.

Har bir sohaning taraqqiyoti, rivoji unga kirib kelgan yangi avlodga, ularning ongi, tafakkuri va innovatsiyalarga moyilligiga, kekxa, tajribali mutaxassislar tomonidan "otaliqqa olinishi"ga bog'liqdir. Shuning uchun teatrlarda kechayotgan innovatsion izlanishlar yangi avlodning kelishiga bog'liq. Bugun teatrlarimizdagi asosiy ijrochilar yoshlardir. Ular teatrlarga Yangi O'zbekiston, retsipiyentlar qalbiga Uchinchi Renessans g'oyalarini olib kirishga tayyorgarlik ko'rmoqda. "Yoshlar teatrlarga davr nafasini, rejissura, aktyorlik san'atiga yangi talqinlar olib kirishi tabiiy hol. Bu jarayon yanada jadalroq kechishi, ya'ni teatrlarga yosh rejissyor, aktyor, rassom, baletmeysterlar kabi mutaxassislarni kengroq jalb qilish, ularning iste'dodidan samarali foydalanishni kuchaytirish zarurati tug'ilmoqda"[6].

Teatr ijodiy salohiyatini kuchaytirish yangi, innovatsion izlanishlarga yoshlarni jalb etishni taqozo qiladi. Aslida, teatr shunday maskanki, bu yerda doim barcha yoshdagi aktyorlar uchun rol, ijro etish uchun personaj topilishi mumkin. Obyektiv va odatdagi holatda teatr ijodkorlari umrining so'ngigacha muqim bir joyda faoliyat yuritishadi. Teatr shtatlar jadvalida o'rinlar cheklangan, mavjud iqtisodiy imkoniyatlar doirasida bo'ladi. Bu esa san'at olamiga kirib kelayotgan yosh ijodkorlarning teatrga joylashishida muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, O'zbek Milliy Akademik drama teatrida yillab shtatdan tashqari ishlagan, oxiri bu maskanni tark etgan aktyorlar yetarlicha uchraydi. Qolaversa, ba'zi yosh rejissor, aktyor, rassomlarning ish joyi, ijodiy maydon yo'qligi tufayli boshqa sohalarga o'tib ketishayotgani, ba'zilar esa xorij mamlakatlarida ijod qilayotgani sir emas. Shuning uchun teatrlarda avlodlar almashinuvi sekin va murakkab kechmoqda. Bu teatrlarimizda novatorona izlanishlarning kamligi boislardan biridir. Chunki ijodkor o'z ichki olami, tafakkuridagi badiiy-estetik mahsulotini retsipiyent (tomoshabin, shaxs)ga yetkazishga, ijro etib berishga ixtisoslashgan soha odami. Agar u o'z intilishlariga shakl, izlanishlariga talabgor topolmasa tushkunlikka tushishi, o'z sohasidan, hatto butun jamiyatdan begonalashishi mumkin[7]. Yillab navbatini kutish, vaqtni boy berish ijodiy his-tuyg'ularning eskirishiga, ohorini yo'qotishiga olib keladi.

Yangi O'zbekistonda "ijodini namuna qilib ko'rsatish, avloddan avlodga meros qilib qoldirish mumkin" bo'lgan san'atkorlarni yetishtirish borasida muayyan ishlar ham amalga oshirilmoqda. Masalan, 2020-yilda o'tkazilgan navbatdagi "Debyut" ko'rik-festivalida yosh iste'dodlarni saralab, katta, professional sahnaga olib chiqish nazarda tutilgan. Ushbu tadbirda yosh ijodkorlarning turli janr va yo'nalishlarda yaratilgan ishlari jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lgan. 2005-yildan beri o'tkazib kelinayotgan bu tadbir yosh san'atkorlar uchun mahorat va o'zini ko'rsatish, yoshlar o'rtasida yuksak ijtimoiy ma'anaviy va axloqiy qadriyatlarini targ'ib etish maydoni bo'lib keladi. 2005-yili bu Respublika ko'rik festivalida 10 teatr jamoasi qatnashgan bo'lsa, 2010-yilda 12 nafar, 2012-yilda 14 nafar, 2014-yilda 10 nafar dramaturg, 5 nafar rejissyor, 8 nafar

aktyor, 10 nafar teatr rassomi, 2018-yilda 17 nafar rejissor, 2020-yilda 15 teatr jamoasi qatnashdi. Ammo ana shu yosh dramaturg, yosh rejissor, yosh aktyorlarning keyingi ijodiy taqdiri qanday kechayapti, badiiy-estetik faoliyatida qanday to'siqlarga ro'para kelmoqda, degan savollarga mukammal javoblar mavjud emas. E'tiborli joyi shundaki, bunday ijodiy ko'rik festivallarning ijtimoiy-ma'naviy hayotimiz va yosh san'atkorlarning o'z missiyasini anglashi uchun o'ta zarurligini respodentlarimizning 80 foizdan ziyodi qo'llab- quvvatlaydi. F.Lorka aytganidek, "bizning ziddiyatlardan iborat kurrimizda san'atkor o'z xalqi bilan birga bo'lishi, birga yig'lab-kulishi lozim"[8]. Shunda sekin-asta butun jamiyat a'zolarining falsafiy-estetik tafakkurida o'sish, rivojlanish ko'zga tashlana boshlaydi. Bizning teatrlarimiz Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans g'oyalari muvofiq keladigan zamonaviy qahramonlar obrazini yaratish uchun astoydil harakat qilishi lozim. Ulardagi innovatsion izlanishlar ham ushbu g'oyalarga mushtarak bo'lishi kerak.

Shuni ham esda tutish zarurki, har qanday faoliyatda, shuningdek, san'atda ham, mutlaq yangi narsa yo'q, biz yangi deb tasavvur etgan narsa nimadandir, qayerdandir olingan, o'sib chiqqan bo'ladi. San'atda mutlaq yangi narsani, A.Efros aytganidek, "faqat orzu qilish mumkin"[8]. Yangi O'zbekiston mutlaq yangi spektakllarni, repertuarlarni mutlaq yangilashni, badiiy-estetik vositalarni mutlaq o'zgartirishni talab etayotgani yo'q, innovatsiyalar esa an'analarga ham tayanishi, azaliy mavzularga murojaat etib, ularni davr muammolari bilan omuxtalashi mumkin. Innovatsiya mudom shaxs retsipiyent munosabatida, uning doimiy, faol auditoriyaga aylanishida. Teatr innovatsiya kashf etish uchun izlanmaydi, balki u yangi shaxs retsipiyentlarni kashf etish uchun ijod qiladi. Sahnada yaratilgan qahramonlarning xatti-harakatlari, faoliyati, nutqi va da'vatlari auditoriyaga, ya'ni shaxs retsipiyent xulq-atvoriga, fikrlash va turmush tarziga ko'chishi kerak. Sahnada qahramoni hayot qahramoniga aylanishi zarur, aks holda rol, obraz bemanzil, bemaqsad, vaqtni behuda olgan shunchaki ermak, mashq bo'lib qoladi.

Bugun o'zbek teatrlarida Nazar Eshonqul ("Jaloliddin Manguberdi", "Urush odamlari"), Sharof Boshbekov ("Zo'rdan zo'r chiqsa..."), Usmon Azim ("Bir qadam yo'l", "Adibning umri", "Kunduzsiz kechalar", "Tong otgan taraflarda"), Erkin A'zam ("Kechikkan odam"), Hayitmat Rasul, Qilich Abdunabiyev ("Jayxun qo'shig'i"), Naim Karimov ("Guli va Navoiy"), Nurilla Abbosxon ("Jaydari kelin", "O'zbekcha raqs", "Bog'", "O'zgalar dardi")ning sahnalashtirilgan asarlarida zamonaviylik, davr va inson muammosi tilga olinadi. Mazkur asarlardagi obrazlar azaliy mavzu ezgulik va yovuzlik, fazilat va illat, yangilik va eskilik o'rtasidagi kolliziyalarni tomoshabinga taqdim etadi, jamiyatdagi hodisalarga faol munosabatda bo'lishga intiladilar. Ularning faol fuqarolik pozitsiyasi, ayniqsa, yon atrofimizda uchrayotgan bedillik, yulg'ichlik, korrupsiya, xiyonat, nafsga o'chlik kabilarga qarshi turishida, kurashida namoyon bo'ladi.

Globalashuv va integratsiya ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotdagi maqsadni, vazifalarni aniqlab olishga, ba'zi yo'nalishlarni esa qayta qurishga undamoqda. Globalashuv va integratsiya bizning real hayotimiz, taraqqiyotimizning

obyektiv zarurati. Bu jarayonni jiddiy o'rganishimiz, undagi ratsional, maqsadli jihatlarni olib, milliy ma'naviy taraqqiyotimizga qarshi tomonlardan o'zimizni asrashimiz, himoya qilishimiz kerak [10].

Prezidentimiz "O'zbekiston teatr san'ati xodimlariga" yo'llagan tabrigida teatr jamoalari oldidagi dolzarb vazifalarni ko'rsatib ta'kidlaydi: "Hozirgi kunda shiddatli zamon, hayotning o'zi barchamizning oldimizga o'ta muhim va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, el yurtimizni turli xavf xatarlardan asrash, unib o'sib kelayotgan yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga ehtirom ruhida barkamol insonlar etib tarbiyalash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borish dolzarb vazifaga aylanmoqda"[11]. Ha, bu vazifalar yosh, mustaqil davlatlar uchun nihoyatda dolzarbdur. Uni unutish milliy taraqqiyot uchun juda qimmatga tushadi. Shuning uchun ham doimiy, faol retsipiyentlarning deyarli barchasi teatr san'atini qo'llab quvvatlash uzluksiz davom etishi zarurligini bildiradilar, ular fikricha davlatimiz bunday imkoniyatlarga ega.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ham menejment va marketing izlanishlari olib borish amalga oshirilmoqda. Biroq, bizning fikrimizcha, shunday teatrlar borki, ularni xo'jalik hisobiga o'tkazish, kommersiya markazlariga aylantirish murakkab, hatto noo'rin ishdir. Shunday ekan bu borada jiddiy izlanishlar, ilmiy eksperimentlar o'tkazib ko'rish zarur. Retseptiyent, aholi teatr madaniy xizmatlarini, ularning bozor iqtisodiyoti va kommersiya talablariga muvofiq ishlashi uchun, zarur mablag'lar bilan ta'minlay oladimi? degan savolga javob izlash darkor. Bundan tashqari, viloyatlardagi ko'pgina teatrlarni kommersiya markazlariga aylantirish uchun kommersiya talablarini qabul qiladigan lokal madaniy muhitni shakllantirish ham darkor. Kommersiya talablariga javob bera oladigan madaniy muhit, auditoriya, retseptiyent mavjud bo'lsagina teatrlarni kommersializatsiyalash mumkin. Shunda ham ular o'zining ijtimoiy-ma'naviy an'analari va funksiyalaridan voz kechmasligi, savdo-sotiq o'choqlariga aylantirilmaligi kerak.

Ijodiy erkinlik va innovatsion izlanish bayrog'i ostida shaxs retseptiyent qalbiga, ijtimoiy ma'naviy shakllanishiga deyarli hech nima qo'shmaydigan asarlar ham uchraydi. Bunaqa holatlar avval ham bo'lgan, afsuski, keyin ham bo'ladi. Lekin bunday tajribalardan faqat kamchilik, qusur qidirmaslik kerak, chunki hech bir ijodkor, hatto daho san'atkor ham birdaniga yuksak cho'qqigacha chiqqan emas, u muvaffaqiyatsizlik, kamchilik va xatolar zinapoyalarini bosib o'tishga majbur bo'lgan. Badiiy-estetik ijod turli eksperiment, iqtidor sinovlaridan o'tishi, goho bu yo'lda xatolar qilishi tabiiy holdir. Eng muhimi ijodkorning o'zining ijtimoiy ma'naviy idealini, jamiyatga oliyjanoblik, gumanistik g'oyalarni singdirishdan iborat missiya ustiga yuklatilganini unutmasligida. Bu missiya san'atkor uchun mudom dolzarbdur.

Bugun Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans paydevorini qurish jamiyatimizni birlashtiruvchi, kishilarimizni kelajak sari undovchi, innovatsion rivojlanish uchun kreativ izlanishlarga chorlovchi milliy g'oyaga aylanmoqda. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" shiori Uchinchi Renessans g'oyasi bilan

boyidi, yangi ijtimoiy mohiyat kasb etmoqda. “Haraktlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asoslanib, Milliy rivojlanishning yangi bosqichi sari qadam qo‘yyayotgan bir davrda teatr san‘ati ushbu g‘oyaviy o‘zgarishlarni, yangilanishlarni hali to‘liq anglab ulgurgani yo‘q. Ammo bu borada innovatsion izlanishlar, davrning o‘ziga xos jihatlarni, ziddiyatlarini ochib berishga intilishlar mavjud. Bu eng avvalo teatrlarimizning yangilik bilan eskilik, yaxshilik bilan yovuzlik, muhabbat bilan nafrat, ma‘rifat bilan jaholat o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni, inson va zamonamiz kishisi taqdirini ana shu antinomik voqealiklar orqali ochib berishga intilayotganida ko‘zga tashlanadi. Shu tariqa Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurish g‘oyalari insoniyat taraqqiyotiga taalluqli azaliy mavzular fonida keladi. Teatrlarimiz oldidagi endigi vazifa Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurish g‘oyalari badiiy-estetik izlanishlarining mag‘ziga, kvintessensiyasiga aylantirishdadir.

Teatrlarimizdagi innovatsion izlanishlar hozirlikcha tashqi belgilarga, ya‘ni texnika vositalarini yangilash, sahnani bezatishda golografiya va ssenografiya vositalaridan foydalanish kabilarda aks etmoqda. Endi innovatsion izlanishlar sahna bilan auditoriya, teatr bilan retsipiyent o‘rtasidagi aloqalarni yangilashga, ushbu hamkorlikni ijtimoiy ma‘naviy taraqqiyot talablariga muvofiq tashkil etishga qaratilishi lozim. Retseptiyentni teatrga chorlash, auditoriya to‘plash yetarli emas, teatrga badiiy-estetik ongli, didli, innatsion fikrlaydigan retseptiyent kerak. Aynan shunday shaxs retseptiyent teatr jamoasini jonlantiradi, uni o‘z ustida ishlashga, repertuarini yangilab turishga undaydi. Retseptiyent munaqqid, retseptiyent dramaturg, retseptiyent novator, retseptiyent investorni tarbiyalash, shakllantirish nafaqat teatr, shuningdek, jamiyatimiz zimmasidagi vazifadir. Bugungi ijtimoiy ma‘naviy taraqqiyot teatr bilan

retseptiyent o‘rtasidagi hamkorlik va ijodiy dialog doirasini kengaytirishni talab qilayapti. Subyekt obyekt, ya‘ni teatr va retseptiyent o‘rtasidagi ijodiy dialog professionalizmga qurilishi darkor. Professional san‘atkor retseptiyent ortida emas, uning oldida yurishi bilan ajralib turadi. Hatto retseptiyent asarning bosh hakami bo‘lganida ham professional san‘atkor o‘z e‘tiqodini, san‘ati va uslubini himoya qila olishi kerak.

Ijtimoiy ma‘naviy fazilatlar shaxs retseptiyentning jamiyatdagi ustuvor ijtimoiy axloqiy qadriyatlarga, ma‘naviy imperativlarga, sotsium hayotidagi o‘zgarishlarga, etnomadaniy va etnoestetik boyliklarga, hayotni e‘zozlash va sevishtga qaratilgan munosabatlarida mujassamini topadi. Bu munosabatlar faqat teatr san‘ati orqali shakllanmaydi, ular ijtimoiy borliqdagi barcha subyektlar va obyektlar ta‘siri natijalaridir.

Teatr san‘ati kishilarning bo‘sh vaqtda kechadigan badiiy-estetik qiziqishlarini, ularning hordiq olish, turmush tashvishlaridan vaqtincha holi bo‘lish, faoliyatini va kechinmalarini rang-baranglashtirish istaklarini hisobga oladi. Shaxs ijtimoiy ma‘naviy shakllanishini faqat teatr san‘ati ustiga yuklash noo‘rin yondashuv. Teatr san‘ati ijtimoiy borliqdagi bir institut, janr, badiiy-estetik ijod, madaniy faoliyat turi. U o‘zining ushbu funksiyasidan kelib chiqib retseptiyentning ijtimoiy ma‘naviy shakllanishiga ta‘sir etadi. Shu jabhada u ma‘lum ma‘noda javobgardir.

Retseptiyent shaxsning individual xislatlarini hisobga olish ijtimoiy ma‘naviy tarbiya uchun muhimdir, biroq bu individual xislatlarni hisobga olish, ochig‘ini aytganda, teatr san‘ati uchun yechib bo‘lmas, o‘ta qiyin muammo. Teatr tayyor auditoriya, retseptiyentlarga murojaat etadi, uning ommaviylashish xususiyati ko‘p ham individuallikni hisobga olavermaydi. Ammo bu muammoni san‘atkorga individual xislatlar bilan ishlash texnikasini singdirish orqali yechish mumkin. Bu borada jahon teatrlari tajribalariga, eksperimentlariga murojaat etish o‘rinlidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot, san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi, 04.08.2017.
2. Abdumajid H. Olis yulduzlar shu‘lasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. 2-kitob. – B.41.
3. Astaxov I.B. Go‘zallik haqida suhbat. – Toshkent: 1963. – B. 3
4. Rizayev Sh. Iztirob san‘ati: adabiyot, teatr, kino, musiqa... – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.124 –125.
5. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g‘oyasi. – Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 35.
6. Sayfullayev N. Yangi davr O‘zbekiston teatri: Rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – B. 214.
7. Mahmud J.Shoir teatr haqida. //Jahon adabiyoti. –Toshkent: 2016. – №6. – B.136.
8. Tovtonogov G. Sahn ko‘zgusi. //Jahon adabiyoti. – Toshkent: 2017. – №5. –B.183.
9. Эфрос А. Профессия режиссёр. – Москва: Искусство, 1979. – С. 190.
10. Otamuratov S. Globallashuv va milliy ma‘naviy taraqqiyot. – Toshkent: 2017. – B.33.
11. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston teatr san‘ati xodimlariga.//Xalq so‘zi, 28.03.2021.

MIXAEL HANEKE REJISSURASIDA REALISTIK AN‘ANALAR TALQINI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mixael Hanekening “Yettinchi qit’a”, “Bennining videotasmalari” va “Sevgi” filmlari rejissurasida realistik an‘analar talqini kinoshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: rejissura, kino, realizm, senariy, janr, televideniye, teatr, psixologiya, klassika

Мохинур АХМЕТЖАНОВА,
Докторант Института искусствознания Академии наук Республики Узбекистан

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РЕАЛИСТИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ В РЕЖИССУРЕ МИХАЭЛЯ ХАНЕКЕ

Аннотация: В статье анализируется интерпретация реалистических традиций с точки зрения кинематографии на примере фильмов Михаэля Ханеке «Седьмой континент», «Видео Бенни» и «Любовь».

Ключевые слова: режиссура, кино, реализм, сценарий, жанр, телевидение, театр, психология, классика.

Mohinur AKHMETZHANOVA,
Doctoral student at the Institute of Art History Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

INTERPRETATION OF REALISTIC TRADITIONS IN THE DIRECTION OF MICHAEL HANEKE

Resume: The article analyzes the interpretation of realistic traditions from the point of view of cinematography in the direction of Michael Haneke's films "The Seventh Continent", "Benny's Video" and "Love".

Key words: direction, cinema, realism, script, genre, television, theater, psychology, classics.



Kino, teatr va televideniye san’atida samarali faoliyat olib borayotgan avstriyalik kinorejissor va ssenariynavis Mixael Haneke kinematografiyada realistik an‘analarni keng miqyosda qo‘llab kelayotgan rejissorlardan sanaladi. Haneke ushbu faoliyatlardan tashqari, Vena kinoakademiyasida talabalarga rejissuradan ta’lim beradi. Hanekening bugungi darajaga yetib kelishida uning rejissor va aktyor Frits Haneke va aktrisa Beatrisa fon Degenshild oilasida dunyoga kelgani katta rol o‘ynagan. Haneke musiqa va aktyorlik san’atida o‘zi istagan muvaffaqiyatga erisholmagach, kino san’atiga yuz buradi.

Ko‘pincha Hanekeni filmlari nihoyatda pessimistik ruhda suratga olingani ta’kidlanib, bu uslubga nisbatan e’tirozli fikrlar ham aytilishi tabiiy hol. Bunga javoban esa Haneke filmlarini tomosha qilishga hech kim majbur emasligini aytadi. Ya’ni u o‘z g‘alalar fikri uchun rejissurada o‘z yo‘nalishini o‘zgartirishni istamaydi. Haneke tomoshabin didi va film kassabopligi bilan hisoblashmaydigan oz sonli kinorejissorlar qatoriga kiradi. Uning filmlari kassaboplik jihatidan yuqori o‘rinlarni egallamasada, ko‘plab kino mutaxassislarining e’tirofiga sazovor bo‘lib, yuksak mukofotlarni qo‘lga kiritgan.

Haneke rejissor sifatida o‘zi ko‘rib turgan real voqeliklargagina ishonadi. Uning nazdida g‘oyibdan keluvchi mo‘jizalar, ilohiy belgilar mavjud emas. Shu sababdan u o‘z filmlarida real voqelikni olib chiqishga va imkon qadar reallikdan uzoqlashmaslikka urinadi. Uning filmlarida mo‘jizaviy hodisa, baxtli tasodif kabilarni uchratmaysiz. “Janrli filmlar ta’rifi bo‘yicha yolg‘ondir. Film badiiylikka intiladi, shuning uchun haqiqat bilan



kurashishga harakat qilish kerak. Buni yolg‘on bilan amalga oshirish mumkin emas” [1].

Hanekening ilk to‘liq metrajli filmi “Yettinchi qit’a” (1989) Lokarno festivalida mukofotlanadi. “Yettinchi qit’a” debyut ish uchun juda muvaffaqiyatli tarzda suratga olingan edi. Tomoshabinlar va mutaxassislar filmni iliq kutib oladilar. Shundan so‘ng uning “European Film Awards”da “Eng yaxshi film” deb topilgan “Bennining videotasmalari” (1992) filmi dunyoga keldi.

“Bennining videotasmalari” filmi suratga olingan davrda virtual olam endigina odamlarni o‘ziga bog‘layotgan edi. Haneke kelajakdagi vaziyat bundanda og‘ir bo‘lishini anglagan holda, ushbu filmida real hayotdan uzilib, virtualikka singib ketishning qanday oqibatlariga olib kelishini ochib beradi. Ota-onasi kun bo‘yi ish bilan band bo‘lgan Benni video apparatga juda qattiq bog‘lanib qoladi. Avvaliga mavzu, g‘oya, shakl jihatdan turli-tuman, bora-bora shafqatsiz lavhalarni suratga ola boshlaydi. Ota-onaning faqat ish, jamiyatdagi yuqori marralarni

egallashdan boshqa hech narsani ko'zlamasliklari oxir-oqibat qarovsiz qolgan Bennini qotilga aylanishiga olib keladi.

Ushbu film orqali Haneke insonlarni borliqda, aynan o'z hayotida yashashga chaqiradi. Har bir kun ortga qaytmas bo'lib ketadi va inson har bir lahzani his etib yashashi lozim. Hanekening o'zi bugungi kunda ham virtual olam uchun katta vaqt ajratmaydi. Uni ijtimoiy tarmoqlarda uchratishning deyarli iloji yo'q. Uning fikricha, o'z hayotining egasi bo'lgan va butkul undan qoniqadigan, maqsadga ega inson virtuallikka mukkasidan ketmaydi, hayotdagi jonli lahzalarini undan qizg'onadi va to'laqonli yashashga urinadi. Vaqt o'tib biz Benni kabi bolalar soni kundan kunga oshib borayotganining guvohi bo'lyapmiz. O'z o'rnida Haneke bu jarayonni to'xtatib bo'lmashligini ham juda yaxshi anglagan edi.

Haneke nomini ko'pchilikka tanitgan "Sevgi" filmi ko'plab ijodkorlar tomonidan e'tiroflarga sazovor bo'lgani bejiz emas. Ushbu asari orqali Haneke "Oskar" mukofotini qo'lga kiritdi. Filmda tasvirlanishicha, umrining katta qismini birgalikda o'tkazgan juftlik hayot shomi yaqinlashayotganini his etadilar. "Balki bu eng qo'rqinchli mavzulardan biridir. Inson psixikasida o'lim haq ekanligi haqidagi haqiqatni anglab turadigan mexanizm mavjud, lekin dunyoga o'ta real munosabatdagi odam ham bu yorug' olamdan bir zumda o'chib ketishi mumkinligi haqidagi haqiqatni qabul qilishi qiyin. Bu mavzuga Hanekedek oq qo'lqop, sovuq yurak bilan yondashishning iloji yo'q" [2]. Bir so'z bilan aytganda, hayotning shafqatsiz va yagona haqiqati bo'lmish o'lim juftlikning umriga soya sola boshlaydi. Qariyalarda yoshlikdagi baxtiyor lahzalar xotirasidan boshqa hech narsa yo'q hisobi. Qarilik, kasalliklar borgan sari ularni iskanjaga oladi. Bir umr bir-birini ardoqlab yashagan insonlarning o'limidan so'ng bo'm-bo'sh xona tasviri kishi qalbini larzaga keltiradi va oyga toldiradi. Qachonlardir mana shu bo'sh va zimziyo xonada baxtning nafasi ufurib turgan, ikki sevishgan qalbdan tashkil topgan oilaning yaxshi-yomon kuni shu yerda o'tgan. Beixtiyor tomoshabinda savol tug'iladi: sevgi g'olib bo'ldimi, yoki o'lim? Bu film orqali har bir inson umri davomida uch narsani: sevgi, kasallik va o'limni boshidan kechirishni anglasa ajab emas.

Hanekening o'zi uchun sevimli filmlari royxatiga nazar solsak, ularning aksariyati zulmatni eslatuvchi, tushkunlikka to'la xislat og'ushida suratga olinganining guvohi bo'lamiz. Aytish mumkinki, avval boshdan Hanekeni ushbu uslubdagi filmlar qiziqtirgan. Haneke filmlari tomoshabinni oylashga va tashvishga solishga majbur qiladi. Haneke fikricha, agar tomoshabin film yakuniga yetgach uni unutib yuborsa, demak u san'at asari emas, deb hisoblaydi. Haneke filmlarida tomoshabin operator mahorati va musiqiy bezakni unutib qoyadi. Rejissorning maqsadi ham aslida shu. "Uning filmlarida ekstravagant uslubdagi dekoratsiyalardan

foydalanilmaydi"[3]. Bilamizki, ko'plab rejissorlar aynan operator tasvirga olgan professional kadrlar va tanlangan klassik musiqalar ortiga yashirinishga urinishadi. Haneke esa butun e'tiborni voqelikka qaratishga va tomoshabin aynan uning qatnashchisi bo'lib, filmlari ichida yashashga erishishni istaydi.

Haneke kino san'atini har tomonlama izchil tahlil etishiga yana bir sabab sifatida universitetni tamomlagach, bir muddat kino tanqidchisi sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatish o'rinli. Televideniya faoliyat yuritgan davrlarida katta ekran va televideniye uchun mo'ljallangan kino asarlarning bir-biridan farqini juda yaxshi tushunib oldi. Kino, teatr va televideniya faoliyati uni ushbu uch san'at turi orasidagi tafovutlarni yaxshi tushunib olishiga va ularning chegaralarini aniqlab olishiga yordam berdi.

Dastlab televideniye uchun yaratgan postanovkalari katta kino uchun ulkan tajriba maktabi vazifasini o'tadi. "Qaltis oyinlar" filmi Hanekeni "shokka tushiruvchi" deya e'tirof etilishiga sabab bo'ldi. Film namoyishidan so'ng matbuotdagi bahs-munozaralar uzoq muddat davom etdi.

Haneke ijodiga mansub filmlar juda ko'p tanqid va muhokamalarga sabab bo'lganligi bilan ajaralib turadi. Goh televideniye, goh jurnallar sahifalarida uning filmlarida pessimistik ruhning ustivorligi, zo'ravonlik, insonga nisbatan tashqi muhitning shafqatsizligi tomoshabinning psixologik holatiga salbiy ta'sir etishi haqida keskin fikrlar bildirib turiladi. Haneke bunga javoban: "Zo'ravonlik va tajovuz aks etgan filmlarda romantika bo'lmaydi", – deya javob beradi.

Haneke filmlarining nomlanishi xuddi tomoshabinni "kalaka qilayotgandek" tanlangani haqida ham fikrlar bildirilgan. Uning filmlari nomlanishiga qarab asar mazmunini anglab bo'lmaydi. Hanekening o'z rejissurasi haqidagi fikrlarini quyidagi mulohazalaridan anglash mumkin: "Men hech qachon ijtimoiy muammolarni ochish uchun filmlar suratga olmayman. Ular meni unchalik bezovta qilmaydi. Meni yaqinlarim, men sevgan insonlar va atrofdagilarning azoblari ko'proq qiziqtiradi. Men hech qachon hech qanday taassurot ostida filmlar suratga olmayman. Rejissor hech qanday xato qilmaslik uchun xotirjam, o'zini tutib, sovuqqina bo'lishi va o'z personajlarini ma'lum masofadan kuzatishi kerak" [4].

Haneke Amerika uslubidagi filmlarga tanqidiy nazar bilan qaraydi va ularni reallikdan yiroq bo'lgan qoliplarga tushib qolgan, deb hisoblaydi [5]. U kinorejissorlar ichida eronlik Abbos Kiarostami ijodiga yuqori baho beradi. Kiarostami rejissurasidagi oddiylik ortiga yashiringan chuqur ma'no doim uning e'tiborini tortadi. Haneke psixologiya yo'nalishida tahsil olgani sababli filmlaridagi qahramonlari psixologik jihatdan puxta ishlangan. Uning qahramonlari o'z xarakter xususiyatidan kelib chiqib bitta voqea chizig'ida, bir maqsadga qarab harakat qiladi. Ularning har bir harakatlari va qilmishlari fe'l-atvorlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun uning filmlarida hech qachon izchillik yo'qolmaydi, ularni hayotiylik tark etmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кораблев А. Михаэл Ханек: фильм как катарсис. //Metacritic. – Москва: 2010. -№3. – С.23.
2. Неллепо Б. Канн-2012: Любовь как случайная смерть. // Сеанс.–Москва: 2012. -№20. – С.5
3. Alexander D. Ornella /Stefanie Knauss (ed.): Fascinatingly Disturbing. Interdisciplinary Perspectives on Michael Haneke's Cinema. Eugene, Pickwick, 2013. -№12. – P.186
4. Розенштайн Т. Дети наказывают нас за то, чему мы их учили. //Огонёк. – Москва: 2012. -№21. – С. 36
5. Michael Haneke. Special Issue of Modern Austrian Literature. 2010. -№43. – P.2.

QORAQALPOG'ISTONDA EKTRAN SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXINI O'RGANISHNING DOLZARB JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog'istonda ekran san'atining shakllanishi va omma e'tiboriga havola etish jarayonlarining tarixi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Qoraqalpoq madaniyati va san'atida alohida o'rin egallangan ekran san'atini ilmiy tadqiq etish, ekran san'atning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini o'rganishning dolzarb jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, qoraqalpoq ekran san'atining tarixiy taraqqiyot jarayonlarini chuqur o'rganish ishlarini rivojlantirish bo'yicha yosh tadqiqotchi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning natijasiga binoan sohani rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ekran san'ati, televideniye, kino, san'at, texnika, taraqqiyot, ijodiy, texnik, vosita.

Манас АБДРЕЙМОВ,

Нукусский филиал ГИИКУз преподаватель кафедры «Техногенно-драматическое искусство»

АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ЭКРАННОГО ИСКУССТВА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Аннотация. В статье представлена информация об истории становления публичного искусства и связей с общественностью в Каракалпакстане. Анализируются научные исследования экранного искусства, занимающего особое место в каракалпакской культуре и искусстве, и изучение роли экранного искусства в развитии общества. Также даются предложения и рекомендации по развитию направления по результатам научных исследований, проведенных молодым исследователем по развитию углубленного изучения исторического развития каракалпакского экранного искусства.

Ключевые слова: экранное искусство, телевидение, кино, искусство, технология, развитие, творчество, технология, медиа.

Manas ABDREYMOV,

Nukus branch of the UzSIAC teacher of the chair of "Technogenic and dramatic art"

CURRENT ASPECTS OF THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF SCREEN ART IN KARAKALPAKSTAN

Annotation. The article provides information on the history of the formation of public art and public relations in Karakalpakstan. Scientific research of screen art, which has a special place in Karakalpak culture and art, and the study of the role of screen art in the development of society are analyzed. There are also suggestions and recommendations for the development of the field, based on the results of scientific research conducted by a young researcher on the development of in-depth study of the historical development of Karakalpak screen art.

Keywords: screen art, television, film, art, technology, development, creativity, technology, media.



Ma'lumki, "kino" – ekran san'ati sifatida insonning dunyoqarashini tarbiyalashda, fikrlash doirasini kengaytirishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kino san'atiga ta'rif berar ekan: "Dunyo miqosida turli g'oya va mafkuralar kurashi, odamlar, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun turli kuchlar o'rtasida raqobat keskin tus olgan bugungi kunda eng ommaviy san'at bo'lgan kinoning beqiyos imkoniyatlaridan samarali foydalanishimiz kerak", – deb ta'kidlagan edi [1]. "Ekran" so'zi, yuzasiga uzatiladigan tele, kino yoki fotografik tasviri tushadigan tekislik, kino sanoatda ishlatiladigan shirma, film tasviri tushurish uchun moslangan matogina bo'lib qolmadi. Balki keng ma'noda kino san'ati va televideniye anglatuvchi tushuncha hisoblanadi.

Televideniye san'ati – harakatlanayotgan tasvir va tovushni masofadan uzatishga asoslangan san'at turidir.

Axborot tarqatish vositalaridan biri. Kino san'ati – kinematografiyaning texnik vositalari asosida shakllangan badiiy ijod turi, ekran san'atining muhim tarkibiy qismidir[2:166]. Yanada teran mushohada qiladigan bo'l-sak, u davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan sohadir. Hayot bilan ijtimoiy borliqni bashariyatga ekran tasmlari orqali yoritib beradigan ma'naviy kashfiyot desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Inson ongiga ma'lum g'oyani singdirishda kino san'atining o'rni va imkoniyatlari beqiyosdir. Kino san'atining o'ziga xos qonun-qoidalari asosida yaratilgan ekran asari namoyishi davomida tomoshabin kinoqahramon yashab turgan makonda birga nafas oladi. Qahramon bilan dardlashadi, sirlashadi. San'atning yangi turi – ekran san'atini, ya'ni kinoning vujudga kelishi va rivojlanishi fan, texnika taraqqiyoti hamda ungacha bo'lgan san'at turlarini erishgan yutuqlari bilan bog'liqdir. Kinoning paydo

bo'lishiga bir qator kashfiyotlar ham sabab bo'lgan[3:6]. Qoraqalpoq xalqi ham boshqa xalqlar singari ekran san'atini o'zgacha ishtiyoq va qiziqish bilan qarshi olgan. Bu jarayonda esa Qoraqalpog'istonda televideniyaning shakllanishi alohida o'rin egallagan.

1960-yil 29-yanvarda qabul qilingan qaror asosida mamlakatda televideniyaning yanada taraqqiy ettirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, teleko'rsatuvlarning g'oyaviy-badiiy darajasini davr mafkurasiga moslashtirib, aholiga yangiliklarni vaqtida yetkazib berish chora-tadbirlarini belgilab qo'yildi. Mazkur qarorda "xalqning talabini yanada qanoatlantirish va mahalliy millat hamda rus tillarida dasturlar tashkil etish maqsadida yaqin yillar ichida ittifoqlik va avtanom respublikalarda televideniyaning ikkinchi dasturini tuzish ta'minlansin[4:89]", – deya ko'rsatilgan edi. 1960-yillarning boshlarida Moskva, Toshkent ko'rsatuvlari hali Qoraqalpog'istonga yetib kelmas edi. O'sha davrlarda ko'pchilik odamlarning televideniye haqida tushunchasi bo'lmagan. Faqat ba'zi bir odamlar bundan xabardor edi.

Nukus televideniye markazining birinchi bosqichini foydalanishga topshirilishini tezlatirish uchun o'sha yillarda M.Gorkiy ko'chasining oxirida Qizketgan kanaliga yaqin joylashgan Nukus gidrotexnikumining o'quv binosi bilan yuz o'rinlik oshxonada joylarini apparat studiya majmuyi uchun moslashtirish, o'zgaratgichlarni o'rnatish va tez orada televideniye faoliyatini yo'lga qo'yish nazarda tutildi.

1964-yilning yoz fasli boshlarida bir qator zarur imoratlar qurilishi tugatilib tele uskuna va apparaturalarni kommunikatsiya ishlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratildi. Leningrad, Toshkent, Urganch shaharlaridan mutaxassis-kommutatorlar keldi. Leningrad, Krasnoyarsk, Novosibirskiyning radio apparaturalarini ishlab chiqaruvchilar uzoqdagi Qoraqalpog'istonning televideniye studiyasi uchun zarur asbob-uskunalar, radio detallarni jo'natishdi. Andijon telemarkazining katta elektro mexanigi M.Shaffer, Urganch telemarkazining bosh injeneri G. Kosminin va boshqa injener-texniklar yoz faslining boshidan boshlab Nukus shahriga doimiy ish safari bilan kelib, teleapparaturalarni o'rnatishga kirishdilar. Qurilish ishlari Qoraqalpog'iston ekran san'ati rivojining tarixiy taraqqiyot jarayonlari va rivojlanish bosqichlari edi.

O'sha yillari mahalliy kadrlardan aloqachi-injener va texnik xodimlar M.Semennikov, M.Qosnazarov, N.Shubenko va S.O'temuratovlar edi. Ularning soni kam bo'lgani bilan, amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar nihoyatda serob edi. Shunga qaramasdan ish samaradorligini oshirish maqsadida ular ikki guruhga bo'linib, ish olib bordilar. Birinchi guruh, studiya apparatlarini majmuyiga tegishli asbob-uskunalar o'rnatish, ikkinchi guruh "Langarsimon" uzatgichni balandligi 30 metrlik vaqtincha antenna jihozlarini o'rnatishdi.

Undan so'ng ekranda qoraqalpoq va rus tillarida "Televizion yangiliklar" efir yuzini ko'rdi. Eng birinchi tele yangiliklarning vaqti nihoyatda qisqa bo'lgan. Masalan, qoraqalpoq tilidagi yangiliklar to'rt daqiqa, rus tilidagisi besh daqiqa bo'lib, ularda qisqa xabar xarakteridagi manbalar berildi. Qisqa reportaj jarayonlarida keng paxta dalalari uzoqdan paxta terish mashinalari bilan terimchilar ko'rinadi. Keyingi kadrlarda esa katta planlarda

olingan fotosuratlar aks etadi. Ko'rsatuvlarda o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy voqealıklariga ko'proq urg'u berilgan. Shuningdek, Orol baliqchilarining maqtovg'a loyiq reportaji dengiz ko'rinishidan boshlanadi. Ekranda mavj urgan, jozibador dengiz, osov to'lqinlar orasida baliq ovlayotgan motofelyugadagi baliqchilar uzoqdan ko'zga tashlanadi. So'ngra mazkur tasvirlar yanada ta'sirchan boshqa tasvirga aylanadi. Yirik planda olingan kadrda baliqchilar baliq ov tuzoqlarini tortib, o'ljaga tushgan "tirik marjonlar"ni teryapti. Baliqchilarning kayfiyati chog'. Kadr ortidagi suxandonning nutqida Sadiq Dawjanov, Sidor Gonsharov, Amanbay Xojamuratovlarning tumanlar aro birinchilardan bo'lib yillik rejani bajargani haqida batafsil ma'lumot beriladi. Dastlabki rus va qoraqalpoq tilidagi "Televizion yangilik"larning tekstini oldingi radio jurnalistlar G'.Seytnazarov, V.Kopilov va boshqa muharrir yozgan. Nukus televideniye studiyasi ilk ko'rsatuvlarini havola etib boshlaganida ishchi xodimlar uchun ajratilgan shtat birligi g'oyatda kam bo'lgan. Texnik xodimlarni hisobga olmaganda bir katta muharrir va ikki oddiy muharrir, bir rejissor, bir rejissor assistenti va bir rejissor yordamchisi, bir teleoperator, bir ovoz rejissori jami sakkizta ijodiy xodimdan iborat bo'lgan. Biz mazkur tadqiqot ishimizda mazkur shtat birliklarida kimlar ishlaganini, qanday vazifani bajargani va ish faoliyatini tahlil qilishga harakat qilganimizda ular haqida ma'lumotlarning saqlanib qolinmaganligiga guvoh bo'ldik. Qoraqalpoq ekran san'atining rivojlanish tarixini o'rganishning yana bir dolzarb jihati, sohada samarali faoliyat olib borgan xodimlarning shajarasini yaratish va ularning ishlarini tahlil qilishdir.

Turganbay Madreymovning "Televideniye – oshkoralik quroli" nomli asarida Nukus telestudiyasining ko'rsatuv efigra uzatilgan vaqtlaridagi qiyinchiliklar qayd etilgan. Qoraqalpoq televideniyesining birinchi rejissori, O'zbekiston SSR va Qoraqalpog'iston ASSR xalq artisti Quwatbay Abdreymov: "Ko'rsatuvni efigra uzata boshlagan 1964 –1965-yillari texnik va ijodiy xodimlar uchun juda qiyin kechgani ishga qatnash va ko'rsatuv studiyasining torligi edi. O'shanda hozirgidek asfaltlar yo'q. Radio komitetdan chiqqandan so'ng To'rtko'l yo'l bilan kichik tumandan burilib, loy yo'llar bilan telestudiyaga zo'rg'a changga belanib borar edik. Ertalab borgandan tushlik mahali o'sha yerda ovqatlanib, kechagi ko'rsatuv yakunlanganidan keyingina hammamiz birga qaytardik. Ikkinchi, qiyinchiligimiz esa peredatchik, ASK, ovoz va ko'rsatuv rejissorining pulti hammasi bir joyda bor yo'g'i 35–40 kv.m. xonada bo'lib, ustiga-ustak suxandon ham o'tiradi. Chaqirilgan mehmonlar o'sha yerda gapiradi. Konsert ham beriladi. Apparaturalar lampali bo'lganligi bois kuchli qiziydi. Shuncha ishlovchi odamlarning nafasi bilan qorishib yoz kunlari, ba'zi paytlari 55-60 gradusga etardi. Bir marotaba kelib, gapirib ketgan odam ikkinchi marotaba qaytib kelishga bezor bo'lardi. Yana bir qiyinshiligimiz lavhalarni ekranga uzatadigan pulklarimiz qo'lbola yasalgan. Ularda faqat to'rtta tugma o'rnatilgan bo'lardi. Tugmalarni bosish bilan qars etib, bir kadrda ikkinchi kadrda birdaniga o'tamiz. Miksher degan nomi bilan yo'q. U keyinroq kelgan zavodda yasalgan pulklarda bor ekan. Miksher bilan birinchi kadrda ikkinchi kadrda asta-sekin o'tish mumkin bo'ldi. Shunday qiyinchiliklar bo'lsa hamki xalqimiz uchun kerakli ish qilayotganimizni

sezish bizlarga kuch-quvvat berardi. Og'ir vaziyatlarga qaramay ko'rsatuvlarning barchasi vaqtida, uzluksiz efirga berilardi", – deya ta'kidlab o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi kinematografiya bo'yicha davlat qo'mitasining 1970-yili 19-fevraldagi buyrug'i asosida Nukus shahrida O'zbekiston ilmiy-ommobop va hujjatli filmlar kinostudiyasining Qoraqalpog'iston filiali tashkil etildi. Studiya 1970-yilning 1-apreldan o'z ish faoliyatini boshladi[7:6]. Dastlabki yillari kinostudiyada yiliga ikki filmni qoraqalpoq tiliga tarjima qilish, "Qoraqalpog'iston" kinojurnalining 4 sonini va 2 hujjatli filmni suratga olish rejalashtirildi. Ushbu maqsadda 15 odamdan iborat shtat jadvali tasdiqlandi. Kinostudiya direktori lavozimiga taniqli yozuvchi Jolmirza Aymurzayev tayinlandi. 1970-yil kinostudiya uchun dastlabki katta qadam bo'ldi. Chunonchi, studiya jamoati o'zining yoshligiga qaramasdan belgilangan rejaning barcha ko'rsatkichlarini muvaffaqiyatli bajara oldi. Aynan o'sha yilning o'zida Respublika kinoteatrlariga qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan "Ona muhabbati" ("Материнская любовь", 2-seriya), "Sudlanmasin" ("Неподсуден"), "Ayolimning nomusi" ("Честь моей жен"), "O'smirlar" ("Подростки", 2-seriya) filmlari tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. Rejissor G'ulom Salixov tomonidan "Hamroz" filmining dublyaji yakunlandi. Shu bilan birga filial jamoasi Toshkent kinostudiyasi ijodkorlari bilan Qoraqalpog'istonning tarixiy turmushini yoritib beradigan "Qoraqalpog'iston" kinojurnalining 4 ta sonini ekranlashtirishga muayassar bo'lishgan. Kinojurnal qoraqalpoq ekran san'atining rivojlanishida o'z o'rniga ega bo'ldi. Shunday qilib, kinojurnalning har xil sonlarida mehnat qahramoni, shifokor Orazimbet Xalmuratov, SSSR xalq artisti Oyimxon Shamuratova, Chimboylik mehnat qahramoni, paxtakor Amangul Saparbayeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, rassom Qidirboy Saypov va boshqalar to'g'risida syujetlar kiritildi. Bundan tashqari, "Amudaryo sholikorlari" hujjatli filmi tasvirga olish ishlari boshlandi. Bu qoraqalpoq milliy kinosining ilk qadamlari edi.

1971-yilga kelib filialning ijodiy ishlab chiqarish rejaları ko'payib, badiiy filmlarning dublyaji o'n ikkiga, "Qoraqalpog'iston" kinojurnalining soni oltitaga etkazildi. Shuningdek yiliga 2 ta hujjatli film tasvirga olish ishlari rejalashtirildi. Buning uchun albatta, kino sohasiga ijodkorlarning katta salohiyatini jalb etish zarur edi. Shuning uchun ham Yuldash Mamutov, Reyimbay Seytov, Yaxit Allamuratova, Sapargul Awezova, Dosbergen Ranov, Quwatbay Abdireymov, Najimatdin Angsatbayev, Jalg'as Sultabayev, Mambetbay Sadiqov, Rayxan Saparova, Baltaniyaz Qaypovlar dublyaj ishlariga, rejissor lavozimiga Toshkent teatr san'ati instituti bitiruvchilari Zinel Ablakimov, Azat Sharipov, Uzaqbay Jalimbetovlar, muharrir lavozimiga Rahim Kaymakov va boshqalar ishga taklif qilingan. Rejissor – operator sifatida Nag'met Dawqarayev, Perdebay Kaypovlar faoliyat olib bordi. Qoraqalpoq milliy kinosi respublika ijodiy jamoalari orasida loyiq o'rin egallab Boshqirdistondagi (1977-yil), Tatarstondagi (1981-yil), Dog'istondagi (1984-yil) Qoraqalpog'istonning madaniyat kunlarida o'z filmlari bilan qatnashdi va mazkur davlatlarning "Faxriy yorlig'i" va qimmatbaho sovg'alar bilan mukofatlanagan. Bundan

keyingi yillari Mambetali Qaypov, Alpibay Sultanov, Sag'inboi Ibragimov, Jamal Kamalov, Amaniyoz Juzimbetov, Marat Taumuratov, Bahamdulla Nurabullayev, Axmet Oqnazarov, Otepbergen Baylepesov va boshqalar filmlarga muharrirlik qildi. 1970-yillarning o'rtalarida qoraqalpoq kino san'ati shiddat bilan rivojlandi. Bu davr, ayniqsa 1975-yili Nukusda hujjatli filmlarning respublika festivalining o'tkazilishi va ushbu forumda qoraqalpoq kinochilarining "Abdullayev cho'qqisi" (rejissor-operator N.Dawqarayev) filmining "Eng yaxshi hujjatli film" diplomini qo'lga kiritdi. Dastlabki rejissor Satbay Allanazarov, kinooperator Nag'met Davqarayev bo'ldi. Kartina direktori vazifasi direktor muovini Paraxat Saburov zimmasiga yuklatilgan. Bundan keyingi yillari kinostudiyaga Genjemurat Izimbetov, Kamal Mambetov, Nag'met Davqarayev, O'razboy Abdiraxmanov, To'reniyaz Qalimbetov, Qonisboy Djandullayev, Muratboy Nizanovlar boshchilik qilganlar.

Ular soha bo'yicha mutaxassis bo'lmagan. Asosan, adabiyot sohasida faoliyat ko'rsatib televideniye repertuarlarini badiiy jihatdan yetuk asarlar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatgani uchun davlat rahbariyati tomonidan mazkur lavozimlarga loyiq topilgan. Lekin ularning o'sha davrda televideniya ishlab bir tomondan fidokorlik edi. Kinostudiyaning Qoraqalpog'iston filiali ijodkorlari respublikamizning boshqa san'at arboblari bilan birgalikda, faqatgina davlatimiz miqyosida emas, balki chet el safarlarida ham bo'lib, respublikamizning madaniy hayotiga bog'lik filmlar suratga oldi. 1981-yilga kelib kinostudiyaning Qoraqalpog'iston filiali o'zining yangi imoratiga ega bo'ldi moddiy-texnik bazasi shakllana boshladi. Natijada hujjatli filmlar va dublyajning soni ko'paydi. Shuning bilan birga buyurtma filmlar ham olina boshladi. 1990-yillarga kelib qoraqalpoq yozuvchi va jurnalistlarining yangi avlodlari o'zlarini kino janrida sinab ko'ra boshladi. Ulardan O'razboy Abdiraxmanov, Alpiboy Sultanov, Marat Tawmuratov, Perdebay Qaypov, Amangeldi Xalmuratov, Sag'indi Yembergenov, Mambet Sadullayev va boshqalar bir nechta hujjatli filmlar va kinojurnallarga ssenariylar yozdi. Milliy kadrlardan rejissorlar yetishib chiqdi. Perdebay Qaypov, Toreniyaz Qalimbetov va Talasboy Abdireymovlarning rejissorlik ishlari ekranlarda paydo bo'la boshladi. Qoraqalpog'iston filialining bir qator badiiy va hujjatli filmlari Hamdo'stlik davlatlari va chet ellarda diqqatga sazovor bo'ldi. Shulardan "Orolqum" hujjatli filmi (ssenariy mualliflari S.Yeremenkov, O'. Abdiraxmanov, operator Sh.Maxsudov) Maxachqalada 1988-yili o'tkazilgan konkursga qatnashib "Eng yaxshi hujjatli film" diplomini bilan mukofotlandi.

1990-yili kinostudiya tarixidagi birinchi badiiy film "Gum-gum" (ssenariy mualliflari M.To'ychiyev, O'. Abdiraxmanov, postanovkachi rejissor J.Dauletov, operator V.Allamyarov) Amerikaning San-Fransisko shahridagi xalqaro kinofestivalga qatnashdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1989-yili 16-noyabridagi qaroriga asosan 1990-yil 20-aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarori asosida "Qoraqalpoqfilm" kinostudiyasi sifatida qayta shakllandi.

Bu qoraqalpoq kino ijodkorlarining turli janrlarda o'z kuchini sinab ko'rishiga imkoniyat berdi. Shunday qilib, dastlabki qisqa metrajli badiiy filmlar, "Tiqin" (1990-

yil, rejissor T.Qalimbetov), “Qaytish” (1992-yil, rejissor B.Nizamatdinov) tasvirga olindi. Rejissor T.Qalimbetovning bir qator hujjatli filmlari O‘zbekiston Respublikasi milliy va xalqaro kinofestivalida ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni egalladi. Ulardan “O‘tov” (2002) filmi Moskva kinofestivalida, “O‘tbe’gi” filmi Avstriyadagi Insburg shahri o‘tkazilgan kinofestivalda ishtirok etdi, “Quduq” filmida Ispaniyaning Bilbao shahridagi kinofestivalda kumush medal sovrindori bo‘lgan. Oldin badiiy filmlarni tasvirga olishda O‘zbekistonli tajribali mutaxassislar yordamidan foydalangan bo‘lsa, 2002-yili “Tanka” (ssenariy muallifi M.Nizanov, rejissor T.Qalimbetov, operator D.Abdullayev) filmi “O‘zbekfilm” kinostudiyasining texnik yordamida qoraqalpoq kino ijodkorlari tomonidan yaratilgan ilk to‘liq metrajli badiiy film bo‘ldi. 2000-yillardan milliy kino sohasida tub o‘zgarishlar yuz berdi. 2004-yil 16-martda qabul qilingan “Kinematografiya sohasini boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni asosida O‘zbekistondagi barcha kino tarmoqlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Shu jumladan, “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi umumiy narxi 52 mln. so‘m bo‘lgan yangi raqamli videokameralar, montaj stollari bilan ta‘minlandi. Bu kino ijodkorlarning yanada unumli ishlashiga imkoniyat yaratdi. Prezident farmoni yaratilayotgan kino mahsulotlarining janrlar tomonidan har tomonlama boyitilishiga, ularning soni va sifatini yaxshilashga keng imkoniyatlar yaratdi. Shu paytgacha yiliga sakkiz hujjatli film bilan kifoyalanib kelgan studiya endi har yili 15-20 hujjatli film ishlab chiqarishga erishdi.

“Ilm osmonining yulduzi”, “Hawjar”, “Betashar”, “Nama alispaq”, “O‘tyoqar”, “Olako‘z”, “Mizdakhan”, “Guldursin”, shuningdek o‘quv-metodik filmlardan “Mening bayrog‘im”, “Huquqingni bilasanmi?”, “Mening nizomim” kabi bir nechta filmlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuningdek, qoraqalpoq kinosi tarixida birinchi marotaba, 2006-yili “Erinshoq” (“Yalqov”) nomli multfilm yaratildi.

2009-yili ilk marotaba kinostudiyaning o‘z texnik va ijodiy imkoniyatlari bilan “O‘g‘ri” nomli to‘liq metrajli badiiy film tasvirga olindi. Bu respublika jamiyatchiligiga katta quvonch bag‘ishladi. Bundan ruhlangan ijodiy guruh shu yili yana bir badiiy film – “Kurort” filmi tasvirga oldi. Keyingi yillarda bu ishlar davom ettirilib 2010-yili “Qo‘shnilar”, 2011-yili “Yeshan baxshi”, “Qaysar”, 2012-yili “Mehrigiyo-Margiya” filmlari yaratildi. 2013-yildan kinostudiyani Begdulla Sultonov boshqarib kelmoqda.

Qoraqalpoq ekran san‘atining rivojlanish tarixida o‘zining katta o‘rniga ega kinostudiya haqida gap ketganda, kinostudiya umumiy 8612 kv. metr joyni egallaydi. Shundan ikki qavatli kinostudiya imorati egallagan o‘rin 1899, 89 kv. m. tashkil etadi. Ikki qavatli imoratning birinchi qavatida 66 xona bo‘lib ularning umumiy maydoni 1537, 56 kv.m., ikkinchi qavatida 36 xona bo‘lib, umumiy maydoni 908, 94 kv.m ga teng. Kinostudiya imoratning ikki qavatidagi xonalarning umumiy soni 102 tani tashkil etadi. Qoraqalpoqfilm kinostudiyasi imorati 1980-yili odatiy loyiha asosida qurilgan. Kinostudiya imoratiga shu kungacha biron marotaba kapital ta‘mirlash ishlari ishlanmagan va hozirgi paytga kelib kinostudiya imorati kapital ta‘mirlashga muhtoj. Bu haqida “O‘zbekkino” Milliy agentligi mutassadilariga bir necha bora xat va iltimos bilan murojaat qilingan ekan. Lekin, shu vaqt oralig‘ida imoratning ahvoli yanada og‘irlashsa og‘irlashdiki ammo, hukumatimiz tomonidan etibor qaratilmagan. Bu kabi salbiy omillar ish jarayoniga kerik ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari isitish sistemasi, sanuzellar, suv bilan ta‘minlash va kanalizatsiyalarni qayta tiklash zarur. Sovutgich konditsionerlar o‘rnatish zarur. Birinchi qavatda 43 ta deraza va 35 ta eshik, ikkinchi qavatda 107 ta deraza va 37 eshik bor [5:2]. Bularning hammasini hozirgi zamon talablariga mos ravishda yangilash lozim. Bundan tashqari birinchi qavat foyesida oynalangan devor bor.

Bu oynalarni yangilash uchun 5036 kv. m. oyna va 3 dona oynalangan eshiklar ham kerak bo‘lar ekan. Kinostudiyaning texnik bazasi hozirgi kun talablariga to‘la javob bermayapti. Chunki texnikaning rivojlanishi bilan har yili yangi texnika uskunalari ishlab chiqarilmoqda va ishlab chiqariladigan filmlarning sifatiga bo‘lgan talab ham kuchaymoqda. Aholining ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ko‘proq badiiy, hujjatli va multiplikatsion filmlarni dublyaj qilish kerak bo‘lmoqda. Buning uchun bizga zamonaviy kinouskunalar, ovoz yozish stollari va boshqa yordamchi uskunalar zarur. Biz Qoraqalpoq‘istonda ekran san‘atining rivojlanish tarixini o‘rganar ekanmiz, sohada yuqoridagi mavjud muammolarni bartaraf etish va yosh tadqiqotchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zarurligini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz deb hisoblaymiz. Chunki bu ham soha tarixini o‘rganishdagi dolzarb jihatlar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 29-dekabr kuni milliy kino san‘ati va kinoindustriyamizni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz>
2. Isokova M. Kino va televideniye tarixi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2020. – B. 210.
3. Gaz// Qizil Qaraqalpaqstan. – Nukus: 1936-jil. 29-aprel. №99 (1348). – B. 4.
4. O‘sha yerda.
5. Sultanov B. “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi davlat korxonasi ma‘lumotlar bazasini shakllantirish uchun ma‘lumotlar. – Nukus: 2015. № 247 sonli ma‘lumotlar bazasidan.

MILLIY SERIALLAR FORMATINING YANGILANISHI VA ULARNING ASOSIY TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy televideniya yaratilayotgan teleseriallarda ko‘tarilayotgan asosiy mavzu va janrlar tahlil qilinadi. Unda asosiy e‘tibor zamonaviy teleseriallarning hikoyaviy va badiiy asosi transformatsiyasi muammolariga qaratiladi va chet el tajribasi o‘rganilgan holda o‘zbek seriallarining formati qiyosiy yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ko‘p seriyali badiiy telefilm, teleserial, televideniye, format, janr, mavzu.

Элеонора ГАНИЕВА,
преподаватель кафедры «Искусствоведение и культурология» ГИИКУЗ

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ОБНОВЛЕНИЕ ФОРМАТА НАЦИОНАЛЬНОГО СЕРИАЛА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье анализируются основные жанры и темы, поднимаемые в телесериалах, созданных на национальном телевидении. Уделяется особое внимание проблемам трансформации повествовательно-художественной основы современных сериалов, а также сопоставляются форматы узбекских сериалов исходя из опыта зарубежного сериального производства.

Ключевые слова: многосерийный художественный телефильм, телесериал, телевидение, формат, жанр, тема.

Eleonora GANIYEVA,
teacher of the chair of Art and Cultural Studies UzSIAC

MAIN TRENDS AND UZBEKISTAN NATIONAL SERIES FORMAT RENEWAL

Abstract. This article analyzes the main genres and topics raised in television series created on national television. Particular attention is paid to the problems of transformation of the narrative and artistic basis of modern series, and the formats of Uzbek series are compared based on the experience of foreign serial production.

Key words: serial feature television film, television series, television, format, genre, theme.



Zamonaviy tomoshabinlar ehtiyojini inobatga olgan o‘yin-kulgi va dam olish uchun mo‘ljallangan seriallar namoyishi kundan-kunga rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda o‘zbek tomoshabinlarining e‘tiborini jalb qilayotgan seriallar turli formatlarda taqdim etilmoqda. Ulardagi badiiy-ifodaviy xususiyatlarga katta e‘tibor qaratish ham dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Shu ma‘noda, ba‘zi bir teleseriallarda ishlatish zarur omillar foydadan holi emas. Bular: tomoshabinga sezilarli darajada ta‘sir qilish, dramatik tuzilmaning moslashuvchanligi, doimiy o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy makonga tezda moslashish imkoniyati, ma‘lum tomoshabin auditoriyasi uchun aniq taklif bera olishidan iborat.

Shu o‘rinda aytish lozimki, xorijiy san‘atshunoslik sohasida har bir televizion formatning o‘ziga xos xususiyatlarini tasniflash va aniqlash bo‘yicha ko‘plab tushunchalar va qarashlar mavjud. Televizion seriallar ishlab chiqarish yo‘nalishi bilan bog‘liq tadqiqotlarda turli ta‘riflarni qayd etish mumkin. Shuni inobatga olgan holda, zamonaviy mahalliy teleseriallarning formatlari va janr turlarini yangilash uchun, xorijiy seriallar tasniflangan xorij modellariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy teleseriallarning janrlar va tematik rang-barangligi rivojlangan mamlakatlar televizion tizimlarida doimiy ravishda olib borilayotgan izlanishlar natijasidir.

Izlanishlarning ilk bosqichlari asosan AQShda, shuningdek, Buyuk Britaniya, Kanada, Sovet Ittifoqi va Lotin Amerikada sodir bo‘ldi [4. B. 15]. Ushbu izlanishlarning asosiy maqsadi – tomoshabinlarning dunyoqarashini, qiziqishlarini, turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini hisobga olgan holda, ularning badiiy ehtiyojlarini mumkin qadar qondirish maqsad qilingan.

Ilk xorijiy seriallar formatlari 1920 – 1939-yillarda radioda paydo bo‘lib, 1950-yillardan boshlab ular teleekranga ko‘chirildi. Ko‘chirilgan formatlar – antologiya, komediyali serial (yoki sitkom), “mil’naya opera” (teleseriallarning eski janrlaridan biri), telenovella kabi teleseriallaridan iborat bo‘lgan. Ular televideniyaning gullab-yashnashiga, dramatik janr uslubida amalga oshirilgan seriallarning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Natijada, xorijiy drama seriallari quyidagi variantlarda taqdim etilgan – gorizontallik dramatik seriali (Amerika va Yevropa modeli) va vertikal turli kasbga oid dramaning (Amerika modeli) formatlari (politsiya, huquqiy va tibbiy dramalar) shaklida keng tarqaldi [10].

Ko‘p yillar davomida teleseriallarning yuqoridagi formatlari rivojlanib, xorijiy televideniye tuzilmasini shakllantirdi.

1960-yillardan boshlab, ko‘p qismli badiiy televizion film formatini shakllantirishning asosi yaratildi. Ko‘p qismli

badiiy televidion film formati asosan Buyuk Britaniyada va qisman Kanadada ishlab chiqilgan mini-serialning analogi edi. Ushbu formatning o'ziga xos an'analari keyinchalik O'zbekistonda badiiy televidion serial shaklining yanada rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Teleseriallar mavzuidagi izlanishlar olib boradigan tadqiqotchilar tomonidan 1990-yillar o'zgarishlar davri sifatida qayd etilgan bo'lib, seriallarda hikoyalash usuli eskirgan deb hisoblab, ularni yangilash jarayonini boshlanganligini ta'kidlashdi. Bu davr olimlari ta'kidlaganidek, 1990-yillarda Lotin Amerikasi seriallari Rossiya televideniyesi ekranlarida paydo bo'lishi bilan – "serial" atamasi qo'llanila boshlandi [1], [2], [3] va shu bilan birga, ko'p qismli telefilmlarning asl mohiyatini ekran shakli sifatida yangilash jarayoni an'anaga aylandi. "1990-yillar rus va g'arb seriallarining dramatik tuzilmasi an'analari faol taqqoslanishining boshlanishi, mavzular diapazondagi va madaniy tasvirlarning o'zgarish davri bo'ldi" [1. B. 73]. Biroq bu davrda O'zbekiston televideniyesida bunday o'zgarishlar kuzatilmadi. Chunki 1990-yillarda O'zbekiston televideniyesini to'liq qayta qurish va uni yangi mustaqil tizim sifatida shakllantirish uchun biroz vaqt kerak edi.

XX asrning ikkinchi yarmida komediya seriali (sitkom), telenovella va ko'p qismli badiiy telefilm kabi formatlar dunyoning turli burchaklarida rivojlandi. Bu davrda o'zbek ko'p qismli telefilmlari Rossiya ko'p qismli badiiy telefilmlar estetik an'alariga mos ravishda rivojlanib, undan ba'zi bir qoliplarni va yaratilish qoidalarini o'zlashtirib, o'z ichiga qamrab oldi. Natijada, mahalliy telerejissorlar rus, belorus, ukrain kabi hamkasblarining kichik ekranga mo'ljallangan eng yaxshi kino namunalari yaratish tajribasini o'zlashtirdi [7. B. 39–41].

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekistonda uzoq vaqtdan buyon ko'p qismli televidion badiiy filmi an'analari davom ettirish tendensiyasi mavjud bo'lgan. Ammo vaqt o'tishi bilan mamlakatdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi, tarixiy haqiqat va o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini tiklashga qaratilgan yangi mafkuraning shakllanishi bilan O'zbekiston televideniyesida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, xalqimiz madaniyati va an'alariga mos, yangi davr talablariga javob beradigan o'z media mahsulotlarini yaratish zarurati tug'ildi. Natijada, zamonaviy ko'p seriyali badiiy telefilmlar ishlab chiqarish jarayoni 1990-yillarning oxirlarida boshlandi. Bunga sabab 1995-yildagi O'zbekiston televideniyesining taniqli rejissorlari, dramaturg va yozuvchilari ishtirokida "Milliy teleserial yaratish va bu rejani amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar yechimi haqida keng muhokama bo'lib o'tdi" [6. B. 62]. Bu muhokamadan so'ng 1997-yildan 2004-yilgacha bo'lgan davrda 10 seriyaga qadar bo'lgan kichik telefilmlar suratga olindi. Ular orasida: 10 qismli "Diqqat, motor!" (rejissor: F. Davletshin), 4 qismli "Ettinchi falakdan kelgan ovoq" (rejissor: Sh.Junadullaev), 6 qismli "Lafz" (rejissor: B.Ahmedov), 6 qismli "Qaytmas" (rejissor: Sh.Bizaatov), 7 qismli "Bog'" (rejissor: B.Ahmedov), 6 qismli "Imon" (rejissor: B.Ahmedov) kabi telefilmlar ham bor edi [8. B. 4].

1997 – 1998-yillarda televideniye ekranlariga 20 qismli telefilmlar chiqarildi. Keyinchalik ular o'zbek teleseriallari tarixiga Respublikada seriallar kinematografiyasining keyingi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan yuksak badiiy

asarlari sifatida kiradi. Bunda rejissor Sh.Junadullaev va taniqli dramaturg Sh.Boshbekov tomonidan suratga olingan "Charxpalak" (1997 – 2000-yillar) telefilm haqida so'z boradi.

Ikkinchi loyiha Tohir Malikning romani asosida rejissor D.Qosimov, Yo.Sa'diyev va F.Zaynutdinovlar tomonidan suratga olingan "Shaytanat" (1998 – 2000-yillar) xususiy teleserialidir ("Qalqon" xususiy studiyasi). Boy adabiy materiallar asosida yaratilgan ushbu ko'p qismli telefilmlarda jiddiy mavzular: insonning dunyoda o'z o'rnini izlash, vijdon va or-nomus masalalari, sodir etilgan qilmish uchun jazo muqarrarligi kabi mavzular ko'tarilgan. Ushbu ko'p qismli telefilmlar shov-shuvga sabab bo'ldi.

Keyingi bosqichda rejissor M.Mahammedov va taniqli dramaturg M.Boboevning 51 qismdan iborat televidion film "Ko'ngil ko'chalari" yaratildi [6. B. 63–65]. Bu serial keng tomoshabinni e'tiborini o'ziga tortdi, chunki unda hayotiy myammolar aks ettirilgan. Janr bo'yicha bu serial dramatik asar bo'lib, televideniye mahsulotini, ya'ni televidion ko'p seriyali filmning keng imkoniyatlarini yaqqol ko'rsata oldi.

"Shaytanat" ham, "Ko'ngil ko'chalari" ham televidion ekranda o'z ijodiy o'rniga ega bo'ldi. Bu ilk ko'p qismli televidion filmlar O'zbekistonda serial ishlab chiqarishning keyingi rivojlanishi uchun poydevor, tayanch rolini o'ynadi. Butun televideniye tizimini isloh qilish, xususan, seriallar rivoji uchun zamin yaratish zarurati mamlakat hukumati tomonidan aniq chora-tadbirlarni qabul qilishda hal qiluvchi omil bo'ldi.

Milliy seriallar rivojining keyingi bosqichini tajriba orttirish davri deb atash mumkin. "O'zbektelefilm" studiyasi zamonaviy tomoshabinga yondashuv izlamoda. 2000-yillarning ikkinchi yarmidagi seriallarning tematik mazmuni O'zbekiston televideniyesining to'rtta telekanali – "O'zbekiston", "Yoshlar", "Toshkent", "Sport" telekanallarining har birining dolzarb talablari va efir formatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. 2000-yillardagi ko'plab milliy seriallar "Sevgi farishtasi" (2006), "Muhabbatim-qismatim" (2006), "Dil payvandi" (2008), "Umidingni so'ndirma" (2009), "Tutash taqdir" (2009), "Jiyda guli" (2010) va boshqalar o'ziga xos lirik mazmunga ega.

O'zbek xalqining ezgu an'analari mustahkamlash va targ'ib qilish, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, o'z g'alalar bilan muloqotda bag'rikenglik va hamjihatlikni ta'minlash "Mehmonjonlardan aylanay" (2009) komediya serialining asosiy mavzularini tashkil etadi.

Z.Begimqulovanning "Tutash taqdir" (2009) serial loyihasi tomoshabin va tanqidchilarda katta qiziqish uyg'otdi. 2000-yillar seriallarining lirik an'alarda yaratilgan bo'lib, unda "oddiy insoniy munosabatlar, oilaviy muammolar, otalar va bolalarning abadiy ziddiyatlari"[9] aks ettirilgan. Ssenariy mualliflari N.Eshonqul va Z.Begimqulovalar oilaviy kuydi-chiqdi, ikir-chikirlar va qaynona-kelin munosabatlarini markaziy mavzu qilganlar. Bu mavzu mamlakatimiz teleekranlarida boshqa seriallarda bir necha bor paydo bo'ladi va rejissor Z.Begimqulovanning keyingi loyihalarida "Opa-singillar" (2011), "Bu hayot" (2020)da o'z ifodasini topadi.

"Orzular fasli" (2011), "Fidoyilar" (2011), "Hayot pillapoyalari" (2013), "Mehmonxonona" (2015), "Ezgulik hududi" (2017) kabi seriallarda kasbga oid masalalar asos

bo'lsa ham afsuski, ularning badiiy-ifodaviy xususiyatlari past darajada: dramaturgik yechimlar, rejissura, aktyorlar ijrosi, tasvir va bu seriallarning tanlangan aktual mavzusini sustlashtiradi.

2010-yillarning esa yana bir tendensiyasi yoshlik va yoshlar mavzusining faol rivojlanishi. "Oltin davrim" (2013), "Kuch birlikda" (2014), "Artist" (2016), "Dug'onajonlar" (2017) kabi seriallarda bugungi kun yoshlarini qiziqtirgan dolzarb muammolar, yo'nalishlar o'z ifodasini topgan.

Shu bilan birga xorij formatlari va usullarini – sitkom formatini va hikoyaning gorizont-al-vertikal tuzilishini o'zlashtirish tendensiyasi ko'zga tashlanadi.

Xususiy studiyalar va xususiy telekanallar o'rtasidagi hamkorlik natijalari efrida muhim o'rin tutib, butun O'zbekiston ekran madaniyatiga noaniq ta'sir ko'rsatib, badiiy saviyasi borasida ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Biroq, bu jarayonda ma'lum bir ijobiy tendensiyani qayd etish joizki, so'nggi yillardagi milliy tijoriy seriallar mahalliy tomoshabinni teleekranlarga qaytarmoqda va bu orqali xorijiy loyihalarga qiziqish kamaymoqda, ushbu holat o'zbek kinosida ham o'z ifodasini topgan edi [5. B. 28].

"Uy bekasi" (2013), "Qaynona va kelin" (2014), "Vijdon azobi" (2016), "Artist" (2016), "Do'konda" (2016), "Avtotest" (2017) seriallari bir vaqtning o'zida ijtimoiy masalalarga to'xtalib, asta-sekin miqdoriy o'sishni amalga

oshirdi. "Oppoq orzular" (2018), "Fitna" (2018), "Yuraklar jangi" (2018), "Begunoh" (2019), "Bir kami to'lmagan dunyo" (2019), "Bokira" (2019), "Zaharli tomchilar" (2019), "Ojiza" (2019), "Saboq" (2019), "Tuhmat girdobi" (2019) va boshqalar shular jumlasidan.

Milliy seriallar ishlab chiqarish ijobiy miqdoriy dinamikasi bo'lsa ham, bularda ko'plab muammolar qayd etish mumkin. Masalan, janr cheklovlari. Seriallarda ko'pincha drama, melodrama, komediya, detektiv, kriminal janrlariga e'tibor qaratiladi. Xorijiy serial ishlab chiqarish jarayon bilan qiyoslasa, o'zbek seriallari janr tanlovida ancha orqada qolgan.

Mahalliy dramaturg, ssenarist, rejissor va prodyuserlar o'z e'tiborini zamonaviy janrlarga ko'proq jalb qilishi lozim.

Tematik jihatdan qator o'zbek milliy seriallarida so'nggi paytlarda o'tkir ijtimoiy va dolzarb muammolar (giyohvandlik vositalari tarqatish, turmush o'rtog'iga xiyonat, kundoshlilik, ayollarning jamiyatdagi mavqei, firibgarlik va boshqalar) bilan bog'liq bo'lgan kundalik mavzularning seroblighi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, hayotning u yoki bu salbiy tomonining namoyon bo'lishida davom etayotgan voqealarga muallifning aniq munosibati har doim ham mavjud emas. Ularning hikoyasi ko'pincha nasihat va didaktik ma'noga ega. Bunday syujet tuzilmalari arxaik va zamonga hamnafas bo'ladimi, degan savol tug'iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акопов А.З. Особенности отечественного сериала 2000-х годов // Вестник электронных и печатных СМИ. – 2014. – № 17. – С. 70–85.
2. Беленький Ю.М. «Горячев и другие»: от многосерийного фильма к сериалу // Вестник электронных и печатных СМИ. – 2014. – № 18. – С. 32-51.
3. Давыдов М.Л. Типология телевизионных многосерийных художественных фильмов. Социокультурные аспекты проблемы // Вестник электронных и печатных СМИ. – 2008. – № 7.
4. Зайцева С.А. Жанр телевизионного сериала как культурный текст. дис. канд. философ. наук: 24.00.01. – М... 2001. – 152 с.
5. Каримова Н.Г. Киноиндустрия Узбекистана и её вклад в социально-экономическое развитие страны [Текст]: монография / Н. Каримова. – Ташкент: Baktria press, 2019. – 100 с.
6. Махаметов М., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televidenie asoslari. T.: 2007. – B. 151.
7. Хайтматова С., Ганиева Э. Трансформация многосерийного телевизионного фильма в телесериал // San'at. 2015. № 2. – С. 39-41.
8. Хайтматова С. От десяти до пятидесяти // Правда Востока. 2006. - № 245.
9. Хайтматова С. Taqdirlar tutashganda// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - №1 2009.
10. List of television formats and genres. Режим доступа: https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_television_formats_and_genres (дата обращения: 10.09.20)].



II BO' LIM

MUSIQA SAN'ATI

Botir MATYAKUBOV,
O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Yunus Rajabiy nomidagi MMSI
Professori va b SFN, Ardahan (Turkiya) Universiteti Pr, Dr.

XORAZMSHOHLAR DAVRIDA MUSIQA SAN'ATI

Annotatsiya. Maqolada Jaloliddin Manguberdi yubileyiga tayyorgarlik ko'riylayotganligi munosabati bilan Respublikamiz ijodkorlari tomonidan harakat boshlanganligi haqida axborot beriladi. Shuningdek, Xorazmshohlar davridagi fan, madaniyat va musiqa san'atiga bir nazar tashlanadi. Ayniqsa, harbiy mehtarlar musiqasi bo'lmish navba, navbati murattablar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: dutor maqomlari, navba, navbati murattab, ud, qalabandi.

Батир МАТЯКУБОВ,
Кандидат искусствоведения, и/o профессора Ташкентской Государственной консерватории,
Узбекского института национального музыкального искусства имени Юнуса Ражаби, доктор,
профессор Ардаханского университета (Турция)

МУЗЫКАЛЬНОЕ ИСКУССТВО ВО ВРЕМЕНА ХОРЕЗМШАХОВ

Аннотация. В статье представлена информация о начале деятельности творческих коллективов Республики в связи с подготовкой к юбилею Джалалиддина Мангуберди. Вместе с тем, рассматривается наука, культура и музыкальное искусство времен Хорезмшахов. В частности, речь пойдет о навба, навбати мураттаб, которые являются музыкой мехтаров.

Ключевые слова: макомы дутара, навба, навбати мураттаб, уд, калабанди.

Botir MATYAKUBOV,
Candidate of Art History, Acting Professor of the Tashkent State Conservatory, Uzbek Institute of National
Musical Art named after Yunus Rajabi, doctor, professor of Ardahan university (Turkey)

MUSICAL ART IN THE TIMES OF THE KHOREZMSHAHS

Annotation. The article presents information about the beginning of the activity of creative collectives of the republic in connection with the preparation for the anniversary of Jalaliddin Manguberdi. At the same time, the science, culture and musical art of the times of the Khorezmshahs are considered. In particular, we will talk about navba, navbati murattab, which are the music of the mehtars.

Keywords: makoms of dutar, navba, navbati murattab, ud, kalabandi.



O'rta asrlarda Markaziy Osiyo tarixida Xorazmshohlar davlati katta o'rin tutgan. XI–XIII asrlarda bu davlat juda yuksalgan. Ayniqsa, Anushtaginlar sulolasi uning nomini jahonga taratdi. Aloviddin Takash davrida Xorazmshohlar davlati dunyoning yetakchi va qudratli saltanatiga aylandi. Ushbu sulolaning ilk vakillari, Sulton Takish va Aloyiddin Qutbiddin Muhammad hukmronligi davrlari Xorazmning obod va ma'mur zamonlari bo'lgan. Xususan, Buyuk ipak yo'li orqali qo'shni davlatlar bilan savdo-

sotiq va madaniy aloqalar rivojlangan. Gurganj va boshqa markaziy shaharlarda ilm-fan va madaniyat, miniatyura va naqqoshlik, tasviri va musiqa san'ati ravnaq topganligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Sulton Takish to'rt yuzga yaqin shaharlarni birlashtirdi. Anushtaginlar davrida madrasalar, kutubxonalar barpo etish, ularni kitoblar bilan to'ldirish, iste'dod egalarining asrab-avaylash ishlariga katta ahamiyat qarotildi. Manbalarda yozilishicha, madrasalar kabi bilim maskanlari saltanat markazi Xorazmdan



tashqari Nishopur, Isfahon va boshqa shaharlarda ham qad ko'targan. Ularda Bahoviddin Marvaziy, Abu Ali Hasan Buxoriy, Zahiriddin G'aznaviy, Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziy, Mahmud Zamahshariy, Abulfath Xorazmiy, Abulqodir Jurjoniy, Sirojiddin Xorazmiy, Rashiddin Votvot, Sayfi Isfarangiy, Ziyo Xo'jandiy, Najmiddin Kubro, Majiddin Xorazmiy kabi o'nlab matematiklar, yulduzshunoslar, tabiblar, tarixchilar, shoirlar, faylasuflar, adiblar, tilshunoslar, mutassavvuf olimlar o'z shogirdlariga ilm o'rgatgan. Urganch shahrida suyakni kesib va kuydirib unga ishlov beruvchi ustaxonalar ko'p bo'lib, u yerda pichoq, qilich, qamchi va boshqa buyumlar, asosan, cholg'u asboblarning dasta, parda va kosalariga suyak va sadafdan kesib, kuydirib bezalgan naqshlar bilan chiroyli ishlovlar berilgan[1]. Dutor cholg'usi Xorazmda ommaviy cholg'u hisoblangan. Shuningdek, dator tut yoki o'rik yog'ochidan yasalgan. Ular qovurg'ali dilma dator va o'yib ishlangan qazma dator deb yuritilgan. Torlari ipak va ichakdan eshib tayyorlangan. Dutorlar Aliqambar duzum (kvinta), Miskin duzum (kvarta), Juft soz (oktava) va Navo soz (sekunda) qilib sozlangan. Hatto dator uchun maxsus, "Iroq", "Chapandoz", "Mo'g'ulcha", "Navo", "Sadri Iroq", "Roviy", "Orazvor", "Tashniz", "Majnun Dalli", "Ag'yor", "Miskin" deb nomlangan "Dutor maqomlari" yaratilgan. O'sha davrda datorning mashhur ijrochisi Yusufbek bahodir ekanligi ta'riflanadi. Shuningdek, dostonchi oshiqning piri ustodi Oshiq Oydin Pir (Oshiq Addin Shaxobiddin ibn Umar) ham dator cholg'usida dostonlar kuylagan. Saroyda esa rubobning mashhur ijrochisi Ustodi Mahmud. Changchi va raqqosa Nakisa kabi sozandalar faoliyat yurgizgan [2]. Bu vaqtda qasidago'y va dostonchi shoirlar ijodi gullab yashnagan. Hatto ijodkorlar tomonidan navbalar bastalanishi rasm bo'lganligi xalq dostonlarida ham uchraydi. Masalan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida:

*Oshiq o'lg'an jondan umidin uzar.
Gejalar uxlamay navbalar tuzar.
Ko'llarni ichinda g'arqildab gazar,
Yashil boshli So'na g'ozlaring sani[3].*

Deya oshiqdagi tomonidan *navbalar* tuzilganligiga ishora qilinadi. Shuningek, o'sha davrdagi xorazmlik shoirlarning g'azal va she'rlarida mavjud bo'lgan "Duvazdax maqom" dagi maqomlar eslab o'tiladi. Shulardan Abdurahim Hofiz Xorazmiyning she'riy devonida:

*Changni changinga olg'anda qilib ud ila soz,
Pardani Rost qil, ey mutribi Ushshoqnavoz.
Gar Sifahonda Navo topmasang, ey yori Buzrug,
Qilg'asan azmi Iroq aylab ohangi Hijoz.*

Yoki:

*Oshiqona nolau gulbang etib chimgan aro,
Bulbuli oshuftani o'zing birla dam soz qil.
Rosti, Ushshoqi be bargu Navog'a lutf etib,
Bu maqom ichra maqomi dilnavoz qil[4].*

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul asror" dostonining so'nggi so'zida:

*Turk zuhrudur ochunda bu kun,
Boshla uluq yir bila turkona un.*

*Rost qil ohangi Navou Hijoz,
Tuz yotug'on birla shudurg'unni soz.*

Turk surudin tuzuk birla tuz,

Yaxshi ayolg'u bila ko'kla qo'bu[5].

deya o'n ikki maqomning bosh maqomlari, kuy va ashulalar hamda foydalanilgan cholg'ular nomlarini eslab o'tilgan. Boshqa shoirlarning she'r, g'azal va dostonlarida ham Xorazm musiqiy taraqqiyotining birinchi davriga oid ma'lumotlarga asosan o'sha davrda Xorazmda mumtoz musiqa "ilmi advor", "musiqiy doira" negizlari mavjud bo'lganligidan darak beradi. "Xorazmda yashab ijod qilgan Xorazm she'riyat maktabining deyarli barcha vakillari saroy shoirlari edi", – deb yozadi Ziyo Buniyodov o'zining "Anushtagin Xorazmshohlar davlati" kitobida. Ayniqsa, Sulton Takishning *ud* sozining ishqibozi ekanligi va uning o'zi mazkur cholg'uda berilib mashq qilishi ta'riflanadi. Uning o'g'li Aloyiddin Qutbiddin Sulton Muhammad ham ud chalib, shatranj o'yin fikrini jamlagandan keyin arzxonaga chiqib, fuqarolar arzini tinglar ekan. Saroyda *ud*, *rebab*, *tanbur* va shularga o'xshash cholg'ular hamda Xusravoniy kuylar ijro qilingan bo'lsa, xalq orasida dator, qo'biz va soz cholg'usi sevimli cholg'ulardan hisoblangan. U davrda saroy va xalq ichida ommalashgan musiqadan tashqari harbiy-mehtariy ko'rinishli musiqa ham keng rivoj topgan[6].

Aslida Iskandar Zulqarnayn davridan boshlab harbiy yurishlarda dushmanga qo'rquv va dahshat solish uchun navbalar chalish rasm bo'lgan. Iskandarning 360 navbasi bo'lganligi va ular 20–30 nafardan iborat ijrochi-mehtarlar, tomonidan harbiy yurishlarda chalinganligi ta'riflanadi. Aloyiddin Qutbiddin Sulton Muhammad Xorazmshoh ham o'zini Iskandari soniy deb e'lon qilgandan keyin harbiy yurishlar va saroy tantanalarida Navba *نابوا*, navbati murattab *ببترم تيون* (ma'nosi arabcha - navbat bilan ketma-ket ijro qilinadigan cholg'u asarlari) deb nomlangan askariy kuylardan o'ttiz ikkitasini chalishni rasm qilgan. Jaloliddin Manguberdi ham ushbu an'anaga sodiq qolgan holda 15 ta navba bastalashni amr qilgan ekan [7]. Quyida tasviri keltirilgan zarbli cholg'u asboblari ham *navba* deb yuritilgan va mazkur kuylar ijrosida qo'llanilgan.

Navba va navbati murattablarning kuy tuzilishi Qavl, Furudosht, Mustahzod, Peshrav kabi bo'limlardan tashkil topgan. Madhiya, faxriya kabi she'r va g'azallar solib o'qiladigan bo'limlari esa Naqsh, G'azal, Tarona deyilgan bo'laklarga bo'lingan[8]. Quyidagi Xorazmcha "Qalabandi" kalimasi "Qavl" (kuy) va "Band" (bog'lash) iboralaridan tuzilgan va keyinchalik frezalogik o'zgarishlar natijasida Qalabandi tarzida atala boshlagan. Peshrav

Qalabandi Xorazm xalq kuyi

shaklida “Xona” va “Bozgo’y”lardan tashkil topgan. Qalabandi qadimgi navbati murattab an’analari asosida bastalangan bo‘lib, navbalar tarkibiga kirgan hamda bizning kunimizgacha yetib kelgan mehtariy kuylardandir. “Qalabandi” asari bizning taklifimiz bilan Turk kino ijodkorlari tomonidan 2020-yili yaratilgan “Mendurman Jaloliddin” nomli ko‘p seriyali filmning leytmotiv mavzusi sifatida qabul qilindi va kino epizodlarida yangrab turmoqda.

Iqtidorli ustozoda bastakor, Xalqaro tanlovlar g‘olibi Muhammadjon Otajonov “Qalabandi” asarini puflama va zarbli cholg‘u orkestriga moslashtirdi. Natijada ushbu asar yanada mahobatli, tantanavor muhtasham sadolanishga ega bo‘ldi. Quyida “Qalabandi”ni partiturasidan parchani namuna uchun ilova qilamiz.

Qalabandi
Полная оркестровка

Atomalik Juvayniyning yozishiga qaraganda, Sul-ton Jaloliddin boshqa ukalarining vaqtichog‘lik qilishi va dunyo ne‘matlariga berilgan bo‘lishiga qaramasdan, hech qachon otasi yonidan ayrilmasdi. Davlat ishlarida

unga yordam berardi. Otasi ba‘zan to‘g‘ri yo‘ldan uzoqlashganda va hattoki xato ishlar qilgan paytlarida ularni yuziga aytardi. U otasiga: – “*Qo‘shinni guruhlarga ajratib, ayrim-ayrim holda ularga topshiriq berish, hali dushmani ko‘rmasdanoq qochishga urinish, davlat va aql sohibining qiladigan ishi emas, razil bir odamning yo‘lidir. Agar Sul-ton dushmanga qarshi turishga, u bilan jang qilishga va o‘zini tahlikaga qo‘yishga ahd qila olmasa va qochish fikrida bo‘lsa, u holda fursatni boy bermasdan va oyoqlarimiz halokat botqog‘iga botmasdan jasur va mard askarlarning boshqaruvini menga topshirsin. Aks holda odamlar saqich kabi bizni tillarida chaynab tanqid qiladilar va biz pushaymonlik seliga duchor bo‘lamiz, ro‘y berajak yomon hodisalar qarshisida ojiz qolamiz*” – der edi. Lekin bu nuqtai nazar davrga va makonga ko‘ra o‘zgardi. Davlat buyuklari va amirlari Sultonga uyg‘un tarzda qadahlarni to‘ldirib bo‘shatish bilan vaqtini o‘tkazib, mudofaa ishlarini e‘tiborsiz qoldirdilar. Urush aslahalari tayyorlashi kerak bo‘lgan qo‘llarini doira va ud chalishga buyurdilar.

Mo‘g‘ullar Xorazmni zabt etganlaridan keyin ilm-fan, madaniyat, san‘at va hunarmandchilik tarqoqlikka yuz tutdi. Jaloliddin Manguberdi Xorazmshoh deb e‘lon qilingandan so‘ng u Mo‘g‘ullar bilan juda ko‘p jangu-jadallar qilib ularga qaqshatqich zarbalar berdi. Ko‘proq askar va kuch yig‘ish maqsadida Mozandoron, Xuroson va o‘sha davrdagi Xorazm hududiga qarashli boshqa mamlakatlarga yurish qildi. Hindistonning Sind daryosi bo‘yida bo‘lgan jangda Mo‘g‘ullar markazga qarab to‘g‘ri yo‘nalgach Sul-ton katta dovullarni chalishni buyurdi. Buning ovozi eshitgan jangchilar birdaniga hujumga o‘tdilar. Mo‘g‘ullarning har ikkala no‘yoni ham mag‘lubiyatga uchrab, ortda qolgan kam sonli asakari bilan Chingizxon yoniga qaytdi. O‘sha jangdan keyin Aminiddin Malik bilan Safiyiddin Ig‘roq orasida bir ot tufayli g‘avg‘o kelib chiqadi va kechqurun Ig‘roq o‘z qo‘shinlarini olib Sankuran tog‘lariga chiqib ketadi. Buning natijasida, Sul-tonning kuchi kamayadi. Chingizxon Sul-ton askarlarini tarqalib ketganini ko‘rgach uning ustiga yurish boshlaydi. Sul-ton Sind daryosini kechib o‘tishga qaror qiladi va qayiqlarni tayyorlashni buyuradi. Chingizxon shoshilinch tarzda uni old tomonini qurshab oladi. Sul-ton erta tong sahardan to tushgacha o‘zining yetti nafar xos jangchisi bilan chapdan o‘ngga ot choptirardi. Har safar jangga kirganida bir qancha odamni yerga qulatardi. Chingizxonning qo‘shini qurshov halqasini tobora toraytirib borayotgan edi. Vaziyatning umidsiz ekanin anglagan Sul-ton ko‘z yoshi va lablari qurigan holda u yerda turgan bolalari, ahli ayoli va harami bilan vidolashadi. Ularni daryoga tashlashni buyuradi. Zahiradagi otni olib kelishlarini amr etadi. U otga minib yana bir maromda xuddi timsohdek balo dengiziga tashlanadi. Oldindagi Mo‘g‘ul askarlarini chetga surib, otdan tushib uning jilovini chiqarib tashladi va zirhini ustidan yechib otib yuboradi. Otga bir qamchi urib o‘zini o‘n besh, yigirma metrcha pastlikdagi daryoga tashlaydi. Uni ko‘rganlar hayratdan yoqa ushlaydilar. Chingizxon va Mo‘g‘ullar hayratdan barmog‘ini tishlab qoladi.

Sul-ton Jaloliddinning o‘limi haqida turli rivoyatlar mavjud. 2021-yil dekabrda ijtimoiy tarmoqlarda Jaloliddin Manguberdi qabrini izlash bo‘yicha yangi ma‘lumotlar

e'lon qilindi. Bunda Dijle universiteti adabiyot fakulteti tarix kafedrasini mudiri t.f.d. dotsent O'ktay Bo'zan va Jaloliddin Manguberdi fondi raisi Bekzod Abdrimovlar tomonidan olib borilgan izlanishlar haqida quyidagicha hikoya qilinadi: "O'zbekistonda buyuk ajdodlar tarixini chuqur o'rganish va tadqiq qilishga alohida etibor qaratilmoqda. Jumladan, Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining harbiy mahorati, jang san'ati va uning tarixining ochilmagan sahifalarini o'rganish yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Yaqinda bir guruh o'zbek va turk va tarixchilari tomonidan buyuk sarkardaning dafn etilgan joyi to'g'risida yangi manbalar topilganligi va manbalarga ko'ra uning Diyorbakir viloyati Silvan shahridagi Mayaforiqin qal'asining shimoli-sharqiy burchagidagi Burji Malik minorasi tagiga dafn etilganligi to'g'risida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritilgan edi. Ayni vaqtda bu boradagi tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda. Xususan, Dijle universiteti Adabiyot fakulteti Tarix kafedrasini mudiri dotsent, doktor O'qtay Bo'zan va ushbu universitetning tadqiqotchisi t.f.d Arafat Yazlar Jaloliddin Manguberdining munshiysi an-Nasaviy va arab tarixchisi Sibti ibn al-Javziy, Ibn Hanbali, Ibn al-Asir, Juzjoniy kabi va yana boshqa o'rta asr fors va arab tilida ijod qilgan tarixchilarning ellikga yaqin tarixiy manbalarini o'rganib chiqqanligini qayd qilmoqdalar.

Bizga ma'lum bo'lgan manbalarga ko'ra Jaloliddin Manguberdi Diyorbakir (Amid) yaqinida qo'shinidan ajralganidan so'ng yolg'iz qolgan va uning ortidan quvgan bir nechta mo'g'ul askarini yo'q qiladi. Biroq yolg'iz qolgan sarkarda "Ayn-Dor" qishlog'ida qaroqchilar tomonidan o'ldirilgan. Biroq bugungi kungacha "Ayn-Dor"

nomi bilan ataladigan qishloq yoki aholi manzilgohi yo'q. Mazkur qishloqning qaysi joyga to'g'ri kelishi bo'yicha turk tarixchi do'stlarimiz bilan izlanishlar olib bordik va ushbu izlanishlar natijasida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Usmonli arxivlarida olib borgan tadqiqotlarida, 1842-yildagi aholini ro'yxatga olish kitobida Silvan shimolidagi tog'li hududda "Ayn-Dor" qishlog'i borligi qayd qilingan. Dotsent doktor O'qtay Bo'zan: "Bu haqiqatmi yoki yo'qmi, buni tadqiqotchi doktor Arafat Yaz bilan o'rgana boshladik. Usmonli davri hujjatlari va aholini ro'yxatga olish daftarlarini o'rgandik. Silvan atrofidagi yagona tog'li hudud shimoli-sharqda, ya'ni Hazro mintaqasida Hazrodan Silvan shimolida va Lise hamda Tunjeli tomon cho'zilgan. 1842-yildagi Usmonli hujjatlarida ko'rsatilgan "Ayn-Dor" degan qishloqqa yetib keldik. Biz bu qishloqning joylashuvi, tog'larini o'rgandik va aholi bilan uchrashib, ulardagi ma'lumotlarni qo'lga kiritdik. Qishloq oqsoqoli bilan suhbatlashdik. Qishloqning hozirgi nomi "Kavaklibo'g'oz" qishlog'i. Biz bu joyni tarixiy ma'lumotlarga mosligini o'rgandik. Bu qishloq qaroqchilar uchun beqiyos joy. Buning tarixiy ma'lumotlarga to'g'ri kelishini ko'ramiz. Shu bilan birga, bu yerda juda ko'p g'orlar bor. Bu qaroqchilar uchun ajoyib boshpana bo'la oladigan joy. Bu qishloq Diyorbakirdan 84 km uzoqlikda, Silvandan 32 km va Hazrodan 16km uzoqlikda joylashgan".

Sulton Jaloliddin haqida XIII asrdan to hozirgacha yaratilgan asarlar soni salkam besh yuz jildga yaqin kitobni tashkil etadi. Kelgusida uning bosqinchilarga qarshi matonatli kurashi, jangovarlik ruhi, vatanni sevishi, yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo'lajak!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyokubov B. "Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari" T.: "Xorazm", 1999. – B. 5
2. Mulla Bekchon Raxmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda "Xorazm musiqiy tarixchasi" T.: "Mumtoz so'z" 2014. – B. 49.
3. Xudoyberganov S. "Soz va so'z sohibi" "Musiqqa" T.: 2011 yil. – B 117.
4. Hofiz Xorazmiy "Devon". T.: "O'zbekiston", 1981-yil. – B 252.
5. Haydar Xorazmiy "Gulshan ul asror". T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1982-y. 40 b.
6. Bunyatov Z.M. Gosudarstvo Xorezmshaxov-Anushteginidov (1097–1231). M.: «Nauka», 1986. – B. 185
7. Sadettin Nuzhet Ergun, Türk Musikisi Antolojisi, İstanbul 1943, II, 667–668;
8. Süreyya Agayeva. TDV İslam Ansiklopedisi 33 cild. 41–43 sayfa.

O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGIDA APPLIKATURA, BARMOQLAR HOLATI VA ULARNI ALMASHINUVINING AHAMIYATI (DUTOR BAS CHOLG'USI MISOLIDA)

Annotatsiya. Musiqa ijrochiligida applikator, barmoqlar holati va ularni almashinuvining ahamiyati nechog'lik o'rinli va ulardan to'g'ri foydalanish nima uchun zarur? Dunyo cholg'ulari kabi o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligida, bu amaliyotga nima uchun katta e'tibor bilan qaralmoqda? Ushbu savollarga maqolada keng to'xtalib o'tilgan bo'lib, kerakli javoblarni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: applikator, barmoqlar holati, o'zbek xalq cholg'ulari, dutor bas, tarix, musiqa, ijrochilik, uslubiyot, asarlarni o'zlashtirish.

Шерзод УМАРОВ,
доцент кафедры «Инструментальное исполнительство» ГИИКУз

ЗНАЧЕНИЕ АППЛИКАЦИИ, ПОЛОЖЕНИЯ ПАЛЬЦЕВ И ИХ РАСПОЛОЖЕНИЕ В ИГРЕ НА УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ (НА ПРИМЕРЕ ДУТАРА БАСА)

Аннотация. Насколько актуальны аппликатуры, положение пальцев и их взаимозаменяемость в музыкальном исполнении и почему необходимо их правильно использовать? Почему при исполнении узбекских народных инструментов следует уделять больше внимания этой практике, также как мировые инструменты? Эти вопросы подробно обсуждаются в статье, и вы найдете на них необходимые ответы.

Ключевые слова: аппликатура, положение пальцев, узбекские народные инструменты, дутар бас, история, музыка, исполнение, методика, ранний разбор произведений.

Sherzod UMAROV,
associate professor of the chair of "Instrumental Performance", UzSIAC

THE MEANING OF THE APPLICATION, THE POSITION OF THE FINGERS AND THEIR LOCATION ON THE PLAYING OF THE UZBEK FOLK INSTRUMENTS. (ON THE EXAMPLE OF DUTAR BASS)

Annotation. How relevant are fingerings, finger positions and their interchangeability in musical performance, and why is it necessary to use them correctly? Why, when performing Uzbek folk instruments, should more attention be paid to this practice, as well as world instruments? These questions are discussed in detail in the next article, and you will find the answers you need.

Key words: fingering, finger position, Uzbek folk instruments, dutar bass, history, music, performance, methodology, finger technique, first analysis of musical pieces.



O'zbek xalq cholg'ularida musiqa ijrochiligi san'ati a'anaviy va nota orqali ijro etish kabi ikki yirik yo'nalishga ega. Birinchi yo'nalish mamlakatimizning tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu yo'nalishning kelib chiqishi va ijrochilik masalalari borasida ko'plab san'atshunos va musiqashunos olimlar o'zlarining traktat, darslik, o'quv qo'llanma, shuningdek, ilmiy maqolalarida muhim ma'lumotlarni qayd etishgan. Ikkinchi yo'nalish deyarli yangi bo'lsada (XX asrning boshidan kirib kela boshlagan), hozirda o'zining yirik san'at arboblari va ijrochi sifatida xalq dilidan joy olgan mashhur sozandalari mavjud. Qolaversa, ushbu mavzuda ham bir qator ilmiy ish, darslik, o'quv qo'llanma va maqolalar chop etib kelinmoqda. Alohida aytib o'tish kerakki, ushbu ikkala yo'nalishning ham o'z tinglovchilari mavjud bo'lib, buni konsertlarga kelayotgan tomoshabinlar sonidan bilish mumkin.

Bugungi mavzu asosan ikkinchi – nota orqali ijro

etish yo'nalishiga qaratilgan bo'lib, unda ijrochilikni oson o'zlashtirish va ijro etilayotgan asarni eshituvchiga yengil etkazib berishda muhim o'rin tutuvchi applikator, barmoqlar holati va ularni almashinuvining ahamiyati borasida fikr yuritamiz.

Ma'lumki, nota orqali ijro etish faqatgina xorij kompozitorlari (g'arb) asarlarini ijro etish degani emas. Shuningdek, sharq hamda O'zbekiston bastakor va kompozitorlari asarlarini ham tomoshabiniga mukammal darajada etkazib berish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi. Albatta, O'zbekiston kompozitorlarining o'zbek xalq cholg'ulari uchun maxsus yozilgan ko'plab asarlari ko'pchilikka ma'lum. Ular orasida kichik pyesadan tortib yirik shakldagi – simfoniya, konsert, fantaziya, sonata kabi asarlar mavjud bo'lib, ular allaqachon sozanda ijrochilarning konsert ijrochiligi dasturlaridan mustahkam o'rin olgan va tomoshabinlar tomonidan katta olqishlar bilan kutib olinmoqda.


O'zbek xalq cholg'ulari orasida dutor bas cholg'usi ham o'zining zalvorli o'rniga ega.

Dutor bas. 1954-yilga kelib, dutor cholg'usini takomillashtirish bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirildi va dutorning – bas hamda kontrabas turlarini yasash uchun andoza yaratildi. Bir yil davomida ushbu andoza asosida bir dutor bas cholg'ulari yasaliib, uning ustida ilmiy va amaliy tajribalar olib borildi. Ushbu jarayonda cholg'uning menzurasi kichraytirildi, kosasi ixchamlashtirildi, dastasi ingichkalashtirildi, diapazoni kengaytirildi, ovoz sifati yaxshilandi va bu orqali cholg'uning ijrochilik imkoniyati oshdi, chalish uchun qulaylik yaratildi. Cholg'uning tashqi ko'rinishiga ham katta ahamiyat berilib, badiiy bezaklar bilan bezatildi.

Ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ular orkestrining yaratilishi, cholg'u turlarining bas tovushlari ijrosini yetkazib berish uchun ham talabni orttirdi. Dutor bas cholg'usini takomillashtirish jarayonida: avvalo qo'y ichagidan eshilgan, keyinchalik 1960-yillardan metallardan yasalgan sim – torlar qo'yildi. Ilk qo'yilgan torlar ijro uchun ko'p chidamasligi va yetarli darajadagi jarangni bera olmaganligi sababli metallardan yasalgan torlarga almashtirish lozimligi anglab yetildi. Shunda ham 2-, 3- va 4-torlari metall torlarga o'tdi, birinchi tori esa eski ko'rinish bo'yicha qoldi. Natijada ushbu cholg'u, o'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari hamda bir ovozlik ansamllarda jo'rnavoz va yakkanavoz cholg'u sifatida keng qo'llanila boshlandi.

Dutor bas cholg'usi to'rtta torga ega bo'lib, ular 1-tor kichik oktava "lya", 2-tor kichik oktava "re", 3-tor katta oktava "sol" va 4-tor katta oktava "do" notalariga sozlanadi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida 1955-yilda dutor bas sinfi tashkil etildi. Unda ilk bor o'qituvchi Ashot Konstantinovich Nazarov dars bera boshladi [4. B. 25]. Uning sinfini 100 dan ortiq talaba tamomlagan bo'lib, hozirda ular mamlakatimizning turli musiqiy muassasalarida yosh avlodga dars bermogda.



Dutor bas cholg'usi ommaviy ishlab chiqarilgan bo'lsada, uning ustida ilmiy va amaliy tajribalar davom etib, 1995-yilda o'zining so'nggi nuqtasiga yetdi. Ushbu yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi xalq cholg'ulari Davlat ilmiy – ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasi (DIIEChL), cholg'uning so'nggi ko'rinishini ommaga taqdim etdi. Va hozirgi kunga qadar ular yaratgan so'nggi andoza asosida mukammal tarzda cholg'ular yasalmogda.

Bugungi kunda, deyarli har bir musiqi dargohida ushbu cholg'u bo'yicha ko'plab yoshlar ta'lim olmogda. Ular nafaqat Respublikamizda, balki jahon sahnalarida ham bo'lib o'tayotgan festival va tanlovlarda yakkanavoz sifatida ishtirok etib, faxrli o'rnlarni egallashmogda.

O'zbekiston kompozitorlari ijodida Dutor bas sozi uchun maxsus asarlar ham keng o'rin olgan. Sayfi Jalil, Boris Giyenko, Muhammadjon Otajonov, Ulug'bek Musayev, To'liqin Qurbonov, Mustafo Bafoyev, Farhod Alimov, Sherzod Sobirov, Sherzod Umarov kabi

kompozitorlar ko'plab asarlar yozgan. Bu asarlar ijrochilik murakkabligidan kelib chiqib, konservatoriya talabalari, kollej va litseylar hamda BMSM o'quvchilari tomonidan sevib ijro etilmogda. Shuningdek, dutor bas, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun yaratilgan simfoniya, oratoriya va konsert kabi yirik shakldagi asarlar ijrosida orkestr cholg'usi (jo'rnavoz) va yakkanavoz sifatida qo'llanilmogda.

Dutor bas cholg'usini o'rganishdagi ilk ko'rsatmalar: bas dutorning tuzilishi, uning musiqiy tarkibi va chalishga hozirlash, to'g'ri o'tirish, cholg'uni to'g'ri tutish, o'ng qo'l holati, mediatorni (mizrob) to'g'ri ishlatish, ovoz paydo qilish va chalishning asosiy qoidalari, melizm, shtrix kabi mavzular haqida to'xtalib o'tmadik. Bu mavzular borasida A.K.Nazarovning "Bas dutor darsligi" ("O'qituvchi" nashr, 1983-yil) va Z.Z.Turopovning "Dutor bas" o'quv qo'llanmasida ("Bilim" nashr, 2004-yil) atroficha to'xtalib o'tilgan. Zero, ushbu amaliyot va mavzular BMSM va san'at kollejlari hamda Akademik litseylarida o'zlashtirilgan bo'lishi tabiiy [5.B.33].

Ushbu maqolada applikator va barmoqlar holati haqida batafsil to'xtalib o'tishni ma'qul topdik. Chunki, kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik dutor bas ijrochilari (bu kabi xato ko'rinishlar, boshqa turdagi cholg'u ijrochilarida ham ko'zga tashlanadi – muallif) aynan ushbu mavzu va amaliyotni yaxshi o'zlashtirmagan. Zero ushbu mavzu musiqi ijrochiligida muhim o'ringa egadir.

Applikatura (lot. *aplico* – "joylashtirish", "bosish") – har qanday cholg'uni chalishda barmoqlarning taqsimlanishi, shuningdek, ushbu taqsimotni raqamlarda belgilanishidir. **Holat** (lot. *positio*) esa qo'llarni surmasdan, sakramasdan (pastga yoki yuqoriga) berilgan notalarni bitta holatda ijro etish usulidir.

Applikaturani oqilona tanlab, undan mohirona foydalana oladigan sozanda – o'z sozini yaxshi o'zlashtira olgan "kasb ustasi" sifatida e'tirof etiladi. To'g'ri qo'yilgan applikator – asar ijrochiligidagi texnik imkoniyatlarni yengillashtiradi, musiqiy xotirani yaxshilaydi, nota o'qishni osonlashtiradi, dasta (grif)da barmoqlar erkinligini rivojlantiradi. Applikator bunday imkoniyatlarni bersada, undan foydalanish chog'ida ko'plab "falsh" notalar olinishi kuzatiladi (ayniqsa kamonli cholg'ularda). Shu sababli, sozanda o'z cholg'usining har bir torida joylashgan ladlardagi tovushlarni (notalarni) mukammal bilishi va ulardan oqilona foydalana olishi muhimdir.

Holatlardan foydalanishda barmoqlarning uzunligi (yoki qisqaligi), egiluvchanligi, notalar aro cho'ziluvchanligi kabi shaxsiy imkoniyatlar ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli, barmoq holatlarini qo'yish chog'ida shoshilmaslik lozim. Shoshma-shosharlik bilan qo'yilgan barmoqlar, nafaqat asar ijrochiligidagi qiyinchilikka, balki, estetik jihatdan ham xunuk ko'rinishga olib keladi.

Applikatura raqamlar bilan belgilanib, muayyan notani qaysi barmoq bilan bosish lozimligini ko'rsatadi. Torli cholg'ularda (mizrobli va kamonli) 1 dan 4 gacha bo'lgan sonlar ishlatilib, unda ko'rsatkich (1), o'rta (2), nomsiz (3) va jimjiloq (4) barmoqlar ketma-ketligi belgilanadi. Shuningdek: organ, royal, fortepiano, klavesin kabi klavishli cholg'ular uchun notalar beshta barmoq uchun raqamlansa, kontrabas, violonchel (g'ijjak bas) kabi

cholg'ularda 4 barmoq bilan birga, bosh barmoq uchun Φ belgisi bilan ham ko'rsatiladi [5. B. 32.].

Musiqi ijrochiligi tarixida applikatoraning turli ko'rinishdagi holatlari qo'llanilgan. Vaqtlar o'tib ijrochilik texnikasi rivojlanib borishi natijasida applikatoraning belgilanishi ham yengillashib bordi va bugungi ko'rinishga keldi.

Applikaturaning ilk namunalari chex musiqashunosi Iyeronim Moravskiyning "Musiqiy traktat"ida ("Tractatus de musica", 1272–1304-yillar oralig'i) [6. B. 17] keltirilgan. Unda 5 torlik viola-fidel (fidel (nem. Fiedel, Fidel), viola (ingl. vielle; ffr. viele, vielle; lot. viela, viella) – O'rta asrlarda Yevropada keng tarqalgan kamonli cholg'ular guruhi. [7.B.183]) va uning applikatorasi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, klavishli cholg'ular uchun ilk applikatora – Ispaniyalik Tomazo Santa-Mariyaning "Fantaziya ijrochiligi san'ati" ("Arte de taser Fantasia", 1565-y.) traktati va nemis organchisi A. Ammerbaxning "Organ va boshqa cholg'ular tabulasiyasi haqida" ("Orgel-oder Instrument tabulatur", 1571-yil) asarlarida yozib qoldirishgan [1.B.9].

Barmoqlar holatining joylashuvi turlicha bo'lib, ular asarda ko'rsatilgan akkordli, xromatik, arpedjio kabi ijro turlariga qarab qo'yiladi. Ularda notalarning joylashuv oralig'i katta va kichik holatlardan tashkil topadi. Masalan: major (katta3+kichik3) yoki minor (kichik3+katta3) ladlaridagi kabi.

Hozirgi kunda dasta (grif)li cholg'ularda – barmoqlarning tabiiy joylashuviga asoslanib asosiy yettita holatga (pozitsiya) bo'linadi (1-rasm). Ushbu ko'rinishdagi holat bo'yicha ilk ko'rsatmalar Fransuz kompozitori, skripka va organ ijrochisi Mishel Korretning "Orfey maktabi" (1738-y.), Italiya kompozitori va skripkachisi Franchesko Jaminianining "Skripka ijrochiligi san'ati" (1751-y.) kabi o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan [2.B.13].

XX asrga kelib applikatoraga yanada kengroq va kasbiy tomondan puxtaroq yondashish boshlandi. Avvallari barmoq holatlari ko'proq texnik ijrochilik tomonini nazarda tutib ko'rib chiqilgan bo'lsa, ushbu asrga kelib: jumlar, badiiylik, ifodalilik, dinamika, agogika kabi ijrochilik uslublari uchun ham alohida barmoq joylashuvlari tanlana boshladi.

Bugungi kunda har qanday cholg'uda (damli, kamonli, urma-zarbli, urma-torli, chertma-torli) applikatora mavjud bo'lib, ular mutaxassislar tomonidan mukammal ishlab chiqilgan.


Turli mamlakatlarning xalq cholg'ulari ham ana shunday cholg'ular sirasiga kirib, o'zbek xalq cholg'ularidan biri – dutor bas ham bundan mustasno emas.

Dutor bas cholg'usining umumiy diapazoni katta oktava "do"dan ikkinchi oktava "lya"gacha bo'lib, yettita holatni o'z ichiga oladi.


Yuqorida aytib o'tganimizdek, asarlar ijrosida yengillikka erishish uchun, barmoqlarning to'g'ri qo'yilishi katta ahamiyatga ega. Buning uchun ladlarda joylashgan, har bir tordagi tovush (nota)larni yoddan bilish juda muhim. Quyida keltirilgan sxemada – aynan ushbu masalani yengil o'zlashtirish va barmoqlar joylashuvini oson hal etish mumkin.

Masalan, siz quyidagicha asar ijro etmoqdasiz (taxminiy misol):

Ushbu misollarda torlar (yuqorida) va barmoqlar (pastda) ko'rsatilgan bo'lib, birinchi misol birinchi holat va ikkinchi misol esa uchinchi holat uchun berilgan. Xuddi shu kabi, har bir ijro etayotgan asarlarda applikatorani to'g'ri qo'yib olish juda muhimdir. Bunda quyidagi sxema katta yordam beradi [3.B.17].



Shu o'rinda aytish mumkinki, turli festival va tanlovlarda hay'at raisi yoki a'zosi sifatida qatnashib, ko'plab kuzatishlarimiz natijasida, aynan ushbu mavzu asosida biron-bir maqola yozish kerak, degan xulosaga keldik. Chunki aynan yosh sozanda-ijrochilarning applikatora va barmoq holatida katta kamchiliklar mavjud bo'lib, texnika va melizmlarni o'z vaqtida qo'llash borasida qiyinchiliklar borligi yaqqol ko'rinadi.



Nima uchun dutor bas cholg'usi misol sifatida olingan degan savol ham tug'ilishi mumkin. Boisi, o'zimiz dutor bas cholg'usi mutaxassisi sifatida ushbu cholg'uning texnik va ijrochilik imkoniyatlarini yaxshi bilamiz Bu bilan boshqa cholg'ularda ijod qilayotgan sozandalarga ham applikatora, barmoqlar holati va ularni almashinuvining ahamiyati qanchalik muhimligini uqtirish hamda asarlar ijrosini o'rganish jarayonida ushbu ijrochilik uslublarga chuqurroq, e'tibor bilan o'zlashtirish lozimligini hamda muhimligini ta'kidlab, eslatib qo'yishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вопросы музыкально-исполнительского искусства: ту́лам. -3-нашр. – Москва: Музыка, 1962. – Б.382.
2. Илюхин А.С. Об аппликатуре гамм и арпеджио и о техническом минимуме балалаечника. – Москва: Музыка, 1960. – Б. 286
3. Nazarov A.K. Bas dutor darsligi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1983. – B.192.
4. Turovov Z.Z. Dutor bas: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Bilim", 2004. – B.216.
5. Umarov Sh.A. Xalq cholg'ularida ijrochilik. Dutor bas: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tamaddun", 2021. – B.316.
6. Ямпольский И.М. Об аппликатуре //Белканто. –2003. -№ 5. – Б.17–19.
7. Энгел Ю.Д. Краткий музыкальный словарь: (музыкальная терминология, краткие сведения по истории музыки, инструменты, теории музыки и т.п.), составлен по словарю Г.Римана и др. – Москва: Изд. П.Юргенсона, 1907. – С. 208.

YOSHLARDA XOR SAN'ATI HAQIDAGI DASTLABKI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING ENG SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. Maqolada xor san'ati hamda xor darslarining xususiyati haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dars jarayonida talabalar ovozini shakllantirish uchun vokal mashqlarining ahamiyati, asarlarni professional kuylash uchun xor solfedjio mashqlarini kuylash, kuylaganda ham barcha yo'nailishlariga, ayniqsa, dinamik belgilariga alohida e'tibor berib kuylash xususida qisqacha mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: xor, vokal, solfedjio, artikulyatsiya, intonatsiya, kantata, oratoriya.

Феруза МАНСУРБЕКОВА,
доцент кафедры "Вокал" ГИИКУз

НАИБОЛЕЕ ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ РАННИХ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ О ХОРОВОМ ИСКУССТВЕ У МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В статье дается краткий обзор хорового искусства и сущности хоровых занятий. Даются также краткие замечания о значении вокальных упражнений для формирования голоса учащихся, хоровых упражнений по сольфеджио для профессионального пения, пения с особым вниманием ко всем нюансам, особенно к динамическим признакам.

Ключевые слова: хор, вокал, сольфеджио, артикуляция, интонация, кантата, оратория.

Feruza MANSURBEKOVA,
associate professor of the chair "Vocal" of the UzSIAC

THE MOST EFFECTIVE WAYS TO FORM EARLY KNOWLEDGE AND SKILLS ABOUT CHORUS ART AT YOUNG PEOPLE

Abstract. The article provides a brief overview of choral art and the nature of choral lessons. There are also brief comments on the importance of vocal exercises to shape students' voices, choral solfeggio exercises for professional singing, and singing with special attention to all the nuances, especially the dynamic signs.

Key words: chorus, vocals, solfeggio, articulation, intonation, cantata, oratorio.



Mamlakatimizda yoshlarning hayotga mustaqil qadam qo'yib, o'z o'rinlarini topishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Ayni shu masalada bir qator tizimli hamda samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni¹ qabul qilindi. Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning bandligini ta'minlash, yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yosh avlodda mustahkam

vatanparvarlik g'oyasi hamda qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amalga oshirilmoqda².

Shu o'rinda aytish lozimki, joriy yilning 28-yanvar kuni davlatimiz rahbari raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida eng dolzarb hamda juda muhim vazifalar belgilandi. Prezidentimiz tomonidan ta'kidlanganidek, har bir viloyatda pedagogika institutlari, universitetlar, akademik litsey va ixtisoslashgan maktablar o'qituvchilaridan iborat "mobil metodik guruhlar" tashkil qilinadi. Ular ta'lim sifati past bo'lgan maktablarga borib, pedagoglarga yangicha o'qitish uslublarini tushuntiradi va ko'maklashadi. "Umuman, o'qitish metodikasi, darsliklari, partadan tortib, binosigacha to'liq qayta ko'rib chiqamiz. Ta'limga, muallimga sharoit yaratmasak, jamiyat o'zgarmaydi. Tuman, viloyat va respublika darajasida Maktab ta'limini isloh qilish kengashlari tuziladi. Respublika kengashiga

¹ Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'RQ-406-son, Toshkent: 2016-yil, 14-sentabr.

² O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6017-son farmoni. Toshkent: 2020-yil, 30-iyun.

shaxsan o'zimiz rahbarlik qilaman. Tuman va viloyat kengashlariga esa hokimlar bosh bo'ladi"³.

Ta'kidlash joizki, yoshlarni go'zallikni sevadigan, qadrlaydigan hamda fikrlash doirasi keng, yetuk va madaniy saviyasi yuqori inson bo'lib kamolga yetishishida musiqaning, ohangrabo qo'shiqlarning, shu jumladan, xor san'atining ham ahamiyati beqiyosdir. Chunki mazkur san'at yoshlarda jamoa bo'lib ishlash, bir-birini tinglash, tushunish, o'zaro hurmat qilish, xatolar ustida birga ishlashni rivojlantiradi. Insonni ezgulikka, vatanparvarlikka, do'stlik va qardoshlikka chorlaydi. Xor qo'shiqlari musiqqa san'atining gultoji sifatida tinglovchilarga yuqori estetik zavq bag'ishlashga, faol badiiy ijod va muloqotga jalb qilishga qodir kuch ekanligini ham e'tirof etish lozimdir. Qolaversa, xor san'ati asarlari nafaqat qalblarga orom beradi, balki estetik didni oshiradi, ruhni tarbiyalaydi, ma'naviy kamolotga yetkazadi va madaniy saviyani yuksaltiradi. "Xor san'ati o'zining qadimiy musiqqa madaniyatini ifodalashda uzoq tarixga yondashadi. Uyg'onish davrida xor san'atida katta o'zgarish – ko'p ovoqli xor ijrochiligi paydo bo'ldi. Xor san'atining yanada chuqurroq ravnaq topishiga "a'capella" ijrosida kuylashning paydo bo'lishi asos bo'ldi. XV–XVI asrlarda yashab o'z ijodida ko'p ovoqli asarlar yaratib kelgan – J.Palestrina, O.Lasso, K.Janeken kabi polifonist-kompozitorlar o'z hissalarini qo'shdilar"⁴.

"XIX asroxirlarida atoqli xordirijori A.Arxaangelskiyning professional xori dunyo bo'ylab tanildi. Xor jamoasining tiniq kuylashi, xor ansamblining mukammallashuvi turli ko'p ovoqli asarlarni yuqori saviyada namoyish etishga olib keldi. Yuqori malakali dirijor, kompozitor va ustoz A.Arxaangelskiy rus xor san'atini yuksaklarga ko'tarishga sababchi bo'lgan ijodkorlardan biri. Kompozitorlar ijodi xor san'atining turlanib, janrlar nuqtai nazaridan keng qamrovga ega bo'lishida muhim o'rin tutadi. A.Alyabyevning xor uchun asarlari, A.Dargomiyskiyning "Peterburg serenadalari" so'zsiz xor bo'lib ijro etishning ilk namunalari bo'lib qoldi. P.Chaykovskiy, N.Rimskiy-Korsakov, M.Musorgskiy, S.Kyui, E.Nappravnik, A.Arenskiy, I.Ippolitov-Ivanov, A.Grechaninov, V.Kalinnikov, P.Chesnokov, S.Taneyev kabi kompozitorlar ijodida xor uchun yozilgan "a' capella" uslubidagi asarlar xor san'atining yangi pog'onaga ko'tarilishiga asos bo'ldi. Ularning asarlari bugungi kunda ham o'z mavqeini yo'qotgan emas"⁵.

Xor uchun jamoaviy ish muhim va har bir xonanda o'zini jamoaning bir qismi sifatida his qilishi muhim. Qo'shiqchilar birgalikda bajaradigan qiziqarli vokal mashqlari – bunga erishishning ajoyib usulidir. Ushbu mashqlar qo'shiqchilarga yaxshi holatda nafas olish,

diksiya va ovoz balandligi kabi texnikalar ustida ishlash imkonini yaratadi. Pedagoglar xonandalarga ularning kuylash texnikasi haqida ma'lumot berish orqali qo'shiqchi sifatida o'ziga va xordagi o'z o'rniga ishonchini yanada oshirishga yordam beradi. O'quv xori bilan olib borilgan, usluban jihatidan to'g'ri va maqsad sari yo'naltirilgan vokal-xor ishi pirovardida badiiy yuksak natijalarga erishish imkonini beradi. Xor jarangi yorqin va ifodali bo'lib, jamoaning ijrochilik imkoniyatlari sezilarli ravishda kengayadi va lombr palitrasi ham boyib boradi. Talabalaning musiqiy eshitish qobiliyati o'z xonishlarini umumxor va ansambl jarangi bilan koordinatsiyalashlari uchun aynan unga qaratilgan bo'lishi kerak. "Xor jamoasi har bir qatnashchi o'zini qimmatliman, deb his etmaguncha yaxshi ansamblga erishmaydi"⁶. Xor san'ati g'arbda vujudga kelgan deb qaralsada, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida ham jamoa bo'lib kuylash, xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan azaliy qo'shiqlariga, musiqiy merosiga ega bo'lgan. Turli ko'rinishdagi jamoa bo'lib kuylash jarayoni o'zbek folklorida ayrim janrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Mamlakatimizda bolalar xor san'atining rivojlanishida, shuningdek, R.Glier va V.Uspenskiy nomidagi Respublika maxsus musiqqa akademik litseylari, Badiiy Akademiya huzuridagi Tasviriy va amaliy san'at litseyi, H.H.Niyoziy nomidagi Respublika musiqqa kolleji, Yu.Rajabiy nomidagi Pedagogika kolleji va boshqa kelajakka intilgan o'rta va musiqqa maktablarining xor jamoalarini Respublika miqyosida amalga oshirayotgan ijodiy faoliyatini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlash lozim⁷.

Maktab o'quvchilarining turli xil vokal ko'nikmalarini egallashi yaxshi uyg'un xor tovushining hal qiluvchi shartidir. Bolaning ovozi kompleks rivojlantirish yo'lini aks ettiradigan harakatda: qo'shiq aytish, nafas olish va u bilan chambarchas bog'liq nafas olishda tovushni qo'llab-quvvatlash mahorati, tovushni to'g'ri shakllantirish, aniq fanlarni yaxshi bilish, qo'shiq diksiyasi kabi fiziologik tizimlar ishtirok etadi. Bolalik davrida ovozni to'g'ri shakllantirishning boshlang'ich davri bo'lsa, o'smirlikda katta o'zgarishlarga qadam qo'yiladi. Boisi, bu davrda yoshlar jismonan va hissiy jihatdan, shuningdek, atrof-muhitga yo'nalishida o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlarning barchasi o'smirning musiqqa bo'lgan munosabatiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu tez o'sish davrida yoshlarni muvofiqlashtirishda ko'pincha noqulayliklar yuzaga keladi. Qo'shiq aytish mushaklarning harakatini o'z ichiga olgan faoliyat bo'lganligi sababli, bu muvofiqlashtirishning yetishmasligi ovozgaham ta'sir qiladi. O'smirlik davrida yuz beradigan jismoniy o'zgarishlar ko'pincha muvaffaqiyatli vokal rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Ovozni shakllantirish mashqlaridan foydalanadigan xor dasturi umumta'lim maktabi o'quvchilarida nafasni nazorat qilish va ohang ishlab chiqarishni yaxshilaydi. Yagona maqbul model esa to'g'ri tarbiyalangan o'smir ovozi o'zini hisoblanadi. Ularga halqumning jismoniy rivojlanishi, ovoz bo'laklarining cho'zilishi, o'sish jarayonida yuzaga keladigan bu va boshqa o'zgarishlar qo'shiq aytish va nutqqa qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumot berish kerak.

Xor san'atida musiqiy ifodaviylik vositalari muhim ahamiyatga egadir. Ularga – dinamika, ritmika, temp va

³ Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi. Toshkent: 2022-yil, 28-yanvar. <https://president.uz/>

⁴ Mansurova G. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash. T.: Yangi nashr, 2008. – B. 88.

⁵ O'sha manba.

⁶ Mike Brever. "Fine-tune your choir". England.2004. e. 12.

⁷ G.Mansurova. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti, –T.Yangi Nashr. 2008.

⁸ Harrison.L. "It's more than just a changing voice" // Choral Journal. 1978.

jumlalash kiradi. Agar xor o'z navbatida, sof intonatsiya va sozga, ansamblga va so'z talaffuziga, vokal-xor texnikasiga ega bo'lib, lekin ijroning badiiy ifodasi sust bo'lsa, asarning g'oyaviy mazmuni tinglovchilarga yetib bormaydi. Xor ijrosida jumalash qobiliyati har qanday dinamik xususiyatlardan to'g'ri foydalanish malakalarini o'stirib, ifodali ijroga zamin yaratadi. Jumalash qobiliyatlariga:

- *dinamika;*
- *sezura;*
- *agogika;*
- *nafas;*
- *tembr;*
- *artikulatsiya;*
- *ritm;*
- *temp;*
- *fermato kabi musiqiy ifodalar kiradi.*

Dinamik xususiyatlarga – forte, piano, sforsando, aksent, pianissimo va fortissimo, krescendo va diminuendo, shuningdek, subitopiano kabilar kiradi. Shunday qilib, asar bir xil nyuansda emas, balki har xil ijro etilishi, har bir bandning dinamikasi uning so'z mazmuniga mos bo'lishi lozim⁸.

Talabalarga ovozdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish uchun xor rejissorlari har kuni bir necha daqiqa vaqtini sarflaydi. U qo'shiqchilarning ovoz ohang sifatini oshiradi. Ko'pchilik yoshlar ovozlari yetuklik davriga kelganda san'atkorlarning ovozini o'ziga model sifatida tanlab oladi. Ammo ko'p hollarda bu ijobiy natija bermaydi.

Yaxshi ovoz ishlab chiqarish tamoyillari iloji boricha batafsil tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shiqchilarga ma'lumot berish ularga o'zlarining ijro mahoratini rivojlantirishda ushbu tushunchalarni tushunish va samaraliroq qo'llash imkonini beradi⁹. Demak, qo'shiqchi qanchalik ko'p ma'lumotga ega bo'lsa, vokal mexanizmining qanday ishlashi va ushbu mexanizmning samaraliroq ishlashi uchun u qanday tuzatishlar kiritishi kerakligi haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Har bir xonanda uchun to'g'ri ovoz qismini va xor kuylash uchun mos materialni tanlash ham muhimdir. Alohida qo'shiqchilar bilan jiddiy muammolarga duch kelganda, laringologga murojaat qilish kerak bo'ladi. H.Hulsning fikricha, o'qituvchilar o'z o'quvchilarining jismoniy, aqliy va hissiy imkoniyatlarini hurmat qilsalar, o'smirlar o'zlarining qo'shiq ovozlari rivojlantirishlari mumkin¹⁰.

Xor jamoasining ijrochilik malakasi vokal- xor ijrochilik mahoratlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, hamohanglik, soz, talaffuz, badiiy ifoda vositalari, nafas olish, tovush hosil qilish va uni shakllantirishdan iboratdir. Xor jamoasi bilan ishlashda qo'shiq aytishni boshlashdan oldin vokal-xor talablari darajasida ovoz qizdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz ustida ishlash jarayonida ovoz unsurlari uyg'un harakatda bo'lishi talab etiladi. To'g'ri uyg'unlashish natijasida murakkab ovoz apparati tizimi vujudga keladi. Mashqlardan so'ng xor asarlaridan kichik bo'laklarni ham dinamik belgilar asosida kuylash kerak. Bunda har bir taktlar o'zaro dinamik belgilar asosida yaxlitlikni tashkil etishi lozim. Talaba kuylash jarayonida mashqni qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondashishi shart. Bu uchun har bir mashqni talabaga kuylashni tavsiya etishda uni nafaqat kuylab ko'rsatish, balki uning asosiy maqsadini ham mufassal tushuntirish lozim. Shunda talaba ongli ravishda ovozi to'g'ri yo'naltiradi hamda fonetik va texnik qiyinchiliklarni oson yengib o'tadi. Eng avvalo, ovozni erkin va to'liq chiqishini diapazonning o'rta qismida yangratishga erishish lozim. Shundan so'ng diapazonning yuqori tovushlarini kuylashga o'tish mumkin.

Ish jarayonida ustoz nihoyatda xushyor bo'lishi, tomoq siqilishi, artikulyatsiyaning noto'g'ri pozitsiyada ekanligi va ovoz toliqishini o'z vaqtida payqab, zarur choralar ko'rishi shart. Tovush nafas va ovoz apparatlarining harakati natijasida hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan tovushni rezonatorlar kuchlantirib turli tembr beradi. Xorda ashula aytish jarayonida jamoa xarakterini ko'rsatib o'tish juda muhim. Xor ijrochiligida vokal, solfedjio mashqlarisiz mukammallikka erishib bo'lmaydi. Xorda kuylash musiqaviy nutqqa ega bo'lishga, xor ishtirokchilarining musiqaviy qobiliyatlarini yanada aniq va chuqurroq namoyon etishga yordam beradi.

Xor jamoasining ijrosi go'zal, tinglovchilarga yoqimli bo'lishi, o'z navbatida, jamoaning ijro vaqtidagi holatiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Jamoa a'zolari ijro vaqtida, albatta, tik turgan holatda bo'lishlari lozim. Ammo tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tirgan holatda ham o'tkazilishi mumkin. Biroq bunday holatda gavdani to'g'ri tutish, yuz, bo'yin, yelka mushaklari erkin bo'lib, kuylayotgan paytda xalqum va pastki jag' tomoqni siqmasligi, boshini erkin tutishi tavsiya etiladi.

⁹ Henry, J. D. "The effect of a systematic choral warm-up strategy on student pitch-matching skills, knowledge of intonation concepts, and self-reported attitudes toward singing"// Music Educators National Conference National Convention Poster Session, New Orleans 1992, April.

¹⁰ Huls H.S. "The adolescent voice: A study. New York. Vantage Press

XORAZM XALFACHILIK SAN'ATI HAQIDA

Annatsiya. O'zbek folklor san'ati ko'plab janrlarni o'z ichiga qamrab olgan. Ushbu maqolada Xorazm vohasiga mansub musiqiy janrlaridan biri xalfachilik san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xalfa, folklor, xalq, ijro, qo'shiq, garmon, soz, doston.

Умида КУРБАНОВА,
и.о. доцент кафедры "Фольклор и этнография" ГИИКУз

ОБ ИСКУССТВЕ ХОРЕЗМСКОГО ХАЛФА

Аннотация. Узбекское певческое искусство охватывает многие жанры, и в данной статье представлена ценная информация об искусстве халфа, его особенностях, одном из музыкальных жанров Хорезмского оазиса.

Ключевые слова: суvara, фольклор, народ, исполнение, пение, гармон, болото, эпос.

Umida KURBANOVA
dotsent of the chair "Folklore and Ethnography" UzSIAC

ABOUT THE ART OF KHARIZM XALFA

Abstract. The art of Uzbek singing covers many genres. This article provides valuable information about the art of Xalfa, one of the musical genres of the Khorezm oasis, and its peculiarities.

Key words: xalfa, folklore, population, execution, singing.



Insoniyat paydo bo'lganidan to bugungi kunga qadar adabiyot va qo'shiq san'atining janrida xalq og'zaki namunalari foydalanib kelinmoqda. Boisi, u juda qadimiy va ma'naviy meros nishonasi sifatida shaxs kamolotida hamda barcha san'at janrlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, inson dunyoqarashi va tafakkurini boyitadi, kishini ezgulik, yaxshilik va go'zallik olamiga boshlaydi.

Folklor qo'shiqlarida she'riyat, musiqa badiiy estetik vosita sifatida birlashib keladi. Shu jumladan, Xorazm xalfachilik an'anasida, dostonlarida yuksak insoniy fazilatlar, falsafiy, diniy, axloqiy qarashlar kuylanib, muayyan xalqning urf-odatlarini, vatanga muhabbat, yurtga sadoqat va maishiy turmush tarzi o'z ifodasini topadi.

"Nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan xalq ijodiyoti, folklor qo'shiq ijrochiligi O'zbekistonimizning har bir hududida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Har bir hududning folklor qo'shiqlari, urf-odatlarini, milliy kiyimlari, milliy raqslari va yashash tarzi mavjuddir"[1.B.3].

Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, xususan, o'zbek xalq pedagogikasining tarbiya vositasi bo'lib kelgan. O'zbek xalqi ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish usul va vositalari, yoshlarni vatanparvarlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, mehr-muhabbat tushunchalarini anglashni o'z ichiga qamrab oladi.

Xorazm vohasi azaldan o'zining kuy-qo'shiqlari bilan mashhurdir. Xorazm qo'shiqlari rang-barang janrlardan tarkib topgan bo'lib, inson tug'ilishidan tortib, hayotining so'nggi kunlarigacha bo'ladigan jamiki marosimlar, an'ana va udumlarning barchasi qo'shiqlardan iborat. Xalq o'z fikrlarini soddalik, ravonlik, joziba va jarangdorlik, tabiiylik, samimiylik, qisqa va lo'nda, ayni paytda,

go'zal va ta'sirchan ifodalaydi. Xorazm "xalfa"chilik san'ati dastavval, diniy udumlar va urf-odatlar tarkibida shakllangan bo'lib, keyinchalik oilaviy maishiy marosimlarga ham ko'chgan.

"Ma'lumki, Xorazm mahalliy og'zaki ijod namunalari ijro etuvchi savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo'lgan zukko ayollarni "xalfa" deb yuritiladi. Manbalarda keltirilishicha xalfa so'zi "boshqaruvchi", "ustoz", "o'qimishli" ma'nolarini anglatadi. Ushbu atama arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosi shariat aqidalarini yaxshi biluvchi, o'qimishli kishi tarzida shakllangan. Xalfalar faoliyatida o'z ma'nosini aks ettiruvchi xususiyatlari ham mavjud. Chunki diniy mavzularga oid ma'lumotlarni bilish va xonandalik qobiliyati xalfalar ijodida ma'lum darajada aloqaga ega" [1.B.5].

"Xalfa" so'zi turli tarixiy davrlarda turlicha shakllarga ega bo'lgan. Jumladan, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ni o'qib ularni xotin-qizlar davrasida targ'ib qilgan ayollarni ham qadim pahlaviy tilda "qarpa", sanskrit va xorazm tilida "qalpa" deb atalgan. Biroq bu o'qimishli ayollar faqat diniy mavzudagi kitoblarni targ'ib qilish bilan kifoyalanmasdan, buyuk shoirlar asarlarini, shuningdek, kitobga ko'chirilgan xalq dostonlarini ham kuyga solib o'qishgan va xotin-qizlar dilini xushnud qilib kelganlar. Lug'aviy ma'nosi "kuylovchi" bo'lgan "qalpa" so'zi Xorazm vohasida yashovchi turkiy tilli aholi lahjasida "xolpo", "xalfa" shaklida ommalashib ketgan [2. B.3].

Bu san'atning eshituvchilari, yettidan-yetmish yosgacha bo'lgan erkak va ayollar maroq bilan tinglagan. Ammo islom dini kelishi bilan bu san'at ikki jinsga ajralgan, ya'ni ijrochilik madaniyati ichkari va tashqari guruhlariga bo'linadi. Ichkari guruhlar asosan, ayollar,

tashqari madaniyatida esa erkaklar to'y-u bazmlarda dostonchilik, maqom, katta ashula va milliy cholg'u musiqalaridan bahramand bo'lgan. Ayollar esa ichkari musiqiy san'at turlaridan raqs, yalla, lapar, doston kabi aytimlardan ijro etgan. Xalfalarning ijodi doston nomalarining kuchli ta'siri ostida dasturlarini shakllantirib borgan. Ular kuy-ohang to'qish bilan birga she'rlarini ham o'zlari yaratgan. Mazkur she'rlarda dostonlarga xos badiiy tasvir vositalaridan, tayyor she'riy to'rtliklardan unumli va ijodkorona foydalanishgan. Dostonlarda mavjud misralarni o'zlariga moslashtirib betakror baytlar yaratgan.

Darhaqiqat, Xorazm xalq musiqasida xalfalarning alohida o'rni bor. Ularning xalq musiqasidagi badiiy jarayoni, musiqiy ohanglar majmui, ijrochilik an'analari ham o'ziga hosdir. Ayniqsa, ijrochilik mezonlarini xalq ijodiyotida keng ommalashib ketganligi hozirgi davr musiqi ijrochiligida ham aniq sezilib turadi.

Xalfalar ijro uslubiga ko'ra ikki turga bo'linadi: to'y va bazmlarda qo'shiqlar ijro etuvchi "sozi xalfa" va boshqa marosimlarda kitob o'quvchi "kitobiy xalfa". Ularning ikkalasi ham faqatgina ayollar uchun xizmat qilgan. "Sozi xalfa"lar san'atida jo'rnavozli va yakka ijrochilik mavjud. Ularning ansambli xalfa, doirachi va raqqosadan iborat bo'ladi. Xalfa, doirachi va raqqosa. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ularning uchchalasi ham qo'shiq, lapar ayta oladi. Xalfalar o'zlari ijod etgan kuy va qo'shiqlar bilan cheklanib qolmasdan, repertuaridan "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Oshiq Albani", "Aslxon", "Hurliqo va Hamro", "Tohir va Zuhra", "Go'ro'g'li", "Gulqand", "Sayod va Hamro", "Xirmon dali", "Gulruh pari", "Bozirgon" kabi dostonlar bilan bir qatorda Maxtumquli, Ogahiy, Navoiy, Fuzuliy kabi shoirlar she'rlari va boshqa mualliflarning turli marosimlarga mo'ljallangan asarlari ham o'rin olgan. Xorazm xalqining urf-odatlarini rang-barang bo'lib, ular juda go'zal va chuqur mazmunga ega [1. B.5].

Xalfa qo'shiqlari xalq ruhini, xalq orzu-armonlarini yorqin aks ettirib, ayollar tomonidan ijro etiladigan san'at turidir. Aynan xalfa qo'shiqlari mehnatkash ommaning ozodlik va baxt uchun kurashida madadkor bo'lib, xalqning dardini, ayniqsa, ayollarning hayoti, vatanga muhabbat, do'stga, yorga sadoqat, ota-onaga hurmat g'oyalarni jonli gavdalantirib sodda, ravshan til bilan kuylarga solib badiiy shaklda tarannum qilgan janrdir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, xususan, 1895-yildan boshlab garmon cholg'usini xalfalar san'atiga qo'shilishi bilan ularning ijodi yanada yuqori pog'anaga ko'tarildi.

Xalfachilik san'ati uzoq muddatli ijodiy jarayonda og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib yuzaga kelgan san'atdir. Davrlar o'tishi bilan alohida ijrochilar, qo'shiqchilar, baxshilar, xalfalar o'z mahoratlari bilan yarqirab ko'rina boshladi. Xalfalar ijodini hozirgi kunda "ijodkor, shoira xalfalar", "kitobiy, yakka xalfalar", "Ijrochi sozi xalfalar" kabi uch guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

"Ijodkor, shoira xalfalar" guruhiga Xonim suvchi Said Ahmad qizi, Bibijon Qosim qizi, Onabibi xalfa Sobirova, Onabibi xalfa Otajonova (Ojiza), Nazira xalfa Sobirova, Roziya xalfa Olloyorova, So'na Eshmatova, Roziya xalfa Qozoqova, Rohatoy xalfa Xo'janoyozova kabi xalfalar xalq dostonlarini yoddan bilishgan va badiiy ijod bilan

shug'ullanib, ajoyib she'rlar bitgan. Ularga o'zlari musiqi bastalab, soz chalib kuylashgan.

"Kitobiy, yakka xalfalar"ga – kitoblarni yoddan yoki kitobga qarab, qo'shiq va termalarni sozsiz ijro etadigan xalfalar kiradi. Ular asarlarni yoddan yoki qo'lyozma va kitobdan qiroat bilan badiiy (yoqimli ovozda) o'qiydi. Shuningdek, "Yor-yor"lar, "Kelin salom"lar kabi to'y qo'shiqlarini chiroyli ohangda aytadi. Roziya Matniyoz qizi, Poshsha Saidmamat qizi, Parda xalfa, Oysha xalfa, Niyozjon Musayeva, Guljonposhsha Yusupova, Anorjon Razzoqova kabi xalfalar xalq orasida hurmat-e'tiborga muyassar bo'lgan.

"Ijrochi, sozi xalfalar" ham to'y-bazmlarda, bayramlarda xizmat qilishadi. Sozi xalfalar boshqa mualliflar asarlarini ijro etishadi. Bu turdagi xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni kuylashadi. Ansambl uch kishidan iborat bo'ladi. Xalfa garmon chaladi va ashula aytadi. Doirachi jo'r bo'ladi, raqqosa raqsga tushadi. Tarixdan bizga ayonki, xalfalar o'z ijrolarini, qalb tuyg'ulari, orzu-umidlarini, mehr-muhabbatini cholg'u asboblari jo'rlikisiz, faqat doira chalib, barmoqlarini "shaqillatib" yoki ikkita bo'sh piyolani bir-biriga urib, ulardan chiqqan ovozga jo'r bo'lib kuylaganlar [1.B.5].

Xorazmda garmon cholg'usini "soz" deb ataydilar. Xorazm musiqi san'atiga garmon cholg'usi kirib kelgandan so'ng, xalfalar bu cholg'uni yaxshi o'zlashtirib, o'z faoliyatlarida qo'llay boshlagan. Jumladan, Bibijon Qosim Devon qizi, Xonim xalfa, Onajon Sobirova (Anash cho'loq), Onabibi Otajonova (Ojiza), Yoqut xalfa, Nazira xalfa Sobirova, O'g'iljon xalfa, Sora xalfa, Rohat xalfa Xo'janoyozova, Roziya Olloyorova, So'na xalfa Eshmatova, Roziya xalfa Qozoqova kabi xalfalar o'z yalla-laparlarini garmon cholg'usini chalib kuylashgan.



Xivalik xalfalar opa-singil Zumrad va Zuhra xalfa Madrahimovalar.

Tadqiqotchi T.Jalolov xalfalar ijodiga quyidagicha baho berib, shunday deb yozadi: "Xalfalar marakalarning fayzi, qizlar majlisi va ayollar bazmining malikalari sanaladilar. Ular to'y va marakalarda, sayl, bazmlari, bayram va yaxshi kunlarida qatnashib, shodlikka shodlik, quvonchga quvonch qo'shadilar. O'ynoqi kuylar, nafis raqslar, dilbar qo'shiq, yalla, laparlar bilan san'at ahllarining qalblariga ezgu his-tuyg'u ulashadilar" [3.B.3.].

Shuni ham aytish zarurki, xalfalar mazkur mazmundagi asarlar bilan cheklanib qolmay, boshqa muhim mavzularda ham o'tkir tanqidiy she'riy lavhalarni va termalarni aytib kuylagan. XIX asr oxirlaridan bizning davrimizgacha ijod qilgan va xalq orasida katta obro'ga ega bo'lgan xalfalar Xonim xalfa (1858–1926), Shukurjon xalfa (1859–1932), Bibijon xalfa Qosimova (1876–1920), Onajon xalfa Sobirova (1885–1956), Onabibi xalfa Otajonova (Ojiza, 1901–1951), Sharifa xalfa Otasheva (1900–1972), Guljon xalfa Yusupova (1906–1990), Pardagul xalfa (1907–1988), Soraxon xalfa Ollaberganova (1911–1973), Roziya xalfa Olloyorova, Oysha xalfa Erkaeva (1914–1985), Roziya xalfa Qozoqova (1920–1996), Nazira xalfa Sobirova (1923–2011), Shukur xalfa Davlatova (1929–1998), Nazira xalfa Boyjonova (1931–2011), Maryam xalfa Qurbonova, Rohatoy xalfa Xo'janiyozova (1955–2010) kabi ajoyib san'atkor ayollarimiz Xorazm xalfa qo'shiqchilik san'ati rivojiga va bizning davrimizgacha yetib kelishida o'z hissalarini qo'shganlar. Bularning aksariyati otinlar, yani kitobiy xalfalar bo'lib, xalq orasida ma'rifat tarqatgan [4.B.30.].

Xalfachilikning dastlabki ko'rinishlari asosan, o'ziga xos ishqiy dostonlar ijrosi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, lapar, yalla, qo'shiq, terma janrlarini o'z ichiga oladi. Qo'shiq, kuy, musiqqa va she'rning qo'shilgani, nisbatan kichik diapazonli musiqiy matni bo'lib, xalfalar ijrosida ajoyib ko'rinishga ega bo'ladi. Misol tariqasida "Targ'uncha", "Xiva dudori", "Go'ring to'yni

tomoshosini", "Tuninay", "Xurshidi jahon galdi", "Arka qizlar", "Par devol", "O'lguncha sizni derman", "Qaydadir bilmam dildorim". Bu asarlar zamonlar osha sayqallashib, bizning davrimizgacha yetib keldi.

Ustozlar yaratgan xalfachilik maktabi hozirgi kunda Xorazm vohasida davom etmoqda. Hozirgi kunda xalfachilik yo'nalishida ijod qilayotgan xalfalardan: Ra'no xalfa Allaberganova, Zumrad xalfa Boltayeva, Zuhra xalfa Madrahimova, Poshshajon xalfa Ibragimova, Sanobar xalfa Qilicheva, Shirin xalfa Jumaniyozova, Feruza xalfa Fayzullayeva, Nodira xalfa Bog'ibekova, Xurshida xalfa Eshniyozova, Manzura xalfa O'razboeva, Zulxumor xalfa Qulmetova kabi bir qancha xalfalar "xalfachilik" san'atini nafaqat O'zbekistonda, balki xorij davlatlarida o'tkaziladigan davlat tadbirlarida qatnashib, xalfachilik san'atini dunyoga olib chiqmoqda.

Boy va betakror bo'lgan Xorazm xalq ijodini yanada chuqurroq o'rganish va kelajak avlodga o'rgatish va saqlab qolish bizning bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimizdan biri sanaladi. Ma'lumki, yoshlarni odob-axloq, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analарimiz ruhida tarbiyalashda o'zbek folklor ijrochiligi muhim rol o'ynaydi.

Badiiy tafakkurning betakror mo'jizalarini o'zida mujassamlashtirgan xalq og'zaki poetik ijodiyot namunalari shu muqaddas zaminda ming yillar mobaynida yashab kelgan ota-bobolarimiz iqtidori va so'zga chechan momolarimizning ijodiy salohiyati mahsuludir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro'zimboyev S. "Ojiza". – Toshkent: 2003. 3-9-betlar
2. Yunusov R. "Xiva xalfalari". – Urganch: Xorazm nashriyoti. – 2020.3 – 4-betlar.
3. Yunusov R. "Olti xalfa". – Urganch - 1994. 4-7-betlar
4. Kurbanova U. "Folklor qo'shiq ijrochiligi". – Toshkent. Turon Iqbol - 2014. 29-30-betlar.

O‘ZBEKISTONDA TANBUR CHOLG‘USI IJROCHILIGI USLUBLARINING TURFA XILLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda tanbur cholg‘usi ijrochiligi uslublarining turfa-xilligi, tanbur cholg‘usi ijrochiligi amaliyoti masalalarini tarixan hamda tanburchi ustozlar maktabi silsilasida chuqur o‘rganib, ilmiy yoritib berilgan. Tadqiqotning muhim jihati shundaki, nazariy-uslubiy jihatdan yoritib berilgan ko‘rsatmalar ijro mobaynida ustozlar maktabi va hududiy uslublarni bir-biridan farqlagan holda tanbur ijrochiligini mukammal o‘rganishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: tanbur, tillo nohun, zahma, maqom, uslub, Xorazm, Buxoro, Toshkent – Farg‘ona, T.Alimatov, kashish, yakka zarb, titrama.

Абдуфаттох АБДУГАППАРОВ,
доцент государственной консерватории Узбекистана,
заведующая кафедрой «Музыкальная педагогика»

РАЗНООБРАЗИЯ СТИЛЕЙ ИСПОЛНЕНИЯ ТАНБУРА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье подробно изучены и научно освещены вопросы многообразия стилей игры на танбуре – исполнительства в Узбекистане, практики инструмента танбур-исполнительства в комплексе школ мастеров музыкального инструмента танбур. Важным аспектом исследования является то, что теоретико-методически освещенные методические рекомендации помогают в совершенстве изучить исполнение танбура, отличая во время исполнения школу мастеров и локальные стили друг от друга.

Ключевые слова: танбур, золотой нохун, захма, маком, метод, Хорезм, Бухара, Ташкент – Фергана, Т.Алиматов, (кашиш, якка зарб, титрама - итрихи).

Abdulfattox ABDUGAPPAROV,
State Conservatory of Uzbekistan head of the “Music pedagogy” chair,
associate professor

VARIETIES OF PERFORMANCE STYLES OF TANBUR IN UZBEKISTAN

Annotation. This article examines in detail and scientifically highlights the issues of the diversity of styles of playing the tanbur – performance in Uzbekistan, the practice of the tanbur-performance instrument in the complex of schools of masters of the tanbur musical instrument. An important aspect of the study is that the theoretical and methodological illuminated guidelines help to study the performance of the tanbur perfectly, distinguishing the school of masters and local styles from each other during the performance.

Keywords: tanbur, golden nohun, zahma, makom, method, Khorezm, Bukhara, Fergana – Tashkent, T.Flimatov, (kashish, yakka zarb, titratma-streaks).

Maqom san‘atiga doir tarixiy manbalar, mumtoz musiqa risolalari, turli maqomot maktabi vakillari ijro etgan namunalarning audio tasmlari, ularning suhbatlari, e‘tibordan chetda qolgan nota yozuvlari va eski tanbur chizig‘i matnlarining o‘qilishi, davlat va shaxsiy kolleksiyalardagi hujjatlar, kundaliklar, bayozlar, fotosuratlar, taniqli hofizlar qo‘llagan dastak (she‘riy daftar)lar kabi talay ma‘lumotlarni yig‘ish va tadqiq qilish olimlarimiz e‘tiboridan chetda qolmagan. Bularning hammasi bir butunlikda maqomotning odatdagi tadqiqot doirasini favqulodda kengaytirib yuborgan.

Maqom ijrochiligida ikkita asbob – doira va tanbur yetakchi cholg‘u sifatida gavdalanadi. **Doyra** – maqomlarning nafaqat usul jo‘rligi, balki kuy harakatining

asosini tashkil etuvchi vazn o‘lchovlari hamda iyqo‘ birliklarining eng nozik tomonlari va tub xususiyatlari aks ettiriladi. **Tanbur** esa umuman olganda maqomot ramzi¹. Tanburning yetakchi soz sifatida qayd etilishi shunchaki yuzaki gap emas, balki Xorazm maqomlari tarixida paydo bo‘lgan burilishni anglatuvchi tushuncha o‘rnida turadi. Oldinlari Xorazm mumtoz musiqasining bosh cholg‘usi va “kaliti” **dutor** bo‘lgan. Shashmaqom tamoyillarining kirib kelishi bilan esa **tanbur** maydonga chiqadi. Xorazmda toifalarni tanbur va dutor maqomlariga ajratish ham ana shu nuqtadan boshlanadi. Tanbur ijrochiligida eng yuksak yutuqlarga erishgan cholg‘uchilarga “tillo noxun” deb nisbat berilgan². Qadimda zaxma – tanbur ijrosida o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘iga kiyiladigan noxun, *zuhra* – falaksiymolar torida kuy chaladigan afsonaviy sozanda, go‘zallik timsoli sifatida qaralgan.

Mulla Bekjon va Muhammad Yusuf ta‘biridagi xonlar zamoniga oid ma‘lumotlarni “Xorazm musiqiy

¹ Matyoqubov O. “Maqomot”. T.: “Musiqqa” nashriyoti. 2004. 13-bet.

² O‘sha manba.

tarixchasi"ning o'zidan topish mumkin. Undan bir ikki lavhani izohlab o'taylik: Muhammad Rahimxon I (1807–1826) zamonida mashhur musiqashunos Xivalik Niyozjon Xo'ja degan Buxoro o'lkasiga borib burundan ma'lum bo'lgan Shashmaqom yo'llarini tanbur bilan o'rganib, Xivaga qaytgan ekan. Shu Niyozjon Xo'jadan Mahsumjon qozi, Usto Muhammadjon sandiqchi deganlar Shashmaqom yo'llarini tamom o'rganadilar³. Ular o'rgangan nag'malarni havaskor shogirdlariga ta'lim qilmoqqa boshlab ko'pgina tanburchi shogirdlar yetishtirgan.

Aytishimiz mumkinki, har bir vohaning uslubi bor, har bir xonandaning, har bir sozandaning ijro maktabiga xos uslublar ham bor. Bu uslublar bir biri bilan oddiy havaskorlik ijrosidan murakkabligi bilan farq qiladi. O'ziga xosligi va har bir vohani an'anaviy ijro mutaorifini, ya'ni urflarini ifodalash bilan albatta bir biridan farq qiladi. Buxoro an'anaviy tanbur ijrochiligida, albatta, maqomni ta'siri juda kuchli. Har bir maqom (parda) tanburda o'z o'rniga ega. Maqomlarni ilk notaga olgan olim V.Uspenskiyni tadqiqotlarini kuzatadigan bo'lsak, u yerda tanbur Iroq maqomida birinchi sim *fa* tovushiga sozlanadi. Shunda Iroqni pardasi *lya* tovushidan boshlanib ijro etiladigan bo'lsa, tanbur *fa* ga sozlanganda tanburning yuqoridan ikkinchi bog'lami *lya* tovushiga to'g'ri keladi. Shunda o'zidan o'zi minor paydo bo'lib, Iroq maqomi tovushqatori hosil bo'ladi. Demak, avj pardalarni kelishiga qarab tanburning sozi o'zgartiriladi⁴. O'shanda boshqa maqomlarda ham, Sarahborlarda ham avjlarida keladigan eng yuqori pardalarda ovoz qiynalib qolmaydi. Shunda parda o'zgarishi mumkin, lekin o'rin o'z joyida qoladi. Shu ma'noda maqomlarni tanburda o'z pardasi bor deyilishi to'g'ri, ammo o'zini o'zni, o'zini boshlanish pardasi bor deyilsa to'g'riroq bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, Buxoro tanbur ijrochiligida maqomlarni boshlanish pardasi o'zgartirmaydi, faqat soz o'zgaradi. Bu ham an'anaviy tanbur ijrochiligi uslubiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Qolaversa, Buxoroda tanbur sozi tik ushlanadi. Buxoro tanbur ijrochiligida titrama (vibratsiya)li tovushlar ko'p bo'lgani uchun tik ushlanib parda bosilganida barmoqdagi kuch ko'proq pardani sadolantirishga ketadi. Bu holatda tanburda to'xovsiz vibratsiya berib turishda qo'l charchamaydi.

Aytish mumkinki, Buxoro tanbur ijrochiligida yakka zarb, pirrang, zarbi parron (uchma zarb), qo'shzarb kabilar bilan birgalikda bilak zarb ham ishlatiladi. Bunda tanbur kosasini ushlab turgan barmoqlar ham nohun taqilgan barmoq bilan birga 5 ta barmoq arpedjio yo'sinida birin ketin harakat qilib, o'ziga xos shtrix paydo qiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, Farg'ona – Toshkent tanbur ijrochiligida Tanbur sozini dastasini o'ziga qaratgan holda ushlanadi. Buning sababi, boshqa uslublarga qaraganda, Farg'ona – Toshkent tanbur ijrochiligida ko'proq *kashish melizmlari* ishlatiladi va titroq tovushlar (vibrasiyalar) amplitudasi juda kichik va tez harakatda

ijro etiladi. Ijro bezaklaridan hisoblangan "to'lqinlatish" (vibrato) ni cho'zimiga qarab, uzun va qisqa ya'ni butun, yarimtalik, chorak, hamda nimchoraktalik notalarni ifoda etilishi voha ijrochiligining o'ziga xosligidan darak beradi.

Ustoz san'atkor Ro'zmat Isaboyevning ijrosida Buxoro uslubiga yaqinlik kuchli bo'lgan. Chunki u yakka zarblardan ko'proq foydalangan. Mana shu maktablarning eng mukammal va chiroyli, o'ziga xosligi o'laroq, Farg'ona – Toshkent an'anaviy tanbur ijrochiligida Turg'un Alimatov maktabi paydo bo'ldi, bu maktab bugun ham ancha mashhurdir. Bu maktab ijrosi kashishlarni chuqurlashtirdi, ilgari bir ladda yarim parda yoki bir parda miqdorida kashishlar amalga oshirilsa, Alimatov ijrosida bir yarim pardaga borib yetdi.

Turg'un Alimatov o'zbek tanbur ijrochilik an'anasida yangi bir uslub yaratishga muvoffaq bo'lgan bilimdon san'atkordir. Eng axamiyatli bo'lgan tomoni bu – tanbur ijrosida noxunni yuqoridan pastga emas, balki pastdan yuqoriga yo'naltirib sadolantirishdir. Bu ijro uslub oxirgi paytlarda tanbur ijrochilari tomonidan keng qo'llanib kelinmoqda.

Turg'un Alimatov ijro uslubidagi o'ziga xoslikni ikkinchi jihati "nola" dir. Albatta har qanday nola ham meyorida bo'lishi kerak. Chuqur nolalar xam bor, lekin ularni bo'lingan xolda (bir pardada) talqin etilishning muhimligi qayd etiladi. Shu bilan birga qisqa nolalar ham muhurlangan va jozibaligiga e'tibor beriladi. Eng avvalo bu ijro uslubidagi "kashish" uslub bilan bog'liqdir. Uchinchi jarayon bu "pirrang" bilan "gili-gili" ning o'rnida qo'llash va unga e'tiborli bo'lishdir⁵.

Turg'un Alimatovning ijro uslubida nohunning pasdan yuqoriga harata chirtish alohida ajralib turadi. Bunday amal tanburda chiqayotgan ovozni yanada mayin, yoqimli bo'lishini ta'minlaydi. Bu borada Turg'un Alimatov Shunday deydi: "Tinglovchiga yakka noxun ham kerak. Lekin, orasida pirrang qo'yilsa yanada chiroyliroq bo'ladi. Bir san'atga yana bir san'at qo'shilgan bo'ladi. Keyin bir usulda, bir nohunda yursa bir eqlama bo'lib qoladi"⁶. Turg'un Alimatov o'z ijro uslubini shakillanish jaraenida musiqiy merosimiz namunalarini orasidan turli sur'at va xususiyatidagi kuylarini tanlab olib, ularni me'origa yetkazib chalishni mashq qildi. Mungli kuylarga chuqurroq "nola", "kashish", "molish", "rez", tez sur'atli quvnoq kuylarga "pirrang", "teskari zarb", "ufor zarb" va mayda zarblar ishlatib, musiqiy asarlarni yanada jozibali bo'lishga erishdi.

Tanbur ijrochilik amaliyotida T.Alimatov uslubini davom ettirayotgan yoshlar talaygina. Ularning orasida mohirlik darajasida o'zlashtirgan ustozning davomchilari ham mavjud. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Toir Qo'ziyev, Abror Zufarov, O'ktam Rasulov, Shuhrat Xolxo'jayev, Farhod Mirzayev, Farrux Mirzayev kabi yosh iste'dod egalari shular jumlasidandir. O'ylaymizki, shu uslublarni chuqur o'rganib borayotgan yoshlar, keyingi avlod yanada chiroyli va yangi uslublarni yaratishadi.

Ustozlar merosi ikki-uch naslga o'tib, ma'lum bir maktabni tashkil qiladi. Har bir yangi avlod o'zidan nimadir qo'shib, ustoz yo'lini obod etishi taqozo qilinadi. Shu tariqa doimiy yangilanish – an'anaviy san'atning yashash qonuni yuzaga keladi. An'ana – bu mavjud narsalarni shunchaki takrorlash emas, balki o'tmish merosni chuqur hazm qilib, qaytadan dunyoga keltirish, unga yangi hayot baxsh etishdir.

³ Matyoqubov B. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. "Xorazm musiqiy tarixchasi". "Yozuvchi" nashriyoti 1998. 9-bet

⁴ O'. Rasulov bilan suhbatdan. 10-fevral. 2022-yil.

⁵ Umarov A. "Cholg'u ijrochiligi". T.: 2006.

⁶ Rasulov O'. bilan suhbatdan. 10-fevral. 2022-yil.

“VOKAL” KAFEDRASASI YARATILISH TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek musiqali dramasi vokal san’atining ahamiyatiga, O‘zbekistonda musiqali drama janrining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan. Teatr va vokal san’atining rivojlanishiga, aktyor shaxsini tarbiyalashga ulkan hissa qo‘shgan katta sahna ustalari haqida so‘z yuritiladi. Vokal faoliyatini rivojlantirishga, bo‘lajak aktyorlarning badiiy didini vokal san’ati vositasida tarbiyalashga hissa qo‘shadigan o‘qituvchi faoliyatidagi ijodiy yondashuv, insonning did, idrok, his bilan ifoda etiladigan estetik fazilatlarini xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: musiqiy teatr, musiqiy drama va komediya, opera, akademik qo‘shiq, vokal san’ati, an’anaviy qo‘shiq, ariya, ijodiy yondashuv.

Айниса ЮЛДАШЕВА,
преподаватель кафедры «Вокал» ГИИКУз

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ КАФЕДРЫ «ВОКАЛ»

Аннотация. Данная статья посвящена роли вокального искусства в узбекской музыкальной драме, возникновению и развитию жанра музыкальной драмы в Узбекистане. Ведётся речь о мастерах большой сцены, внесших огромный вклад в развитие театрального и вокального искусства, и в воспитании личности актёра, о творческом подходе в работе педагога, который способствует развитию вокальной деятельности, воспитанию художественного вкуса будущих актёров средствами вокального искусства, эстетических качеств человека, которые выражены вкусом, восприятием, чувством.

Ключевые слова: музыкальный театр, музыкальная драма и комедия, опера, академическое пение, вокальное искусство, традиционное пение, ария, творческий подход.

Aynisa YULDASHEVA,
lecturer of the chair “Vocal” UzSIAC

ESTABLISHMENT OF THE "VOCAL" DEPARTMENT

Abstract. This article is devoted to the importance of art, the emergence and development of the genre of musical drama in Uzbekistan. About the great masters of the stage who made a huge contribution to the development of theatrical and vocal art, the education of an actor's personality. A creative approach to the work of a teacher, contributing to the development of vocal activity, artistic taste of future actor's through the art vocal, about the aesthetic qualities of a person, expressed in taste, perception, feeling

Key words: musical theatre, musical drama and comedy, opera, academic singing, vocal traditional singing, aria, creativity.



O‘zining tarixi va an‘analariga ega bo‘lgan musiqali teatr O‘zbekiston madaniy hayotida munosib o‘rin egallaydi. O‘zbek musiqali teatrining paydo bo‘lishi va rivojlanishining boshlanishi XX asrning 30-yillariga to‘g‘ri keladi. Ana shu davrda musiqali drama janri shakllandi, repertuar yanada boyitilib, xalq orasida tobora ommalashib bordi. O‘zbek musiqali dramasi xalqning kundalik hayotiga uning badiiy madaniyati tarixidan ajralmas bo‘lagi sifatida san’atning eng mashhur turlari va janrlarini birlashtirib, ulkan asrlik badiiy salohiyatni o‘zida mujassam etgan.

O‘zbek musiqali dramasi aktyorlik san’ati o‘zini rivojlanishining har bir bosqichida jamiyatning ma’naviy boyligidan quvvatlanib, uzoq yo‘lni bosib o‘tmoqda. Ushbu janr o‘zbek opera teatrining shakllanishida ham muhim rol o‘ynadi. O‘zbek opera san’ati rivojlanishining ko‘plab masalalari, xususan, musiqiy dramaturgiya, aktyorlik va rejissorlik san’ati, vokal va xoreografiya o‘zbek musiqiy dramasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu ikki janr san’ati bir yo‘nalishda davom etdi. Ammo 30-yillarning oxirida o‘zbek musiqali drama va o‘zbek operasi mustaqil hayotni boshladi [1.B.6].

Opera asarlarini sahnalashtirish katta professional ijro mahoratini talab qiladi. Shu sababli, kuchli sahnaviy ovoza ega bo‘lgan aktyorlar opera truppasiga tayinlandi. Opera janrining jadal rivojlanishi, yangi asarlar hamda

yangi ijodkorlarning shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan. Ana shu ijodkorlar opera, musiqiy va teatrlashtirilgan ijro shakllariga asos solgan. Dramatik san’at va professional vokal ijro, plastika, badiiy tuyg‘u hissi, uslubi, sahna madaniyati kabi talablar aktyorni ifodalaydi. Musiqiy va dramatik repertuar, uning milliy musiqa an‘analari ruhida musiqasi, yorqin milliy sahna xarakteri milliy ijrochilik an‘analarining turli shakllarini, shu jumladan, an’anaviy xalq-professional ijrochiligi va kundalik qo‘shiqchilarini ijrosini talab qiladi.

1936–1939-yillarida o‘zbek musiqali drama sohasida bo‘lgan katta o‘zgarish professional musiqiy va vokal ta’limining natijasi bo‘ldi. Musiqali dramaturgiyaning ahamiyati oshishi munosabati bilan spektakllarda musiqiy va vokal nomerlari ko‘paya boshladi va teatrni yangi sifat, go‘zallik bilan boyitdi. Ular asarning rivojlanish dinamikasida ishtirok etadilar va sahna xarakteri nafaqat aktyorlarning dramatik ijrosi, balki o‘zidagi fikrni, harakatlarini, qahramonlarning sahna holatini qo‘shiq ijrosi orqali yaratiladi [1.B.59].

Bu davrda yosh o‘zbek professional bastakorlar, dirijorlar, cholg‘uchilar, qo‘shiqchilar va raqqosalar o‘z ijodlari bilan xalqqa tanila boshladi. Milliy bastakorlarimiz T. Jalilov va Y. Rajabiylar o‘zbek musiqali teatrining rivojlanishida beqiyos hissa qo‘shgan. Keyinchalik

ularning saflariga T.Sodiqov va M.Ashrafy kabi bastakorlar qo'shilgan. O'zbek bastakorlarining ijodi o'zbek xalqining musiqiy madaniyatini mumtoz merosini chuqur o'rganishiga asoslangan edi [2.B.79 – 80]. Ulardagi zamonaviy professional mahorat xalq mumtoz musiqasi va an'anaviy qo'shiqchilik haqidagi keng bilimlar bilan bog'liq edi.

Opera janri va musiqali dramaning jadal rivojlanishi, yangi asarlarning paydo bo'lishi yangi nomlarni ham tanitdi. Musiqiy teatrning boshlanishida turganlar – X.Nosirova, K.Zokirov, N.Xoshimov, L.Sarimsoqova, M.Qori-Yoqubovlarning davomchilari, o'zbek vokal san'atining yangi ustalari – S.Qobulova, S.Yarashev, A.Azimov, S.Benyaminovlar o'z ijodlarini namoyon qila boshlagan. Bular milliy musiqqa san'atining rivojlanish yo'llarini tushunadigan o'zbek musiqqa madaniyatining turli xil ijodiy shaxslari edi. Ularning yuqori vokal va sahna mahorati o'zbek musiqqa teatrining jadal rivojlanishi, yuksak professional san'atning takomillashganligi va musiqaning yangi shakllari va janrlari paydo bo'lganligining dalili bo'ldi.

1945-yil 12-dekabrda Toshkent Davlat teatr san'ati instituti tashkil etilgan. Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan ushbu ta'lim dargohi O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonning barcha teatrlari uchun yuqori malakali kadrlarni – rejissorlar, aktyorlar va teatr mutaxassislarini tayyorlashga mo'ljallangan edi.

1948-yilda institutga rus dramaturgi A.N.Ostrovskiy nomi berildi. 1958-yilda institutda o'zbek musiqqa va drama teatrlari uchun maxsus o'qitilgan kadrlarni tayyorlash uchun yangi musiqiy drama fakulteti ochildi va kelajakdagi teatr xodimining ijodiy shaxsini shakllantirish, ularning ijodiy qirralarini ochib berish kabi vazifalar qo'yildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun talabalar aktyorlik mahorati, sahna nutqi va harakati, shuningdek, vokal ijrochiligini o'rganadilar [3.B.65–68]. Musiqali drama bo'limiga taniqli aktyor Xalq artisti Razzoq Xamrayev rahbarlik qildi. Ushbu kursning birinchi bitiruvchilari O'zbekiston xalq artistlari N.Pulatova, B.Ixtiyorov, H.Sharipov, H.Umarov, F.Ahmedovlar bo'lgan.

1960-yillarning boshlarida musiqqa va drama fakultetida vokal bo'limi tashkil etildi. O'qituvchilarning asosiy maqsadi talabalar o'rtasida vokal va qo'shiqchilik mahoratini shakllantirish, asarlardagi badiiy ifoda rivojiga hissa qo'shish, vokal san'ati yordamida bo'lajak aktyorlarning estetik va badiiy didini tarbiyalash edi.

1974-yildan boshlab kafedrani O'zbekiston xalq artisti dotsent Asat Azimov boshqaradi. A.Azimov yuqori professional madaniyati qo'shiqchisi, lirik tenor ovoz egasi. U A.Navoiy nomidagi o'zbek davlat katta opera va balet teatri spektakllarida bosh rollarni ijro etgan. Uning repertuarida rus va xorij klassiklarining 40 dan ortiq opera partiyalari, o'zbek bastakorlarining asarlari bir-biriga o'xshamaydigan obrazlar bor edi, ularning har biri juda ko'p ijodiy mehnat, yurak va qobiliyatni talab qiladi. U yosh ijodkor avlodni tarbiyalashda katta mehnat va kasbiy mahoratini ayamagan [4.B.147]. Bo'lajak aktyorlarga vokal ijrochiligi bilan bir qatorda milliy qo'shiqchilik san'atini o'zlashtirish uchun ushbu bo'limga Alisher Navoiy nomidagi Opera teatri yakkaxonlari – Halima Nosirova, Sattor Yarashev, Sason Benyaminov, Ergash

Yo'ldoshev, Mixail Davidovlar taklif qilingan. Ular o'zbek opera sahnasining ustalari bo'lib, o'zbek mumtoz va xalq qo'shiqlarini katta mahorat bilan ijro etgan. Ko'p yillar davomida opera teatrida samarali ijod qilib, deyarli barcha bosh rollarni ijro etishgan. Ularning ijrolari o'zbek qo'shiqchilik an'analari va opera qo'shiqlari ijro mahorati va uslubiyotidan iborat edi. Uzoq va samarali hayotlari davomida ular O'zbekiston musiqqa madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan va shuningdek, ajoyib ustozlardan bo'lib, samarali pedagogik ish olib borgan. Xalq artistlari bilan bir qatorda musiqiy drama va vokal san'ati bo'limi talabalarining rivoji va tarbiyasiga – S.Murodxonov, Y.Murodov, V.Kopilova, M.Musheyev, M.Davidov, E.Pyatigorskaya, G.Eroshina, G.Xolboeva kabi yuqori malakali o'qituvchilar ham ulkan hissa qo'shgan.

O'zbekiston xalq artistlari Berta Davidova, Komuna Ismoilova, Orif Alimxusumov, Isoq Katayev, O'zbekiston xalq hofizi Orifxon Xotamov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Xadiya Yusupova, shuningdek, musiqachilar T.Mahmudov, S.To'xtasinov, S.Tahalov, M.Odilov, S.Musheyev, A.Rajabovlar taklif qilinadi va kafedra qoshida sozandalar ansambli shakllandi. Sason Benyaminovning ijodiy va pedagogik faoliyatining katta xizmati shundaki, u Yevropa va o'zbek vokal san'ati an'analarni birlashtira oldi va talabalar uchun bu juda katta maktab bo'ldi [4.B.162].

1977-yilda Xalq artisti Razzoq Xamrayev rahbarligidagi musiqiy drama va komediya bo'limiga abituriyentlar qabul qilinadi. Ular orasida Muqimiy nomidagi teatrning taniqli rejissori Tursunpo'lat Pirmatovning farzandi Sherzod Pirmatov ham bor edi. Oiladagi san'atga bo'lgan qiziqish va muhabbat yosh yigitni institut sari chorlaydi.

Tursunpo'lat otaning xonadonida ko'plab xalq xofizlari, qo'shiqchi-sozandalar mehmon bo'lib, musiqiy kechalar tashkil qilinardi. Ular ijrosidagi qo'shiqlarni Sherzod katta qiziqish bilan tinglab o'rgana boshlagan. Shu bois, uning otasi san'at maktabiga tahsil olish uchun yuboradi. Bo'lajak san'atkor u yerda musiqiy savodni, fortepiano va rubob asboblarni chalishni o'rganadi. Boshqa san'atkorlar xonadonida cholg'u asboblari bo'lgani kabi, Pirmatovlar xonadoni ham bunday cholg'u asboblarga boy edi. Sherzod ham maktabdan tashqari tor, dutorda kuylar chalishni, doirada usul berib qo'shiq kuylashni sevar edi. Shunday qilib unda san'atga muhabbat tug'iladi va u kelajakda aktyor bo'lishga qat'iy qaror qiladi. O'zining chiroyli va kuchli ovoz tembri, kelishgan qaddi-qomati bilan ajralib turgan yosh Sherzod ijrosi imtihon komissiyasi a'zolariga katta taassurot qoldiradi va u talabalar safiga qabul qilinadi.

Musiqali teatr aktyori yo'nalishiga kirgan Sherzod vokal fanidan professor Sason Benyaminov sinfiga tayinlandi. S.Benyaminov ajoyib ovoz sohibi, yuqori malakali pedagog bo'lib, shu kunga qadar ko'plab shogirdlar tarbiyalagan edi. Uning respublika bo'ylab o'nlab shogirdlari o'zbek mumtoz qo'shiqlari ijrochisi yoki opera sahnalarida ijod qilayotgan edi. Sherzod Pirmatov ham o'zining iste'dodi bilan ustozida katta umid uyg'otgan. S. Benyaminov uni nafaqat musiqiy teatr aktyori, balki vokal o'qituvchisi sifatida ham tayyorlay boshlaydi. Sh. Pirmatov institutning so'nggi bosqichida tahsil olayotgan vaqtda A.Navoiy teatri va Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida ishga taklif etiladi. Ammo u Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan Moskvaga amaliyot o'tashga yuboriladi.

Toshkentga qaytgach, A.Navoiy nomidagi teatrda malakaviy bitiruv diplom spektakli namoyish etiladi. Unda Sh.Pirmatov M.Ashrafiyning "Dilorom" operasida No'mon obrazini katta mahorat bilan ijro etadi. Davlat imtihon komissiyasi va institut rahbarlarining tahsiniga sazovor bo'ladi. Institutni muvaffaqiyat bilan tamomlagach, akademik Mamadjon Rahmonovning taklifiga binoan uni institutga ishga taklif qilishadi. Bunday taklifni u mamnuniyat va xursandchilik bilan qabul qiladi va shu kundan pedagogik faoliyatini boshlaydi. Sh.Pirmatov bo'lajak aktyorlarga bilimi va mahorati bilan o'rtoqlashadi va o'rgatadi. Ayniqsa, talabalar ustozning o'zi ijro etgan qo'shiqlarni tinglashni yaxshi ko'rar edilar. U juda tez talabalarining hurmatiga sazovor bo'ladi.

Opera va musiqiy dramalardan ariyalar haqida katta ma'lumotlarga ega bo'lgan yosh o'qituvchi talabalar uchun repertuar tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Yosh badiiy ijodkorlar o'sib borar edi va ularga aynan shunday, Yevropa opera san'ati va sharqona an'anaviy qo'shiqchilikning barcha sahna sirlariga ega bo'lgan va intiluvchan, yoshlarga yetkaza oladigan universal o'qituvchi kerak edi.

O'qituvchi har bir talabaning o'ziga xosligini hisobga olib, ularning har biriga yondashish o'ziga xos va ijodiy bo'lishi kerak edi. Uning ishidagi ijodiy yondashuvi nafaqat o'z bilimlarini yetkazish, balki fanga qiziqtirish, motivatsiya yaratish uchun ham imkon beradi. Bu talabaning rivojlanishi va takomillashishi uchun zarurdir. Bunday ishlarning natijasi fanga bo'lgan muhabbat, yuqori natijalarga erishishdir. Ushbu ijodiy yondashuv tufayli u o'z shaxsini ham takomillashtiradi. Sh. Pirmatovning badiiyligi va professional ijrosi talabalarda nafaqat fanga, balki o'qituvchining o'ziga ham uyg'otar edi.

Sh.Pirmatov katta ishtiyoq bilan ish jarayonida olgan bilimlari va g'oyalarini yozishni boshlaydi. U ustoz S.Benyaminov bilan simfonik orkestr jo'rligida o'zbek va xorijiy bastakorlarning asarlarini mahorat bilan ijro etishadi va bu yosh ijodkor uchun yanada o'ziga ishonch tug'diradi. Uning ustozlari, teatrlar hayoti va tarixi, taniqli aktyorlar, san'at arboblari haqida yozilgan maqolalari mamlakatimiz gazeta va jurnallarida nashr etiladi.

Yillar o'tib Sh.Pirmatov katta o'qituvchi, dotsent darajasini oladi. 2011-yilning oxirida Sh. Pirmatovga professor ilmiy unvoni beriladi. 2012 – 2018-yillarda "Vokal" kafedrasi mudiri lavozimiga tayinlanib, rahbar sifatida ilmiy, ijodiy va tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda tashkiliy ishlarni boshqarib boradi va albatta talabalarga vokal fanidan dars berishni davom ettiradi. Bugungi kunda ham professor Pirmatov vokal san'ati sehri va mahoratini yoshlarga targ'ibot qilib, o'rgatib kelmoqda. Ustoz talabaning yutug'i va kamchiliklarini aytib, yosh ijrochining mahoratini oshirishda amalda qilinajak vazifalari va talablarini tushuntirib boradi. Dars jarayonida u nafaqat talabchan ustoz, balki otalarcha mehribon va g'amxo'r, hazilkash insondir. Talabalar bilan do'stona munosabatda bo'lib, vaqtni bekor o'tkazmaslik, temir intizomli, mehnatsevar va mehnatda halol bo'ishni o'rgatadi.

Sh. Pirmatov institutdagi o'zining uzoq yillik mehnat faoliyati davomida chop etilgan maqolalari, qator darsliklar, shuningdek, bakalavrlar va magistrilar uchun yozilgan yakkaxon xonandalik fanidan o'quv qo'llanmalari va albatta, iqtidorli talabalari, uning ko'p yillik mehnati mevasidir. 40 yil davomida jo'rnavoz Noila Zokirova bilan ijod qilib kelmoqda. Ular ko'p yillar davomida nafaqat katta konsert zallar sahnalarida, balki korxon va zavodlarda ham o'z konsert dasturlari bilan ishtirok etishgan.

Sherzod Pirmatov ijrosidagi "Boburning qaytishi", "Tortadur", "Ne ajab", "Besh ruboiy", "Meni eslagin", "Sen qaydan bilasan?" kabi o'zbek bastakorlarining bir qator asarlari Radioqo'mitaning oltin fondida saqlanib, radio va televidenie orqali xalqimizga taqdim etilmoqda. Bugungi kunda Sh. Pirmatov pedagogik faoliyatini olib borish bilan birga, o'zining yoshlikdan mehr qo'ygan aktyorlik kasbini davom ettirish maqsadida ko'plab serial va telenovellalarda bosh qahramon rollarini ijro qilib, talabalik yillarida ustoz Xalq artisti Razzoq Xamrayevdan olgan o'gitlarini, saboqlarini, o'z kasbiy mahoratini namoyon qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хамидова М.А. Актёрское искусство узбекской музыкальной драмы. – Ташкент: Фан, 1987. – С.148.
2. Корсакова А. Узбекский оперный театр: очерк истории. – Ташкент: Художественной литературы, 1961. – С. 450.
3. Tursunov T. Sahna va zamon. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B.415.
4. Юлдашбаева Т.А. Мастера узбекской сцены. -Ташкент. Изд.-во лит.-ры и иск.-ва им.Г.Гуляма, 1985. – С.174.
5. Jabborov A. O'zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari. – Toshkent: 2018. – С. 432.

OPERA VA BALET – TALABALARNI MA’NAVIY - AXLOQIY TARBIYALASHDA MUHIM VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya. Asarda xalq musiqa ijodiyoti namunalari orqali gavdalanirilgan lavhalar muvaffaqiyatli chiqqan, biroq rechitativlarda musiqa va nutqni ohangga solishda nomuvofiqlik seziladi. Kompozitorlar mazkur asarda dramatik spektaklni musiqalashtirish uslubiga barham berdilar. Bu asarda musiqa jo‘r bo‘libgina qolmay, balki tashkiliy ahamiyat kasb etadi. Ariyalar oddiygina ijro etiladigan qo‘shiq sifatida emas, balki qahramon obrazini yorituvchi vosita bo‘lib keldi.

Kalit so‘zlar: opera, asar, musiqa, balet, simfoniya, orkestr, ariya, ritmika, kompozitor, janr.

Гульчиря ХОДЖАМЕТОВА,
кандидат исторических наук, доцент Нукусский филиал ГИИКУз

ОПЕРА И БАЛЕТ КАК ВАЖНОЕ СРЕДСТВО ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В произведении удачны сцены, воплощенные в образцах народной музыки, но в речитативах наблюдается несоответствие мелодии музыки и речи. В этой пьесе композиторы положили конец манере музицирования драматического спектакля. В этой пьесе музыка является не только сопровождением, но и организацией. Арии стали использоваться не как песня для исполнения, а как средство освещения образа героя.

Ключевые слова: опера, произведение, музыка, балет, симфония, оркестр, ария, ритм, композитор, жанр.

Gulchira KHODJAMETOVA,
candidate of historical sciences, associate professor Nukus branch of the UzSIAC

OF OPERA AND BALLET – AS AN IMPORTANT MEANS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS

Annotation. The scenes embodied in samples of folk music are successful in the work, but in recitatives there is a discrepancy between the melody of music and speech. In this play, the composers put an end to the manner of playing music in a dramatic performance. In this piece, music is not only an accompaniment, but also an organization. Arias began to be used not as a song for performance, but as a means of highlighting the image of the hero.

Key words: opera, work, music, ballet, symphony, orchestra, aria, rhythm, composer, genre.

Opera-lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “mehnat mahsuli”, “asar”, degan ma‘noni bildiradi. Opera qorishma (sintetik) janr hisoblanadi. U o‘zida bir necha san‘at turlarini mujassam etadi: unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san‘at va raqs san‘ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog‘lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Operaning adabiy asosi – librettodagi voqealar musiqiy darimaturgiya vositalari bilan avvalo, vokal musiqa shakllarida gavdalaniriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o‘z ifodasini topadi[1.B.69]. Turli vokal ansambl (duet, trio va boshqalar) larda qahramonlarning o‘z aksini topadi. Xor esa ro‘y berayotgan voqealarning izohlovchi vositasi vazifasini bajaradi. Uning yordamida xalq hayoti lavhalari gavdalanadi. Operada orkestr ham katta o‘rin egallaydi: vokal shakllarga jo‘r bo‘ladi, mustaqil cholg‘u qismlarda vaziyatning mazmunini ochib beradi. Operaning tuzilishi uning g‘oyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog‘liq.

O‘zbekistonda opera janri XX asr boshida o‘zbek musiqali dramasi rivoji asosida, shuningdek, xorij mumtoz operasining ta‘sirida yuzaga keldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Toshkentda gruzin, italyan, tatar, rus va ozarbayjon opera truppalari gastrolga kelgan. 1918-yildan Rus opera teatri o‘z faoliyatini boshladi. 1929-yilda Muhiddin qori Yoqubov tashabbusi bilan o‘zbek musiqali teatri ishga tushdi. Uning repertuari asosan musiqali dramalardan iborat bo‘lgan. Mazkur teatr sahnasida o‘zbek tilida birinchi bo‘lib, M.Magomayevning “Nargiz”, E.Brusilivskiyning “Er Targ‘in” operalari qo‘yildi. O‘zbek opera va balet truppassi kompozitorlari S.Vasilenko va M.Ashrafiy tomonidan yaratilgan

“Bo‘ron” operasi teatr hayotida katta voqea bo‘lgan. Ushbu “Bo‘ron” operasida o‘zbek xalqining chorizmga qarshi 1916-yilgi qo‘zg‘oloni davri o‘z aksini topgan. Operaning bosh qahramoni xalq bo‘lganligi sababli ommaviy sahnalar muhim ahamiyatga ega, har bir pardaning avjini xalq sahnalari tashkil etadi. Opera xorlarida kuy materiali ko‘proq “statali” bo‘lib, u xalq kuylari va Hamza qo‘shiqalaridan olingan.

Asarda xalq musiqa ijodiyoti namunalari orqali gavdalanirilgan lavhalar muvaffaqiyatli chiqqan, biroq rechitativlarda musiqa va nutqni ohangga solishda nomuvofiqlik seziladi. Kompozitorlar mazkur asarda dramatik spektaklni musiqalashtirish uslubiga barham berishgan. Bu asarda musiqa jo‘r bo‘libgina qolmay, balki tashkiliy ahamiyat kasb etadi. Ariyalar oddiygina ijro etiladigan qo‘shiq sifatida emas, balki qahramon obrazini yorituvchi vosita bo‘lib keldi.

“Bo‘ron” bilan deyarli bir vaqtda A.Navoiy dostoni asosida “Layli va Majnun” operasi ustida ham ish olib borildi. 1930-yillarda “Layli va Majnun” musiqali drama sifatida namoyish etilgan edi. Tomoshabinlar e‘tiborini qozongan bu asar qaytadan ishlanib operaga aylantirildi. Librettosiga juda ko‘p voqealar kiritildi. Ushbu asar musiqa tuzilishiga ko‘ra o‘zbek musiqali dramasi an‘analarini davom ettirdi. Operaning asosi yakkay kuylashdan iborat bo‘lib, ansambl va xorlar ham o‘rin egallagan. Orkestr ko‘proq xonandalarga jo‘r bo‘ladi. Ariyalar og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqa namunalari asoslangan[2.B.188].

Shunday qilib, rus va o‘zbek kompozitorlarining hamkorligida yaratilgan birinchi opera “Bo‘ron” va “Layli va Majnun” o‘zbek musiqa teatrlarining keyingi rivojiga asos bo‘ldi, zamonaviy professional san‘atning murakkab janrlarini o‘zlashtirishga yordam berdi. O‘zbek musiqali teatri o‘zining o‘n yillik (1929–

1939) faoliyati davomida Musiqali etnografik ansambllardan musiqali nomerlarga ega dramatik spektakllar orqali musiqali drama hamda undan operagacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Dastlabki o'zbek operalari o'zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida hamda O'zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivojlandi. XX asrning 40-yillaridan boshlab o'zbek opera san'atining yo'nalishida yangi davr boshlandi. Birin-ketin turli mavzularda yaratilgan operalar paydo bo'la boshladi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida vatanparvarlik va tarixiy qahramonlik mavzularida A.Kozlovskiyning "Ulug'bek", O.Chishkoning "Mahmud Torobiy" operalari yaratildi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda ko'proq musiqali drama rivojlangan bo'lsa, 1950-yillarning ikkinchi yarmida kompozitorlarning opera janriga qiziqishlari sezilarli darajada kuchaydi. Ushbu davrda yaratilgan musiqaviy sahna asarlarda dramaturgiya mazmuni voqelikning muhim tomonini aks ettirishga intilishi natijasida zamonaviy mavzuda keskin burilish kashf etgani hamda o'zbek kompozitorlarining mustaqil ijod qila boshlangani ko'zga tashlanadi.

1950 – 1967-yillarda teatr repertuari bir qator asarlar bilan boyidi. Sahnada namoyish etilgan operalar qayta ishlanib, yangi tahrirda yuzaga keldi. Masalan, M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning "Ulug' kanal" nomli operasi yangi tahrirda "Baxt vodiysi" deb o'zgartirildi. R.Glier va T.Sodiqovning "Gulsara", T.Jalilov va B.Brovtsinning "Tohir va Zuhra", G.Mushel va V.Uspenskiyning "Farhod va Shirin" kabi operalari shular jumlasidan.

1958-yildan boshlab M.Ashrafiyning "Dilorom"(1958), T.Sodiqov, Yu. Rajabiy, B.Zeydman va D.Zokirovlarning "Zaynab va Omon" (1958), S.Yudakovning "Maysaraning ishi"(1959), S.Boboevning "Hamza"(1961), M.Ashrafiyning "Shoir qalbi"(1962), M.Yusupovning "Xorazm qo'shig'i", R.Hamroyevning "Zulmatdan ziyo"(1966) operalari sahnalashtirildi[3.B.96].

Mavzu va badiiy saviyasi har xil bo'lgan mazkur asarlar tomoshabinlar tomonidan turlicha qabul qilindi.

1958-yilda kompozitor S.Yudakovning "Maysaraning ishi" deb nomlangan birinchi o'zbek hajviy operasi yaratildi. Bir qator teatrlarda sahnalashtirilgan, chet ellarda ham qiziqish uyg'otgan mazkur opera librettosi H.H.Niyoziyning shu nomdagi pyesasi asosida S.Abdulla va M.Muhamedovlar tomonidan yozilgan.

"Maysaraning ishi" operasining xalqchiligi, asl hajviyligi, badiiy vositalarining o'ziga xosligi uning nafaqat O'zbekistonda, balki chet davlatlarda ham shuhrat qozonishiga sabab bo'ldi. Kompozitor tomonidan operettaga aylantirilgan bu asar "Maysaraning nayranglari" degan yangi nom bilan Lodz teatri (Polsha) da namoyish etilgan. 1970-80-yillar o'zbek opera tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda musiqiy-ifodaviy vositalarni qo'llash, o'z mualliflik tilini topish kabi omillar bilan bir qatorda, operalar mavzu jihatidan boyiganligini, kompozitorlarning o'z asarlarida ommaviy xalq kuylarini ko'chirmay, balki mustaqil original kuylar yaratganligini ko'rish mumkin.

Mustaqillik davri o'zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaydi.

(T.Sodiqov va Gliyerning "Layli va Majnun" 1995-yil, M. Ashrafiyning "Dilorom" 2001-yil) qayta ishlanib, yangicha talqinda namoyish etildi. Hozirgi zamon ijtimoiy muammolari (N.Zokirovning "Muxtoriyat" opera farsi, O.Abdullayevning "Vafo" operasi), uzoq o'tmish bilan bog'liq. (M.Bafoyevning "Buxoroyi Sharif" doston – teleoperasi), ulkan tarixiy shaxslar siymolari (M.Bafoyevning "al-Farg'oniy", A.Ikromovning

"Buyuk Temur"), falsafiy mavzular (I.Akbarovning "Ibtido xatosi" opera - oratoriyasi) opera janrining keyingi rivojini belgiladi. Bular orasida A.Ikromovning "Buyuk Temur", M.Bafoyevning "Al-Farg'oniy" operalari Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida sahnalashtirildi[4.B.102].

Musiqali teatr ijodiyotining boshqa e'tiborli yutuqlaridan biri bolalar uchun yaratilgan asarlardir. Ushbu yo'nalishda N.Norxo'jayev, A.Ergashev, A.Mansurov, A.Ikromov, va boshqa kompozitorlar samarali ijod qilmoqdalar. Xususan, N.Norxo'jayevning "Burgutcha va toychoq", "Ona bolam deydi, bola onam deydi" musiqali spektakllari, A.Ikromovning "Olovuddinning sehrli shamchirog'i", A.Ergashevning "O'n ikki oy" musiqali ertagi. A.Mansurovning "Hayvonlar sultoni" operasi tinglovchilar tomonidan qizg'in qarshi olingan.

Balet (lotincha "Ballo" – "raqsga tushaman") – asar mazmunini musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san'ati turi bo'lib, o'zida san'atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'at kabi turlarini uyg'unlashtiradi. Balet librettochi, kompozitor, baletmeyster va rassom hamkorligida yaratiladi. Ssenariy asosida esa kompozitor balet musiqasini yaratadi. Uning izchilligi, sahna ko'rinishi, parda va nomerlarga bo'linishi ssenariyda ko'rsatiladi. Musiqa faqat ssenariyni ifodalamay, balki musiqali obrazlarning mazmuni bilan uni boyitadi. Balet musiqasi xoreografiyani yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Balet – musiqada yozilgan, xoreografiyada gavalantirilgan drama.

Urushdan keyingi davr balet san'atida G.Mushelning "Raqqosa" baleti (1952-yil E.Baronovski librettosi) katta ahamiyatga molikdir. Baletda yoshlarning "katta" san'atga chiqishi, sahnaga intilishiga katta yoshli avlodning e'tiroz bilan qarashi asos qilib olingan.

1970-yillarning birinchi yarmida yaratilgan A.Kozlovskiyning "Tanovar", M.Ashrafiyning "Sevgi va qilich", asarlari o'tgan yillarda yaratilgan baletlardan keskin farq qiladi. Bu kompozitsiyalar tarixiy-musiqiy jarayonda ko'p pardali baletda rivojlanishning simfonik tamoyillarini qo'llash yo'lini namoyon qildi.

1980-yillar kompozitor va baletmeysterlarning milliy balet yaratish borasidagi harakatlari kuchaydi. I.Akbarovning "Navro'z", R.Abdullayevning "Quyoshga ta'zim", U.Musaevning "To'maris", kabi asarlari milliy baletimiz mavqeyini yanada ko'tardi[5.B.103].


Istiqlol yillarida M.Bafoyevning "Buyuk ipak yo'li" shou baletida tasviriy san'at, musiqa, plastika, chiroq bezaklari vositalari orqali o'rta asr Sharq davlatlarining mushtarak obrazi yaratildi. Ayni shu davrda turli janrlar mushtarkligi natijasida yangi shakldagi asarlar paydo bo'ldi. M.Bafoyevning "Zardo'shtiyalar marosimi" balet – oratoriyasi bunga misol bo'la oladi. M.Bafoyevning "Nodira"(1991), "Ulug'bek" (1992), "Moziydan nur"(1995) telebaletlari "Tanovar" xalq raqs teatr-studiyasi tomonidan milliy raqslari va xalq xoreografiya uslublarida tayyorlangan [6.B.154].

1997-yilda A.Navoiy nomidagi teatr sahnasida birinchi o'zbek komik baleti S.Yudakovning "Nasriddinning ishi" sahnalashtirildi. Yumoristik asosga ega bu asar xoreografiyaning ham komik tabiatini belgilab berdi. Spektakl an'anaviy xalq komediyasi uslubida yaratilgan. Uning barcha obrazlari muayyan qiyofalar- niqoblar sifatida talqin etilgan.

Xulosa qilib aytganda, opera janrida mazmuni talqin qilishda asosiy urg'u milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlarini tarannum etishga qaratildi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Yuldasheva N. Rahmatova N. O'zbek musiqa adabiyoti. "Iqtisod-moliya", Toshkent: 2010-yil. – 69-bet.
2. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari. O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. Toshkent: 2000-yil –188-bet.
3. Sharipova T. M. "Musiqqa o'qitish metodikasi". Toshkent: 2008-yil. – 96 bet.
4. Muhammedova G. Xonandalik uslubiyati asoslari. Toshkent: 2007-yil. –102-bet.
5. Karimova D. "Musiqiy pedagogik mahorat" asarlari "Iqtisod moliya" 2008-yil. –103-bet.
6. Nadirova A. Qoraqalpoq musiqa tarixi. Toshkent: 2019-yil. –154 bet.



III BO' LIM

SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Seniya BAYBOSINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi
ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasviriy san'atning tarixiy portret janri tushunchasi, obrazlarning yaratilishi aytib o'tilgan. Shu bilan birga Qoraqalpoq xalq rassomi B.Aytmuratov ijodi haqida ma'lumot berilgan. Rassom yaratgan tarixiy portret janridagi rangtasvir asarlarining mazmuni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, obraz, rangtasvir, tarix, janr, shaxs, ijod, adabiyot, shoir, rassom, manba, afsona, ijod.

Сэния БАЙБОСИНОВА,
заместитель директора по научным делам Государственного музея истории и культуры
Республики Каракалпакстан

ОБРАЗ ИСТОРИЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье речь ведется о понятии исторического портрета в жанре изобразительного искусства, создании образов. Одновременно была представлена информация о творчестве каракалпакского народного артиста Б.Айтмуратова. Раскрываются содержание и значение созданных художником жанровых историко-портретных картин.

Ключевые слова: изобразительное искусство, образ, живопись, история, жанр, личность, творчество, литература, поэт, живописец, источник, легенда, творчество.

Seniya BAYBOSINOVA,
Deputy Director for Scientific Affairs at the State Museum
of History and Culture of Republic of Karakalpakstan

THE IMAGE OF HISTORICAL FIGURES

Annotation. In this article, the concept of a historical portrait in the genre of fine art, the creation of images. At the same time, information was provided on the work of the Karakalpak People's Artist B.Aytmuratov. The content and meaning of the genre historical and portrait paintings created by the artist are revealed.

Keywords: fine art, image, painting, history, genre, personality, creativity, literature, poet, painter, source, legend, creativity.



Har bir rassom tarixiy asar yaratishdan oldin yozma manbalarga suyanadi. Ana shu badiiy va adabiy manbalarda aks etgan siyosiy arboblari, afsonaviy qahramonlarni mo'yqalam orqali portret chizgilariga tushirgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tasviriy san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalashi bilan san'atning boshqa turlaridan bir muncha farq qiladi.

Ayniqsa, tarixiy portret janrida asarlar yaratish uchun ijodkor tinmay izlanadi. Tarixiy shaxsning yashagan davriga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'rganib, eskizlar yaratadi. Yuz tuzilishi, o'sha davrning liboslariga ham e'tibor qaratadi. Insonning ichki ruhiy olami bilan

bog'langan holda aniq bir obraz yaratilishi kerak. Portretda insonning to'la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o'zi ham bo'lishi mumkin. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishiga ahamiyat qaratiladi.

Portret orqali inson obrazini mohirona ko'rsata olgan buyuk rassomlar qatorida Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, shuningdek, o'zbek rassomlaridan Abduhxaq Abdullaev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiye'v va boshqa bir qancha rassomlarni kiritish mumkin[1.B.10].

Portretchi rassom odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilmog'i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiylik yoki soxta jihatlarni tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak (1.B.5). O'zbekiston xalq rassomi M.Nabiyev ijodi davomida bir qancha tarixiy shaxslar portretlarini yaratib, ularning siymosini tarixda qoldirgan. Masalan buyuk sarkarda Amir Temur portreti keyingi yosh ijodkor rassomlar ijodida manba sifatida foydalanib, o'zlari yaratgan kompozitsiyalarida buyuk sarkarda obrazini qiynalmasdan namoyon qiladi. Rassom M.Nabiyev ijodi bilan qiziqib, u yaratgan tarixiy shaxslar portretlarini andoza sifatida foydalanib bir qancha asarlar yaratgan rassom Qoraqalpoq xalq rassomi B.Aytmuratov



Qoraqalpoq xalq rassomi B.Aytmuratovning "Ernazar Alakoz" kartinasi

hisoblanadi. Uning dastlabki ijod namunalarini manzara janriga tegishli bo'lsada, ammo Orol mavzusiga bag'ishlab, kundalik hayot bilan bog'liq ko'plab asarlarni ham yaratgan. O'qishni tamomlab, Berdaq nomidagi musiqali drama teatrida sahna bezagi rassomi bo'lib o'z faoliyatini boshlaydi. Qoraqalpoq yosh tomoshabinlar teatrida bosh rassom, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqa teatrida bosh rassom bo'lib faoliyat olib borgan. Rassomga 1996-yil "Ernazar Alakoz" kartinasi yaratgani uchun "Berdaq nomidagi mukofot" beriladi[2.39-bet]. Ko'plab tarixiy, komediya, tragedik spektakllarning sahnalariga kompozitsiyalar ishlaydi. Qoraqalpoq xalqining afsonaviy qahramonlari "Edige", "Maman biy", "Aydos biy", "Ernazar Alakoz", "Amir Temur", "Gulayim", "To'maris" tarixiy portretlarini yaratadi. Mazkur portretlarni yaratish jarayonida rassom qoraqalpoq folklorini o'rganib, obrazlarni yaratish uchun muzey kolleksiyalarida saqlanayotgan XIX – XX asr qoraqalpoq milliy erkak va ayollar liboslari, zargarlik buyumlari bilan ham tanishib chiqadi. Rassom ijodiga mansub "To'maris" asari tasviriy san'atning rangtasvir turida tarixiy portret janrida ishlangan. Kartina kompozitsiyasida mard, jasur, aqlli va go'zal jangovar kiyimda podshoh Kir II ustidan g'alaba qozongan ayol qo'lida nayza bilan birinchi planda tasvirlangan bo'lsa, koloridida manzara chizilgan. Rassom ijodi davomida qoraqalpoq folklorining 100 tomlik kitobiga grafik illyustratsiyalar ishlagan. Rassom har bir yaratgan afsonaviy portretlaridagi obrazlarga, o'sha davr bilan bog'lab liboslariga, yaratgan inson obrazini yaqqol ravishda tomoshabinga yetkazib berishda plastik anatomiyaga ahamiyat qaratgan. Rassomning tasviriy san'atning rangtasvir turida tarixiy janrda yaratgan (KP7684) "Ernazar Alakoz" kartinasi har bir obrazga e'tibor bergan. Asarning kompozitsiyasida Ernazar Alakoz boshchiligida jangga otlangan ovul yigitlari tasvirlangan. Mazkur asarda qoraqalpoq milliy liboslarining har bir detaliga e'tibor berilgan. XIX – XX

asrga tegishli bo'lgan qoraqalpoq erkak va ayollar, yosh bolalar milliy liboslariga, bosh kiyimlariga ahamiyat qaratilgan. Asar kompozitsiyasining asosiy qismida jangga otlangan otliq askarlar va ularga oq yo'l tilab kuzatayotgan oila a'zolari tasvirlangan. Kompozitsiyaning o'ng tomonida ona-Vatan tuprog'ini o'zi bilan olib ketayotgan askar tasvirlangan. Har bir obrazdagi dinamik harakatga, yuz tuzilishidagi mimikalarini ustalik bilan moy bo'yoq tili bilan tushuntirib berishga harakat qilingan[3.KP №8 104-bet]. Shu bilan birga, rassomning (KP129998) "Gulayim" portretida qoraqalpoq milliy eposi "Qirg'iz" dostonidagi sarkarda jangchi qizning portreti ham qoraqalpoq botir qizini mohirona ranglar simfoniyasi bilan yaratilgan. Rassom portretida jasur mard ayol obrazi va shu bilan birga milliy libosiga, koloritiga e'tibor bergan. B.Aytmuratov har bir yaratgan tarixiy janrdagi asarlarida rassom faqatgina obrazni emas, balki o'sha davr muhitini ko'rsatib berishga harakat qilgan [4.KP №10 89-bet]. Inson obrazini yaratish tasviriy san'atda eng murakkab jarayon hisoblanadi. Tasviriy san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalashi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Rassom B.Aytmuratov ijodiga tegishli bo'lgan rangtasvir asarlari hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining etnografiya kolleksiyasida saqlanmoqda. Shuningdek, rassom asarlari muzey ko'rgazma zallaridan joy olgan bo'lib, tashrif buyurgan har bir tomoshabinning diqqatini tortadi. Ayniqsa, chet davlatlardan tashrif buyurgan tomoshabinlar uchun qiziqarli bo'lib, ular nafaqat buyuk siymolar, tarixiy shaxslar haqida ma'lumot olibgina qolmasdan, balki XIX – XX asr qoraqalpoq etnografiyasi va madaniyati bilan ham tanishadi. Mazkur rangtasvir asarlari orqali yosh tomoshabinlar vatani uchun mehnat qilgan buyuk sarkardalar haqida ma'lumotlar olib, ona -Vatanga bo'lgan muhabbatini yanada oshiradi. B.Aytmuratov asarlari bilan Moskva, Toshkent, Urganch va Nukus shahrida ko'plab ko'rgazmalarda qatnashgan [2.36-bet].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.F. Abdirasilov, N.X.Tolipov. "Dastgohli rangtasvir", o'quv qo'llanma. T.: 2007-yil.
2. Sh.Payzullayeva. "Tarixda nom qoldirgan qizlar". Nokis: "Qoraqalpaqstan", 2019-yil.
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi Kirim kitobi № 8, 104-bet, 1994-yil.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi Kirim kitobi № 10, 89-bet, 2014-yil.

Gulbahar AXIMBETOVA,
O‘zDSMI Nukus filiali “Xalq ijodiyoti” kafedrası dotsenti,
Qoraqalpog‘iston xalq baxshisi,
Gulnara MUNTEYEVA,
O‘zDSMI Nukus filiali “Xalq ijodiyoti” kafedrası o‘qituvchisi,
Qoraqalpog‘iston xalq artisti

YOSHLAR TARBIYASI VA FOLKLOR SAN‘ATINING KONSEPTUAL TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada folklor san‘atni namunalarini yoshlar ta‘lim-tarbiyasida qo‘llashning zaruriyati va tarbiya jarayonidagi tahliliy ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Folklor san‘ati – xalqimizning ma‘naviy qudratini o‘zida mujassamlashtirgan katta tarbiya manbaidir. Shunday ekan, undan pedagogik jarayonlarda foydalanish va uni konseptual tahlil qilishning ahamiyatiga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: san‘at, tarbiya, folklor, talqin, ta‘lim, jarayon, rivojlantirish, an‘ana, qadriyat, pedagogika.

Гульбахар АХИМБЕТОВА,
Нукусский филиал ГИИКУз
доцент кафедры «Народное творчество» Народный бахши Каракалпакстана,
Гулнара МУНТЕЕВА,
Нукусский филиал ГИИКУз
преподаватель кафедры «Народное творчество», Народная артистка Каракалпакстана

ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФОЛЬКЛОРНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В статье рассматривается необходимость использования образцов народного творчества в воспитании молодежи и их аналитическая значимость в образовательном процессе. Народное творчество является великим источником образования, воплощающим духовную силу нашего народа. Поэтому подчеркивается важность его использования в педагогических процессах и его концептуального анализа.

Ключевые слова: искусство, воспитание, фольклор, интерпретация, образование, процесс, развитие, традиция, ценность, педагогика.

Gulbahar AKHIMBETOVA,
Nukus branch of the UzSIAC
associate professor of “Folk Art”, People’s Bakhshi of Karakalpakstan,
Gulnara MUNTEYEVA,
Nukus branch of the UzSIAC

TEACHER OF THE DEPARTMENT “FOLK ART”, PEOPLE’S ARTIST OF KARAKALPAKSTAN

Annotation. The article discusses the need to use examples of folk art in the education of young people and their analytical significance in the educational process. Folk art is a great source of education that embodies the spiritual power of our people. Therefore, the importance of its use in pedagogical processes and its conceptual analysis is emphasized.

Key words: art, upbringing, folklore, interpretation, education, process, development, tradition, value, pedagogy.



Folklor san‘ati asrlar davomida xalqning ma‘naviy olamini yuksaltirib, xalqni ezgulikka da‘vat etuvchi tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilib kelgan. U barcha zamonlarda ham ijod sarchashmasi sifatida faqat yaxshi tarbiyani targ‘ib qilgan. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog‘liqligi bilan g‘oyatda e‘tibordidir.

Xalq og‘zaki ijodi xalqning, bir necha avlodlarining aql-u farosati hamda turmush tajribasi, ularning donishmandligi mahsuli sifatida yosh avlod tarbiyasida o‘zining ijobiy samarasini beradi. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga

aylantirishdagi ahamiyati beqiyos ekanligini e‘tirof etish joizdir. Ayniqsa, hozirgi tezkor davr har birimizdan ma‘rifatli bo‘lishni, ogohlik va hushyorlikni, ayniqsa, yosh avlodning tarbiyasiga yanada mas‘uliyat bilan yondashishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, pedagoglar ta‘lim tizimida folklor namunalaridan o‘rinli foydalangan holda yoshlarni milliy qadriyat va an‘analarimizga sodiq komil inson sifatida tarbiya topishi uchun tinimsiz harakat qilishi darkor. Bu esa mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari – maktabgacha ta‘lim, maktab, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim tizimidagi yoshlar kamolotida o‘z samarasini beradi. Boisi, folklor xalq pedagogikasining etnogenezi sifatida bashariyatning ongu tafakkurini yuksaltiradigan milliy tarbiya o‘zagidir. O‘zbek xalq pedagogikasining mazmun-mohiyati folklor bilan chambarchas bog‘liqdir.

Axir, dunyo xalqlari ma'naviy madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor xalqimizning badiiy so'z sehri bamisoli ko'ngil chashmasidan qaynab chiqqan injudir. Xalq qalbining navolari bo'lmish dilrabo qo'shiqlar, an'ana va marosimlarga aylanib, asrlar davomida ajdodlarimiz qadriyatlarini xazinasini yuzaga keltirgan. Folklor va xalq san'atining barcha turlari asosini tutib turuvchi an'analar ham ulkan bilim hosilasidir. Xalqimiz xazina bilan to'lib-toshgan sandiqning ustida o'tirgan odamdek katta ma'naviy boylikka ega. Faqat bu sandiqni ochish, undan foydalanish, sintezlab ko'ngildan o'tkazib yangi holatga olib o'tish kerak.

Badiiy tafakkurning betakror mo'jizalarini o'zida mujassamlashtirgan xalq an'analari, rasm-rusumlari, marosim va odatlar, og'zaki poetik ijodiyot namunalari shu muqaddas zaminda yashab kelgan ota-bobolarimiz, iqtidorli va har narsaga chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o'laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatdir [1:15].

Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o'z ichiga olgan bu ijod namunalari ibtidoiy odamlar faoliyatining barcha jihatlarini bilan uzviy bog'langan bo'lib, qadimiy kishilarning diniy, mifologik va e'tiqodiy qarashlari, boshlang'ich ilmiy bilimlari, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Lekin bular haqida manbalarda to'liq ilmiy xulosalar saqlanib qolavermagan. Yozuvning yuzaga kelishi natijasida folklor bilan tarixan bog'liq adabiyot ham paydo bo'lgan.

Folklorning an'anaviylik, o'zgaruvchanlik, variantlilik, ommaviylik, anonimlik kabi belgilari folklorga xos ana shu ijodiy jarayonning bosh xususiyati doirasida namoyon bo'ladi. Uning konseptual tahlil esa tushuncha, fikrlash, tizimlashtirish va rivojlantirishni mustahkamlaydi. Folklor yoshlar tarbiyasida qo'llash konseptuallik asnosida vujudga keladi. Chunonchi, folklor asari ko'pchilik tomonidan, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida yaratilgan elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ma'naviy-badiiy xalq ijodini asrash va yoshlarga bezavol yetkazish ilm-fan namoyondalarining e'tibor markazida bo'lib kelgan. Uni konseptual tahlil qilish, ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llash masalalarida o'ziga xos yondashuvlar bo'lgan. Ammo, shu paytgacha xalq ijodini har tamonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilganligini ham e'tirof etish joizdir. Bu xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: *"Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan "ommaviy madaniyat", shou-biznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor san'atiga e'tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir. Mana shunday noyob va buyuk san'at bugungi kunda shunchaki madaniy yodgorlik namunasiga aylanib, ko'p joylarda unutilib ketayotgani, himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib turgani – bu ham davrimizning achchiq haqiqatidir. Bu haqiqat ushbu go'zal va betakror san'atning chinakam fidoyilari sifatida siz, azizlarni hammadan ko'ra ko'proq tashvishga solayotganiga ishonaman. Shu sababli tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir*

namunalari asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir [2:1]" – degan edi.

Xalq og'zaki poetik ijodi – og'zaki so'z san'atining o'ziga xos turi sifatida "folklor" atamasi bilan yuritiladi, folklori o'rganuvchi, tadqiq etuvchi fan sohasi esa "folkloristika" deb ataladi. Folkloristika turli davrlarda va turli mamlakatlarda goh etnografiya, goh antropologiya, goh musiqashunoslik va hatto, sotsiologiyaning bir qismi deb qaralib kelingan [3:5].

Demak, folklor san'atiga yodgorlik sifatida qarab bo'lmaydi. U xalq ijodi – milliy qadriyatlarimizni o'zida jamlagan etnopedagogika hisoblanadi. Xalq san'atining boshqa turlaridan musiqa, teatr, raqs, tasviriy va amaliy san'at hamda boshqalardan og'zaki so'z san'ati ekanligi bilan ajralib turadi. Xalq ijodiyotining namunalari xalqimizning kundalik hayot tarzidagi keng qo'llanilishini ta'minlashimiz, ijodiy faolligini oshirishimiz zarurligini his qilishimiz kerak.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi. Biroq bugungi global jamiyatda bu jarayonlar biroz boshqacha tus oldi. Bolalar ulg'aygani sari go'yo bu – folklor muhitga begona bo'la boshladi. Bu begonalik eng avvalo, har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, soha vakillari ham faollik ko'rsatib, kasbiy mahorat hamda shijoatini ko'rsatishi kerak. Xalqning ma'naviy mulki, buyuk ma'naviy boyligimiz hisoblangan folklori yosh avlodga yetkazish uchun barchamiz mas'ulmiz. Uning janrlari esa, o'zining xususiyati va noyobligi bilan ahamiyatlidir. Folklor asarlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha saqlanib qolmay, ijodiy qayta ishlanib, turli o'zgarishlarga uchrab, yangidan-yangi ma'lumotlar bilan boyib, tarixiy sharoitga moslashib, shu bilan birga yozma adabiyotga ijobiy ta'sir etgan.

Folklorning asosiy xususiyati ijodiy jarayon – yaratuvchilik va ijrochilik jarayonning og'zakligi va jamoalik xarakteriga egaligidadir. Uning an'anaviylik, o'zgaruvchanlik, variantlilik, ommaviylik, anonimlik kabi belgilari folklorga xos ana shu ijodiy jarayonning bosh xususiyati doirasida namoyon bo'ladi. Folklor asari ko'pchilik tomonidan, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida yaratilgan poetika elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga kelgan. U muayyan eshituvchilar guruhiga mo'ljallangan va xalq ommasi tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etadi. Folklor namunalari og'zaki yaratilib, og'zaki tarqalishi, ommaviy repertuardan keng o'rin olishiga poetik shakllarning barqarorligi, matndan-matnga o'tuvchi umumiy o'rinlarning qat'iylashganligi, o'xshash syujetlarning ko'pligi imkoniyat yaratadi [4:6].

Shunday ekan, yoshlar tarbiyasida folklor san'atining talqini, ayniqsa, konseptual talqini nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Uni zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalar yordamida qo'llash – bu etnopedagogik pedagogikaning integratsion bosqichi bo'lishi aniq. Folklorning ta'lim texnologiyasidagi konseptual asoslariga quyidagilar kiradi:

– folklorning fan sifatida o'qitishning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, hajmi va faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, o'rgatilishi va tahlil qilinishi;

– folklorning mazmuni va mavzuiy mazmuni izchil bayonining yoritilishi;

– amaliy mashg'ulotlarda konseptual asoslariga esa, o'qitish, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlash, ta'lim texnologiyasi yordamida mukammallashtirish, konseptual yondashish va tahlil qilish kiradi. Ya'ni, folklor san'atini o'rganishda zamonaviy o'qitish vositasi, usullaridan keng foydalanishni amaliyotga keng qo'llash zaruriyati mavjud.

Konseptual tahlil boshqa sohalarda ham qo'llanilib kelingan. Folklorning konseptual tahlili esa keng doiradagi foydalanuvchilarning ehtiyojini qanoatlandirish, folklorning manbalarini chuqur tahlil qilish va mavjud asarlarni yanada axborotlar bilan boyitish va pedagogikada keng qo'llanishda namoyon bo'ladi. Xalq ijodi esa doimo rivojlanib boradigan inson omili bilan bog'liq bo'lgan san'at, desak mubolag'a bo'lmaydi.

“Xalq ijodi” (folklor) tushunchasi xalq ommasining badiiy, ijodiy amaliy va havaskorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqa folklori), xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'yinlari (raqs), qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'ochoyoq san'ati (xalq sirki), xalq tasviriy va amaliy-bezak san'ati, xalq arxitekturasi (qurilish amaliyoti) hamda badiiy va texnikaviy havaskorlik kabi ijodiyot turlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Xalq ijodiyotining bu kabi turlari yaratilishi, ijro etilishi va amalga oshirilishi jihatidan ko'pchilikining (jamoaning) ishtiroki bilan yuzaga chiqadigan badiiy iqtidor namunasidir. Folklor xalqning turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, otadan o'g'ilga, ustozdan shogirdga, ajdoddan avlodga o'tib, doimiy ravishda sayqallashib, mukammallashib, tobora an'aviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) kasb etgan hamda jonli ijro sharoitlari hamda kundalik amaliyot orqali bizgacha yetib kelgan [5:14].

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillar ichida folklor san'ati o'zining yangi rivojlanish yo'li va jahon madaniyati bilan integratsion jarayonini boshladi. Yurtimizda madaniyat va san'at sohasiga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida folklor va etnografiya yo'nalishlari faoliyat olib bormoqda. Bu o'z navbatida, xalq ijodini ilmiy tahlil qilishga, yoshlar ma'naviyatini oshirishga xizmat qiladi. Xalq ijodi tushunchasi g'oyatda kengdir. Tarixdan ma'lumki, san'at va adabiyot millatning tarbiya o'chog'i hisoblangan va hozirgi kunda ham shunday katta qudratli kuchga ega. Folklor asarlar katta hayajonlantiruvchi kuch sifatida adabiyot va san'at uchun tunganmas manba hisoblanadi.

Adabiyot o'zining taraqqiyoti davomida folklorlardan deyarli barcha estetik tushunchalar va poetik shakllarni olgan. So'z san'atining mustaqil turi sifatida folklor ham

adabiyot bilan yonma-yon yashab kelgan. Folklor va adabiyot asarlari yaratilgan ijtimoiy muhitdagi farqlar, ijodiy jarayonning xilma-xilligi ularning o'zlariga xos xususiyatlarini yanada kuchaytirdi. Natijada folklor va adabiyot og'zaki hamda yozma tur sifatida shakllangan va rivojlangan. Adabiyot va folklor ijodi asosida folklor-etnografik jamoalarining sahnaviy asarlar yaratilib, san'atning taraqqiy etishiga sabab bo'lgan.

Bu jarayonlar aholining estetik didini shakllantirib, xalq ijodiga qiziqishini yanada oshirdi. Demak, biz bugungi kunda ham yoshlarni ma'naviy taqlidlardan asrashda folklor san'atidan yanada kengroq foydalanishimiz zarur. Folklor asarlari adabiy manbalarda qog'oz ko'rinishida bo'ladi. Uni madaniyat va san'at sohasi ijodkorlari qayta jonlantiradi va sahnaga olib chiqadi.

Shu bilan birga xalq og'zaki ijodiyoti asarlari milliy qadriyatlarimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va doimo yangilanib, har bir avlod badiiy tafakkurining sarchasmasidan quvvat olib jonlanib boradigan ijod sanaladi [6:3].

Folklor asarlari yakka va jamoa holda ham ijro etiladi. Ushbu ikki ijroda ham uning tarbiyaviy xususiyati saqlanib qolishi lozim. Folklorning asosiy xususiyati ijodiy jarayon-yaratuvchilik va ijrochilik jarayonning og'zakiligi va jamoalik xarakteriga egaligi bilan izohlanadi.

U muayyan eshituvchilar guruhiga mo'ljallangan va xalq ommasi tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyatlilik kasb etadi. Har bir ijod va ijroda an'anaviy asardagi ayrim unsurlar o'zgaradi yoki tushib qoladi. Bunday o'zgaruvchanlik ijtimoiy-maishiy sharoit, eshituvchilar talabi, ijodkor salohiyatiga bog'liq.

Lekin har qanday o'zgarish sayqal topgan qat'iy an'analar doirasida sodir bo'ladi. Folklorning jamoalik xarakteri yakka ijodchilar faoliyatini inkor etmaydi. Iste'dodli ijodkorlar og'zaki an'analar doirasida uni yanada mukammallashtiradi va yangilarini yaratadi. Har qanday yangi yaratilgan ijod tarixiy ildizga ega bo'ladi. Uning avvalgisidan farqi ijro, uslub yoki metodda yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqimizning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o'ziga xos tarzda badiiy talqin qiluvchi folklor asarlari o'nlab janrlarni o'z ichiga olgan g'oyat nodir manba hisoblanadi.

Folklor – xalq ma'naviyatini mustahkamlovchi, uni tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi manbadir. Folklor – sinkritik xususiyatga ega bo'lib, barcha san'at turlariga xos elementlarni o'zida mujassamlashtirgan, unda so'z, kuy va ma'lum turlarida raqs uyg'unlikda ijro etiladi. Folklorlarda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari mag'zida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushunchalardan mukammal diniy e'tiqodiga bo'lgan tushunchalar tabiiy ravishda bo'y ko'rsatadi [7:12].

Bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda ko'plab usullar, vositalar, metodlar mavjud. Biroq bu usul va metodlar birinchi navbatda, so'z san'atining ibtidosi sanalgan folklor namunalari suyanilgan holda amalga oshirilsa, yanada samarali va ta'sirchan bo'ladi. Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so'z san'ati hamisha tayanch nuqta bo'lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir. Bugungi global jamiyatda davlat

chegaralari qo'riqlangani, muhofaza etilgani kabi millat tili va tafakkuri, estetik didi ham xuddi shunday asrab avaylanishga, qattiq himoyaga muhtojdir[8:11].

Avvalambor, folklor – bu ijtimoiy hodisadir, chunki u jamiyat tomonidan yaratiladi va uning a'zolariga asosiy ma'naviy tarbiya vazifasi sifatida xizmat qiladi va jamiyatning eng zarur sharti mavjudligini tashkil qiladi. Inson ongining musaffoligi, jamiyatning yetukligi, shaxs ma'naviyat dunyosining boyligini ta'minlashda folklor musiqasining ahamiyati juda kattadir. Shuning uchun ham folklor musiqa san'atini o'rganish o'quvchilarda ming yillik tarixga ega bo'lgan urf-odatlar, udumlar, marosimlarimizga nisbatan mehr-muhabbat va hurmat uyg'otadi[9:632]. Albatta, Yangi O'zbekistonda folklor san'atini yoshlar ta'lim-tarbiyasida keng foydalanish va uning ba'zi namunalarini zamonaviylashtirish uchun keng ko'lamli islohotlar boshlandi. Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev: *“Xalq og'zaki ijodiyotini keng targ'ib etish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televideniye va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish, folklor asarlarining audio va video variantlarini ko'paytirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda”*, – deya ta'kidlab o'tgan edi.

Yoshlar tarbiyasida folklor san'atini yanada keng targ'ib etishda zamonaviy texnologiya va internet tizimlaridan yanda keng foydalanish yaxshi samara beradi. Folklor san'ati bunda konseptual jihatdan talqin qilish kerak. Zotan, folklor asarlarining tub mohiyati, uning mag'izni, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va istiqboldagi ahamiyatini yoshlarga tushuntirish g'oyatda dolzarb vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, *“agar biz bu noyob san'atni saqlab qolish uchun bugun barchamiz birgalikda harakat qilmasak, ertaga, afsuski, kech bo'ladi, kelgusi avlodlar, tarix bizni kechirmaydi”*.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldosheva S. Sattorova G. Folklor-etnografik ansambllari. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2007. – B. 272.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz>
3. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: “Aloqachi”, 2008. – B.100.
4. Islomov E., Sapayeva T., Xidoyatova Sh. “Folklor” to'garagi uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: “Barkamol avlod” Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi nashri, 2012. – B. 40.
5. Mirzayev T.: Folklor va uning asosiy xususiyatlari. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob: To'ra Mirzayev tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: “Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti” nashri, 2006. – B. 133.
6. Jo'rayev M. Milliy istiqloq g'oyasi va folklor san'ati. – Toshkent: “Aloqachi”, 2006. – B. 37.
7. O'sha yerda
8. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev J., Eshonqulov J. Tilavov A. O'zbek folklori. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. 2020. – B. 237.
9. Obidovna M. O'zbek xalqining folklor san'ati hamda folklor-etnografik jamoalarning musiqa san'ati rivojida tutgan o'rni.// “Scientific progress” Scientific Journal. – 2021. №1. – B. 700.

LIBOSLARNI YARATISHDA INNOVATSIYALARNI QO'LLASH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada libos dizayni va uni loyihalash sohalarida kiyim shaklini hosil qilish, uni tayyorlashdagi hamda to'qimachilik sohasidagi innovatsion jarayonlar haqida so'z boradi. Bu sohadagi xorijiy tajribalar tahlil etilib, ularning libos dizayni va modaga ta'siri haqida ma'lumotlar keltiriladi

Kalit so'zlar: dizayn-loyihalash, libos shakli, texnologik innovatsiya, loyihalash jarayonlari, to'qimachilik, ishlab chiqarish.

Феруза АТАХАНОВА,
доцент Национального института художеств и дизайна имени Камолиддина Бекзода

ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИЙ В ПРОЕКТИРОВАНИИ ОДЕЖДЫ

Аннотация. В статье рассматриваются инновационные процессы в таких областях, как модный дизайн и проектирование одежды, формообразование одежды, производства одежды и текстиля. Проанализирован зарубежный опыт в этой сфере и представлена информация об их влиянии на дизайн одежды и моду.

Ключевые слова: дизайн-проектирование, форма одежды, технологические инновации, процессы проектирования, текстиль, производство.

Feruza ATAKHANOVA,
associate professor of the National institute of Arts and Design
named after Kamoliddin Bekzod

EXPLANATION OF SOME TERMS USED IN THE FIELD OF CLOTHING DESIGN

Abstract. The article examines innovative processes in such areas as fashion design and design of clothes, shaping of clothes, production of clothes and textiles. Foreign experience in this area is analyzed and information on their impact on clothing design and fashion is presented.

Key words: design engineering, clothing shape, technological innovations, design processes, textiles, manufacturing.



Libos dizaynining o'ziga xos spetsifikatsidan kelib chiqib, muloqot (kommunikatsiya)ning asosini libosdagi konseptual-siyomoli yechimlar tashkil etishi tabiiydir.

Zamonaviy kiyimga qo'yiladigan barcha talablarga javob beruvchi liboslarni loyihalash hamda mutaxassis-dizaynerlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liqdir.

Libos bo'yicha dizaynerlar oldida nafaqat utilitarlik (ya'ni, amaliy foydalilik) va qulaylik nuqtai nazaridan, balki libos (kostyum)ni turmushimizdagi badiiylik, ta'sirchanlik, ifodalilik, o'ziga xoslik kabi tushunchalarning badiiy mezoni va badiiy "o'lchov birligi" deb hisoblanishi jihatidan kelib chiqib yaratish kabi murakkab masala turadi.

Badiiy loyihalash – bu hali mavjud bo'lmagan (yoki yaratilishi lozim bo'lgan) ma'lum berilgan xossaga ega bo'lishi kerak bo'lgan obyektning yaratilishi va vujudga keltirilishidir [2].

Nomdor tadqiqotchi va olim Kantorning fikricha: "...texnik bilimlarga ega bo'lgan dizayner konstruktoring ishini takrorlamaydi... O'z ishida dizayner buyumning timsoli (obrazi, siyomosi)dan boshlab, uni ro'yobga chiqarishning texnik va texnologik sharoitlarigacha bo'lgan jarayonni bajaradi... ..Dizaynerlik badiiy loyihalashda bilim va fantaziya, intuitsiya (ichki sezgirlik) va hisob-kitoblar, fan va san'at, iqtidor va mahorat mujassamlanadi. Loyihalashning asosiy "bosqichi" ijodkor dizaynerning ongida kechadi.

Loyihalashning tashqi tashkiliy bosqichlarini esa uning metodlari qatoriga kiritib bo'lmaydi" [3].

Zamonaviy libosni loyihalash jarayoni doimo san'at, madaniyat, ilm-fan, iqtisodiyotda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar kontekstida olib borilishi lozim. Bundan tashqari, dizayner uslub va moda yo'nalishlarini farqlashi, yetakchi Moda Uylari, studiyalar va byurolarining ish faoliyati tamoyillarini tushunishi kerak bo'ladi.

K.Kantorning ta'kidlashicha, loyihalash bosqichlari va ularning ketma-ketligi sxemasi quyidagilardan iboratdir:

Buyum (dizayni) g'oyasining paydo bo'lishi:

a) dizayner jamiyatda shakllanayotgan (yoki shakllangan) ehtiyojlarni sezgirlik, ziyraklik bilan anglaydi. Bu ehtiyojlar go'yoki uning shaxsiy ehtiyojlariga aylanadi.

b) u shu damgacha mavjud bo'lgan loyihaviy g'oyalar, texnika, texnologiyalar, ishlab chiqarish va iqtisodiyot shart-sharoitlari, badiiy madaniyat, shu jumladan, arxitektura, rangtasvir, haykaltaroshlikning muvaffaqiyatlarini hisobga olgan holda mazkur ehtiyojli buyumning siyomosi (obrazi)ni izlaydi.

v) o'zining tasavvurida shu obyektning timsolini yaratadi va uning dastlabki grafik tasvirlari, hajmiy shakli, tashqi ko'rinishining tavsifi, uning amaliy qo'llanilish usullari ustida ishlaydi.

1. Muhandis tomonidan g'oyani texnik jihatdan mustaqilligining tekshirilishi hamda umumiy texnik g'oyadan buyumning konstruksiyasini (tuzilmasini) ro'yobga chiqarilishiga o'tilishi.

2. Konstruksiya yaratilgandan so'ng predmetning dastlabki g'oyada belgilangan funksional parametrlari va tashqi ko'rinishiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Dizayner real texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda konstruksiyaga o'zining tuzatishlarini kiritadi.

3. Obrazni konstruktiv-texnologik va estetik jihatdan to'ldirib yakunlash bo'yicha olib boriladigan bosqich [4].

Ammo, aksariyat hollarda, bugungi kundagi zamonaviy talablardan kelib chiqib, libos dizayneridan loyihalashning ijodiy jarayonida boshqa mutaxassislarining ishtirokisiz kiyim, kostyum yaratish talab qilinadi. Buning uchun konkret buyumni yaratish mobaynida unga kerak bo'ladigan g'oyasini tasvirlash (eskiz grafikasi), materiallarni tushunish, konstruksiyalash va tikish texnologiyasi sohasidan bilim, ko'nikma, mahorat kerakdir. Undan tashqari, dizaynerning kompozitsiya tuzish va rangshunoslik asoslaridan savodi bo'lishi lozim.

Masalan, jahon miqyosida oladigan bo'lsak, bugungi kunda mavjud bo'lgan kichik mualliflik laboratoriyalari, studiyalarida dizaynerlar ana shu tarzda faoliyat yuritadilar. Bu yerda ularning ijodiy faoliyati natijasida eksperimental, noodatiy modellar paydo bo'ladi. Agar loyihaviy vazifa yirik ishlab chiqarish sharoitida bajarilsa, u holda dizaynerdan texnik jarayonlarni tushunish va asoslay olish talab qilinadi, hamda u konstruktor va texnolog bilan hamkorlikda ishlab chiqarish sharoitlariga muvofiq ishlaydi.

Ma'lum loyiha ustida ish olib borilayotganda, tug'ma xususiyat deb hisoblanadigan juda katta iqtidor (kreativlik) kerakdir. Shunga qaramay, muvaffaqiyatga eltuvchi ijodiy jarayonlar konkret vaziyat va muammolarning original, o'ziga xos yechimini o'ylab topish qobiliyati natijasidir. Bu qobiliyat esa iqtidor va individual alomatlardan tashqari ishlashning ma'lum metodologiyalariga asoslangandir [5].

Mashhur rassom Pablo Pikassoning aytishicha: "Ijodiy ilhom mavjud narsa, faqat u siz bilan ish vaqtida topishadi". Yaxshi va qiziqarli g'oyalar, muhim sarflar, yangi yechimlar – bularning barchasi tahlil, kuzatuv, mulohaza, taklif etish kabi turli ruhiy jarayonlarni qamrab oluvchi konkret tadbirlar natijasidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan turli tanlov va festivallarda namoyish etilgan liboslarda g'ayrioddiy va eng dadil g'oyalarning ro'yobga chiqayotganini kuzatish mumkin. Ammo shuni ta'kidlash ham kerakki, turli madaniy-tarixiy manbalarga murojaat qilishlarning har xil qo'llanilishida aksariyat holda zamonaviy libos loyihalashning "shakl" kabi asosiy tushunchasiga kam e'tibor berilayotgani kuzatiladi. Ko'pincha loyihalar sirtning dekorativ bezagi, matoning fakturasi hisobiga amalga oshiriladi. Lekin "yaratilgan buyumning o'ziga xosligi va yutug'i uning chegarasi, ya'ni shaklidir" [6].

Amerikaning Yel universitetining dizayn bo'yicha mutaxassisi Pol Rendning aytishicha: "Barcha narsalar o'zining yaxshi yoki yomon, jozibakor yoki yoqimsiz shakliga ega. Hatto dekor – bu "adashib qolgan" shakl. Shaklsizlik mavjud emas. Shakl va mohiyat o'zaro bog'liq

va bir-biriga tobe. Shakl mohiyatga qanchalik ta'sir etsa, mazmun-mohiyat ham shu ta'sirni shaklda aniqlaydi. Konstruktivizm yoki dekonstruktivizm, realizm yoki avangard bo'ladimi – uslubiy yo'nalishdan qat'iy nazar yaxshi shakl mavjud va yomon shakl mavjud bo'ladi" [7].

Libos bo'yicha dizaynerlar ham o'z ijodiy faoliyatlarida turli ma'noga ega bo'lgan uch o'lchovli konstruktiv, hajmiy, plastik, texnologik va boshqa strukturalar yaratishadi. Shakl hosil qilishning asosiy maqsadi – sodda ayro shakllarni murakkab, ko'p sathli tuzilma (qurilma, struktura) hisoblanadigan libos strukturasiga yig'ish. Shuni ta'kidlash kerak-ki, aksariyat hollarda libosni shaklini uch o'lchovli statik holatdagi struktura deb yondashiladi. Vaholanki libos odam harakatlari va gavdaning plastikasiga mos ravishda o'zining holatini tinimsiz o'zgartiruvchi dinamik tizimdir. Bundan libos shakli odam gavdasi bilan bevosita bog'liq hamda faqat uning proporsiyalari, plastikasi bilan uzviy ravishda o'rganilishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Libos shaklining plastikaga nisbatan o'zgarishi esa odam mavjud bo'lgan vaziyatga va shu vaziyatdagi odamning xatti-harakatlariga bog'liq. Obyektning konkret konstruksiyasi – odam gavdasi bilan ijodiy g'oyani solishtirilishi natijasida dastlabki obrazning chiziq va shakllari vujudga keladi. Libos shaklini yaratar ekan ijodkor gavdaning chiziqlarini: uning tashqi ko'rinishi, konturlari, figuraning konstruktiv nuqtalaridan o'tuvchi chiziqlarini xayolan kuzatadi. Aynan inson rassom-modelyer, dizaynerlar ijodining obyektidir.

Manbalar bilan ishni boshlashdan oldin, ijodning boshlanishi nimadan iborat, yakuniy natija qanday bo'lishini, dizayn-loyiha natijasi kim uchun mo'ljallanganligi va rassom iste'molchi bilan qay tarzda muloqot qilayotganini aniqlab olish darkor. Chunki ijodning eng birinchi manbasi – bu odam: uning gavda tuzilishi, tashqi qiyofasi, xarakteri. Odam kallasi, bo'yni, qo'l-oyoqlari, tanasi, bo'ksalarining shakli va chiziqlarining plastikasi kiyim shaklini hosil qilish usullariga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Dizayner atrofdagi dunyoni kuzatib, uni qayta o'zlashtirib – "o'zidan o'tkazib", uni turlicha talqin etib ijod qiladi. Libos bo'yicha rassom-modelyerning ijodiy faoliyati faqatgina uning qanchalik chuqur, nafis va shoirona fikrlashiga emas, balki ijodkorning o'z g'oyalarini qanchalik mahorat bilan san'at asarlarida ro'yobga chiqarish usullarining butun arsenali bilan mohirona egalik qilishiga ham bog'liq bo'ladi. Ya'ni dizayner o'zining xayolidagi g'oyani o'ta moddiy bo'lgan ashyolarda gavdalanitirish lozimdir.

Libos loyihalash va uni tayyorlash badiiy, texnik va ijtimoiy masalalarning yechimini o'z ichiga oluvchi kompleks, murakkab jarayondir. Inson ehtiyojlari uning shaxsiy xususiyatlari va madaniyatining darajasi bilan belgilanadi. Shaxsiy xususiyatlari va madaniyatining rivojlanganlik darajasini esa biologik (odamning yoshi, jinsi, antropometrik tavsifi), ijtimoiy (insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, uning millati, mutaxassisligi), shaxsiy (individualligini namoyish etishi, o'zini qulay sezish sharoitlari va hokazo) ko'rsatkichlar ta'riflaydi va ochib beradi.

Libos dizayni sohasining rivojlanishi ta'sirida iste'molchilarning ehtiyojini yuqori darajada qondiruvchi yangi buyumlar yaratiladi. Odamlarning kiyimga bo'lgan

ehtiyoji ortib borishi dizaynerlar oldiga nisbatan narxi arzon, yangicha, xilma-xil ko'rinishli kiyimlar bilan ta'minlovchi loyihalashning yangi usul va imkoniyatlarini topishga majbur etadi.

Dunyo miqyosidagi va xususan, O'zbekistondagi liboslarni ishlab chiqaruvchi yengil sanoat zamonaviy jahon iqtisodiyoti talablarining yangi sharoitlariga moslashishni talab qiladi va zamonaviy ishlab chiqarish tizimida innovatsion texnologiyalarning o'rni to'g'risidagi nazariy tushunchaga muhtoj.

Bu bugungi kunda ilgari o'zaro bog'liq bo'lmagan yoki o'zaro aloqalari sust bo'lgan faoliyat sohalarini birlashtirgan texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, san'at, fan va ishlab chiqarish sohalarini hamkorlikda ishlashga va o'zaro faolroq ta'sir qilishiga sababchi bo'lyapti. O'z navbatida, mazkur sohalarning rivojlanishidagi yangicha yo'nalishlar ixtiro qilinmoqda. Bu jarayon dizayn sohasiga ham taalluqlidir. Jahondagi globallashtiruv ham mazkur jarayonga o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish harakatchanligini oshirish va innovatsiyalarni joriy etishga sarf bo'ladigan vaqtni qisqartirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirishga majbur qiladi. Ma'lumki, dizayn obyekti – bifunksional [8]. Ya'ni u ham utilitar-amaliy vazifani ham estetik vazifani bajarishi lozim.

Aynan shuning uchun kelajakda libos dizaynerlari va boshqa soha mutaxassislari tomonidan samarali foydalanilishi mumkin bo'lgan modadagi innovatsion texnologiyalarni o'rganish va ularni O'zbekiston moda sanoati doirasida qo'llash tajribasini tahlil qilish dolzarbdir. O'zbekistonda mato va material tayyorlash, tikuvchilik, shakl hosil qilishdagi innovatsion texnologiyalarning dizaynda qo'llanilishining tahlili moda va fan orasidagi muloqot shakllarining faollashuvini taqozo etishini ayon qildi.

Vaholanki, libos dizayni va moda taraqqiyoti tarixi innovatsiyalarning dizayn san'atiga ta'sirining kuchli bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan, mashinada to'qilgan trikotajning paydo bo'lishi va uning avval ichki kiyimlarda, keyinchalik Gabriel Shanel tufayli ayollar ustki kiyimda qo'llanilishni boshlashi o'z davri uchun innovatsiya edi. XX asrning 20-yillarida trikotaj kundalik kiyimlar uchun eng modabop ashyoga aylandi [9]. Jun yoki ipak trikotajdan djemper va puloverlarni, trikotaj kardiganlarni, to'qilgan shapkacha va sharflarni nafaqat erkaklar, ayollar ham kiyar edilar. Bunday buyumlar hozirgi kungacha o'z aktualligini yo'qotmaganligi uchun, ularni libosdagi o'ziga xos klassika darajasiga ko'tarish mumkin.

Sun'iy shoyi (aniqrog'i, 1892-yilda ixtiro etilgan viskoza) va ipak kreplar (1918-yilda Liondagi "Byankini-Ferye" firmasi tomonidan ixtiro qilib patentlangan, o'ta burmabop va "to'kiluvchan" xususiyatga ega bo'lgan. Fransiyalik mashhur modelyer Madlen Vionne birinchilar qatorida o'zining modellarini o'sha davr uchun yangi bo'lgan shoyi kreplardan (hamkorlik to'g'risida shartnomasi bo'lgani uchun, asosan "Byankini-Ferye" firmasi tomonidan ishlab chiqilgan krepdeshin, krep-romen, hamda ipak va atsetat aralashmali o'ziga xos matolardan) modellashtirishni boshlagan. Bu matolar qiyalamasiga bichilganda jilvalanib turuvchi burmalarni hosil qilish imkonini berardi. Undan tashqari Vionne "Rodye" firmasi bilan ham hamkorlik

qilgan. Ataylab uning buyurtmasiga asosan bu firma eni juda katta bo'lgan (4-5 metrgacha) jun tolali matolarni ishlab chiqarar edi. Bu matolarning kengligi Vionnega qiyalamasiga bichim evaziga birorta choki yo'q paltolarni yaratish imkonini bergan [10].

Bir paytlari umuman boshqa sohada paydo bo'lgan "zummer" taqilmasini modadagi syurrealizm ixtirochisi Elza Skiappareli tomonidan o'z liboslarida qo'llay boshlagani nafaqat bu furnituraning kelajagini, balki zamonaviy libosning, ayniqsa yoshlarbop modaning qanday bo'lishini belgilab berdi [11].

So'nggi yillarda ixtiro qilingan viskoza, kapron, laykra kabi tolalarning libos dizayni va modaga ta'siri beqiyos.

Hozirgi kunda dunyoda tabiiy tolali, gigiyenik xususiyatlari yaxshi gazlamalar bilan chegaralanmay, sog'liq uchun foydali, iste'mol, texnologik talablarga javob beradigan zamonaviy materiallar ishlab chiqish ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Kelajak dizayn loyihasi o'z ichiga bio, nano-tolalarni, plazma, lazer, radiatsion va boshqa eng yangi texnologiyalarni juda faol natija bilan qamrab olmoqda. Dastavval barcha yangi texnologiyalarning manbalari sifatida harbiy ishlanmalar hisoblangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ular maishiy tus olib dizayn tomonidan o'zlashtirilib muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Masalan, kelajakning eng ilg'or tendensiyalaridan biri bo'lgan nanotola nafaqat harbiy va kosmonavt-uchuvchilarning maxsus kiyimida, balki kundalik kiyimda ham qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, innovatsion jarayon o'z inqilobiy ishlanmalarida cheksizdir, yangi innovatsion obyektini loyihalashtirish esa yagona funksional, texnik va mazmunli yaxlit, obyektlarga birlashgan majmuani yaratishni talab etadi.

Shu maqsadda, O'zbekistonda ham libos loyihalash va uni ishlab chiqarish sohalarni jadallashtirish, rivojlantirish va yanada yuksaltirish bo'yicha qator qonun, qaror va dasturlar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] va "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari [12], "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni [13] mazkur sohaning rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan. Bularning barchasi raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, turli ahamiyatli loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o'rinlarini yaratish, korxonalarini texnik va texnologik yangilash, ilg'or "klaster modeli"ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

O'zbekistonda materiallarning estetik, texnologik, ishlab chiqarish talablarini qondiradigan texnik va tejamkorlik xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin bu izlanishlar natijalari dizaynerlarga yetib kelmayotgani achinarli hol. Aksariyat izlanishlar iqtisodiy jihatdan o'zining samaradorligini isbotlashga qaratilgan. Ularning

ishlab chiqarishga joriy etilishi uchun vaqt va mablag‘ zarur. Natijada bu ishlanmalar xaridorga yetib kelmasdan “eskirib qolmoqda”. Ishlab chiqarish, kimyo sanoatidagi texnikaning va usullarning “epchil” emasligi dizaynerlar taklifini ro‘yobga chiqarishini kechiktiryapti.

Mazkur holatlar, dizayn sohasi san‘at, fan, ishlab chiqarish tutashuvidagi soha bo‘lganligi sababli, tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashni

hamda hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishi mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki ommaviy tarzda ishlab chiqariladigan liboslarni tayyorlovchi – “pret-a-porte”, “haute couture” sahnabop va imidjni shakllantirish uchun mo‘ljallangan, konseptual yo‘nalishdagi liboslarni loyihalash yo‘nalishlari har biri o‘zining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib texnologik innovatsiyalarni turli miqdorda va turlicha tarzda qo‘llaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 12-fevraldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Андросова Э.М. Основы художественного проектирования костюма. – Челябинск: Медиа-принт, 2004, стр-9.
3. К.Кантор. Правда о дизайне. – М.: АНИР, 1996.
4. Marcarena San Martin. Field guide: How to be a fashion Designer. – USA by Rockport Publishers, Quayside Publishing Group, 2009
5. Быстрова Т.Ю. Вещь. Форма. Стиль: введение в философию дизайна. – Екатеринбург: Кабинетный учитель, 2017. – стр 374. 15-бет.
6. Ренд, Пол. Дизайн: форма и хаос. Москва: Издательство студии Артемия Лебедева, 2013. – 244с.:илл. стр-20
7. Рунге В.Ф., Сеньковский В.В. Основы теории и методологии дизайна. Учебное пособие. – Москва: МЗ Пресс, издательство «Социально-политическая МЫСЛЬ», 2005. – 368с. стр-100.
8. Зелинг Шарлотта. Мода. Век модельеров (1900-1999). Konemann Verlagsgesellschaft mbH Bonner Str. 126, D-50968, Koln, 1999 г. (для издания на русском языке Konemann Verlagsgesellschaft mbH Bonner Str. 126, D-50968 Koln, 2000). – стр-500.
9. Ерилова Д.Ю. История домов моды: Учеб. пособие для высш. учебн. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2003. — 288 с.
10. Fashion: The Ultimate book of costume and style. Senior Editor Kathryn Hennessy. First published in Great Britain in 2012 by Dorling Kindersley Limited, 80 Strand, London WC2R ORL, - 490 p. 314-315-бетлар.
11. <https://president.uz/uz/lists/view/2373>
12. <https://nrm.uz/contentf?doc=600020>
13. <https://lex.uz/docs/4805518>

xalqlari orasida alla nomi bilan yuritiladi. Odatda oddiy kuylar bilan ba'zida rehitativ tarzda, beshik yoki belanchakni tebratish sur'atiga mos ravishda ijro etiladi. Matni, asosan, to'rtlik, ijro uslubi erkin, badihago'y. Alla onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbati, umid va orzulari, yaxshi niyat va tilaklarini anglatish bilan birga ruhiy kechinmalarini ham ifodalaydi"².

Shu o'rinda aytadigan bo'lsak, bolalarning aqliy, ruhiy, ma'naviy, axloqiy kamol topishi ona allasi bilan ham chambarchas bog'liq. Allalardagi vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, xushaxloqlik kabi fazilatlarini yuqori o'ringa ko'taruvchi satrlar bola shaxsining tarbiyalanishida muhim rol o'ynaydi. Bola bu qo'shiqni eshitib, Vatanni sevishga o'rganadi, insonparvar, mehnatsevar, xushaxloqli bo'lishga intiladi. Albatta, bolaning tarbiyasi faqat alla qo'shiqlari bilan nihoyasiga yetmaydi. Ona hech kimga aytolmagan yurak dardlarini chaqalog'iga, bolasiga alla orqali aytadi va bundan ma'lum darajada yengil tortadi. Alla o'z davrining lirik kayfiyatdagi ruhiy ko'zgidir. Onaning yoqimli ohanglari ichida davr muhiti, kishilar tirikchiligi, ijtimoiy-maishiy hayot, kishilar o'rtasidagi munosabatlar, qarama-qarshiliklar oddiy so'zlarning go'zal va badiiy, ruhiy qudrati o'z ifodasini topgan. *"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan"*³. Demak, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tomondan komil shaxs qilib tarbiyalashda uning ongi, tafakkuriga xalqiga cheksiz mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish, milliy g'ururni yuksaltirish, milliy ong va tafakkurni o'stirishdek, dolzarb vazifani bajarish barchamizdan juda katta mas'uliyatni talab etadi.

Dunyodagi har bir xalqning o'z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan, o'zbeklar ham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami ma'naviyati ham sog'lom bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan. Ajdodlar bola ko'nglining sog'lom va toza bo'lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasi muhim o'rin tutishini

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2000-yil, – B. 349.

³ Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida ma'ruza. 19-yanvar, 2021-yil. <https://president.uz/>.

⁴ Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. I kitob, Toshkent: 1959. – B. 293.

⁵ O. Madayev, T. Sobirova. Xalq og'zaki poetik ijodi. Akademik litsey uchun darslik. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –Toshkent: 2010. – B. 208

juda yaxshi bilishgan. O'zbek onalari tilidan aytilgan allalarda ularning orzusi aks etgan deyish mumkin. Alla matnini chaqaloq tushunmasligi mumkin, lekin alla mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg'usini ko'ngli bilan his qiladi.

Alla qo'shiqlariga insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onani qadrlash kabi tuyg'ular singdirilgan. Ularda axloq-odob, tarbiyaviy mezonlar xalqona, sodda tilda, ravon singdirilgan. Binobarin, onalar alla qo'shiqlari orqali bolaning komil inson bo'lib shakllanishi yo'lida ma'naviy xizmat qiladi. Oilada bolalarga alla qo'shiqlari vositasida tarbiya berilar ekan, bu uning yuksak ma'naviyatli, axloqli shaxs bo'lib shakllanishida omil bo'ladi. *"Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi"*⁴. Demak, alla qo'shiqlari tarbiya jarayonida zaruriyatga aylanishi kerak. Bunda xalqning asriy qadriyatlari va hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda yondashiladi. Chunki bola ertaklar, maqollar, matallarning mag'zini intellektual darajada tushunadigan bo'lgunicha, uning ongi alla qo'shiqlari bilan to'yintirilishi kerak. Bunday mukammal tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik yuqori bo'ladi. Oilada amal qilinadigan tartib-intizom, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bola ulg'aygach jamiyat manfaatlarini bilan uyg'unlik kasb etadi. Alla necha ming yillik qadriyatimiz sifatida milliylikimizning o'zagi, ko'rki, bebaho namunasi bo'lib qolaveradi.

"Bola tug'ilgani zahoti dunyodagi eng mehr bilan aytiladigan qo'shiqni eshitadi. Alla ana shu qo'shiq hisoblanadi. Sevimli shoirimiz Cho'lpon alla haqida shunday degan edi: *"Bir bola uxlamasa, alla aytadilar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qilur"*. Bu ifodada allaning eng muhim fazilati – bola ruhiga ta'siri aks etgan. *Keksalarimiz allaning sadolari bola ruhiga iymon, vataniga muhabbat, xalqiga hurmat, o'zi tug'ilgan oilaga izzat bo'lib quyilishini ko'p aytganlar. Alla atamasi olimlarning ta'kidlashlaricha, ovutib uxlatish ma'nosini berar ekan"*⁵. Ta'kidlash lozimki, allaning ahamiyatini dunyodagi ko'plab olimlar o'rgangan. Onalikka tayyorlash borasida olib borilgan tibbiy tadqiqotlarda alla go'dak salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, turli yuqumli kasalliklarga chalinish xavfini kamaytirishi aniqlangan.

Alla bolani uxlatishga qaratilgani bois bir maromdagi ovoz va ohang tanlanadi. Eng qizig'i, bunda onaning musiqiy iste'dodga va shirali ovozga ega bo'lishining ahamiyati yo'q. Tibbiyot olimlarining aniqlashicha, alla bola miyasining o'ng yarim sharini harakatga keltirib, aqliy faollikka turtki beradi va diqqatni oshiradi. Alla boladagi turli hissiyotlarga va ongiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar alla aytilayotgan paytda bola miyasining turli sohalardagi biologik potentsiallariga sinxron ravishda ta'sirlanishini ko'rsatgan. Alla aytish ona salomatligi uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tug'ruqdan so'ng tez tiklanishga yordam beradi. "Akademik shoirimiz G'afur G'ulom so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiyning *"Farhod va Shirin"* dostoniga bergan sharhida Farhodning

beshigi atrofida yig'ilishib: "Yuz ohang bilan alla aytar edilar", – deydi. Yodimizda bo'lishi kerakki, dunyoda o'z kashfiyotlari, she'r va dostonlari bilan mashhur bo'lgan hamma odamlar go'dakligida alla eshitib ulg'aygan".⁶ Bundan ma'lum bo'ladiki, alla qo'shiqlari bolalarga o'z ona tilini tanitadi, uning imkoniyatlarini, yorqin va jozibadorligini anglatadi.

Qolaversa, bola alla orqali xalqning kechagi kuni va buguni haqida ham ma'lumot oladi. Ona tinchlikning qadrini, qimmatini, uning inson hayotidagi ahamiyatini oddiy so'z bilan emas, balki alla qo'shiqlarida ham ifodalaydi. *"Onalar allalaridan ritmik uquvi shakllana boshlagan kichkintoylarda 2–5 yasharliliklaridayoq o'z xatti-harakatlari va o'yinlarini ritmik jihatdan baholash va boshqarish mayli tug'iladi. Bu shunchaki baholash va boshqarishgina bo'lmay, ularning o'sha xatti-harakatlari, o'yinlaridagi hayotiy mazmuni ritmga solishdan iborat poetik ko'tarinkilik hisoblanadi. Shu sababli ular shovqin solib aytiladi va aksar holatlarda ikki satrdan oshmaydi. Tovushlar shovqinining ritmik garmoniyasi hosilasi sifatida to'qilgan bunday qiqillamalar bolalar ijrochiligida ilk poetik akt hisoblanishi bilan qimmatlidir"*⁷.

Oxunjon Safarov o'z tadqiqotlarida, o'zbek allalarini mazmun va kompozitsiya jihatdan parokanda va voqeaband allalarga bo'linishini aytib o'tgan. Tadqiqodchi allalarni mazmun jihatdan maishiy va tarixiy allalar mavjud ekanligiga urg'u beradi. *"O'zbek folklorshunosligida allalarning kompozitsion butunligini so'z, ohang va harakatning birligida, o'zaro mantiqiy aloqadorligida ko'rish hali ilmiy maromiga kelganicha yo'q. Jumladan, o'zbek allalarini o'rganishda birmuncha ishlar qilgan, ayni choqda asossiz ravishda ularni marosim qo'shig'i sifatida xarakterlagan taniqli folklorshunos M.Alaviya: "Alla, asosan, to'rtlikdan tashkil topgan bo'lsa ham, ba'zan allalovchi to'lqinlanib ketsa, davom ettirib, boshqa misralarni ham qo'shib yuboradi va bir-biriga yaqin bir qancha to'rtliklarni aytib, bu bilan o'zining tilak, armonini izhor etadi"* deb yozib, allaning struktural xususiyatlarini cheklab qo'ygan"⁸.

Professor To'ra Nafasovning fikriga qaraganda, allalarning bandi miqdori turlicha. Eng kichigi ikkiliklardan iborat. To'rtliklar allalarning asosini tashkil etadi. Beshlik, oltilik, sakkizlik va undan ko'p misrali allalar ham mavjud. Hatto 20 misralik allalar ham yozib olingan. Ko'rinadiki, allalarning misralarida cheklanish, deyarli,

yo'q. Allalarning miqdori allachining holati, kayfiyati, bilag'onligi, zukkoligi, donoligi, she'riyatga munosabati kabi qator omillarga bog'liqdir. To'rtliklar shaklidagi allalar tuzilish jihatidan xalq qo'shiqlariga o'xshab ketadi.

Shu o'rinda aytish lozimki, Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 26-fevral kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi bayoni hamda tegishli topshiriqlar ijrosini ta'minlash, qadimiy xalq qo'shiqlari, urf-odatlarini, marosimlar va an'analarni o'rganish, yoshlarning alla ijrochiligi san'atiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda yangi iqtidorli havaskor ijrochilarni kashf etish, ularning san'atini keng targ'ib qilish maqsadida Madaniyat hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirliklari hamkorligida "Alla aytgan yetar murodga" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Uning Respublika bosqichi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bo'lib o'tdi. Tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan jami yettita jamoa va o'ttiz to'rt nafar yakka ishtirokchi xalq qadimiy allalari, bastakorlar tomonidan bastalangan zamonaviy allalar, xirgoyi allalar hamda teatrlashtirilgan urf-odat va an'analarni o'z ichiga olgan tomosha dasturlari bilan ishtirok etdi. Ko'rik-tanlov ko'tarinki kayfiyatda tashkil etilgani esa albatta, xalqimizning milliyligimizga, muqaddas allamizga bo'lgan yuksak hurmati belgisidir. Bunday ko'rik-tanlovlarni muntazam davom ettirish kerak. Zero, bo'lajak onalarimizning ma'naviyatini o'stira olsak, butun millat ma'naviyatini yuksaltirishga erishishimiz oson bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, ona kuylaydigan alla qo'shiqlari nafaqat bolani uxlatishga, balki uning ruhini, qalbini, ichki dunyosini uyg'otishga ham xizmat qilishi joizdir. Ana shu alla bolani yaxshiliklarga yo'llay olishi darkor. Demak, onalar atrofni qurshab turgan olamni qo'shib, alla aytishi kerak. Shunda alla o'z tarbiyaviy ta'sir kuchini ko'rsatadi. Bunday alla aytgan ona chinakam xalq pedagogi hisoblanadi.

To'g'ri, bola bugun alla tinglab, ertaga ma'naviy-axloqiy yetuk shaxs bo'lib qolmaydi. Buning uchun allalar vositasida boshlangan tarbiya pog'onama-pog'ona olib borilishi kerak. Bu onadan juda katta e'tibor, matonat va o'ziga xos pedagoglik mahoratini ham talab qiladi. O'z navbatida, pedagoglar ham talabalarga alla qo'shig'ining mazmun-mohiyatini targ'ib etishi, bu borada yoshlarni samarali izlanishlar olib borishiga undashi lozim.

⁶ O'sha manba.

⁷ T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori. Toshkent: 2020. – B. 237

⁸ Safarov, Oxunjon. O'zbek xalq og'zaki ijodi: pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darslik / – T.: Musiqa, 2010. 368 b.



IV BO' LIM

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

Musallam ABDUJABBAROVA,
O'zDSMI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Xolbek XAYDAROV,
O'zDSMI tayanch doktoranti

TURKISTON JADIDLARINING XOTIN-QIZLAR TA'LIMI MASALALARIGA MUNOSABATLARI

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining xotin-qizlarni o'qitish masalalari bilan bog'liq qarashlari yozilgan. Sharq qizlarining ta'lim-tarbiya sohasidagi bu davrdagi ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy yo'nalishlari keltirilgan. O'sha tarixiy davrda sodir bo'layotgan ta'lim jarayonining dinamik o'zgarishlari ko'rsatilgan. Shuningdek, turli manba va arxiv hujjatlari asosida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvarlar, ayol, xotin-qizlar, maktab, ta'lim, tarbiya, oila, farzand, manba, arxiv hujjatlari, tahlil, xulosa, tavsiya.

Мусаллам АБДУДЖАББАРОВА,
заведующая кафедрой «Педагогика и психология» ГИИКУз, кандидат педагогических наук, доцент
Холбек ХАЙДАРОВ,
докторант ГИИКУз

ОТНОШЕНИЕ ТУРКИСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ К ПРОБЛЕМАМ ОБРАЗОВАНИЯ ЖЕНЩИН И ДЕВОЧЕК

Аннотация. В статье даётся историческое сведение о деятельности просветительского центра Туркестана конца XIX-начала XX века. Представлены основные направления просветительской и воспитательной работы этого периода в образовательной сфере девушек Востока. Показаны динамические перемены образовательно-воспитательного процесса, происходящие в тот исторический период.

Ключевые слова: джадид, педагог, женщина, жена, девочки, школа, образование, воспитание, семья, ребенок, источник, архивные документы, анализ, заключение, рекомендация.

Musallam ABDUJABBAROVA,
"Pedagogy and Psychology" head of the chair UzSIAC, candidate of pedagogical sciences, associate professor
Holbek Khaidarov,
doctoral student of UzSIAC

ATTITUDES OF TURKSTON JADIDS TO WOMEN'S AND GIRLS' EDUCATION PROBLEMS

Annotation. The article gives a historical perspective of the activities of the educational center of Turkestan in the late XIX-early XX century. The main directions of educational and educational work of this period in the educational sphere of girls of the East are presented. The dynamic changes of the educational process taking place in that historical period are shown.

Key words: jadid, enlighteners, female, women, girls, school, education, upbringing, family, child, source, archival documents, analysis, conclusion, recommendation.

Yangi O'zbekistonni barpo qilishda yoshlar zamonaviy bilim bilan birga, ajdodlarimizning madaniy merosini ham chuqur o'rganishlari lozim. Ayniqsa, necha yillardan

buyon bizgacha yetib kelgan yozma merosimizdagi oila bilan bog'liq bo'lgan qimmatli ma'lumotlar, ajdodlarimizning hayotiy tajribalari asosida yozilgan.

Ularni o'rganish va hayotga tatbiq qilish shaxsning ma'naviy barkamolligini ta'minlashda zarur ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz tomonidan ta'kidlaganidek, "Bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"[1].

XIX asr haqida gap ketganda, ayollar, xotin-qizlarni o'qitish masalasi tarixiy manbalarda kam yoritilgani namoyon bo'ladi. Ammo fiqhiiy kitoblarda oila masalasida, erkak va ayol hamda farzandning haqlari, burchlariga oid muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Ana shu asarlarga asoslanib, jadid ma'rifatparvarlari ham jamiyatda va oilada ayollarning o'qimishli bo'lishini targ'ib qilishgan. Misol uchun, arab tilida yozilgan "Turuqun niso" ("Ayollarning o'zini tutish qoidalari") [15], fors tilida ijod qilgan Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqiy Muhsiniy" ("Muhsinning axloqi") [20], "Dur al-ajoyib" [4] hamda turkiy tilda yozilgan Rizouddin ibn Faxruddinning "Tarbiyali xotun" [10] kabi asarlarida ayollarning o'qimishli bo'lishi lozimligi haqida ko'pgina ma'lumotlar berilgan.

Shu jumladan, So'fizodaning "O'qunglar onalar"[11], Tavalloning "Hamshiralardin tilindin"[12] she'rlarida Turkiston ayollarining "mute joriyalar"ga aylanib qolganligi, ularning ma'rifatli bo'lishiga qarshilik ko'rsatayotgan "challasavodlar"ga qarshi chiqiladi va ularning xulosasi ma'rifatni keng joriy etish zarurligi bilan yakun topadi. Abdulla Avloniy xotin-qizlarning ilm olishiga, kasb-hunar o'rganishiga targ'ib qilib yozgan she'rlari bilan bir qatorda, bu masalada tanqidiy qarashlarini keltirish joiz: "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?" – degan savol keladur. Bu savolga, "birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchisi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir", deb javob bersak, bir kishi deyrki, "qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz boshi pahmoq, qo'li to'qmoq onalarni? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar" der [2, 37]. Chunki deydi u, "onalarimiz bilim va tarbiya o'rnig'a erlari ila urushib-talashub qizlarig'a mol qilmakni yaxshi ko'rurlar" [6]. "Biz bechoralarni shu hollarga (jaholat demoqchi) qolg'onimiga birinchi sabab ilmsizligimiz, dunyodin xabarsizligimizdur. Ey otalar ushbu nuridin bahravor qilurga harakat qilingiz ... Ma'suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg'a oshiqingiz" [14], deydi. Qizlarga turli ziynatlar emas, aksincha ilm, hunar lozimligini uqturadi, u: "Qizlarimizg'a marjon bo'yun tumor va qo'ltuqtumor kabi ziynat asboblarini hech bir lozimi yo'q. To'g'risi avom qizlaringizni munday ziynat asboblar ila ziynatlamangiz. Juda aqchangiz tashlabilmay turgon bo'lsangiz mahallangizdan biror qizlar maktabi ochib, durustroq bir muallima keltirungiz. Endi bizni o'quturg'a va kishi qatorig'a kiriturga g'ayrat qilingiz. G'ayrat!!!". Maqolada o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalarga ilm, hunar ko'proq zarurdir, degan fikr ilgari suriladi, chunki ular millat tarbiya-chilaridir.

Rauf Muzaffarzoda o'zining "Yangi yildan eski tilaklar" nomli maqolasida milliy matbuot qanday bo'lishi va qaysi yo'nalishda rivojlanishi haqida fikr bildirar ekan, "erlarimiz

ham, xotin-qizlarimiz ham maishat, tarbiya va dunyo ila tanishtursun va onlarning fikrlari ochub ahvoli olamdin xabar bersun" [8], deb davr uchun eng zarur bo'lgan muammolarni yozishga davat etadi. Eng quvonarli jihati shundaki, ushbu murojaatga javoban ayol mualliflarning Turkiston xotin-qizlari hayoti, kundalik turmushi bilan bog'liq bo'lgan voqealarni kengroq yoritgan maqolalari vujudga keldi. Shu o'rinda Sora Muzaffariyaning "Ayb o'zimizda" nomli maqolasi diqqatga sazovor. Unda Turkiston xotin-qizlarining haq-huquqlari masalasi haqida fikr yuritiladi: "Bizda iste'dod ham bor, qobiliyat ham bor. Ong va fikr ham bor. Bir uy ichigina emas, ba'zi erlar ham o'rniga keltira olmaydigan, mamlakatlar idora qiladurg'on quvvat ham bor" [9]. Muallif chor devor asirasiga aylangan, mute, kundosh azobdan ezilgan Turkiston ayollarini birlashishga, eskicha hayot tarzini buzib, yangicha hayot kechirishga chaqiradi. "Ammo xotin-qizlarimiz ko'p qo'zg'olmaydurlar, qo'zg'olsalar ham matlub darajada emas. Ey islom xotunlari! O'n uch asrlik tajriba bizga bunday yashashning natijasi nima va qanday bo'lishini emdi ko'rsatdi. Erlardan ham ba'zi vijdon sohiblari chiqub (taraqqiyparvar ziyolilar nazarda tutilmoqda) bizga tanbiya qildilar. Lekin erlar tarafidan isnod etilgon, yoqimli tovushlarning juda ozi bizning qulog'imizga kirdi" [9]. Sora Muzaffariya Yevropa ayollaridek erkaklar bilan teng huquqlilik asosida hayot kechirishni, jamiyatning har bir jabhasida faoliyat ko'rsatishni orzu qiladi: "Ey turk xotuni! Xalqimiz bizga salomat va aql va fitri bo'lgan iste'dod va qobiliyat bergon-ku! Oni dunyoga chiqorishdan ma'n qilmoqqa kimning haqqi bor!".

Muhammad ibn Safdar ta'lim islohotiga doir ko'plab musulmon ommasi uchun yod va yangi fikrlarni taklif etgan. Ba'zi fikrlari albatta, judda jiddiy bahslarga ham sabab bo'lgan. Birinchidan, ta'lim tizimiga yangi metodlarni joriy qilishni, bu borada Yevropa ta'lim tizimidagi sharoitlarni joriy qilishni, ta'limga o'g'il bolalar qatori qizlarni ham jalb etishni ilgari suradi. Xotin-qizlarni ta'limga jalb etish juda katta bahs va ziddiyatlarga sabab bo'ldi. Nafaqat arab olamida, Sharq davlatlarida, jumladan Turon zaminida ham "jadid va qadim" bahslaridagi eng ziddiyatli masalalardan iborat bo'ldi.

Salima Yoqubova va Mahfuza Maqsudovalarning "Muallimlik masalasi" deb nomlangan maqolasida turkistonlik ayollar uchun Yevropa usulidagi maktablar ochilishi, ularda muallimlik shahodatnomasi bo'lgan, alohida kurslardan o'tgan muallimlar dars berishlari, ularga ma'lum miqdorda oyliklar belgilanishi kerakligi haqida mulohazalar bayon qilinadi [5]. Diqqatga molik tomoni shundaki, mualliflar Turkistonda ham xuddi Yevropada bo'lganidek, xotin-qizlardan muallima tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari ochilishi masalasini qo'yadilar.

Ishoqxon Ibrat o'zining "Tarixi madaniyat" asarida ham qizlar o'qitish borasida quyidagilarni yozgan: "Ammoki, qizlar maktabig'a kelsak, bu qiyinroq ko'rinadur. Xalqni vahshiyot va ota-onalar qizlarini ehtiyot qilishi, odamg'a, bir yerga yubormasligi, xalqni ilm qudratini bilmagani, xusus, xotunlarda taas(s)ufga g'arq bo'lub, bular bu taas(s) ufni yo'qotishga el(l)ik yillar kerak bo'lishi ko'runadur.

Munga ham yo'llar tofsa bo'lurki, otunbibilarni erlari targ'ib qilsalar, muallimalarda bir-ikki oylar yozuv va hisoblarni bilib olub, andin so'ng o'zlarini mahallasiga otunbibilardan muallima qilib, oncha (ancha) muncha oylik berib tursalar. Bular vaqti-vaqti ila katta muallima tefasi(tepa)dan qarab tursa, besh-o'n yillar ichinda har qishloqda besh-o'n muallima tayyor bo'lishini umid qilsa bo'lur [7, 137].

Jadidlar oila va jamiyatda o'qimishli ayolning o'rni hamda mavqei o'zgacha ekanligini tushuntirishga harakat qilishgan. Bu haqda manbalardan quyidagilarni bilish mumkin: "... xotunlarni o'qitmoq va ularning aqlariga jilo bermoq va erlari birla yaxshi muammolar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoq va zindakorlikni yaxshi bilmaklari xususida ta'lim albatta zarurdir" [3].

Umuman, jadidlar xotin-qizlarning ta'lim olishi masalalari har tomonlama targ'ib etdilar. Bu yo'lda ularga nisbatan qilingan to'sqinliklar ham jadidlarni to'xtada olmadilar.

Abduqodir Shakuriy Samarqanddagi maktabida o'g'il va qiz bolalarni birga o'qita boshlaydi. Qizlarga uning xotini dars berishga ko'maklashgan [18]. Abdulqodir Shakuriyning bunday ishi mahalliy boylar va ruhoniylar norozi bo'lishgan. Shunday bo'lsada, bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarida ham ochila boshlagan. Toshkentda Eshonxo'ja Xonxo'jayev yangi usul maktabida 3 nafar qiz, Sobirxon Rahimovning maktabida 15 nafar qiz bolalar o'qiganlar [19]. Qo'qon shahrining G'alchasoy mahallasida Muhammadjon Holiqiy 1913-yilda dastlab "usuli jadid", keyin esa qizlar maktabini ham tashkil qilgan. Uning singlisi Soliyaxon Abduholiq qizi o'quvchilarga saboq bergan [13, 46].

Jadid maktablarida ta'lim olgan ayollar o'zbek ayollarining ahvoli haqida qayg'urgan. 1906-yilda qo'qonlik ayol, Tojiya birinchi turk tili ayollar jurnaliga xat yozib, u turkistonlik musulmon ayollarning ahvoli haqida o'zbek ayollari nomidan shikoyat qilgan. Xatda jadidlar tomonidan o'sha paytlarda muhokama qilinayotgan muammolar ko'tarilgan. Rossiyadagi musulmon ayollari, ya'ni tatar millatiga mansub ayollarning harakatlarini nazarda tutgan.

Jadidlarning ayollar hayotini takomillashtirish va yangi, zamonaviy ta'limni targ'ib qilish harakatlari ba'zilar tomonidan shikoyatga sabab bo'lgandi. Turkiston viloyatining gazetasi yozuvchilari ayollarni shariat tomonidan talab qilingan paranji va chachvonlarini yechib tashlashida va ularni savodxon bo'lib, nodiniy bo'lishiga sababchi bo'lganlikda ayblashgan.

1907-yilda yana bir turkistonlik ayol Nojiya Duma maktubida musulmon ayollarining erkaklar tomonidan to'rt devor orasida qamalib qolgani va shariat ayollarga tijorat bilan shug'ullanish va Hajga sayohat qilish kabi huquqlarni berishini, Istanbul va Misr ayollari bu huquqlardan foydalanayotganliklari haqida shikoyat qiladi va Dumaning musulmon a'zolaridan turkistonlik ayollarga bu huquqlarni ta'minlashlarini talab qilgan holda o'z fikrlarini ochiq holda bayon etadi.

Nojiyaning o'z murojaatini imperiya Dumasi

musulmonlar muvoynligiga yo'llashi uning ayollarni hukumat olididagi siyosiy fuqarolik huquqlariga ishora bergandi. Shu bilan birga, u ayollar ta'lim olishsa, o'z huquqlarini qayta tiklashga erishishini ta'kidlaydi.

Jadid ayollar ham o'z faoliyatini davom ettirgan. Bulardan Saodatxon Aminova bo'lib, 1892-yil Toshkent shahrida dunyoga kelgan. Otasi Qo'qon xoni Xudoyorxonning o'g'li Muhammad Aminbek Toshkentda Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyatida tarjimonlik bilan shug'ullangan. S. Aminova taniqli xonadonda ulg'aydi. Hakimjon Xo'jayev nomli katta yer egasining o'g'li bilan oila quradi. Biroq, Saodatxon farzand ko'rib, baxtli bo'la olmaydi. Aksincha, 1924-yil ajrashishga majbur bo'ladi. Saodatxon Aminova uyiga qaytib, xastalik va yolg'izlikda akalari qaramog'iga g'aribona turmush kechira boshlaydi... 1938-yil 11-iyul kuni u siyosiy jinoyatda ayblangan va uni qamoqqa olishga qaror chiqarilgan. Shu kunning o'zida istiqomat qilgan Toshkent shahar, Turkiston mahallasi, Yangi shahar ko'chasi 29-xonadonda tintuv o'tkaziladi. Tintuvda akalari Mansurbek va Temurbekning fotosuratlarini, Turkiyadan Niyozbek afandining, Parijdan Islombek Xudoyarxonovning 1938-yilning 4-iyulda kelgan maktublari, shuningdek, "O'tgan kunlar" romani va Moskva viloyatining xaritasi olinadi. 1938-yil 12-iyul kuni to'ldirilgan shaxsiy anketasiga ko'ra Saodatxon Aminovanning oila a'zolari sifatida Fransiyada yashagan akasi Islombek hamda allaqachon qamoqqa olingan akasi Sayyid Azamatbek hamda Mansurbeklarning nomlari keltirilgan.

Tergovchilarining sa'y-harakatlari natijasida Toshkentda istiqomat qilayotgan bir guruh qozoq yoshlari qamoqqa olinadi. Ular orasida bir vaqtlar "Alash o'rda" harakatiga aloqador bo'lgan Toshkentdagi Semashko nomli fizik usullar yordamida davolash instituti funksional diagnostika bo'limining mudiri Isa Qashqinboyev ham bor edi. Isa Qashqinboyev NKVD xodimlari tazyiqi ostida qozoq aksilinqilobiy josuslik tashkiloti Nuriddin Xudoyorxonov orqali Parijdagi taniqli panturkist Mustafa Cho'qayev bilan aloqada bo'lgani, xatlar tashkilot rahbarlaridan Xo'janov Sultonbek tomonidan yozilganini va keyinchalik xatlarni Islombekning singlisi Saodat Aminova orqali almashgani haqida ko'rsatma beradi.

Saodatxon Aminova ishi shu tariqa Toshkentdagi qozoq aksilinqilobiy tashkilotining "fosh etilish" bilan bog'lanadi. 1938-yil 23-iyul kuni Saodat Aminovaga nisbatan akasi Said Islombek orqali Mustafa Cho'qayev va qozoq aksilinqilobiy tashkilotiga xizmat qilgan deb qaror chiqariladi. 1938-yil 25-iyul kuni so'roqda Saodatxon o'ziga nisbatan bu bo'htonni rad etib, hech qachon aksilinqilobiy faoliyat olib bormaganligini aytadi.

Saodatxon 1939-yil 15-iyulda Toshkent qamoqxonasidan O'zSSR prokurori nomiga ariza yozib, unda o'zining nohaq qozoq millatchilik tashkiloti a'zosi va josuslikda ayblanib qamoqqa olinganini yozadi. Vaholanki, Cho'qayev familiyasini birinchi marta so'roq payida eshitdim, Sharipov, Aminov konveyer uslubida kecha-yu kunduz tahqir va jismoniy tazyiqlar qo'llab qog'ozlarga imzo chektirganini yozadi.

1940-yil 10-mart kuni Saodat Aminovanning ishi ko'rib, unga qo'yilgan ayblovlarning birortasi o'z isbotini topmaganligi uchun to'xtatiladi. 1940-yil 29-mart kuni talon olib turma azobidan qutilishga muvaffaq bo'ladi.

XIX asar oxiri – XX asr boshlarida ayollarni oila, jamiyatdagi o'rnini topishi uchun ta'lim olishlari muhim ekanligini jadid ma'rifatparvarlari tushunib yetgan. Shu bilan birga, Yevropa madaniyatidagi ayollarni mavqeini ham misol tariqasida ko'rsatib

o'tishgan. Turkiston jadid ma'rifatparvarlaridan Ishoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Rauf Muzaffarzoda, ayollardan Soriya Muzaffariya, Salima Yoqubova, Mahfuza Maqsudovalarning asarlarida, maqolalarida keltirib o'tilgan. Shuningdek, bu fikrlarni isboti sifatida Samarqand shahrida Abduqodir Shakuriy, Toshkent shahrida Eshonxo'ja Xonxo'jayev, Sobirxon Rahimov, Qo'qon shahrida Muhammadjon Holiqiylar maktablarida qizlar ham o'qitila boshlagan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Mamlakatimizdagi boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q" // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018-yil 21-dekabr soni.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq // tanlangan asarlar. 37-bet.
3. Bir musulmon // Turkiston viloyati gazetasi, 1912-yil 20-sentabr
4. Dur al-ajoyib. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 2674.
5. Yoqubova S., Maqsudova M. Muallimalik masalasi // Sadoi Turkiston. 1914-yil 20-may.
6. Indamas. Kim nimani yaxshi ko'rar // Sadoi Turkiston. 1914-yil 7-dekabr.
7. Ishoqxon Ibrat. Tarixi madaniyat // O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (bundan keyin – O'zR FA SHI) qo'lyozmalar fondi. inv. № 10117. To'raqo'rg'on, 1925. 137 varaq.
8. Muzaffarzoda Rauf. Yangi yildan eski tilaklar // Sadoi Turkiston. 1914-yil 2- yanvar, 15-yanvar.
9. Muzaffariya Sora. Ayb o'zimizda // Sadoi Turkiston. 1914-yil 23-avgust
10. Rizouddin ibn Faxruddin. Tarbiyali xotun. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, toshbosma № 6548.
11. So'fizoda. O'qunglar onalar // Sadoi Turkiston. 1914-yil 17-may
12. Tavallo. Hamshiralardan tilindin // Sadoi Turkiston. 1914-yil 24-dekabr
13. Tojiboyev R. Ma'rifat fidoyisi / Sog'lom avlod uchun, 1999-yil. № 4-5, B. 46.
14. Toshkandlik bir muallima. Na uchun ibrat olmaymiz // Sadoi Turkiston. 1914-yil 20-may.
15. Turuqun-nisa. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 3075/II.
16. Fatxiddinzoda Zaxriddin. Huquq nisvon // Sadoi Turkiston. 1914-yil 10- dekabr.
17. Xotunlarda ilm maorif // Oyina (1914-1915). Toshkent: 2001. 72-bet.
18. O'zR MA, I-1, 31-ro'yhat, 943-ish, 23-varaq.
19. O'zR MA, I-47, 1-ro'yxat, 1148-ish, 148-varaq.
20. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 7155.

TA'LIM OLUVCHILARDA AXBOROT-TAHLILIIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola ta'lim oluvchilarda axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish asosida ularda axborot xavfsizligini ta'minlash, axborotni ongli idrok etish, tahlil qilish, baholash qobiliyati bilan tavsiflanuvchi shaxsiy qadriyatga yo'naltirishning ijtimoiy ahamiyati borasidaga fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, ijtimoiylashuv, axborot, xavfsizlik, kompetensiya, didaktika, texnologiya, kognitiv.

Ойбек ДАВЛАТОВ,
доцент кафедры «Педагогика и психология» ГИИКУз (PhD)

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается социальная значимость ориентации на личностную ценность, характеризующуюся способностью обеспечивать информационную безопасность, осознанное восприятие, анализ, оценку информации, на основе развития у получателях образования информационно-аналитической компетентности.

Ключевые слова: ценность, социализация, информация, безопасность, компетентность, дидактика, технология, познавательность.

Oybek DAVLATOV,
associate professor of the “Pedagogy and Psychology” chair of UzSIAC

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE IN STUDENTS

Abstract. This article examines the social significance of orientation to personal value, characterized by the ability to provide information security, conscious perception, analysis, evaluation of information, based on the development of information and analytical competence in education recipients.

Key words: value, socialization, information, safety, competence, didactics, technology, cognition.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning salmoqli qismi ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilganligi esa yanada quvonarlidir. So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda ushbu jarayonda axborot texnologiyalaridan kengroq, mustaqil foydalanishga ehtiyoj sezilmoqda.

Mamlakatimizda Oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ko'plab me'yoriy hujjatlar imzolangan hamda ularning ijrosi ta'minlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni [1] bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta'lim tizimida qilinadigan keng qamrovdagi ishlar rejalashtirilgan bo'lib, ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar keltirilib o'tilgan. Jumladan:

- talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari yanada shakllantirishligi;

- oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalarga asosida vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjudligi va hakoza.

Albatta, ta'lim oluvchilarda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalarga asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish lozim. Agarda ushbu jarayonda sustkashlikka yo'l qo'yilsa, yoshlar ochiq yoki yashirin mafkuraviy tahdidlarga bardosh beraolmaslik oqibatida katta xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Ushbu xavotirni oldini olish uchun yoshlarimizda axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilarda axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish o'z navbatida shaxs axborot xavfsizligi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim oluvchining mavjud egallangan tajribalarni hisobga olgan holda axborotni ongli idrok etish, tahlil qilish, baholash qobiliyati bilan tavsiflanuvchi shaxsiy qadriyatga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan axborot tahdidlariga qarshi kurashishga tayyorgarligini ifoda etadi [2, B 12].

Mazkur ta'rifga tayangan holda, shaxs axborot xavfsizligining quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin: kognitiv (axborot muhitidan keladigan xavf-xatarlar haqida bilimlarga ega bo'lish, axborotni tahlil etish, baholash qobiliyati), aksiologik (umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvur, mazkur qadriyatlar bilan bog'liqlikda xulq-

atvor modelini belgilab olish ko'nikmasi), kommunikativ-faoliyatga doir (boshqalarning fikri, nuqtai nazarlariga tolerant munosabatda bo'lish, vaziyatga baho berish qobiliyati). Mazkur komponentlar mazmunli shaxs axborot xavfsizligini ikki qismdan iborat tuzilma sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi: shaxsga (shaxs sifatleri, motiv va qadriyatleri tizimi) va faoliyatga yo'naltirilgan (tajriba, bilim, qobiliyat).

Zamonaviy tadqiqotlar tahlili shaxs axborot xavfsizligi muammosini hal etishga doir uch yondashuvni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: tashqi muhit ta'siri, shaxsiy faollik va integrativ.

Tashqi muhit ta'siri vakolatli shaxslar tomonidan zararli axborotlar bilan tanishishni cheklash, uni tarqatishni taqiqlashda o'z aksini topadi. Tashqi ta'sir asosidagi taqiqlarga maxsus dastur va xizmatlar asosida ta'lim oluvchilar axborotlarni ko'rkona ko'chirib olishini dalillar asosida isbotlashni misol qilib keltirish mumkin. Agar shaxsda uning munosabati va xulq-atvorini belgilab beruvchi qadriyatlar tizimi qaror topmagan bo'lsa, u axborot tahdidlari oldida himoyasiz qoladi. Faylasuf olim Q.Nazarov, qadriyatlar borasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Har bir tarixiy bosqich, insoniyat hayotining har qanday davri o'ziga xos qadriyat va qadriyatlar tizimiga ega bo'lishi, bu omilning davlat va millatlar tarixi hamda taqdirida ulkan ahamiyatga ega ekanligi taraqqiyotning umumiy qonuniyatidir" [3, B 6]. Yuqoridagi fikrlardan tushunish mumkinki, shaxsning shakllanish tarixi va uning kelajagi qadriyatlar bilan bog'liqdir. Shu o'rinda N.Q. Jo'rayevning quyidagi fikrlariga e'tiborimizni qaratsak: "Inson butun mohiyati bilan ijtimoiy hodisa. U qanchalik xususiy – alohida qadriyat bo'lmasin, o'z fe'l-atvori, qarashlari, jamiyatda tutgan o'rni va ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi jihatdan umumiydir" [4, B 9]. Ma'lumki, faqat yoshlarga taqiq qo'yish orqali mazkur jarayonda maqsadga erishib bo'lmaydi va ushbu holat axborot muhitida shaxs xavfsizligini ta'minlash uchun qo'shimcha usul va vositalarni talab etadi. Ana shu nuqtai nazardan shaxsiy axborot xavfsizligini ta'minlashda shaxs faolligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Aynan shaxsiy faollik ijtimoiy muhit doirasining kengayishi, muloqatmandlik, hamkorlikka ehtiyoj, umr yo'ldoshi va hamfikir izlash hisobiga axborot tahdidlari sonining oshib boradigan yoshlik davri uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar shaxs sifatida yetuklikka erishgan, faqat ularning axborot maydoni kengayishi, axborot muhitida harakatlanishning xilma-xil usullarini o'zlashtirishi hisobiga axborot ta'sirlariga ko'proq duch kelishadi.

Mazkur holat bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarni shaxsiy axborot xavfsizligini ta'minlash muhit va shaxsning o'z imkoniyatlarining maqbul muvozanatga erishishga imkon beruvchi integrativ yondashuvdan foydalanishni talab etadi. Shaxsiy xavfsizligini ta'minlash uchun ichki kuch va imkoniyatlarga ega shaxs uchun muhit xavfsiz bo'lib qolmaydi.

Shuning uchun, shaxs tahdidlardan himoyalaniishi zarur bo'ladi. Mazkur yondashuvda aynan shaxsning faolligi shaxsiy axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shaxs ijtimoiylashuvi uchun alohida shart-sharoitlarni yaratib beruvchi zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsiy axborot xavfsizligi muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. V.I.Zagvyazinskiy ta'kidlab o'tganidek: "Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim olish uchun qulay imkoniyatlar yaratishi bilan birga, shaxsning ijodiy salohiyatining yo'qolishi, madaniyatsizlikning yuzaga kelishi, mustaqil fikrlash o'rniga fikrning qaramligi xavfini ham keltirib chiqaradi" [5, B 44]. O'z navbatida, mustaqil fikrlay olmaslik axborot iste'moli madaniyatining rivojlanmasligiga, axborotlarni tahlil etish malakasining shakllanmasligiga, tanqidiy fikrlashning taraqqiy etmasligiga olib keladi. Fikrning qaramligi irodasizlik, befarqlik, loqaydlik va aniq mo'ljalni olishdan mahrum bo'lishda namoyon bo'ladi. Aynan axborotlarni qayta ishlash va zarur xulosa chiqarish qobiliyatining mavjud emasligi ta'lim oluvchilar orasida tayyor ma'lumotlarni ko'chirib olishning keng ommalashuviga olib keladi. Hatto ko'pchilik yoshlar nazorat topshiriqlarini bajarishda internetdan tayyor axborotlarni to'g'ri yoki noto'g'riligini o'ylab ham ko'rmasdan ko'chirib javob yozishi odat tusiga aylanib qoldi.

Axborot va axborot infratuzilmasi bilan bog'liq, shuningdek, axborotlar orqali shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarning yuzaga kelish manbalarini tahlil etish asosida ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Axborot mazmuniga aloqador tahdidlar – ongni manipulyatsiya qilish va targ'ibot uchun mo'ljallangan axloqsiz, salbiy, qonunga zid va zararli mazmun-mohiyatga ega materiallar;*

2. *Internet va boshqa axborot-kommunikatsiya vositalariga psixologik tobelikni keltirib chiqaruvchi tahdidlar;*

3. *Axborotni izlash, tanlash, qayta ishlash, tizimlashtirish va uzatish ko'nikmasining shakllanmaganligi, axborot iste'moli madaniyatining mavjud emasligi natijasida yuzaga keluvchi tahdidlar;*

4. *Inson salomatligiga zarar yetkazuvchi tahdidlar (masalan, axborotlar bilan ishlashda ergonomik talablarga rioya qilinmasligi).*

O'z tabiatiga ko'ra tahdidlar subyektiv-obyektiv tavsifga ega. Axborot obyektiv reallikdir. Tahdid ham obyektiv reallik sifatida ma'lum bir sharoitida zararli omil bo'lib xizmat qiladi. Subyektiv munosabati va idrok etishi bilan bog'liqlikda tahdid vaziyati shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatish darajasi bilan bog'liq. Agar shaxs vaziyatni tanqidiy baholay olsa, zararli axborot ta'siriga qarshi tura oladi. Bu esa shaxsda zamonaviy jarayonlardan xabardorligini va axborot mohiyatini chuqur tushunganligini, mavjud fikr va xulosalarni yetarli darajada jozibador qilib yetkaza olish tajribasi rivojlanganligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. T.: 2019-yil 8-oktabr
2. Davlatov O.G'. Tarixiy-madaniy meros vositasida talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. – T.: Fan va ta'lim poligraf, 2019. – 62-b.
3. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011. – B. 6.
4. Ma'naviy-axloqiy immunitet: Tahdidlar va ularning manbalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T.: "Muharrir" nashriyoti, 2011. – B. 338.
5. Загвязинский В.И. Наступил ли эпоха возрождения? Стратегия инновационного развития российского образования. 2-е изд. М.: Логос, 2015. – 140 с.

AKTYORLIK SAN'ATIDA PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Har bir pedagog o'zining tajribasi, pedagogik uslubidan kelib chiqqan holda talabalar bilan e'tik munosabatini to'g'ri qurilganmi yoki yo'qmi hal qilib olishlari shart. Talaba va pedagog ikkovi bir xil maqsadni ko'zlayotganliklarini his qilishlari, o'zlarining ta'lim-tarbiyalari faqatgina pedagogning qo'lida emas, balki o'zlariga ham bog'liq ekanligini tushunishlari kerak. Maqsadning birligi hissi hech qachon pedagog va talaba orasida tafovutning yoki ishonchsizlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi.

Kalit so'zlar: aktyor, obraz, kino, estrada, kompozitsiya, sahna, voqelik, baholash, kuylovchi aktyor, rejissor, dirijor, partitura, pedagog-rejissor, nota, ritm, temp, dinamika, sahnaviy xatti-harakat, voqeylik, dramaturg, baletmeyster, pedagog, muallif, bastakor, repetitsiya.

Рашид УСНАТОВ,
доцент кафедры «Музыкально-драматический театр и кинематографии» ГИИКУЗ

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИКИ В АКТЁРСКОМ ИСКУССТВЕ

Аннотация. Каждый педагог должен иметь возможность решить, что правильно ли установлены этические отношения со студентами, исходя из своего собственного опыта и педагогического стиля. Ученик и учитель должны чувствовать, что у них одна цель, понимать, что их воспитание находится не только в руках учителя, но и в них самих. Чувство единства цели никогда не позволит возникнуть разногласия или недоверия между учителем и учеником.

Ключевые слова: актер, образ, фильм, эстрада, композиция, сцена, реальность, оценка, актер, режиссер, дирижер, партитура, педагог-постановщик, нота, ритм, темп, динамика, сценическое движение, реальность, драматург, балетмейстер, педагог, автор, композитор, репетиция.

Rashid USNATOV,

“Musical, dramatic assistant professor theatre and senior lecturer of the chair of Cinematography UzSIAC

THE IMPORTANCE OF PEDAGOGY IN ACTING

Annotation. Each educator must be able to decide whether or not the ethical relationship with students is properly established, based on his or her own experience and pedagogical style. The student and the teacher need to feel that they have the same goal, that their education is not only in the hands of the teacher, but also in themselves. A sense of unity of purpose will never allow differences or mistrust to arise between teacher and student.

Keywords: actor, image, film, pop, composition, stage, reality, evaluation, actor, director, conductor, score, teacher-director, note, rhythm, tempo, dynamics, stage movement, reality, playwright, choreographer, teacher, author, composer, rehearsal.



Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimida, inchinun, san'at sohasida ham jiddiy o'zgarishlarni boshlab berdi. Jumladan, oliy ta'limni yanada rivojlantirish borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Yangi ta'lim yo'nalishlari, turli kasb va fanlar rivojini ta'minlash maqsadida magistratura mutaxassisliklari joriy qilindi. Doimiy bandlekni saqlab qolish va xodimlarning malakasini oshirish uchun sirtqi va kechki ta'lim yo'nalishlari tiklandi, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda bir qator ta'lim muassasalari tashkil etildi. Eng muhimi, o'quv rejalari tubdan yanglandi. Qolaversa, imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirish borasida ham ijobiy natijalar ko'zga tashlanmoqda.

“Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash” zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda¹.

Shu o'rinda aytish lozimki, kelajakda sahna ustalari bo'ladigan kuylovchi aktyorlarni tayyorlashga bo'lgan talablar O'zbekiston san'ati oldida turgan masalalar bilan mos ravishda olib borilmoqda.

Ijodiy mutaxassisliklarni egallayotgan yoshlarning ta'limini rivojlantirish va mukammallashtirish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladigan har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlash – mazkur oliygoh pedagoglari zimmasidagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ayni jihatlarga e'tibor qaratgan holda, pedagog va talaba orasidagi o'zaro munosabat masalasiga to'xtalib o'tishni joiz bildik.

Kamol topgan yosh avlodni tarbiyalash uchun talabada javobgarlik va o'z kuchlariga ishonch hislarini uyg'otish shart. Buning uchun esa birinchi kundanoq o'ziga nisbatan ustozining samimiy va ishonchga asoslangan munosabatini sezishi kerak. O'z oldiga qo'ygan ijodiy maqsadlariga pedagogining o'ta mas'uliyat bilan yondashayotganini his qilishi lozim. Hurmat hamda ishonch – bu ustozlarimizdan bizgacha yetib kelgan teatr pedagogikasining asosiy tamoyillaridir.

Ijodiy ustaxonaga yangi g'oya, topilmalar asosida biror bir ijodiy ishni tayyorlab kelgan, ko'zlari quvonch bilan to'la bo'lgan talabaga, yuzida qo'rquv va titroqni olib kiruvchi pedagog dars bermasligi kerak.

O'zaro hurmat va bir-biriga bo'lgan ishonch hech qachon pedagog va talabani konflikt vaziyatga olib kelmaydi.

Bizning pedagogik amaliyotimizda bunday sodda tushunchalarning unutilishi, ularning prinsipial ahamiyatiga yetarli darajada baho bermaslikdan kelib chiqadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.

Ko'pchilik vaqtda pedagog o'z mavqeini o'rnatish uchun buyruqlardan, talabaga qo'rquv hissini singdirishdan, uning erkini bo'ysundirishdan boshlaydi. Bu orqali ba'zi bir natijalarga erishish mumkin: tashqi tartib, darsdagi sukut, vazifalarning aniq bajarilishi. Ammo talaba mustaqil fikrlashni, ijodiy individuallikni yo'qotadi. Uning rivojlanish darajasi o'quvchilik va xo'p deydishdan nariga o'tmaydi².

Bizga esa o'ziga ishongan, oyog'ida mustahkam turgan, o'zi mustaqil ravishda teatr san'atini rivojlantirishga, mukammallashtirishga hissa qo'shadigan mutaxassislar kerak. Yoshlar ta'lim olishga kelganlarida "hamma narsa qo'limdan keladi" deb o'ylashadi. O'ziga ishonch, kelajakka ishonch ularda barq urib turadi.

Agar ta'limning oxirida bu hislar sayozlashib, kelajakka bo'lgan ishonch esa "qulayroq ishga joylashish" hissi doirasida toraysa, bu pedagog va talaba orasidagi munosabatlarning noto'g'ri qurilganligidan dalolat beradi. Chunki ustoz talabaga, "hech narsa qo'limdan kelmaydi" deb o'ylash ko'nikmasini hosil qilgan.

Agar talaba birinchi qadamda pedagog tomonidan o'ziga nisbatan ishonchni, fikrlariga, ijodiy izlanishlariga bo'lgan hurmatni, o'ziga shaxs sifatida bo'lgan munosabatni sezganida o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yo'qotmagan bo'lar edi.

Pedagogik faoliyatimni endi boshlagan vaqtda yuz bergan bir voqea hech yodimdan chiqmaydi va bu ustozlardan saboq bo'lgan. K.Raxmanov asari A.Toremuratova musiqasi "O'lim jazosi" musiqali spektaklining bosh repetitsiyasi ketayotgan edi. Atabay rolini ijro etayotgan talaba asosiy ariyasining ijrosida qo'pol xatoga yo'l qo'ydi va qilayotgan xatti-harakatlari ma'nosini yo'qotib qo'ydi. Bu hodisadan dirijor, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor G.To'laganov qattiq iztirobga tushgan edi. Ustoz bosiqlik bilan shunday mohirona yo'l tutdiki, u hayajonlanayotgan talabaga nafosat va katta pedagogik me'yor bilan murojaat etib, talabani tinchlantirdi. Talaba o'z xatosini tushunib, uni boshqa qaytarmadi. Spektakl muvaffaqiyatli topshirildi. Demak, bu yerda pedagogning sabrlligi, tajribasi va muomilasi qo'l kedi.

"Sahna xatti-harakati ma'noli, mantiqiy va ketma-ket bo'lishi kerak"³ – degan edi K.Stanislavskiy. Shuning uchun ham pedagogning asosiy vazifasi bu – talabani to'g'ri maqsadga yo'naltirishdan iborat.

Har birimiz o'z tajribamiz, o'z pedagogik uslubimizni ko'rib chiqib, talabalar bilan munosabatlarimiz to'g'ri qurilganmi yoki yo'qmi hal qilishimiz kerak. Talaba ham pedagog ham bir xil maqsadni ko'zlayotganlarini tushinishlari kerak. Talabalar o'zlarining ta'lim-tarbiyalari faqat pedagogning qo'lida emas, balki o'zlariga ham bog'liq ekanligini anglashi lozim. Maqsadning birligi hissi hech qachon pedagog va talaba orasida tafovutning yoki ishonchsizlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi.

Agar pedagog talabani ma'lum bir maqsad bilan qiziqitirsa, keyingi rivojlanish yo'lini belgilab, kundalik olib borilayotgan ishlarni kelajak yutuqlari bilan bog'lasa, albatta, ijodiy ishonchga erishish mumkin.

² G.X.Muxamedova. «Xonandaning aktyorlik mahorati» Toshkent: Navro'z, 2009 y.

³ Stanislavskiy K.S. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Moskva:1954.

⁴ G.X.Muxamedova, "Xonandaning aktyorlik mahorati" Toshkent: Navro'z, 2009 y.

⁵ Станиславский К.С. Немирович-Данченко В.Л. Об искусстве актёра- певца. – Москва: Искусство, 1973.

Bundan tashqari, talabalarining bir-biriga bo'lgan etik munosabatlari ham tarbiyaviy jarayonning muhim tomonlaridan biridir.

Pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatlariga ham alohida to'xtalib o'tishim kerak. Bu munosabat qanday bo'lishi kerak? Agar talabalar ustozning mehri, ularning ijodiy faoliyatlari sifatiga, his qilayotgan javobgarlik masuliyatiga, o'zlarini jamoada qanday tutishlariga qarab taqsimlanishini sezishsa, bu mehrni qozonish uchun astoyidil harakat qilishadi.

Hurmat, ishonch, talabchanlik yuqori samaradorlikni beradi, qachonki pedagog va talabalar orasidagi munosabatlar ochiqlikka va to'g'ri so'zlikka asoslansa⁴. Ko'pincha biz iqtidorli talabaning ishini maqtashdan qo'rqamiz (o'ziga yuqori baho berib yubormasin deb) va yomon bahoni talabani xafa qilib qo'yamalik uchun yumshoqroq ko'rsatamiz. Ikkala holda ham bu yomon natijaga olib keladi. Ba'zi bir talabaga nisbatan "pedagogik usul"ni qo'llashimiz natijasida qolgan talabalarining ishonchini yo'qotamiz. Bunday holat talabalarda pedagogning kelajakdagi gap-so'zi va baholarining obyektivligiga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Misol tariqasida quyidagi voqeani keltirishim mumkin: talabalarining ijodiy ishlari to'g'risidagi kafedra yakunlarini talabalarga o'qib bera turib, yomon baholangan talabalar to'g'risidagi fikrlarni biroz yumshatib, yaxshi baholangan talabalar to'g'risidagi kafedraning fikrlarini biroz kamaytirib aytdim. Bu menga to'g'ridek tuyuldi. Ammo bir necha kundan keyin talabalar asl baho va fikrlarni eshitishdi. Talabalar ishonchiga qaytadan erishish uchun men juda ko'p vaqt va kuch sarflashimga to'g'ri keldi.

Pedagogik usullar to'g'ri so'zlikka, ochiqlikka, bir-biriga hurmatga, tanqidga to'g'ri yondashishga asoslangan bo'lishi shart.

Aktyorning butun ijodiy hayoti uning ijodiy ishlarining tanqidchilar tomonidan baholanishiga bog'liqdir. Aktyor talabalik yillaridanoq faqat o'zini emas, balki butun spektaklning tanqidini ham to'g'ri qabul qilishga o'rganishi lozim. Shuning uchun talabalar tayyorlagan birinchi ijodiy ishlarining namoyishida tanqid va o'z-o'zini tanqid qilishni to'g'ri qabul qilishlari, tengdoshlarining tanqidini to'g'ri tushunishni o'rganishlari kerak. Garchi bu tanqid achchiq haqiqat bo'lsa ham. Tanqiddan o'ziga kerakli asosiy fikrlarni ajratib olishni va tanqidga jizzakilik bilan emas, balki o'z ijodiy ishlari bilan javob qaytarishga o'rganishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Teatr amaliyotida qo'llaniladigan o'rganilgan mashqlar, etyudlar, repetitsiyalarni qaytadan tahlil qilish – talabalar tomonidan tanqidiy tahlilni egallashlari uchun to'g'ri yo'ldir⁵. Talabalarni faqat birovlarini emas, o'z-o'zini tanqid qilishga ham o'rgatish kerak. O'z ijodiy ishini tahlil qilib, kamchilik va yutuqlarni tahlil qilishga, ishni davom ettirish uchun to'g'ri yo'lni belgilashga o'rgatish kerak. Pedagogning kuzatuv ostida talabaning o'z-o'zini tanqid qilishi – o'z ichki va tashqi texnikasini mukammallashtirishga, o'z ustida ishlashga, o'z kamchiliklarini bartaraf etishga olib keladi.

Xulosa o'rinda aytish lozmk, pedagog talabaning faqat xatti-harakati va ijodi emas, balki butun hayotini ham nazorat ostiga olishi darkor. Darslar sog'lom, tinch, xushfe'llik vaziyatlarida o'tilishi kerak. Ammo yaratilgan bunday vaziyatlar talabalarda mehnatga yengil yondashish, o'z imkoniyatlarini yuqori baholab yuborishlariga olib kelmasligi kerak. Pedagog sezgirlik va mohirlik bilan talaba ongida kelajakda barkamol shaxs, etuk mutaxassis bo'lishi uchun tinimsiz harakat qilishi lozimligini singdirishi kerak.

IJODIY ISH UCHUN TADBIR SSENARIYSI REJASINI TUZISH VA SAHNALASHTIRISH

Annotatsiya. Har qanday madaniy tadbir ijodiy va tashkiliy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ijodiy ishlarga tadbirning ssenariy rejasini tuzish, ssenariysini yozish, sahnalashtirish, badiiy jamoalar bilan ishlash, tadbir o‘tadigan joyni bezash kabi ishlar kirsam, tashkiliy ishlarga esa ana shu ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar kiradi.

Kalit so‘zlar: tadbir, badiiy jamoalar, musiqa, tomoshalar, bastakor, liboslar.

Гулбахар ЭШБАЕВА,
доцент Нукусского филиала ГИИКУз

СОЗДАНИЕ И ПОСТАНОВКА СЦЕНАРИЯ МЕРОПРИЯТИЯ ДЛЯ ТВОРЧЕСКОЙ РАБОТЫ

Аннотация. Каждое культурное событие включает в себя творческие и организационные процессы. Творческая работа включает в себя планирование мероприятия, написание сценария, постановку, работу с творческими коллективами и оформление места проведения мероприятия, в то время как организационная работа включает в себя всю работу, связанную с созданием этой творческой работы.

Ключевые слова: Мероприятие, творческие коллективы, музыка, перформансы, композитор, костюмы.

Gulbahar ESHBAYEVA,
associate professor of the Nukus branch of the UzSIAC

CREATING AND STAGING THE SCENARIO OF THE EVENT FOR CREATIVE WORK

Annotation. Every cultural event involves creative and organizational processes. Creative work includes scheduling an event, writing a script, staging, working with artistic teams, and decorating the venue, while organizational work includes all the work that goes into making that creative work.

Keywords: Event, art groups, music, performances, composer, costumes.



Bayramlarni kuy, qo‘shiqalar va musiqasiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunku ular barchamizning hayotimizga juda chuqur singib ketgan. Qolaversa, hozirgi kunda har qanday bayram va tomoshalarda, konsertlarda teatrlashtirish usullaridan foydalanish va qo‘llash an‘anaga aylangan. Bayram qatnashchilarini kiyintirish, mavzuga mos ravishda libos tanlash jarayoni ham bayram yoki tomoshada tomoshaviylikka erishishining muhim shartidir.

Ommaviy bayramlar madaniy tadbirlarning oliy ko‘rinishi bo‘lib, insoniyat tarixining rivojlanishi bilan takomillashib kelgan. Shuning uchun ham mazkur darsning asosiy qismi bayramlar mavzusiga qaratilgan[1.B.67].

Insoniyat yaralibdiki, uning turmush tarzida bayramlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Bayramlar jamiyatning ma‘naviy go‘zalligini, xalqning yashash tarzi, turmush sharoitini dunyoga ko‘z-ko‘z qiluvchi asosiy vositadir. Biror davlatda nishonlanayotgan milliy bayramlar yoki jahon miqyosidagi tadbirlarni kuzatar ekanmiz, o‘sha davlatning milliyliigi, o‘ziga xos urf-odatlarini o‘rganamiz. Demakki, bayram hayotning eng nafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvchi ko‘zgudir.

Teatrlashtirish usuli alohida maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tashkil etilgan, teatr qonunlari asosida, dramaturgiya talablariga javob beradigan tadbirlarda o‘z ifodasini topadi. Bunda tadbir jarayonida qo‘llaniladigan barcha

g‘oyaviy emotsional vositalar hamda og‘zaki chiqishlar kompleks tarzda birlashadi. Va yagona syujet tizimini vujudga keltiradi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarda, eng avvalo, yagona g‘oyaviy-badiiy syujet va kompozitsion tuzilish bo‘lishi kerak. U kompozitsion tuzilish-muqaddima, asosiy voqea, tugun voqealar rivoji, kulminatsiya va final kabi qismlardan iborat bo‘lishi darkor.

Teatrlashtirilgan tadbirda foydalanadigan vositalar alohida ajralib qolmasdan syujetga singib ketishi, uning rivojlanishiga yordam berish lozim. Shuning uchun unda syujet mazmuniga qarab kerakli ta‘sirli vositalar mantiqan tanlanadi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarga real qahramon obrazli yoki badiiy asarlardan olingan obrazlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Teatrlashtirilgan shakllarda omma oddiy tomoshabin emas. Balki tadbir qatnashchisiga ketishi kerak[2, B 92-93].

Shuni ta‘kidlash kerakki, ilmostratsiyalashtirish usulini ham, teatrlashtirish usulini ham shohlagan shaklga nisbatan ishlatib bo‘lmaydi. Har bir usulning o‘zi talab qiladigan tadbirlari bor. Masalan, ilmostratsiyalashtirish usulini ommaviy bayramlarga qo‘llash yaxshi natija bermaydi, leksiya yoki suhbatni teatrlashtirishning hojati bo‘lmasa kerak. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki,

ilmostratsiyalashtirish usulidan tashkil qilishi oson, har kuni foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Teatrlashtirish usulini buyuk sanalarga va bayramlarga bag'ishlangan tadbirlarda qo'llash lozim.

Rejalashtirish – boshqaruvning tashqi muhitning vaziyatlari va omillarini tahlil qilish, maqsadlarga erishishning muqobil variantlarini bashoratlash, muvofiqlashtirish, baholash, tizimning bo'lg'uvsi holati, unga yetishish yo'llari, usullari va vositalarini belgilab beruvchi rejalarini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan vazifalaridan biridir. Kompaniyalar darajasida rejalashtirish strategik va biznes-rejalar shaklida amalga oshiriladi. Umummilliy darajada u indikativ yo'naltiruvchi xarakterga ega. Rejalashtirishda iqtisodiy-matematik, muvozanatli usullar va ham ekspert baholaridan foydalaniladi.

Sinergetik samara – bu shundan iboratki, tashkilotning yagona bir butun sifatidagi salohiyati va imkoniyatlari uning alohida elementlarining salohiyatlari va imkoniyatlaridan oshib ketadi, bu narsa ularni o'zaro qo'llab-quvvatlanishlari va to'ldirilishlari bilan asoslangan.

Ijtimoiy-psixologik boshqaruv usullari – bu xodimlarning salomatligi va jamoadagi yaxshi ma'naviy-ruhiy holatni saqlash, qonunlar va me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish sharoitida qo'yilgan maqsadga erishish bo'yicha jamoa (xodim)dagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni boshqarishga qaratilgan usuldur.

Sotsiogramma – sotsiometriya ma'lumotlarini grafik tasvirlash usuli. Boshqaruv uchun guruhning sotsiogrammasini bilish majburiydir, chunki rahbar guruhli vazifalarni hal qilishi uchun birinchi uchta guruhlarning obro'sidan foydalanishi va keyingi guruhlarga bu xodimlarning psixologik statusini oshirish va uni rivojlanganligi darajasini oshirish maqsadida ta'sir ko'rsatishi kerak[3.B.52].

Tashkiliy madaniyat – bu tashkilotning ichida va uning chegarasidan tashqaridagi munosabatlar asosidagi tashkilotning kattaroq qismi tomonidan qo'llaniladigan falsafa, qadriyatli mo'ljallar, hulqning me'yorlari, qoidalar va muhitdir.

Tashkilot – odamlarning ma'lum maqsadlari: boshqaruv vazifalariga erishishni ko'zda tutuvchi tizimlashtirilgan, ongli birlashmasi.

Tashkilot(korxonani)ni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi – tashkilotning maqsadlariga erishish uchun foydalaniladigan xizmat sohalari va boshqaruv darajalarining mantiqiy nisbati.

Tashkilotning missiyasi – tashkilotni mavjud bo'lishining ma'nosini ochib beruvchi shakllantirilgan tasdiq, unda ushbu tashkilotning boshqalardan farqi namoyon bo'ladi.

Tashkilotchilik qobiliyati – bu odamga tashkiliy faoliyat usullarini egallash va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi shaxsning shaxsiy-psixologik xususiyatlari.

Harizma – yakka shaxsning xususiyatlariga asoslangan, unga payg'ambar, dohiy yoki islohotchi vazifasini amalga oshirishga imkon beruvchi, uning oldida ta'zim qilish va uning imkoniyatlariga so'zsiz ishonishni keltirib chiqaruvchi mutloq iste'dod, alohida sifatlar berilganligi. Harizma – hukmronlikni tashkil qilishning alohida turi.

Xodimlar – ishlab chiqarish yoki boshqaruv operatsiyalarini bajaruvchi va mehnat vositalaridan foydalanish

bilan mehnat predmetini qayta ishlash bilan band bo'lgan barcha xodimlar.

Xodimlarni boshqarish – insoniy tashkil qiluvchilarga xodimlar imkoniyatlari va tashkilot maqsadlari, strategiyasi, rivojlanishi sharoitlarini muvofiqlikka keltirishga yo'naltirilgan maqsadga qaratilgan ta'sir.

Xodimlarni tanlab olish – bo'sh lavozimlarga nomzodlarni baholash. O'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: dastlabki suhbatlashish, anketa ma'lumotlarini tahlil qilish; nomzod haqida ma'lumotlarni to'plash; tekshiruvchi sinovlar, test o'tkazish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish; asosiy suhbat; ekspertlar xulosasini tayyorlash.

Yumshoq tizimlar – bu tizimlarda insoniy omil gorizontaal tuzilmalarning o'zining juftli deb ataluvchi resurslarni olib yuruvchi munosabatlari uzliksiz o'zgarib turuvchi kompozitsiyalari asosida vaqtincha o'zini o'zi tashkil qiluvchi orqali namoyon bo'ladi[4.B.90].

Yakka hukmronlik – boshqaruvni tashkil qilish shakli bo'lib, unda muassasa yoki tashkilot (uning tarkibiy bo'linmasi) boshqaruv idorasining boshida o'zining huquqiy doirasida yuridik majburiy qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega bitta shaxs turadi. Yakkahukmronlik qarorlarni operativ qabul qilish imkoniyatini yaratadi, ushbu idora, tashkilot, muassasadagi ishlarning umumiy holatiga shaxsiy javobgarlikni oshiradi.

O'zini o'zi boshqarish – bu tashkilotning qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun amaldagi qonunchilik doirasida har qanday qarorlarni mustaqil qabul qilish va amalga oshirish imkoniyati.

Hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy ishlari ko'lamining muttasil oshib borishi va murakkablashuvi undan turli sohalarning o'zaro aloqasini, ilmiy asosda markazlashgan, rejali boshqaruvni talab etadi. Ilmiylik tamoyili ijtimoiy-madaniy faoliyatning ko'zga ko'ringan tamoyillaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy-madaniy faoliyatda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, shakli va uslublarini qo'llashni, bir-biriga yaqin fanlar – pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik, estetika, iqtisodiyot va boshqaruv nazariyasining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi.

Ilmiylik tamoyili bir qator belgilarda namoyon bo'ladi. Ular orasida obyektivlik belgisiga birinchi o'rinni ajratish mumkin. Ijtimoiy-madaniy ishlari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kerak bo'lgan ob'ektning haqiqiy holati va bunday ta'sir ko'rsatishning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda, umuman jamiyat va alohida shaxs rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini bilib olish va ulardan oqilona foydalanish asosida qurilishi lozim va shunday bo'lishi kerak.

Ilmiylik voqealar, faktlar va ularning mohiyatini ochishni, ijtimoiy hayotning real manzarasini va uning rivojlanish jarayonlarini, ijtimoiy taraqqiyotning borishini belgilab beradigan kuchlarni aniqlash imkonini beradi. Voqelikni qabul qilishning tasodifiy ta'sirlarining oldini olish va bizni o'rab turgan dunyo haqida chinakam ilmiy tasavvurni paydo qilish ijtimoiy-madaniy faoliyatning muhim vazifasi hisoblanib, ilmiylik tamoyili shaxs dunyoqarashini shakllanishini kuchaytirishga katta hissa qo'shadi[5.B.78].

Respublikada mumtoz musiqa, milliy raqs va estrada, an'anaviy ijrochilik san'atlarini rivojlantirish, taniqli san'at namoyandalarini, ijodiy badiiy jamoalar va alohida ijrochilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish;

mamlakatimizning barcha hududlaridagi musiqa, raqs, an'anaviy ijrochilik yo'nalishlarini asrash, avaylash, shu asosda badiiy jamoalar faoliyati samaradorligini oshirish, mustaqillik ma'naviyatini va istiqloq g'oyalarini tarannum etuvchi, xalqimizga estetik, zavq bag'ishlovchi zamonaviy o'zbek an'anaviy ijrochilik maktabini yanada rivojlantirish;

birlashma tarkibidagi badiiy jamoalarning tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini hal qilish, ularni musiqa asboblari, raqs liboslari, zamonaviy texnika va zarur anjomlar bilan ta'minlash;

musiqa, raqs, an'anaviy ijrochilik san'atini O'zbekiston xalqi, chet davlatlarda keng targ'ib qilish, badiiy jamoalarning keng ko'lamlı dasturlarga asoslangan samarali gastrol-kontsert faoliyatini uyushtirish, reklamatijorat ishlarini yo'lga qo'yish;

badiiy jamoalar, alohida ijrochilar tomonidan madaniy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish va servis sohasini rivojlantirish;

musiqa, raqs, an'anaviy ijrochilik san'ati sohasida gastrol-kontsert faoliyatini muvofiqlashtirish, aholining estetik talab va takliflarini o'rganish;

qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan madaniy va ijodiy hamkorlik qilish;

"Ustoz-shogird" an'analarini rivojlantirish, Birlashma tarkibidagi badiiy jamoalar hamda alohida ijrochilar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ijodiy hamkorlik va tashabbuskorlikni rag'batlantirish;

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda bir usul borki, bu usul tadbirni to'laqonli g'oyaviy jihatdan to'liq yoritilishiga, mavzuni aniq tushunishga, yordam beradi. Bu – teatrlashtirish deb ataladi. Teatrlashtirish – teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslanib, ma'lum voqea asosida amalga oshiriladi [6.B.47].

Teatrlashtirilgan tadbirlarga real qahramon obrazi yoki badiiy asarlardan olingan obrazlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ko'pgina tadbirlarda boshqaruvchi hayotimizning real vakili sifatida chiqadi. Lekin hanuzgacha teatrlashtirilgan tadbirlarda badiiy yoki tarixiy obrazlar kam uchramoqda. Ulardan foydalanish tadbirning badiiy qimmatini oshiradi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarda omma oddiy tomoshabin emas, balki tadbir qatnashchisiga aylanib ketishi kerak. Yuqorida qayd qilingan talablarni hisobga olgan omma-viy shakllarni teatrlashtirilgan tadbirlar deb atash mumkin. Teatrlashtirilgan tadbirni vujudga keltiradigan teatr-

lashtirish metodi murakkab, ko'p ishlashni, chuqur ijodiy yondashishni talab qiladigan usuldir. Yengil, oson bajariladigan ishning har doim samarasi kuchli bo'lavermaydi[7. B.90-91].

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, illyustratsiyalashtirish metodini ham, tetrlashtirish metodini ham xohlagan shaklga nisbatan ishlatib bo'lmaydi. Har bir metodning o'zi talab qiladigan tadbirlari bor. Masalan, illyustratsiyalashtirish metodini ommaviy bayramga nisbatan qo'llasak, ko'p narsa yutqaziladi. Leksiya yoki suhbatni teatrlashtirishning hojati bo'lmasa kerak.

Ilyustratsiyalashtirish metodidan tashkil qilinishi oson, har kuni o'tkazilishi mumkin bo'lgan shakllarga nisbatan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Teatrlashtirish metodini esa shaxsiy-madaniy qimmatı balandroq bo'lgan kompleks shakllarda foydalanish zarur. Uni ayniqsa, ommani hayajonlantiradigan, buyuk sanalarga va bayramlarga bag'ishlangan tadbirlarda qo'llash lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, madaniy tadbirlarda asosan og'zaki, ko'rgazmali, texnik, matbuot hamda san'at vositalari qo'llaniladi. Bu kabi vositalarning har biri o'ziga xos usullar, xususiyatlar va shakllarga egadir.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchi rahbar xilma-xil usullardan foydalanish bilan bir qatorda, turli xil vositalardan ham foydalanadi. Madaniy tadbirlarni g'oyaviy emotsional vositalarsiz aslo tasavvur qilib bo'lmaydi. Vosita tushunchasi deganda, kishilarning hissiyotiga, psixologiyasiga va ongiga ta'sir etuvchi va bilim olish samaradorligini oshiruvchi goyaviy-hissiy qurollar, asbob-uskunalarni tushunamiz.

Ta'sirchan vositalardan biri badiiy so'zdir. Badiiy so'z aytilmoqchi bo'lgan fikrni badiiy-emotsional tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi.

Madaniy tadbirlarda dramatik parchalardan ham mohirona foydalanish yaxshi samara beradigan vositalardan hisoblanadi. Dramatik parchalarni tayyor pyesalardan olish ham mumkin yoki mavzuga oid turli badiiy asarlarni insenirovka qilish orqali ham ishlatish mumkin [8.B.59].

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan yana biri – ko'rgazmali vositalardan foydalanishdir. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish tadbir mazmunining yaxshiroq yoritilishiga yordam beradi, tomoshabinning kayfiyatini ko'taradi va taassurotlarini boyitadi. Tomoshabinni bo'lajak tadbir bilan ilk bor tanishtiruvchi vositalar – bu afishalar va taklifnomalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov F. "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari". T.: "Aloqachi". 2008.
2. Dushamov J. "Ommaviy tadbirlar rejissurasi" T.: G'.G'ulom 2002 y.
3. Jarkov A.D. Texnologiya kulturno-dosugovoy deyatelnosti. – M.: 2003.
4. Mamatqosimov J. "Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati". T.: "Fan va texnologiya", 2009.
5. Sayfullaev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2014.
6. Qoraboev U. "O'zbek xalqi bayramlari". T.: "Sharq" NMAK bosh tahririyati. 2002.
7. Sayfullayev B., Rustamov V.K. Prodyuserlik mahorati asoslari. Toshkent, Fan va texnologiya. Toshkent: 2014.
8. Mirpo'latov X. "Ommaviy bayramlar rejissurasi" T.: TDMI. 2006 y.

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVYIY-MA'RIFIY ISHLAR SIFATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirish istiqbollari oid fikr va mulohazalar berilgan. Unda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasidagi yutuq-kamchiliklar, muammo va ularning yechimlari, madaniy tadbirlarni tashkil etish kabi masalalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, madaniy tadbirlar, ma'naviyat, ma'rifat, ijod, barkamol avlod tarbiyasi, ma'naviy ehtiyoj, kreativ yondashuv, estetik ehtiyoj.

Вахобжон РУСТАМОВ,

доцент кафедры "Организация и управление учреждениями культуры и искусства" ГИИКУз

ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье рассказывается о перспективах повышения качества духовно-просветительской работы. В нем представлена информация о достижениях, недостатках, проблемах и решениях в области духовно-просветительской работы в Узбекистане, а также организации культурно-массовых мероприятий.

Ключевые слова: духовно-просветительская работа, культурно-массовые мероприятия, духовность, просвещение, творчество, воспитание гармонично развитого поколения, духовная потребность, творческий подход, эстетическая потребность.

Vahobjon RUSTAMOV,

associate professor of the chair "Organization and Management of Institutions of Culture and Art" of UzSIAC

PROSPECTS FOR IMPROVING THE QUALITY OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN

Annotation. this article provides some theories on the prospects for improving the quality of spiritual and educational work. It provides enough information on the achievements, shortcomings, problems and solutions in the field of spiritual and educational work in Uzbekistan, as well as the organization of cultural events.

Keywords: spiritual-educational work, cultural events, spirituality, enlightenment, creativity, upbringing of harmoniously developed generation, spiritual need, creative approach, aesthetic need.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining sa'y-harakatlari, tashabbuslari bilan yangilanayotgan O'zbekiston hayotida misli ko'rilmagan darajadagi taraqqiyotning yuksak pog'onalarini guvohi bo'lib turibmiz. Insonlarning tinch-xotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro'yini ko'tarish, Prezidentimizning ta'birlari bilan aytganda, "xalqni rozi qilish" yo'lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O'zbekistonda yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan beshta, uning uzviyligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan yettita ustuvor yo'nalishlarda belgilangan vazifalar, maqsadlarning markazida "INSON"ning turishi, bir so'z bilan aytganda, chiqarilayotgan barcha hujjatlarining mazmunida shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon

turmush tarzini yaxshilash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro'yini oshirish va boshqa ulug' maqsadlar qo'yilganligidan dalolat bermoqda.

Bunday ishlarni amalga oshirishda oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat muhim o'rin tutadi.

"Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat – bu insonlarning ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy qarashlariga oid tushunchalarni qamrab oladigan jarayonlardan hisoblanib, aniq reja asosida o'tkaziladigan tadbirlar asosida amalga oshiriladigan ishlar majmuasidir"¹.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar haqida olimlarimiz turli xil fikrlarni aytib o'tgan. Madaniy oqartuv ishlari, madaniy-ma'rifiy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, madaniy tadbirlar kabi nomlar bilan atalib kelingan. Ushbu sanab o'tilganlarning barchasi deyarli bir xil mazmunga ega, ammo hozirgi kunga kelib asosan "ma'naviy-ma'rifiy ishlar" deb yuritish an'anaga aylangan.

O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga juda muhim masala sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning deyarli ko'pchiligi mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning orzu-istak-

¹ V.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. Toshkent: 2017-yil. – B. 33.

lariga monand ta'lim tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etishga qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtboshimiz tomonidan takidlanganidek: "... barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish² kabi masalalar ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Xususan, oliy ta'lim tizimida talaba yoshlar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish uchun alohida bilim, ko'nikma va mahorat talab etiladi. Chunki talabalarni yangicha fikrlash, yangi bilimlarni olishga qiziqishlarini kuchaytirish, barcha jarayonlarga kreativlik nuqtai nazaridan yondashishida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish samaradorligi, sifati muhim ahamiyat kasb etadi. "Ma'naviyat" va "ma'rifat" tushunchalarining ko'pincha birgalikda qo'llanishi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ta'lim va tarbiya uyg'unligini nazarda tutadi.

Manbalarda, "Ma'rifat (arabcha "arafa" – "bilmoq" so'zidan) – ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat"³ deb berilgan. "Ma'rifat" tushunchasi bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish ma'nolarida ham qo'llanilib kelinmoqda. Darhaqiqat, uning ma'nosi bilimdir. Atama sifatida esa u tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifat tushunchasi kengroq ma'noda qo'llanilib, bilim va ma'naviyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o'zida mujassam qilgan.

Bu ikki sermazmun tushunchalarning birga qo'llanishi ta'lim-tarbiya masalalarining barcha jihatlarini odob, axloq, tarbiya, o'qish, bilim olish, o'rganish, mutolaa qilish, ilmi bo'lish, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lish kabi qarashlar, fikrlarni o'z ichiga oladi.

Shu bois ham, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatorida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ham alohida o'rin berilgan. Jumladan, 2021-yil 6-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimida kelgusi besh yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar haqida so'zlagan nutqida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyilni asosiy g'oya va bosh mezon sifatida ilgari surganda, uni tinglagan, eshitgan har bir inson keyingi amalga oshiriladigan islohotlarda millat, yurt va Vatan taraqqiyotini his etdi. Taraqqiyot strategiyasida jamiyatni yanada rivojlantirish uchun muhim bo'lgan barcha siyosiy,

iqtisodiy, huquqiy masalalar bilan bir qatorda ma'naviy va ma'rifiy masalalarning ko'ndalang qo'yilishi ham ushbu sohaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilaydi.

Ushbu hujjatda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi, ma'naviy va ma'rifiy sohani rivojlantirish, ekologik tahdidlarning salbiy ta'siri, mamlakatimizdagi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish⁴ kabi masalalar kun tartibiga qo'yilgan bo'lib, bunda inson, uning qadr-qimmatini, jamiyatda xotirjam yashashi, farzandlariga ta'lim-tarbiya berishda uning ortida davlat, Prezident turganligini his qilishi, yaxshi, farovon yashashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilajagi haqidagi fikrlarni anglash qiyin emas.

Mazkur strategiyaning beshinchi yo'nalishiga asosan ma'naviy va ma'rifiy sohalarini rivojlantirish haqidagi fikrlar bayon etilgan. "Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi"⁵, – deydi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, insonlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning ma'rifiy va ijodiy qobiliyatlarini oshirish, dam olish va hordiq chiqarishini uyushtirish ham ma'naviy-ma'rifiy sohalarining ijtimoiy funksiyalarini tashkil etadi.

Oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – malakali kadrlarni yetishtirishdir. "Malakali" so'zining zaminida esa uning bilimdonligi, aql-zakovati, kreativligi, odob-axloqi, tarbiyasi va boshqa fazilatlar nazarda tutiladi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'z mazmun-mohiyati bilan yoshlarni kelajakka tayyorlash, har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatga, yurt taraqqiyotiga hissa qo'shish, odob-axloqli, ma'naviyatli, madaniyatli bo'lish, Vatan oldidagi o'z burch, vazifa va majburiyatlariga sodiq yashash kabi ulug' niyatlarga boshlovchi faoliyat, deyish mumkin.

Insonlarning maroqli dam olishlari uchun dam olish maskanlari, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, teatrlar, konsert zallari, sport o'yinlari o'tkaziladigan maydonlar, maktab, oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini yangidan qurish, mavjudlarini moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, rivojlantirish, ularni ta'mirlash kabi ishlar davlatimiz rahbarining tashabbusi, taklif va ko'rsatmalari asosida tashkil etilmoqda. Ayniqsa, talaba yoshlarning yaxshi o'qishlari, ularning ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga qaratilgan turli mavzulardagi tadbirlarning tashkil etilishi talaba yoshlarning bu boradagi imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 19-yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror

² Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Xalq so'zi. -2018. -15 avg.

³ Madaniyat va san'at atamalarini izohli lug'ati / Tahrirchi: B.Sayfullayev. – Toshkent: 2014. – B. 87.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Yangi O'zbekiston" ijtimoiy-siyosiy gazetasi. 2021-yil 7-noyabr.

⁵ Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Xalq so'zi. 20-yanvar.

qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"⁶, – deya ta'kidlab o'tdi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son Qarori ham ushbu faoliyat uchun muhim hujjatlardan biri ekanligini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir. "Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda"⁷ – deyiladi uchbu hujjatda.

Qarorda mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida aniq, strategik, ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish⁸ kabi muhim masalalarga katta e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan.

Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy sohada ham oldimizda qilishimiz lozim bo'lgan ishlar talaygina. Bu faoliyatning zaminida talaba yoshlarning ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, o'quv jarayonidan tashqari, yangi bilimlarni egallashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish, mazmunli dam olishini tashkil etish, bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishga jalb qilish – ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning mazmunida aks etib turishi lozim.

Tadbirlarni tashkil etishda aniq maqsadlar belgilanib, amalga oshiriladigan ishlar rejasi puxta ishlanib, darslardan bo'sh paytlarda talabalar o'zlarining xohish-istaklari bilan o'tkazilishiga erishish lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish jarayonida talabalarning bo'sh vaqtlarini topish, ularning faollarini ajratib olish, manbalar tanlash, ssenariylar yaratish, sahna ko'rinishlari, konsert dasturlarini tayyorlash, tad-

bir o'tkaziladigan joyni badiiy bezash, unga mazmun berish, repetitsiyalarni tashkil etish, texnik vositalardan foydalanish, ishtirokchi va tomoshabinlarni jalb qilish kabi bir qator ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Ammo shuni aytish joizki, bitta qo'shiq yoki raqs ijro etilgani bilan u tadbir bo'lib qolmaydi. Taniqli rejissor D.Genkin aytib o'tganidek: "Bayram, tadbirlar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, uni oqilona tashkil etish kerak"⁹. Darhaqiqat, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ham maqsadli, aniq reja asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Zero, o'zbek tilining izohli lug'atida yozilganidek, "**tadbir**" – biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir¹⁰, – deyilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni shunday tashkil etish kerakki, talabalar o'zleri qiziqib, o'zlarining tashabbuslari bilan, xohlab tadbirlarga kirishsin. Talabalarning tadbirlarga qatnashishni xohlamasliklarini quyidagi sabablarini ko'r-satib o'tish mumkin:

1. Berilayotgan ma'lumotlarning yangi emasligi;
2. Aksariyat tadbirlarning mazmuni hamda ishtirokchilarining bir xilligi;
3. Tadbirlar ssenariysining mukammal emasligi;
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilarining badiiy didi, sahna madaniyati hamda sahna qonun-qoidalarini bilmassligi, tashkilotchilik qobiliyatining yo'qligi;
5. Tadbirda tashkiliy va ijodiy ishlarning uyg'un emasligi;
6. Qiziqarli mavzular tanlanmaganligi;
7. Ma'ruzachining (agar davra suhbat bo'lsa) auditoriyani boshqara olmasligi;
8. Tadbirlarga kerakli kontingentlarni jalb qilinmaganligi;
9. Tadbir o'tadigan paytni (vaqtni) noto'g'ri belgilanganliklari va shunga o'xshash bir qancha muammolar mavjudligi ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz samaradorligiga erishishga halaqit beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatiga erishish uchun tadbirlar saviyasini ko'tarish haqida jiddiy o'ylash lozim. Masalan, davra suhbatini olaylik. Odam savdosiga qarshi kurash mavzusi bo'yicha tadbir o'tkaziladigan bo'lsa, ma'ruzachi undagi faktlarni faqat aytib berish bilan chegaralansa, ya'ni (ma'ruzani o'qib yoki tushuntirib bersa) bu tinglovchida hech qanday hissiyotlarni uyg'otmasligi mumkin. Bunda turli metod va vositalardan to'g'ri va oqilona foydalanish tadbirning sifat samaradorligiga erishishiga olib keladi. Bu yerda: "Tadbirni quruq ma'ruzani o'qish bilan emas, balki isbotlangan faktlar bilan, turli ko'rgazmalar, hujjatli filmlar, videoroliklar, sahna ko'rinishlar, shu mavzularga oid kuy va qo'shiqlar uyg'unligida o'tkazilsa, uning ta'sirchanligi va sifat darajasi oshadi hamda tinglovchi yoki tomoshabinning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda ishtirokchi metodidan foydalanish mumkin, ya'ni horijga borib, ko'p pul topishni istagan yoshlarga buning hammasi safsata ekanligiga ishtirokchi, u yerdagi shart-sharoit va ahvolning naqadar ayanchni ekanligini ko'rsatish (film, sahna ko'rinish orqali yoki aynan ana shunday sharoitlarga tushib qolgan insonlar o'zleri gapirib bersalar), o'z yurtining qadriga yetish kabi vazifalarni o'rtaga qo'ygan holda taqdim etilishi ko'pchilikning to'g'ri xulosa chiqarishiga sabab bo'la oladi,¹¹ – deyish mumkin.

⁶ Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son Qarori. Yangi O'zbekiston. 27-mart.

⁷ O'sha manba

⁸ Генкин В.М. Массовые праздники. – Москва: 1998. – С. 45.

⁹ Генкин Д.М. Массовые праздники. – Москва: 1998. – С. 45.

¹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati /Tahrirchi: Z.Ma'rufov. – Moskva, 1981. – B.198.

¹¹ Sayfullayev B., Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati: o'quv qo'llanma. – Toshkent: 2017. – B.47

¹² V.Alimasov, Y.Manzarov. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyot. Toshkent: 2014. – B. 108.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar nafaqat keng masshtabda, balki tor doira atrofida ham tashkil etilish mumkin. Masalan, talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talaba qizlar bilan "Qizlar odobi bilan go'zal", "Reproduktiv salomatlik" kabi mavzular doirasida davra suhbatlarini tashkil etish mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Rossiya Federatsiyasida amalga oshiriladigan juda ko'p ma'naviy-ma'rifiy (madaniy) tadbirlar rekratsion xarakterga ega, ya'ni hordiq chiqarishga qaratilgan. Shu bois ham madaniyat va san'at institutlarida "madaniy-hordiqiy faoliyat", ya'ni (досуговая деятельность) tushunchasi ko'proq ishlatiladi. Manbalarda ma'naviy-ma'rifiy emas, balki madaniy-hordiqiy faoliyat (культурно-досуговое деятельность) deb berilgan. Madaniy hordiq tushunchasi – insonlarning intellektual va ma'naviy darajasini oshirishga qaratilgan faoliyat, sayohatga chiqish, dam olish, muzey yoki teatrga borish, bo'sh vaqtda dam olish, bog'da sayr etish, konsert yoki film tomosha qilish, restoranlarda, ko'ngilochar bazmlarda qatnashish ma'nolarini anglatadi.

Sho'rolar davrida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlar (u davrlarda madaniy-oqartuv ishlari deyilgan) tushunchasi qo'llanilgan. Ammo bu tushuncha mazmunan boshqa maqsadlar uchun xizmat qilgan. Mustaqillikdan keyin biz barcha milliyligimizga xos bo'lgan qadriyatlarni tiklash

barobarida, milliy ma'naviyatimiz, milliy o'zligimizni ham qayta tiklashga erishildi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda ma'naviyat va ma'rifat tushunchasi hayotimizga birlamchi masalalardan biri sifatida namoyon bo'la boshladi. Barcha ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalar qatorida ma'naviy sohada ham ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmogda.

"Ma'naviy-ma'rifiy sohaning obykti INSON, insonning ma'naviy-madaniy olamidir. U, birinchidan, insonning ma'naviy-madaniy olamini o'ziga xos amaliy-tarbiyaviy vositalar va usullar bilan shakllantiruvchi, ikkinchidan esa xalq ijodini targ'ib qiluvchi kishilarning dam olishi va hordiq chiqarishini uyushtiruvchi, fuqarolarni ijtimoiy-madaniy hayotga jalb qiluvchi sohadir"¹².

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli tashkil etish, u orqali talaba yoshlarning kreativlik fazilatlarini shakllantirish, har tomonlama rivojlantirish va bunga pedagogik nuqtai nazardan yondashish – hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Talabalar ongida Vatanga muhabbat ruhini singdirish, ularda ertangi kunga ishonch hissini rivojlantirish, bunyodkorlik ishlariga da'vat etish, ma'naviyatini yuksaltirish, ilmli, bilimli, yetuk kadr, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lib yetishishlarida bu faoliyatning ahamiyati beqiyosdir.

Ольга ОСТАНИНА,
старший преподаватель кафедры «Сценическое движение и физическая культура»
Государственного института искусств и культуры Узбекистана

ПЛАСТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ АКТЕРА ТЕАТРА КУКОЛ: СПЕЦИФИКА НАГРУЗОК НА ФИЗИЧЕСКИЙ АППАРАТ АКТЕРА ПРИ РАБОТЕ С ТРОСТЕВОЙ КУКЛОЙ

Аннотация. В данной статье автор пытается объяснить специфику профессии актёра кукольника с точки зрения действия законов физики и физиологии тела актёра в моменты максимальной физической нагрузки во время репетиции и спектакля.

Ключевые слова: театр кукол, пластика, позвоночник, сценическая речь.

Ольга ОСТАНИНА,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Sahna harakati va jismoniy tarbiya”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI AKTYORINI PLASTIK TARBIYALASH: SIM QO‘G‘IRCHOQ BILAN ISHLASHDA AKTYORNING JISMONIY A‘ZOLARIGA TUSHAYOTGAN OG‘IRLIK XUSUSIYATLARI

Annatsiya. Ushbu maqolada muallif qo‘g‘irchoqbozlik kasbining o‘ziga xos xususiyatlarini mashq va spektakll jarayonida jismoniy faollik paytining yuqori nuqtasida aktyor tanasining fiziologiyasi qonunlari nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qiladi.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq teatri, sahna nutqi, plastika, umurtqa pog‘onasi.

Olga OSTANINA,
senior lecturer of the chair “Stage movement and physical culture”
State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

THE PLASTIC EDUCATION OF THE PUPPET THEATER ACTOR: THE SPECIFICS OF THE LOADS ON THE PHYSICAL APPARATUS OF THE ACTOR WHEN WORKING WITH A CANE PUPPET

Annotation. In this article, the author tries to explain the specifics of the puppeteer's profession from the point of view of the laws of physics and physiology of the actor's body at moments of maximum physical activity during rehearsals and performances.

Key words: puppet theatre, plastic actor, spine, stage speech.



Каждый театр кукол имеет свою технологическую особенность, свою материально-техническую основу. Без этого компонента он не сможет существовать. Театр кукол в первую очередь материален. Главное действующее лицо на сцене это кукла. «Артистичность куклы зависит от точного выбора художником движущего принципа, а также от совершенства технического исполнения, которое должно обеспечить актёру послушный, гибкий инструмент для создания образа. С этой целью выделяется система динамических средств выразительности, отбор которых способен обеспечить создание полноценного зрительного образа с помощью куклы – жест и мимика куклы»[1]. Несмотря на то, что в современном театральное искусство (в том числе искусство театра кукол) вторгается технический прогресс, мастерство актёра остается главным двигателем театрального действия. Если единственным собственными (личными) средствами выразительности у драматического актёра являются его тело и голос (все остальные способы выражения принадлежат другим участникам театрального про-

цесса – драматургу, режиссеру, художнику, композитору и многим другим), то актёр кукольник соединяет в своей работе голос, собственное тело и куклу (точнее мастерство кукловождения). По сути три, очень материальных явления. Голос актёра является также продуктом деятельности тела. Как и всякая материя существует в сфере действия законов физики, так и мастерство актёра театра кукол не может существовать вне этих законов. Это имеет свою актуальность в решении проблемы «актерского долголетия» (способности как можно долго выполнять свои профессиональные обязанности и сохранения физиологического здоровья актёра). «Надо культивировать голос и тело артиста на основах самой природы. Это требует большой систематической и долгой работы, к которой я вас и призываю с сегодняшнего дня. Если же это не будет сделано, то ваш телесный аппарат воплощения окажется слишком грубым для предназначенной ему нежной работы. Нельзя с неподготовленным телом передавать бессознательное творчество природы, так точно, как нельзя играть Девятую симфонию Бетховена на расстроенных

инструментах»[2]. Так какие законы биофизики регулируют профессиональную деятельность актера театра кукол? Что есть закон по своей сути? «Закон – существенная, необходимая, устойчивая, повторяющаяся связь (отношение) между явлениями. Категория закон выражает в своем содержании тот, независящий от нашего сознания, факт, что предметы и явления окружающего мира функционируют и развиваются в соответствии с присущими им существенными, необходимыми, повторяющимися, устойчивыми отношениями (связями)»[3]. При рассмотрении работы актера с тростевой или перчаточной куклой (так называемой верховой куклой) остановлюсь на нескольких параметрах: высота ширмы, рост актера, вес куклы, фактура ширмы (материал изготовления), статическое положение куклы и работа в динамике. Физический аппарат актера функционирует в зависимости от множества условий: возраста, пола, конструкции тела (рост, осанка, подвижность движений в суставах), физиологического здоровья, врожденных дефектов, земного притяжения, утомляемости, тренированности и других аспектов существования. Во многих учебниках по обучению актера кукольника главным элементом является развитие пластики рук. Конечно, хорошая пластичность рук имеет огромное значение, так как актер приводит в движение куклу в большинстве своем руками. Но, к сожалению, забывают, откуда собственно эти руки «растут». Что является первичным в движении? Трудно переоценить роль позвоночника в строении и функционировании всего тела человека. Позвоночный столб, или позвоночник – основная часть осевого скелета человека. Состоит из 33 – 4 позвонков, последовательно соединенных друг с другом в вертикальном положении. Изгибы позвоночника способствуют сохранению человеком равновесия. Во время быстрых, резких движений изгибы пружинят и смягчают толчки, испытываемые телом. В момент действия в спектакле или на репетиции актер использует профессиональные навыки в кукловодении, сценической речи, пластике, мастерстве актера. Первые три компонента имеют непосредственную связь с физиологией движения. Актер двигается с поднятыми над ширмой руками, которые приводят в действие куклу с определенным весом, механикой, формой, объемом. Одновременно он производит как крупные движения (перемещение по сценической площадке, удерживание равновесия), так и его кисти и пальцы рук работают в мелкой моторике. При этом актер разговаривает в характере куклы, взаимодействует с партнерами. Работает в разных ритмах, с разным ускорением и темпом движения. Очень часто режиссеры в поисках интересных мизансцен используют различные уровни сценического пространства (высоту ширмы). Бывают спектакли, в которых актеры управляют тростевой куклой в положении сидя на коленях, лежа на спине или на боку. При этом уровень куклы над ширмой не должен «падать» или «взлетать», голос персонажа не должен изменяться, темпо-ритм спектакля не замедляться. Каждый спектакль имеет свои технические параметры, которые обуславливают способы работы актера за ширмой. Полноценное воспитание навыков правиль-

ного дыхания возможно только при сохранении правильной осанки. «Голова держится прямо, плечи свободно опущены и отведены назад, спина прямая, грудь немного выступает вперед, нижняя часть живота слегка подтянута. В такой позе следует держаться непринужденно, свободно, без напряжения. Нарушение осанки почти всегда ведет к нарушению правильного процесса дыхания и звучания»[4]. А как обычно двигается актер с тростевой куклой? Руки подняты вверх и голова несколько запрокинута назад, для того, чтобы контролировать действие куклы на ширме и осуществлять так называемый голосовой посыл над ширмой в зрительный зал. При таком положении шеи происходит сильнейшее напряжение мышц шеи и нарушается форма гортани, через которую происходит момент звукоизвлечения и дыхания. Есть спектакли, где актеры, играющие главные роли не уходят со сцены, и вынуждены водить куклу по ширме (в положении с поднятыми вверх руками) очень продолжительное время. Что же происходит с позвоночником актера в эти моменты? В статическом вертикальном положении, с поднятыми вверх руками, которые держат куклу, позвоночник испытывает действие сил тяжести отдельных сегментов человеческого тела (вес головы, ребер, костей плечевого пояса, рук, внутренних органов, мышц), расположенных выше тазового сочленения, вес куклы, плюс притяжение земли. Уже это создает деформирующую нагрузку на позвонки и межпозвоночные диски. А теперь рассмотрим, что происходит позвоночником актера, который работает за ширмой, высотой 170 сантиметров (стандартная высота ширмы для работы с тростевой или перчаточной куклой), с тростевой куклой весом 4 килограмма? При отведении руки с куклой, весом 4 килограмма от оси тела (от вертикальной линии позвоночника) над ширмой на 50 сантиметров в сторону, следуя закону физики, так называемый момент силы: $M = Fd$. Момент силы – это произведение силы на плечо этой силы. Плечо силы – это кратчайшее расстояние между линией приложения силы и центром вращения[6]. Нагрузка на позвоночник увеличивается до 200 килограмм на сантиметр. Сила – физическая векторная величина, являющаяся мерой воздействия на данное тело со стороны других тел. Приложение силы обуславливает изменение скорости тела или появление деформаций и механических напряжений, в данном случае увеличивается статическая нагрузка на позвоночник актера. При таком приеме работы с тростевой куклой большое значение имеет рост актера. Актеру с ростом менее 155 -160 сантиметров приходится искусственным образом дотягиваться до необходимого уровня (чтобы кукла частично не уходила под ширму). Иногда актеры маленького роста используют специальную обувь на высокой платформе – «котурны» или туфли на высоких каблуках, что еще увеличивает нагрузку на позвоночник и суставы, и требует отдельного контроля при работе в условиях небольшого пространства за ширмой. Каблук нарушает всю функциональность механизма стопы, изменяя биомеханику и геометрию стопы. Приводит к неравномерному распределению нагрузки по всему телу. При ситуации

противоположной, когда актер очень высокий (выше 170-175 сантиметров), возникает необходимость спрятать, уменьшить свой рост. Актер вынужден искать свои собственные способы: работать на сильно согнутых ногах, широко расставленных или перекрещенных, или скручивать свой позвоночник в «узел», выгибать его назад или в сторону, т.е. максимально нарушать главное правило при работе с вертикальной нагрузкой. Естественно все законы физики, «сопротивления материала», физиологии организма никуда не исчезают. Хороший актер во время спектакля может этого и не заметить, эмоциональное напряжение во время действия отвлекает от ощущения боли, или срывает привычка к болевым ощущениям, спасает хорошая психотехника. Но законы природы никто не отменял. Нагрузка, действующая на актерский аппарат, остается.

Профессиональная подготовка актера театра кукол требует не только хорошей физической подготовкой, но и достаточного объема практических и теоретических знаний в области статических и динамических нагрузок и способов борьбы с ними. Позвоночник и голосовой аппарат актера при работе с тростевой куклой за ширмой подвергается значительным перегрузкам, что может вызвать патологические изменения дегенеративного характера и другие деформации голосового аппарата и позвоночника. Достаточные грамотные актерские тренировки и стабильный, правильно выстроенный репетиционный процесс позволяет укрепить весь костно-мышечный аппарат актера, адаптировать его к высоким нагрузкам и перегрузкам. И, тем не менее, случаи травматизма имеют место. Следует отметить, что патология позвоночника может проявляться и в молодом возрасте. «Было доказано, что осанка связана с показателями выносливости»[7]. Выносливость обуславливается следующими факторами: интенсивностью и спецификой работы, возрастом, наличием умений, навыков, тренированностью, эмоциональным состоянием, периодом восстановления. Очень важна техника разогрева и расслабления. Так же как у спортсменов существует правило разминки (разогрева) перед тренировкой и заминки (расслабления) после нагрузки, актер театра кукол должен таким же образом готовить свой физический аппарат перед

репетицией или спектаклем. И самое главное, умение правильно выходить из нагрузки. Только в таком случае можно обеспечить достаточно продолжительное профессиональное здоровье и творческое долголетие актера театра кукол. Основой психофизического равновесия, то есть естественного функционирования организма, является эластичность, подвижность суставов, правильное дыхание и артикуляция. Выходом из этой ситуации может явиться система тренировок, основанных на упражнениях, которые должны готовить тело актера перед спектаклем и освобождать от напряжения после. Очень подходящей для этого может быть система психофизического метода воспитания движения, названного по имени Фредерика Матиаса Александера (1869 – 1955), получившая международное признание. Техника Александера – комплекс упражнений, помогающий людям правильно использовать собственное тело, гармонично задействовать собственные мышцы. К помощи методики Александера прибегали тысячи профессиональных актеров, телеведущих, политиков, педагогов, музыкантов, психологов и писателей во всем мире, что лишний раз свидетельствует об авторитете рассматриваемой техники среди прочих технологий телесной терапии, что дает право называть данную методику настоящим всемирным открытием. «Очевидными задачами являются: оснащение актера программой и комплексами упражнений для постоянной работы над собой; воспитание в актере потребности в такой работе; доведение процесса работы над телесным аппаратом «до органического перерождения самой природы» телесности актера»[8]. Актеры, следующие принципу техники Фредерика Матиаса Александера, совершенно очевидно, успешнее других реализуют творческие возможности, и, что самое важное, они отличаются лучшим здоровьем и долголетием. «Тело обладает физиологической “мудростью”, благодаря которой после любых нарушений оно стремится вернуться в состояние равновесия, осанка стремится принять естественную от рождения правильную форму»[9]. Регулярное и методичное использование подобных тренировок может помочь актерам театра кукол в их специфической профессиональной деятельности обрести творческое долголетие.

Список литературы.

1. Романовский Е.Я. «Искусство театра кукол в контексте национальной культуры», автореферат по ВАК Диссертация. 2008. – С. 2.
2. Станиславский К. С. Собр. соч.: В 8 т. М.: 1955. В 8 т. Т.: 3. – С. 29.
3. Скаун В.М., «Новейший философский словарь». Минск. 1999 г., с. 243.
4. «Сценическая речь». Под редакцией И.П. Козляниновой. ГИТИС. Москва. 2006. – С. 396.
5. Physics.shkolkovo.net/catalog/statika-i-mehanicheckie-kolebaniya
6. Advances in Physical Education, Vol.3 No.3, 2013 ABSTRACT Champaign, IL: Human Kinetics. AUTHORS: Aleksandar Dejanovic, Edward D. J. Cambridge,
7. «Сценическая речь». Под редакцией И.П. Козляниновой. ГИТИС. Москва. 2006г. – С. 418
8. Дрознин А.Б., профессор Театрального института им. Б. Щукина, «Физический тренинг актера по методике Андрея Дрознина», «Я вхожу в мир искусства», М.: ВЦХТ, 2004 г. – С. 11.
9. Mouritz, Alexander Technique, ISBN 0-9525574-7-9.

OMMAVIY MADANIYATNING JAMIYATIMIZ MADANIY O'ZAGIGA TAHDIDI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida jamiyatimiz taraqqiyoti uchun xavf solayotgan ma'naviy tahdidlar bayon qilinadi. Jumladan, maqolada "ommaviy madaniyat" ning millatimizning madaniy o'zagiga salbiy ta'siri masalalari atroflicha yoritilib, uning dunyo miqyosidagi oqibatlarini ilmiy asosda o'rganilgan.

Kalit so'zlar: "Ommaviy madaniyat", "Madaniy o'zak", "G'ayri madaniyat", "Madaniy gegemoniya", "Kitch", "Komiks", "Starizm", "Xeping".

Ойдин АЛИМБЕКОВА,
старший преподаватель кафедры "Вокал" ГИИКУз

УГРОЗА МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ КУЛЬТУРНОМУ ЯДРУ НАШЕГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. В этой статье будут изложены моральные угрозы, с которыми сталкивается наше общество в сегодняшнем глобализационном процессе. В частности, в статье подробно освещены вопросы негативного влияния "массовой культуры" на культурный центр нашей нации, на научной основе изучено ее последствия в мировом масштабе.

Ключевые слова: "Массовая культура", "Культурный центр", "Сверхестественная культура", "Культурная гегемония", "Китч", "Комикс", "Старизм", "Хеппинг".

Oydin ALIMBEKOVA,
senior lecturer chair of "Vocal" UzSIAC

THE THREAT OF POPULAR CULTURE THE CULTURAL CORE OF OUR SOCIETY

Annotation. This article will outline the moral threats facing our society in today's globalizing process. In particular, the article covers in detail the issues of the negative impact of "mass culture" on the cultural center of our nation, and its consequences on a global scale are studied on a scientific basis.

Keywords: "Mass Culture", "Cultural Core", "Paranormal culture", "Sultural hegemony", "Kitch", "Comics", "Starism", "Hepping".

Аxborot va kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida butun insoniyat, jumladan, xalqimiz ham ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli mafkuraviy tahdidlar ostida yashamoqda. Iqtisodiy, siyosiy sohada kechayotgan globallashuv jarayonlari asta-sekin madaniy sohani ham o'z domiga tortmoqda. Madaniy gegemoniyaga erishish uchun yot g'oyalarni tarqatishning o'zi kifoya qiladi. Televizor har bir xonadonning to'rini egallagan, global axborot makoni shakllangan bugungi kunda, afsuski, inson ongi va qalbi uchun kurashdan himoyalanih oson ish emas. Ma'naviy asosdan mahrum qilingan xalq yaxshilik va yomonlik, oq va qora, ezgulik va qabihlik o'rtasidagi farqni anglamay qoladi. Bunday jamiyat inson ongi va qalbi uchun kechayotgan kurashda ojiz va himoyasiz bo'lib qoladi. Ko'p o'tmay bu jamiyatda mutlaqo begona madaniyatning hukmronligi o'rnatiladi, demakki, bu jamiyat o'zgalar tomonidan zabt etiladi. Ana shunday madaniy globallashuv soyasida jamiyatga kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siri haqida bong urish – davr talabi.

Jamiyatning "madaniy o'zagi" insonning hayot haqidagi, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlarini, bilim va tajribani, an'ana va ramzlarni o'z ichiga qamrab oladi [1, 26–28]. Madaniy o'zak qanchalik barqaror bo'lsa,

jamiyat a'zolarining irodasi ham shu qadar qat'iy bo'ladi. Va aksincha, madaniy o'zakning kuchsizlanishi yoki qo'porilishi jamiyat irodasining yemirilishiga olib keladi.

Shu o'rinda, "Ommaviy madaniyat" xususida ham to'xtalib o'tish joizdir. Mutaxassislarining fikricha, hali ilm-fanda "g'ayri-madaniyat" ("antikultura") degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun "ommaviy madaniyat" tushunchasi qo'llanilmoqda. Aslida esa "ommaviy madaniyat" – ma'naviyatsizlik, axloqsizlikning sinonimidir [4, 117]. "Ommaviy madaniyat" tarafdorlari axloqni, yuksak madaniyatni, bebaho ma'naviyatni nafaqat mensimaydi, balki oyoq osti qiladi.

Hozirgi kunda jahonda keng yoyilayotgan cho'pchak-mafkuralardan biri "yevrotsentrizm" deb ataladi. Nomidan ham ko'rinib turganidek, unda G'arbdan andoza olish, unga taqlid qilish taraqqiyotning bosh omili ekanligi uqtiriladi. Yevrotsentrizm mafkurachilari "G'arb izidan bor – bu eng yaxshi dunyolardan biridir", deya "maslahat" beradilar. Aslida esa yakka rang dunyo qurish g'oyasi cho'pchakdan bo'lak narsa emas. Zero, dunyoda ko'p sonli rang-barang madaniyatlarning birgalikda mavjud bo'lishi, bir-birini to'ldirib, boyitib turishi insoniyat taraqqiyotining zaruriy sharti hisoblanadi [5, 73–74].

Madaniy gegemoniya uchun kurash davomida moddiyatga berilish, nafsni qondirish, buyumparastlik

kabi qadriyatlar ham singdiriladi. Bunda barcha narsalar sotish va sotib olish mumkin bo'lgan tovarga aylantiriladi. Fikrlar va buyumlarning, inson tanasi va ruhiyatining, tabiat va madaniyatning tovarga aylantirilishi – zamonaviy voqelikning asosiy xususiyatiga aylanmoqda. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, “yemak va tomoshalar” shiori ostida insonlarda iste'molchilik ruhiyati avj oldirilyapti, “insonning hamyoni qayerda bo'lsa, uning qalbi ham o'sha yerda”, degan halokatli g'oya singdirilmoqda. Bu holatni amerikalik olim Z.Bjezinskiy quyidagicha ta'riflaydi: “Madaniy ustunlik Amerika global kuch-qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o'zining estetik qadriyatlarini haqida nimalarni o'ylamasin, Amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, jahon yoshlarini ohanrabo kabi o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi, ehtimol, shu madaniyat orqali targ'ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog'liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shak-shubhasizdir. Amerikaning televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining qariyb to'rt dan uch qismini egallagan. Amerikaning ommabop musiqasi ham ustuvor mavqega ega, shuningdek, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishdagi odatlari va hattoki kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladi...” [1, B 112–38].

Xo'sh, Z.Bjezinskiy tomonidan jozibador deya tasvirlangan G'arb madaniyatida qanday qadriyatlar targ'ib qilinmoqda? Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'sha ko'klarga ko'tarib maqtalayotgan madaniyat egasi bo'lgan yosh amerikalik 18 yoshga kelib kompyuter o'yinlaridagi 40 mingga yaqin qotillikning guvohi yoki “muallifi” bo'lishi aniqlangan [3, B 67]. Maxsus o'tkazilgan tadqiqotlar dunyo saytlarining taxminan 12 foiz fahsh xarakteriga ega ekanini, internet orqali tarqatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foiz zo'rovonlik va yovuzlik targ'ibotiga, 41 foiz jangarilikka asoslanganligini ko'rsatadi. Bu jihatdan mutaxassislar G'arb madaniyatiga “o'lim g'oyasini tarqatuvchi madaniyat” sifatini bermoqdalar.

Iste'molchilik ruhiyatini avj oldirish, “rohatlanish sanoati”ni rivojlantirish, “o'lim madaniyati”ni keng yoyish oqibatida G'arbda ma'naviy-axloqiy tanazzul kuzatilmoqda. Qadriyatlar oyoq osti qilinmoqda. Ilgari fazilat sanalgan narsalar aybga, avvallari gunoh sifatida qoralangan harakatlar fazilatga aylantirilmoqda. Jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishabozlik, besoqolbozlik kabi illatlarning avj olishi, oilalarning buzilishi, tug'ilishning kamayishi buning yaqqol dalilidir. Afsuski, bu holat axloqning tanazzuli sifatida emas, inson erkinliklarining tantanasi sifatida talqin qilinmoqda.

Qadriyatlarimizga begona, ma'naviyatimizga yot bo'lgan bunday holatlar bizning jamiyatga ham tahdid solayotganini ham e'tirof etish lozimdir. Xususan, buning ta'siri yirtiq-yamoq kiyimlar kiyib yurgan yoshlarda, qizlarning burun va kindikka sirg'a ilib yurishida, soch turmaklarida, beo'xshov va bachkana raqslarda o'z aksini topmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mobil aloqa vositalari va internet klublarida kompyuter orqali turli jangari filmlarni, klip va videoroliklarni namoyish etilayotgani vaxshiylikni targ'ib qiluvchi o'yinlarni targ'ib etilayotgani yoshlarimizni bilim olish, yuksak maqsadlarga intilish, qiyinchiliklarni yengib o'tish kabi intilishlardan chalg'itib, ularda yengil-yelpi hayotga havas hissini uyg'otib qo'yimoqda. Jahon miqyosida avj olayotgan bunday kurashda aldanib qolmaslik uchun “ommaviy madaniyat” targ'ibotchilarining asl

maqsadlarini bilish, qo'llanilayotgan uslub va vositalarni puxta o'rganish talab etiladi.

Bunday sharoitda jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni yot g'oyalar va “ommaviy madaniyat”ning halokatli ta'siridan himoya qilishda ularda axborot iste'molchisi madaniyatini shakllantirish, ya'ni axborotdan samarali foydalanish ko'nikmasini qaror toptirish muhim sanaladi. Bu vazifani, avvalo, tarbiyaning ilk o'chog'i hisoblangan oilada bajarish lozim [6, B 42]. Har bir ota-ona o'z farzandining “ommaviy madaniyat” domiga tushib qolmasligi haqida qayg'urishi, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli – turli fan va sport to'garaklarida o'tkazilishi choralarini ko'rishi lozim. Boy madaniy va ma'naviy merosimizni “ommaviy madaniyat”ga almashtirmaylik. Buyuk kelajakni faqat intellektual salohiyatli, go'zal axloqiy sifatlarga ega yosh avlod yaratadi.

Jamiyatning “madaniy o'zagi” qanchalik barqaror bo'lsa, insonning hayot haqidagi, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari, irodasi ham shu qadar qat'iy bo'ladi. Madaniy o'zakning kuchsizlanishi esa jamiyat irodasining yemirilishiga olib keladi.

Tarixiy xotirani susaytirish, jamiyatdagi birdamlikka putur yetkazish, an'analarni qoloqlik sifatida inkor etish, xalqni ma'naviy ildizlaridan mahrum etish, axloqsizlikni targ'ib qilish, insonning eng tuban mayllari, hayvoniy xirslari, nafsini qo'zg'ash kabi harakatlar madaniy o'zakni kuchsizlanishiga xizmat qiladi. Ma'naviy asosdan mahrum qilingan xalq yaxshilik va yomonlik, oq va qora, ezgulik va qabihlik o'rtasidagi farqni anglamay qoladi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida butun insoniyat, jumladan, xalqimiz ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli mafkuraviy tahdidlar ostida yashamoqda. Iqtisodiy, siyosiy sohada kechayotgan globallashuv jarayonlari asta-sekin madaniy sohani ham o'z domiga tortmoqda. Ana shunday madaniy globallashuv soyasida jamiyatga kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta'siri haqida bong urish – davr talabidir.

G'arbda jamiyat ich-ichidan yemirilayotgani, axloq inqirozga yuz tutayotgani, taraqqiyot orqaga ketayotgani haqida guvohlik bermoqda. G'arbg'a tahdid solayotgan xavf-xatarlar Usmonxon Alimovning “Oilada farzand tarbiyasi” nomli kitobida ancha batafsil yoritilgan [5-135,136].

Birinchisi, G'arb mamlakatlarida tug'ilish darajasining keskin pasayishi. Bu haqda g'arb olimi bunday yozadi: “G'arb tom ma'noda “o'lmoqda”, deyarli barcha g'arb mamlakatlari aholisi aql bovar qilmas darajada kamayib bormoqda. O'n to'rtinchi asrda Ovrupa aholisining uchdan bir qismini qirib yuborgan “qora o'lat” ofatidan buyon G'arb tamadduni hali bu qadar xatarli tahdidga duch kelmagan. Bu ofat butun g'arb aholisini qirib yuborishi hech gap emas. Hozir Ovrupa mamlakatlarining ko'pida o'lim ko'rsatkichi tug'ilishdan ancha yuqoridir.

Ikkinchisi, g'arb mamlakatlari taraqqiyotning yuksak cho'qqilariga ko'tarilishida diniy qadriyat, urf-odat va an'analar, axloqning ahamiyati katta bo'lgan. Jumladan, g'arb tarixchilaridan biri bunday yozadi: “Insoniyat tarixiy taraqqiyotining qaysi davriga nazar tashlamang, diniy e'tiqod har qanday buyuk davlatning poydevori sifatida xizmat qilib kelganiga guvoh bo'lasiz. Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika yoxud Janubiy va Markaziy Amerika tamaddunlari bo'ladi – ularning barchasida bir xil

jarayonni kuzatish mumkin: tamaddunlar din negizida vujudga kelgan va aksincha, qandaydir sabablar tufayli an'anaviy e'tiqodning jamiyat hayotiga ta'siri susaygan yoxud undan butunlay voz kechilgan holda millatlar, xalqlar va davlatlar tanazzulga yuz tutgan".

Uchinchisi, g'arbda milliy qadriyat va an'analar siqib chiqarilib, yosh avlod qalbi va ongiga g'ayriinsoniy g'oyalar singdirilmoqda. Buning oqibatida G'arb mamlakatlarida "ommaviy madaniyat" tushunchasi yuzaga keldi. U g'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Garchi "madaniyat" deb atalsa-da, aslida, mazmun-mohiyatiga ko'ra, "ommaviy madaniyat" haqiqiy madaniyatning kushandasi. "Ommaviy madaniyat" ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi. Masalan, "kitch" – zarracha badiiy-estetik qiymatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish. "Komiks" – tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa-rasm mahsulotlari. "Starizm" – subyektiv ehtirolarga berilgan holda estrada xonandalari, aktyorlar, sportchilar, teleboshlovchilarni ko'kka ko'tarish. "Xepping" – nogahon uyushtiriladigan "keskin" tomoshalar, masalan, pianino yoki avtomobillarni urib, abjag'ini chiqarish yohud o't qo'yib vahshiyona, ommaviy "ko'ngil ochish"larni o'tkazish "ommaviy madaniyat"ning ayrim ko'rinishlari, xolos.

To'rtinchisi, G'arb madaniyati ajralish, abort va o'zboshimchalikni taraqqiyotning o'ziga xos muhim bosqichlari sifatida talqin etayotganidan tashvishlanib, bir olim bunday yozadi: "Ma'naviyat va axloqning mohiyati xususida yakdillikka erisha olmas ekanmiz, u holda qanday qilib ma'naviyati yuksak jamiyatni barpo etishimiz mumkin? Nahotki, yurtimiz taqdiriga befarq bo'lmagan kishilar madaniy inqilobchilarning butun sa'y-harakati odamlarni imon-e'tiqodidan qaytarish, Yaratgandan yuz o'girish va ularning ongiga "turmush tarzining barcha shakllari teng huquqlidir" qabilidagi g'arazli g'oya va qarashlarni singdirishga yo'naltirilganini payqamayotgan bo'lsa?"

Beshinchisi, oila inqirozi. O'tgan asrning 60-yillarida g'arb mamlakatlarida sodir bo'lgan "madaniy inqilob" er, xotin va bolalarni oilaviy vazifalar, burch va mas'uliyatdan ozod etib, oilaga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni yo'qqa chiqardi. Bu hol oilaning yemirilishiga sabab bo'ldi. Hukmronlikni qo'lga olgan "ommaviy madaniyat" kechayu kunduz azaliy qadriyatlarni kamsitib, hatto ayolning eri va bolalari bo'lishi tabiiy, hayotiy ehtiyoj ekani haqidagi tasavvurlar

ustidan ham kulib keldi. Bugungi kunda ayolni onalik vazifasidan butkul mahrum etishga intilayotgan kuchlar ham paydo bo'ldi.

Bunday vaziyat vujudga kelishida o'tgan asrning boshlarida ko'p G'arb mamlakatlarida shakllangan va bugungi kunga kelib ijtimoiy harakatga aylangan feminizmning "xizmat"i katta bo'lgan. Masalan, ashaddiy feminist ayollardan biri oila – nikoh masalasi haqida to'xtalib, bunday xato fikrlarni yozgan: "Nikoh bu – qullikning bir shakli. Shunday ekan, ayollar harakati ana shu institutga qarshi yo'naltirilishi zarur. Negaki, nikoh barham topmagan jamiyatda ayollarning ozod etilishiga umid qilish xomxayoldir". Afsus, bu g'oyalar ta'sirida million-million g'arblik ayollar oila qurish va bola tug'ishdan voz kechmoqda, oilaning barcha dinlarda qoralangan noan'anaviy shakllari paydo bo'lmoqda. 1970-yildan hozirgi vaqtgacha nikohsiz yashayotganlar soni 523 mingdan 6,5 milliongacha, ya'ni 1000 foizga oshgani, faqat to'rt xonadondan bittasida to'liq oila istiqomat qilayotgani, bir jinslilar "nikoh"i ko'payib borayotgani, yakka o'zi yashayotgan amerikaliklar mamlakat aholisining 26 foizini tashkil etayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. Britaniyada esa bolalarning 34 foizi nikohsiz tug'ilmoqda, taxminan, shuncha miqdordagi katta yoshdagilar ajralish alamidan aziyat chekmoqda. Kelgusi yigirma yil davomida britaniyalik bolalarning yarmidan ozrog'i ota-ona tarbiyasini olishi mumkin. AQShda qamalganlarning yarmidan ko'pi buzilgan oilalarning farzandlari ekani, ota-onasi ajrashgani tufayli yetkazilgan kuchli ruhiy zarba erkak va ayollarga o'rta yoshda, hatto keksalik chog'ida ham salbiy ta'sir o'tkazib turishi aniqlangan.

Bunday sharoitda jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni yot g'oyalar va "ommaviy madaniyat"ning halokatli ta'siridan himoya qilishda ulara axborot iste'molchisi madaniyatini shakllantirish, ya'ni axborotdan samarali foydalanish ko'nikmasini qaror toptirish muhim sanaladi. Bu vazifani avvalo, tarbiyaning ilk o'chog'i hisoblangan oilada bajarish lozim. Har bir ota-ona o'z farzandining "ommaviy madaniyat" domiga tushib qolmasligi haqida qayg'urishi, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli – turli fan va sport to'garaklarida o'tkazilishi choralarni ko'rishi lozim. Ta'lim ta'limi doirasida ham yoshlarni milliy g'urur, Vatanga muhabbat, oilani qadrlash, birdamlik ruhida tarbiyalashga yanada kuchli e'tibor berish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2019 yildagi PQ-4307-son "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" gi qarori. 2019-yil 3-may. Toshkent shahri.
2. Umarova N. Abdunazarova F. Yosh avlodni yot g'oyalardan himoyalash muammolari.// Yuksak badiiy va intellektual salohiyatli yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari. T.: 2015-yil. – B. 120. 26 – 28-betlar.
3. Бжезинский З. Великая шахматная доска: Господство Америки и геостратегические императивы. Москва: 1998-йил, – Б. 136. 38.
4. Азроянс Э. Глобализация: катастрофа или путь к развитию? "Новый век" – Москва: 2002. – Б. 457. 40 – 4.
5. Usmonxon Alimov. Oilada farzand tarbiyasi. "Movarounnahr" nashriyoti T.: 2015-yil. – B. 456. 310–316-betlar.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'navicht, 2008 yil. 117-bet.
7. Karimov.I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998 yil. 73-74-betlar.
8. Niyozov G'., Axmedov G., Tojiboyev G. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarning barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. – Toshkent: O'zbekiston. 2010-yil. 42-bet.

YANGI DAVR KUTUBXONALARI FAOLIYATIGA INNOVATSION YONDASHUV: JURNALISTIKA VA BLOGERLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kitob mutolaasini rivojlantirishga oid qarori va besh tashabbusining ijrosiga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish, yangi davr kutubxonalari faoliyatiga innovatsion yondashuvning ahamiyati, kutubxonalarda faoliyat yuritayotgan kutubxona xodimlariga zamonaviy talablar asosida ish yuritish davr taqozosi ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: axborot-kutubxona, zamonaviy kutubxonachi, jurnalist, kutubxona jurnalisti, kutubxona blogerlari, kutubxonachi pedagog.

Хафиза КАРИМОВА,

директор информационно-библиотечного центра «Bilim» г. Ташкента,

Отличник информационно-библиотечного дела

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БИБЛИОТЕК НОВОГО ВРЕМЕНИ: ЖУРНАЛИСТИКА И БЛОГЕРСТВО

Аннотация. В данной статье рассказывается о реализации Постановления Президента Республики Узбекистан о развитии чтения и пяти инициатив, важности инновационного подхода к деятельности библиотек новой эпохи, необходимости работы библиотекарей в соответствии с современными требованиями.

Ключевые слова: информационно-библиотечный центр, современный библиотекарь, журналист, библиотечный журналист, библиотечные блогеры, библиотекарь-педагог.

Hafiza KARIMOVA,

director of the information and library center "Bilim" in Tashkent,

excellent student of information and library science

INNOVATIVE APPROACH TO MODERN LIBRARY ACTIVITIES: JOURNALISM AND BLOGGING

Annotation. The implementation of the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on the development of reading and five initiatives, the importance of an innovative approach to the activities of libraries of the new era, the need for librarians to work in accordance with modern requirements.

Key words: information-library, modern librarian, journalist, library journalist, library bloggers, librarian educator.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari respublikada amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-

kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda¹.

Bu esa axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish imkoniyati yaratilmoqda. Biroq axborot-kutubxona muassasalarini jahon kutubxona hamjamiyatiga integratsiyalash, foydalanuvchilar va aholi bilan ishlash, shu jumladan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning innovatsion usullarini tatbiq etish masalalari talab darajasida deb bo'lmaydi. Shuningdek, uyali aloqa, ko'plab gadjetlar va Wi-Fining faol rivojlanishi, elektron kitoblar va "kitob o'qish ilovalari" oqimining ortib borishi sharoitlarida foydalanuvchilar bilan tizimli ishlar olib borilishi, axborot-kutubxona muassasalarining innovatsion faoliyati va ularning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish, aholi bilan samarali innovatsion munosabatlar va muloqotni yo'lga qo'yish, yangiliklarni ishlab chiqish va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun eng maqbul

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354 son Qarori.

yo'nalish bu kutubxonalar faoliyatiga innovatsion yondashuv bilan kutubxonachi-jurnalist va blogerlik masalasiga alohida e'tibor qaratishimizni davr taqozo etmoqda.

Kutubxonachilik ham o'qituvchi, jurnalist, rassomlik kasbi kabi so'z mahoratini talab qiladi. Kutubxonachilarning xodimlari ushbu iqtidorni har doim o'z ishlarida bahsmunozaralar, davra suhbatlari, sharhlar, kitob premyerasi kabi ommaviy tadbirlarni o'tkazishda qo'llashgan.

“Zamonaviy kutubxonachi” va “kutubxonachilik jurnalisti” tushunchasi kutubxonachilikni yanada qiziqarli va dolzarb qilish istagini o'zida birlashtiradi. Qanday qilib yoziladi, nima haqida gapirish, materialni qanday bezash kerak? Vaqt bizdan, kutubxonachilarning mutaxassislaridan o'z qadr-qimmatini haqida gapirish, ularni ko'rgazmali namoyish etish, kutubxonachilarning serqirra ishini yorqin namoyon etish, ularning ahamiyatini va zarurligini ko'rsatish, kutubxonachilikning ahamiyati haqida gapirish qobiliyatini talab etadi.

Jurnalistikaning ushbu ko'nikmalari kutubxonachilik mutaxassislarini tomonidan nashrlarda mohirlik bilan qo'llaniladi. Axborot-kutubxonachilik muassasalari faoliyati tahlil qilina-yotgan tadbirlar e'lonlari, yangiliklar press-relizlari, sharhlar va maqolalar, o'tgan voqealar, taqrizlar, esnelarga baho beriladi.

So'nggi yillarda Toshkent shahridagi “Bilim” axborot-kutubxonachilik markazi (AKM) uchun ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik nafaqat professional faoliyatning ajralmas qismiga aylandi, balki o'quvchilarni jalb qilish, imkoniyatlarni ochib berish va ijobiy imidjni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki ushbu kutubxonachilik xodimlari kitobxonlar bilan faqatgina kutubxonachilik doirasida emas, balki mahalliy va mintaqaviy gazetalar, jurnallar sahifalarida o'tkaziladigan tadbirlar haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan o'rtoqlashadi.

Prezidentimizning beshta muhim tashabbusini amalga oshirishga qaratilgan “Yo'l-yo'lakay o'qiyamiz”, “Oilaviy o'qish”, “Kitobxon mahalla”, “Ko'k chamadonning sarguzashtlari”, “Milliy o'qish haftaligi”, “Asar qahramonlarini jonlantiramiz” loyihalari doirasida tashkil etilgan tadbirlar shular jumlasidandir. Darhaqiqat, o'qish orqali bilim va ma'lumot uzatiladi, insonning ma'naviy dunyosi boyitiladi. Bilimdon va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyosdir. Shu bois, respublikamizda, ayniqsa, yosh avlod o'rtasida o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

“Pravda Vostoka”, “O'zbekiston ovozi”, “Xabar”, “Oila va jamiyat” gazetalarini hamda “Saodat” jurnali – bu shahar axborot-kutubxonachilik markazi kutubxonachilarning maqolalari chop etiladigan davriy nashrlarning to'liq ro'yxati emas. Mamlakatimiz kutubxonachilari nafaqat o'qish, balki O'zbekiston axborot-kutubxonachilik sohasining milliy mahsuloti bo'lgan professional jurnallarga ham maqolalar yozish imkoniyatiga ega.

Mutaxassislarimizning “O'qish madaniyatini shakllantirish oiladan boshlanadi”, “Mening kasbim - faxrim!”,

“Axborot-kutubxonachilikda qulay axborot maktabi”, “Axborot-kutubxonachilik muassasalarining huquqiy mexanizmlari va dolzarb muammolari”, “Bilim” axborot-kutubxonachilik markazining kelajagi” kabi maqolalari “Kutubxonachilik.uz”, “Infolib.uz” jurnallaridan joy olgan. Ushbu maqolalar axborot-kutubxonachilik xizmati amaliyotida yangiliklar almashish va turli loyihalarni amalga oshirish, axborot-kutubxonachilik faoliyatining dolzarb masalalariga bag'ishlangan.

Kutubxonachilik doimo yangi axborot resurslarini o'zlashtirib, ijtimoiy tarmoqlarda kutubxonachilikni turli xil kanallarini yaratib, unda yangi adabiyotlar bilan tanishtirish, tanlovlar, turli tadbirlarni amalga oshirish, onlayn so'rov-anketalar o'tkazish, kitobxonlar bilan fikr, tajriba va bilim almashish, ular bilan aloqalar o'rnatmoqda.

Axborot-kutubxonachilik veb-saytida masofadan foydalanuvchilar va kutubxonachilik foydalanuvchilari uchun foydali ma'lumotlar mavjud. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab kutubxonachilik, kutubxonachilik guruhlarining faoliyati yo'lga qo'yilgan. Respublika axborot-kutubxonachilik muassasalarining sahifalari ochilgan.

Jamiyatda o'qish nufuzini oshirish va kitobga qiziqishni uyg'otish uchun turli xil dastur va loyihalar, jamoat va xususiy tashabbuslar yaratilmoqda. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonachilik tomonidan e'lon qilingan bolalar va yoshlarni o'qishga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi uslubiy ishlanma uchun respublika tanlovi o'tkazildi. Tanlov eng yaxshi uslubiy ishlanmalarni, loyihalarni aniqlash, amaliyotga joriy etish va ommalashtirish, kitobxonlikni obro'sini oshirish, kitob madaniyatini saqlash va rivojlantirish, shuningdek kitobxonlik madaniyatini ommalashtirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan.

Markazimiz mutaxassislarini tomonidan ishlab chiqilgan “Kitobxon mahalla” uslubiy loyihasi o'quvchilarni, o'qiyotgan yoshlarni, nogiron odamlarni tizimli va ma'lumotli o'qishga jalb qilish, axborot-kutubxonachilik faoliyatining interfaol usullaridan foydalangan holda oilaviy o'qish an'analarni tiklash masalalariga bag'ishlanganligi bilan birinchilikni olishimizga sabab bo'ldi.

Xodimlar oldida turgan asosiy vazifa, foydalanuvchilarni ijtimoiy tarmoqlarda kutubxonachilik saytiga iloji boricha ko'proq tashrif buyurishlari uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishi, ular o'zlari uchun foydali, ishonchli ma'lumotni topa olishi, kutubxonachilik va muntazam foydalanuvchilar bilan muloqotga chiqishlari, taqdim etilgan fotosuratlar, video materiallar, elektron resurslar (shu jumladan, loyihalar, aksiyalar, tanlovlar, viktorinalar va boshqalar) va adabiyotlarimizga o'z fikr-mulohazalarini qoldirishlari muhim. Shunday qilib, kutubxonachilik mutaxassislarini o'z ishlarida jurnalistikaning ijodiy usullari va metodlarini qo'llagan holda, shahar axborot-kutubxonachilik markazining nufuzini oshirib, Toshkent shahri aholisining keng qatlamlari orasida kitobxonlikni yanada rivojlantirish borasidagi ko'p qirrali ishlarini namoyish etmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini

² Kitobxon mahalla [Matn] : metodik tavsiyalar / Tuzuvchilar: V. Muratova, R. B. R. S.; Muharrir H. Karimova. – Toshkent: 2019. –B. 13.

³ <http://www.uzdaily.uz/uz/post/5328>

shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ilgari surgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, kitob mutolaasini keng targ'ib etishga qaratilgan to'rtinchi tashabbusini onlayn tarzda amalga oshirmoqda³.

“Bilim” AKM foydalanuvchilarini ko'paytirish maqsadida tashkil etilgan masofaviy loyihalar “Bilim” - jonli ensiklopediya, “Mening tavsiya kitobim”, “Audiobilim”, “Xotira abadiy” kutubxona jurnalistlari tomonidan turli saytlarda, Internet-ommaviy axborot vositalarida, shuningdek davriy nashrlarda keng yoritildi.

Kutubxona mutaxassislari tomonidan ijtimoiy media vositalaridan foydalanish ko'lami katta. Saytlar, ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda, kutubxonalarni kutubxona hayoti haqida so'zlovchi ko'plab jonli hikoyalar mavjud bo'lgan bloglarsiz tassavur qilish qiyin. Kutubxonachilar uchun blog, birinchi navbatda, tajriba almashish va norasmiy muloqot uchun platforma bo'lib, o'z-o'zini ifodalash uchun mo'ljallangan obyektidir. Kutubxonachilar va foydalanuvchilarning interaktiv muloqotida g'oyalar, takliflar tug'ilib, axborot-kutubxona amaliyotida albatta qo'llanilmoqda.

Bugungi kun kutubxonachilari ikki yo'nalishda tayyorlanmoqda. Birinchisi texnik yo'nalishda, ikkinchisi

madaniyatning bir yo'nalishi sifatida. Ma'lum muddat faqat axborot ulashuvchi, texnik kutubxonachilar tayyorlashga urg'u berildi, ammo bu o'zini oqlamadi. Ana'naviy ta'limga qaytildi, kutubxonachilik sohasini avvalo madaniy asosga qo'yilmasa, ko'p narsa kemtik bo'lishi ma'lum bo'ldi va hozirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kutubxonachilar tayyorlanmoqda. Albatta, ulardan umidimiz katta. Bugungi kun kutubxonachisi dunyoning shu sohada erishgan barcha yutuqlaridan boxabar bo'lishi, zamon va yoshlar talabini tez ilg'ashi, ularga yo'l ko'rsatish uchun o'zi zakovatli shaxs bo'lishi kerak. Shuning uchun ham jahonda kutubxonachi kasbiga yuksak hurmat va e'tibor bilan qarashadi. Kutubxonachi – pedagog, uning tavsiyalari ko'p narsani o'zgartirishi mumkin. So'ragan kitobni javondan olib berish – bu hali kutubxonachi, degani emas. Lekin ko'pchilik kutubxonachi ishini shunday jo'n tushunadi, bu esa katta xato⁴.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, zamonaviy kutubxona mutaxassisining barcha fazilatlariga mos ish olib borishi davr talabidir! Sizlarga maslahatim: “Masalani mustaqil ravishda, atroflicha o'ylab olganingizdan keyin kutubxonaga borib, agar vaqt yetarli bo'lsa, shu mavzuga doir adabiyotlarni o'qib chiqing. Sizga nima zarur bo'lsa, kutubxonachiga ayting. U sizga katta yordam berishi mumkin”⁵.



⁴ <https://einfo.lib.uz/index.php/2021/03/26/kutubxonachining-kitob-o'qimasligi-millat-zavoli/>

⁵ O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. Deyl Karnegi, “Muvaffaqiyat kaliti”, T.: Yangi asr avlodi, 2015 – B.301-302.



V BO' LIM

YOSH TADQIQOTCHI

Izzat YULDASHEV,
O'zDSMI "Folklor va etnografiya" kafedrasida doktoranti

MADANIYATDA SINKRETIZM: ILMIY-NAZARIY TAHLIL

Annotatsiya. Maqolada sinkretizmning madaniy jarayonlar va dunyoviy hodisalar sifatida namoyon bo'lishi, ijtimoiy-madaniy hodisalarning butunlikka birikishining nazariy jihatlari, ibtidoiy madaniyatda va etnomadaniyatda sinkretik xususiyatlarning ahamiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sinkretizm, madaniyat, fenomen, ijtimoiylashuv, globallashtirish, munosabatlar, mifologiya.

Иzzat ЮЛДАШЕВ,
докторант кафедры "Фольклор и этнография" ГИИКУз

ФЕНОМЕН: СИНКРЕТИЗМА В КУЛЬТУРЕ

Аннотация. В статье рассматриваются проявления синкретизма как культурного процесса и светских явлений, теоретические аспекты интеграции социокультурных явлений, значение синкретических черт в первобытной культуре и этнокультуре.

Ключевые слова: синкретизм, культура, феномен, социализация, глобализация, отношения, мифология.

Izzat YULDASHEV,
doctoral of the chair "Folklore and Ethnography" UzSIAC

THE PHENOMENON: OF SYNCRETISM IN CULTURE

Annotation. The article examines the manifestation of syncretism as a cultural process and secular phenomena, the theoretical aspects of the integration of socio-cultural phenomena, the importance of syncretic features in primitive culture and ethnoculture.

Keywords: syncretism, culture, phenomenon, socialization, globalization, relations, mythology.



Sinkretizmni nazariy-fenomenologik o'rganish global-lashuv sharoitida etnomadaniyat, milliy madaniyat va umummilliy madaniyatlar borasidagi qarashlarga aniqlik kiritadi. "Falsafa qomusiy lug'ati"da "sinkretizm" – yunoncha "synkretismos" – birlashtirish, qo'shish ma'nosi bildirilishi o'laroq, biron bir hodisani qismlarga bo'linmasligini, rivojlanmaganligini ifodalovchi tushuncha sifatida qayd etilgan [7, B 369].

"Falsafa: ensiklopedik lug'ati"da mifologiya ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir, deb ta'kidlab o'tilgan [8, B 195]. Faylasuf, madaniyatshunos D.Kulagin: "Qadimgi mifologiya – bu jamoaviy xayolotni yaratish, ongni sinkretik birlikda o'rnatish, bunda subyektiv tuyg'u va obyektiv tasavvur ratsional tarzda ajratilmagan", – deb qayd etgan [15, B 20].

Akademik E.Yusupovning ilmiy rahbarligida tayyorlangan "Falsafa" nomli kitobda: "Mifologik dunyo-qarashning xususiyati shundaki, unda hamma narsa va hodisalar bir-birining ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi. Buning natijasida bir xil buyumlarning sifatlarini ikkinchi xil buyumlarga bemaol ko'chirish mumkin bo'ladi. Mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlari jonli vujudlar

ko'rinishida tasvirlanadi. Mifologiyada bir xil narsalarning xossalari ikkinchi xil narsalarga bemaol ko'chirilgani sababli, u xayolotga keng yo'l ochib beradi. Natijada, unda tasvirlangan obrazlar qahramonliklar qilishi va jasoratlar ko'rsatishi mumkin bo'ladi", – deya ta'kidlangan edi [9, B 13].

Falsafa fanlari doktori, professor Y.Jumaboyev: "Ibtidoiy jamiyat oxiriga kelib, ijtimoiy tabaqalashuvga hamda ijtimoiy guruh o'rtasida nizolar yuzaga kelishiga qaramay, o'sha zamonning mafkuraviy tasavvurlari (biz ushbu holda ularni jamiyatning ma'naviy ustkurmasi sifatida belgilaymiz) tabiat va ijtimoiy hayotning barcha xilma-xil hodisalariga umumiy qaramlik bilan xarakterlanadi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, ijtimoiy ong sinkretik (qorishiq) va naturalistik bo'lib qolavergan", – deya qayd etgan [14, B 7-8].

Shu o'rinda, E.Umarov va M.Abdullayevalar esa miflarda deyarli hamma narsa aytilgani, biroq sharoitlar o'zgarishi bilan yangi imkoniyatlar paydo bo'lishini va endi mifdagi ibtidoiy madaniyat tomonidan uzoq vaqt tomonidan mujassamlangan arxetip ming yillar davomida opera, balet, kino, kompyuter grafikasida mujassam etganini ta'kidlaydi [18, B 71].

Madaniyatshunos V.Karpushin: “Madaniyatning sinkretik xarakteri shuni anglatadiki, din animizm, totemizm yoki magik g’oyalari ko’rinishida eng qadimgi jamiyatning ibtidoiy san’ati va axloqi bilan birlashtirilgan hamda bu ijtimoiy ongning barcha shakllari hali ham moddiy ishlab chiqarish – ovchilik va dehqonchilik jarayonidan ajralmaganligidir”, – deb ta’kidlagan edi [17, B 9].

Tadqiqotchilar E.Ahmedova va R.Gabidulinlar esa sinkretizm haqida quyidagicha ta’kidlab o’tishgan: “Sinkretizm ibtidoiy madaniyatning ajralmasligi, yaxlitligidir. Sinkretizm – bu madaniy fenomenlar o’rtasidagi farq paydo bo’lgunga qadar yaxlitlikdir. Axloq, san’at, din, huquq kabi fenomenlar ibtidoiy madaniyatda hali mavjud emas edi” [3, B 66].

V.Karpushin, E.Ahmedov va R.Gabidulinlarning ushbu izohlari madaniyatning sinkretik xarakterini, sinkretizmning to’liq va butun mazmun-mohiyatini ifodalamaydi. Chunki ularning mazkur izohlarida ibtidoiy madaniyat, eng qadimgi amaliyot va ong shakllari ajralmaganligi diqqat markazda bo’lgani uchun, ular tomondan qayd etilgan “Madaniyatning sinkretik xarakteri”, “Sinkretizm” tushunchalari o’zlarining ta’riflariga faqatgina bir-biriga mantiqan juz’iy ma’no jihatidan mos keladi, xolos.

Bundan tashqari, sinkretizm haqidagi qarashlarning ko’pgina madaniy sohalar tadqiqotchilari tomonidan o’z yo’nalishlari bo’yicha tadqiq etib o’rganilgani bilan birga, ular tarafidan “madaniy sinkretizm” yoki “sinkretik madaniyat” so’zlarining qo’llanilishi asosidagi, atribut va immanent kesimidagi izohlari ham mavjud. Masalan, madaniyatshunos A.Doxayeva: “...etnik madaniyat – bu etnos tomonidan ilgari ishlab chiqilgan qadriyatlarni, shuningdek, etnosning zamonaviy tajribaga moslashgan madaniy tajribasini rivojlantirish singari yangi qadriyatlarni o’z ichiga olgan madaniy sinkretizmdir”, – deya qayd etgan [4, B 33].

Tadqiqotchi A.Tenase esa: “Folklor – ibtidoiy sinkretik madaniyatlarning mifologik salohiyatidan kelib chiqqan va keyingi madaniyatlarda, hozirgi kunga qadar doimiy ilhomlantiruvchi va turtki beruvchi omil bo’lgan madaniyat shakllaridan biridir. Turli xalqlarning ijodi aks etgan folklorlarda dunyoviy va diniy ma’naviylik o’rtasidagi ziddiyat mavjud”, – deya ta’kidlagan [17, B 33].

A.Erkayevning quyidagi mulohazalari orqali, ijtimoiy-madaniy hodisalarda madaniyat sinkretizmining moslashuvi va o’zgarishi haqidagi pragmatik-ma’naviy mazmunning tushunilishini va andozasini ilg’ab olish maqsadga muvofiqdir: “Ma’lumki, jamiyatda qaror topgan ta’lim-tarbiya, axloq-odob tizimi, din mavjud voqelikka insonni moslashtirishga, umumqabul qilingan me’yor va qoidalarni o’zlashtirishda ko’maklashishga xizmat qiladi. Bu holat barcha tuzumlar uchun xosdir”, – deya ta’kidlaydi [5, B 82]. Uning mulohazalaridan ibtidoiy madaniyatda sinkretizmning qay yo’sinda insonlar hayotini (sinkretik ong sifatida) madaniy-tizimli tarzda o’zgartirib yuborganini ilg’ab olish muhim: “Odamlar yovvoyilikdan ongli turmush kechirishga o’tishi, podani urug’-jamoaga aylanib, jamiyat paydo bo’lishi jarayonida o’z munosabatlarini asta-sekin tartibga sola boshlaganlar. Dastlab onalar va bolalar, otalar va qizlar, akalar va singillar o’rtasidagi jinsiy aloqalar taqiqlangan, so’ng boshqa taqiqlar va majburiyatlar paydo bo’lib, yaxlit sinkretik ong doirasidagi axloqiy, diniy qarashlarda va urf-odatlarda tizimlashgan. Tabiatga munosabatlar ham tizimlashib borgan. Natijada ilk xulq-

atvor me’yorlari, marosimlar, ilk diniy tasavvurlar vujudga kelgan. Ular avlodan-avlodga o’tib, boyib, takomillashib, murakkablashib borgan” [6, B 46].

Folklorshunoslar folklori sinkretik xususiyatga ega ekaniga, san’at turlariga xos elementlar o’zida mujassam etishiga ishora etishgan [10, B 5; 12, B 12]. Folklorshunos M.Jo’rayev quyidagi mulohazalarni qayd etgan edi: “Mifologiya ibtidoiy insonning qarashlarini o’zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois, mifologiya folklor, yozma adabiyot, san’at va ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun zamin vazifasini o’tagan”. [13, B 78]. Folklorshunos T.Xaydarov esa: “Mifologiyani sinkretik hodisa sifatida izohlashimizning asosiy sabablaridan biri aynan shu xususiyat – mifologik sinkretizm – uning tarafidagi chalkashliklarni keltirib chiqarganliklaridir”, – deb ta’kidlaydi [11, B 38]. Fikrimizcha, tadqiqotchilar sinkretik hodisalarga “chalkashlik” va “qorishiq” so’zlari bilan ta’rif berishlaridan oldin, ular sinkretizm fenomeni, mazmun-mohiyati va atributlarini kulturologik-ontologik va ijtimoiy-madaniy jihatdan chuqurroq o’rganishlari g’oyatda muhimdir.

S.Gutova tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan sinkretizmni eklektikaning bir turi sifatida e’tibor bergan holda zamonaviy madaniyat, fan, falsafaning dolzarb ehtiyojlari uni intellektual va madaniy ijodkorlikning o’zaro bog’liq hodisasi sifatida tan olinishini, bu ularning turli xil madaniy elementlarning boshlang’ich munosabatlariga asoslangan organik sintez prinsipi ekanini, sinkretizm umuman madaniyatga nisbatan madaniy-generativ va madaniy-genetik va nazariy shakllarga nisbatan dekonstruktiv-falsifikatsiyalashtirish, tizimli-sinkretik funksiyalar bajarishini ta’kidlagan edi [19, B 21].

V.Kuznetsov zamonaviy ilm-fan rivoji tendensiyalari analizidan kelib chiqib, fanlararo sintez sifatida namoyon bo’layotgan dunyo birligi muammosi so’nggi paytlarda yetakchi mafkuraviy va metodologik-regulyativ pozitsiyalardan birini egallay boshlaganiga urg’u berib o’tgan edi [16, B 17]. E.Abdullayeva esa: “Sinkretizm ijtimoiy-gumanitar konsepsiyaning maxsus tamoyili borasida madaniyat shakllanishining universal bosqichi sifatida rol o’ynaydi”, – deya qayd etib o’tgan [1, B 8]. U diniy-mifologik, badiiy-intuitiv, ratsionalistik va hokazo sinkretik qoliplarni ko’rsatish mumkinligiga ham ishora etgan edi [1, B 8].

Faylasuf va madaniyatshunos Yu. Arxipova birlikka qaytish, dunyoning asl garmoniyasiga o’tmish g’oyalarni aktualashtirish sifatida ta’kidlagan holda, qadimgi insonning sinkretik tafakkurini mantiqiy asos sifatida qadimgi yunon falsafasi, o’rta asr diniy madaniyati, an’anaviy xalq madaniyati, zamonaviy kosmizm falsafasini olam asoslarini anglashda birlashganiga urg’u berib o’tgan [2, B 119]. U ilmiy bilimlar rivojlanishining zamonaviy bosqichi, ixtisoslashuvi va differensiallashuvi ko’proq fanning birligiga tobora moyillik bilan tavsiflanilishini qayd etgani o’laroq: “Barcha ilmiy bilimlarni integratsiyalashuvining asosiy omillari umumiy metodlar, nazariyalar, tadqiqot tamoyillar – matematik, kibernetik, tizimli, shuningdek, ularni differensiallash orqali bilimlarni sintez qilish – mavjudlari tutashgan joyda yangi fanlarni yaratishdir”, – deya ta’kidlaydi [2, B 107]. U zamonaviy madaniyatda sinkretizmning ifodasi postmodernizm, uning hayotdagi turlar birligiga nisbatan yorqin tendensiya sifatida qayd etib: “Fanda sinkretizm fanning birligiga va sinergetikaga asoslangan fanlararo

birlashuvga moyilliklarning kuchayishi shaklida namoyon bo'ladi", – deb ta'kidlagan edi [2, B 11].

Tarixiy jarayonlar silsilasi shuni anglatadiki, insonlarning munosabatlari qolipida ba'zan eklektik qarashlardan chiqib, kritik-analitik va argumental-kreativ to'xtamga kelish, sinkretik qarashlar tomon tartibga tushish, tizimlashib borish, garmoniya, birlashish (hatto nihoyasiga yetmagan tarzda ham) amalga oshgan bo'lsa, ba'zan ularning obyektga munosabat qilishida notekis-nomutanosib, abstraktiv-nohaqqoniy tarzda sinkretik qarashlardan chetga chiqib, eklektik qarashlarga moyilliklar kuzatilganiga ham ishora etadi. Dunyoviy munosabatlarda inson butunlikning ikki qarama-qarshi yo'lidan birini o'zi tanlab kelgan, u o'z madaniy-umuminsoniy, ruhiy-gumanistik, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-haqqoniy qarashlari qay darajada rivojlanganiga qarab, (ba'zida mutlaq bo'lmasa ham) o'zicha ma'qul topgan yo'nalishda ketavergan. Inson mana shunday tanlovlarda ba'zan adashgan bo'lsa, ba'zan boshqa paytda tegishli xulosalar chiqarib o'zini-o'zi takomillashtirib, hayotini tartib-intizom asosida qurishga, pragmatik, ijobiy tomonlama tizimli turmush kechirishga, narsa-hodisalarni obyektiv o'rganish uchun haqqoniy bo'lishga o'z e'tiborini qaratib kelgan ongli xilqatdir.

Ibtidoiy madaniyat sinkretizmida insonlarning dunyoqarashi va tajribalari kengayishi – madaniy hodisalar sintezlashuvining yangicha tur va atributlari qaror topishiga zamin tayyorlagan edi. Ibtidoiy madaniyat sinkretizmida asta-sekin tadrijiy o'zgarishlar jarayoni amalga oshishi – insoniyatning etnik-ijtimoiy munosabatlari qaror topishi uchun muhim omil edi. Ushbu o'zgarishlar o'z navbatida, insonning etnik ong va madaniyatida rivojlanib borishiga o'zak, manba bo'lgani, ibtidoiy-madaniy va etnomadaniy qadriyat va an'analar bir-biriga tayanch funksiyasini ham bajargani uchun, ular yangilanib borayotgan sinkretizm tamoyillarining qaror topishida ham zamin tayyorlagan edi.

Garchi, madaniyat sinkretizmi hali-hamon shakllanishning yetarli darajada to'liqligi, mukammalligi qaror topmayotganini ifodalasa ham, u dunyoviy rivojlanish manzarasi sifatida mutlaq bir tomonlama bir butunga birikishi va tomonlar birlashuvining aynan bitta nuqtaga doimiy va mutlaq kelishini ba'zida ifodalamaydi. Madaniyat sinkretizmida birlashtirish zaruratidan kelib chiqadigan nuqtalar ko'p, faqat ular ko'pgina, turli tomonlarning birlashuvida xilma-xil natija, oqibat va samaralarga olib keluvchi bir butunlikni ifodalash sifatida aks etadi. Shuning uchun ham sinkretizm parchalanishi – bir butunlikdagi qismlarning hali ham shakllanish, rivojlanish jarayoni tarzda kechayotganini ifodalovchi tushunchadir. Shuning uchun ham, madaniyat sinkretizmi, boshqa tomondan, insoniyat madaniylashuvining bir tekis, bir chiziq emas ekanini, bir butun tomonga u notekis-tartibli kechishini anglatuvchi fenomen hamdir. Madaniyat sinkretizmi shu jihatdan ham ko'p tartibli, ko'p kollektiv tarzda qabul qiluvchi nuqtalarga ko'pgina tomonlardan kelib birlashadigan umumiy-voqeiy tushunchadir. Shuning uchun ham, u ko'p tomonlama tarzda o'zaro ta'sirlari orqali parchalanishning, ajratilgan va ajratilmagan yaxlitliklarning keyingi yuzaga keladigan shakllari, kelajagi yoki bir butunligi uchun ko'p qirrali diskursiya asosida olib boriladigan yondashuvdir.

Ayni zamon ijtimoiy-madaniy va ilm-fandagi yo'nalishlarda sinkretizmning obyektiv, paradigmal tomonlarini,

sinkretik-madaniy jihatdan bilish (obyektiv va subyektiv) masalalarini, ijtimoiy hodisalarning sinkretik tarzda idrok etib borish evolyutsiyasini, sinkretik ongda madaniy tarzda sintez qilish muammolarini ilmiy tadqiqot darajada olib borish zarurati g'oyatda aktual bo'lib qolmoqda. Insonlarning maqsad, ehtiyoj va manfaatlaridagi o'zaro o'xshash va uyg'unlashuv jihatlarni madaniy-epistemologik aspektda tadqiq etish – bu undagi bir-biriga bo'lgan munosabatlar va mushtaraklik tomonlarni ilmiy-nazariy va madaniy-fenomenologik tarzda umumlashtirish, tizim-tartibga keltirish, o'rganib borish asosida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-regulyativ va gumanistik-integrativ jihatdan madaniy-sinergetik jarayonlarning shaffofligi ta'minlanishini ifodalaydi. Madaniyatshunoslik tadqiqotlarida ham sinkretik hodisalar o'rganilishi faoliyatlarining ilmiy kontekstini kengaytirish, ko'paytirish va rivojlantirish lozim.

Madaniyatning ma'naviy, tarbiyaviy, axloqiy, estetik, ta'limiy va aksiologik qarashlar birligiga asoslanadigan sinkretizmi asosan o'z immanentidagi (tarixiy-arxipik, tizimli, uzluksiz-progressiv, stixiyali-tartibli, regulyativ funksiyalarga tayanib) ayrim diskursiv, metodologik, garmonik, sublimativ, falsifikativ, metafizik, analitik va fenomenologik bilib, o'zlashtirib borish tamoyillarini egallab kelgan. Bunda u asosan ong sintezi bilan o'zaro hamkorlikdagi induksiya, konsensus xulosalari orqali, insondagi dastlabki eklektik qarashlar va aks etgan narsa-hodisalarning madaniy-endogen mazmunini, uning o'zaro muvofiq va mantiqiy tarzda birlashtirilganini, o'xshash bo'lmagan tomonlar birlashuvining qay darajadagi ijobiy yoki salbiy kechayotganini (dunyoviy-madaniy, umumijtimoiy-umum-milliy, umuminsoniy va umumiy-yakdil g'oyalardan kelib chiqib) oydinlashtirishga urg'u qaratib kelgan.

Madaniyat taraqqiyotida insonning qaysidir narsa-hodisalarni umummilliy, aksiologik, ta'limiy-tarbiyaviy, ilmiy-axloqiy, ijodiy-ratsional, ongli-ma'naviy ravishda bilishga mehnati, intilishi, o'zlashtirishi, tadqiq etishi va o'z ustida ishlashi kabilar barqaror, shaffof bo'lmasa yoki batamom ular amalga oshmasa, uning ilg'ab olayotgan dunyoqarashlariga, tor tushunchalariga o'rnatilib boruvchi dunyoviy jarayon, holat, predmet va elementlar garmoniyasi, umumiyliги u uchun xuddi eklektik hodisa bo'lib borayotgandek kechaveradi. Bu holatdan keyin ham inson yana xuddi shunday ketma-ketlikda mana shu kabi hodisa, jarayon va predmetlarga qayta-qayta yuzlanaverganda, ular u uchun bamisoli o'sha qorishqlik, noaniqlik va chalkashlik tarzidek takrorlanaveradi. Agar o'sha hodisalarga inson tushunmay, anglamay, unda aralasha va ishtirok etsa, aynan eklektik manzarada yanada qorishliq, chigal vaziyat aks etish potentsiali yanada yuqori darajaga chiqishi tabiiy. Bunday qorishliq hodisalarning qo'shilishini tashqaridan tizimli-mohiyatli ravishda ang'ay olmasdan kuzatib turgan insonlar uchun ham holat (mantiqan noma'lum, qurama) xuddi eklektik tarzidek kechadiki, ayni shunday hodisalar notekisligi va nochiziq tomonlari ortib boraverishi ko'payib ketishi mumkin. Ayni zamonda eklektikdagi ijtimoiy-madaniy jarayon, holat, predmet va elementlar o'zaro qorishuvining dogmalashishi, absolyutlashishi chuqurlashaversa, buning natijasida yuzaga keladigan absurd tushunchalar orqali muttasil, konkret analiz-sintez, tizimli, strukturaviy, garmonik tarzda ularni birligini mohiyatan aniqlashtira olmaydi, bilish-o'rganishda qiyinchilik ko'payishi bilan narsa, predmet o'zlashtirilishi ancha ko'p vaqtni olishi mumkin.

Qayd etish muhimki, har qaysi davr madaniyatining sinkretizmini o'rganishda, dastavval, o'sha zamondagi shart-sharoitlar, ehtiyojlar, bilimlardan va ijtimoiy-ma'naviy, amaliy-madaniy munosabatlardan kelib chiqib, ularni ijobiy va salbiy tomonlariga e'tibor qaratgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ibtidoiy davr madaniyatida insonlarning umumiy hodisalarga nisbatan munosabatlarini shunchaki mavhum bo'lib kelgan noaniqlik, chalkashlik, qorishiq (eklektik) kontekst tarzda mutlaqlashtirmaslik kerak.

Ibtidoiy davr madaniylashuvida munosabatlar o'sha zamonning zarurati va ehtiyojini qondiradigan axloqiy, estetik, ma'naviy va aksiologik qarashlar birligiga mos ravishda butunlikni tashkil etgan. Mazkur butunlik arxaik davrdan ayni vaqtga qadar o'zini bugungi ijtimoiy-madaniy yaxlitlikning, milliy-madaniy umumiylikning muhim o'zagi, manbai va ta'minlovchisi sifatida amal qilib kelmoqda. Mana shu milliy-madaniy yaxlitlikning, umummadaniy sinkretizmning manbai sifatida tarix silsilasida tadrijiy bosqichlardan o'tib, vorisiy tarzda qaror topgan madaniy sinkretizm shakli – etnomadaniy sinkretizmdir. Etnomadaniy sinkretizm – xalq urf-odatlarini, marosimlari, an'analarini, san'ati, donishmandligi va etnopedagogik tajribalarining ijtimoiy-etnik va ijtimoiy-madaniy jihatdan tizimlashtirilib, konstruksiyalashtirilib, modelashtirilib, qayta ishlanib, sintez qilinib kelinayotgan o'zaro garmonik, doimiy bog'lanish holdagi bir butunlikka birlashishini anglatadigan tushunchadir.

Madaniyat sinkretizmining muhim immanent jihati shuki, madaniy hodisa va jarayonlarni butunlikdagi o'zaro bog'lanishlar va ta'sirlar tarzda dunyoviy, hayotiy, ratsional-amaliy, tajribaviy va konstruktiv evrilishlar, yangilashlar va sinovlardan muttasil o'tib borib, ularni bir-biriga nisbatan muayyan madaniy qolipga o'rin, joy olishining muhim ijtimoiylashuv omilini, konsensusiga (kelishuvga) kelishini ifoda etuvchisi va ta'minlovchisi ekanidir. Etnomadaniy sinkretizm mana shu ijtimoiylashuv va konsensusga olib kelishda unga ijtimoiy-madaniy qolip ichidagi zaruriy

ta'sirchan faollashtiruvchi va muhim endogen manba rolini o'ynaydi. Madaniyat sinkretizmining parchalanayotgani – bu absolyut yo'qlikka yuz tutishini anglatmaydi.

Ayni parchalanishda etnomadaniy sinkretizmdagi qandaydir jihatlar tashqi sferaga (milliy va umummilliy madaniyatga) olib chiqiladigan bo'lsa, bunda, albatta, ijtimoiylashuvning ruhiy-ma'naviy, madaniy-axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy-tizimli qayta ishlash, yangilik kiritish, modelashtirish jarayonlari yoki sinovlari, analizlari, xulosalari orqali, ular shakldan-shaklga o'tib borayotgan etnomadaniy sinkretik hodisalarning o'ziga xos qaytarilib borishi sifatida amal qiladi. Vaholanki, uning sifatini rivojlanishini (garchi uning ilgari borishi odatdagidek rivojlanmagan holat sifatida voqelikka singib ketishi bo'lib qolsa-da), ko'lami kengayib borayotganini, xilma-xil tarzda shakllanayotganini umumiylik manzarasi sifatida ifoda etadi. Sinkretizm dunyoviy voqelik hamda madaniy hodisa, artefakt, obyekt-predmetlarning adekvatlarini, shakldan-shaklga o'tishini, ularning omillarini, mohiyatini ko'p tomonlama o'z qolipiga yig'uvchi kompleks tarzda ifodalovchidir.

Xullas, sinkretizm ayni globallashuvda manfaat, ehtiyoj va maqsadlardan kelib chiqilib, u turli madaniy sohalarga, madaniyatshunoslik kontekstiga, bir tomondan, madaniy-kritik, madaniy-kreativ, madaniy-metodologik, madaniy-analitik va madaniy-fenomenologik tarzda alohida-alohida o'rnlarni egallayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa u madaniy-pragmatik va umummadaniy asnodga singib borayotganini ta'kidlash g'oyatda muhim.

Madaniy hodisa va elementlarning butunlik markazi tomon birlashishi va markazdan uzoqlashib borishi (parchalanishi) ularning ta'sirlanish, aloqadorlik va bog'lanishlar birligi tarzda kelishi – madaniyat sinkretizmining muhim, asosiy, doimiy, qonuniy va shartli mavjudligi, realligi va voqeligini belgilovchisi va ifodalovchisidir. Madaniy-ma'naviy aspekt-dan qaraganda, sinkretizm ijtimoiy va dunyoviy integratsiya va differentsatsiya progresslari, imkoniyatlarini va sharoitlarini regulativ-gumanistik, ruhiy-axloqiy tarzda muvofiq-lashtirishni anglatuvchi fenomen hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Э.С. Синкретизм духовной культуры: взаимосвязь общего и особенного. Дисс. кандид. филос. наук. Грозный, 2007. – С. 197.
2. Архипова Ю.В. Синкретизм в структуре культуры. Дисс. кандид. филос. наук. Саратов, 2005. С. 145.
3. Ахмедова Э., Габидулин Р. Культурология мировая культура. – Т.: Академия искусств Узбекистана. – 2001. – С. 304.
4. Дохаева А.Б. Религия в системе этнической культуры чеченцев. 24.00.01 – теория и история культуры. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Грозный: 2014 – В. 149.
5. Erkayev A. Tafakkur erkinligi. – Т.: "Ma'naviyat", 2007. – 160 b.
6. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – Т.: 2018. – В. 480.
7. Falsafa qomusiy lug'at. Т.: Sharq, 2004. – 491 b.
8. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – В. 344.
9. Falsafa. E.Y.Yusupov, S.Sh.Shermuhamedov, A.T.Ayupov va boshqalar. To'ldirilgan 2-nashri. – Т.: "O'qituvchi", 2005. – 384 b.
10. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Т.: O'qituvchi, 1990. – В.304.
11. Haydarov T.M. "Go'ro'g'li va mifologiya sinkretizmi". Filol. Fan. nom. dissert. 1993. – В. 157.
12. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Т.: Barkamol fayz media, 2017. – В. 180.
13. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. Т.: Fan, 2009. – В. 192.
14. Jumaboyev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. – Т.: "O'qituvchi" – "Ziyo-Noshir". 1997. – В. 184.
15. Кулагин Д.Л. Мифологемы в смысловом контексте культуры (на материале русских сказок и былин). 24.00.01 – теория и история культуры. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Ростов-на-Дону – 2017. – С. 156.
16. Кузнецов В.Ю. Единство мира как проблема современной науки // Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. – 1992. № 6. – С. 10-19.
17. Тенасе А. Культура и религия. Пер. с румын. – М.: Политиздат, 1975. – В. 107.
18. Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Культурология. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – С. 160.
19. Гутова С.Г. Синкретические учения всеединства в истории философии: теоритико-методологический аспект. Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. – Екатеринбург: 2018. – С. 157.

AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATI KO'RSATISHNING ENG SAMARALI USULLARI

Annatsiya. *Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ular ongida olijanob tuyg'ularni chuqurlashtirishda, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va ma'naviy boyligimiz bo'lgan kitoblarni targ'ib qilishda kutubxonalarning o'rni beqiyos. Kutubxona – axborot xizmati tamoyillari, kutubxonalarning shaxsning ijtimoiylashuvidagi roli, kutubxona muloqoti, foydalanuvchilarni o'rganish muammolari, mutolaa madaniyati targ'ib etilgan.*

Kalit so'zlari: *kitob, kutubxona, o'quvchi, o'smir, mutolaa, mutolaa madaniyati, ilm-fan, idrok, mukammal inson, burch, vijdon, g'urur, mas'uliyat.*

Муборак ХАКИМОВА,
старший преподаватель кафедры «Библиотековедение» ГИИКУз

НАИБОЛЕЕ ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ УСЛУГ

Аннотация. *Неоценима роль библиотек в воспитании подрастающего поколения совершенными людьми, углублении в его сознании благородных чувств, воспитании его в духе преданности Отечеству, популяризации книг, являющихся нашим духовным достоянием. Продвигаются принципы библиотечно-информационного обслуживания, роль библиотек в социализации личности, библиотечное общение, проблемы обучения пользователей, культура чтения.*

Ключевые слова: *книга, библиотека, читатель, подросток, чтение, культура чтения, наука, познание, совершенный человек, долг, совесть, гордость, ответственность.*

Muborak KHAKIMOVA,
senior teacher of the "Library Science" chair of UzIAC

THE MOST EFFECTIVE METHODS OF PROVIDING INFORMATION-LIBRARY SERVICES

Annotation. *The role of libraries in educating the younger generation as perfect people, deepening noble feelings in their minds, educating them in the spirit of devotion to the Fatherland, and popularizing books that are our spiritual heritage is invaluable. The principles of library and information services, the role of libraries in the socialization of the individual, library communication, the problems of user education, and the culture of reading are being promoted.*

Keywords: *book, library, reader, teenager, reading, culture of reading, science, knowledge, perfect person, duty, conscience, pride, responsibility.*

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanoqda¹.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi, ilm-fan sohasini rivojlantirish strategiyasi² mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy choratadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishiga zamin yaratadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-son qarori, 2019-yil 7-iyun.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.03.2020 yildagi PF-5953-son.

Yoshlar kutubxonalaridagi ma'lumot va axborot xizmatlaridan asosan uy vazifalarini bajarishda foydalanishadi. Shuning uchun ham o'ziga nima kerakligini unchalik bilmagan va bilishga unchalik ham intilmagan foydalanuvchi bilan ma'lumot berish oldidan savol-javob o'tkazish ancha qiyin kechadi.

Bunday savol-javoblar odatda foydalanuvchining mavzuga qiziqishi, xabardorlik darajasi, izlanayotgan ma'lumot qanday maqsadlarda ishlatilishiga oid tasavvuriga bog'liq bo'ladi.

Bunda vaziyatni chigallashtiruvchi ba'zi omillar mavjud bo'lib, ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi: birinchidan, kutubxona xodimi o'quvchi maktab kutubxonasida manbalarni izlash malakasini shakllantirib ulgurgan, deb hisoblashi natijasida o'quvchiga yetarli e'tibor bermasligi, ikkinchidan, o'qituvchilar o'quvchilarga uy vazifasini berish chog'ida ularning o'zlari uchun oson ko'ringan vazifani bajarish keng ko'lamli izlanishlarni talab qilishi va qancha manbadan foydalanish kerakligi haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmasligidir.

Bundan tashqari, ularning o'quvchilarga internetdan foydalanishni man qilishi, o'quvchilarning ba'zi kerakli ma'lumotlarni topishi va samarali foydalanishiga imkon bermaydi.

Bosma nashr manbalari va kataloglardan foydalanish ancha urinishlar va vaqtni talab qilganligi va elektron manbalardan foydalanish ancha oson bo'lganligi bois o'quvchilar va talabalar bosma nashrlardan foydalanishni

unchalik xohlashmaydi. Shu boisdan yoshlar bilan ishlovchi kutuxonachi ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra bilishi, ko'rilishi mumkin bo'lgan choralar strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Bugungi kunda axborot savodxonligi axborotni topish, baholash, undan mas'uliyat bilan foydalanishdangina iborat bo'lib qolmasdan, yangi texnologiyalardan samarali foydalana bilish hamdir. Aksariyat kutubxonachilar o'z vazifasini foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni topib berish yoki kerakli ma'lumotni topishida yordamlashishdan iborat deb tushunadilar. Lekin ular shuni unutmasliklari zarurki, yoshlar o'zlari topgan axborotlarni o'rganish va baholash uchun yetarli ma'lumotga ega emasliklari tufayli axborotni tartiblashtirishda kutubxonachining yordamiga muhtoj bo'ladilar. Bunday sharoitda kutubxonachi foydalanuvchining savolini aniqlashtirishda ham ishtirok etishi lozim bo'lib, bu axborot madaniyatini shakllantirishning bir turi bo'lib hisoblanadi³.

Kutubxonachi yoshlarning ma'lumot izlash jarayonida yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolari bilan bir qatorda ular uchun mo'ljallangan axborot manbalari joylashtirilgan saytlardan ham xabardor bo'lishi lozim.

Shuningdek, ko'pchilik yoshlar intellektual mulk tushunchasi bilan tanish bo'lmaganliklari bois internetdagi ma'lumotlar kimningdir mulki bo'lishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan holda ularni ko'chirib olishi, video yoki audiofayllarni o'zlashtirilib olishi – ular uchun oddiy holat bo'lishi mumkin. Bunday holatlar kutubxonachilar tomonidan hisobga olinishi va foydalanuvchilarning axborot savodxonligini oshirishda, albatta, e'tiborga olinishi lozim.

Yoshlarning ma'lumotga bo'lgan ehtiyoji o'qitiladigan fanlar dasturlari asosida shakllanishi bois tajribali kutubxonachilar o'quvchilar va talabalar qanday ma'lumotlarni so'rab murojaat qilishlarini oldindan yaxshi bilishadi. Bunda kutubxonachining yaqin atrofdagi maktablarning o'quv dasturlari va uy vazifalari ketma-ketligi bilan tanish bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Maktab kutubxonalarida esa uy vazifalari ketma-ketligini belgilashda o'qituvchilar bilan oldindan maslahatlashib olish ham alohida ahamiyatga egadir. Kutubxonachilar ko'p qaytariluvchi mavzular bo'yicha manbalar topish jarayonini osonlashtirish uchun oldindan chora ko'rishlari natijasida kerakli manbalarni bir necha nusxada tayyorlab qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bolalar, o'smirlar, o'spirinlar ham kutubxonachilarning yordamiga muhtoj bo'lgan foydalanuvchilar sirasiga kirganliklari uchun ularga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatishda alohida e'tibor talab qilinadi.

Psixologiya fanida o'quvchilarning biologik-jismoniy, psixologik jihatlariga ko'ra ularni 6 yoshdan 11yoshgacha kichik maktab yoshi davriga kiritiladi. Bu yosh davriga ajratish qat'iy va mutlaq tarzda qabul qilinmasada, umumiy holatda bola idrokining o'tkirligi, aniqligi, qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayoliy dunyosining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan boshqa yoshdagi o'quvchilardan ajralib turadi. Ular eshitgan narsalarini, voqelik to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri tushuntira oladi, mavjud axborotlarni muayyan tartibda bayon qila oladi, guruhlarga ajratish, taqqoslash, hukm chiqarish iqtidoriga ham egadir.

Bola shu paytgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni egallab kelgan bo'lsa, endi u o'z xohish irodasi bilan, muayyan motivatsiyaga asoslangan holda zarur ma'lumotlar va axborotlar olishga, o'z oldiga aniq maqsad va

vazifa qo'yishga harakat qiladi.

Bolalarda shaxsga xos bo'lgan nisbiy mustaqillik, qat'iylik, maqsad qo'ya bilish, burch, javobgarlik hissi singari fazilatlar va xususiyatlar ko'zga tashlana boshlaydi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri – o'ziga xos ehtiyojning mavjudligi bo'lib, ushbu ehtiyoj o'z mohiyatiga ko'ra muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan bo'lmagan, o'quvchi bo'lish istagi bilan cheklangan bo'ladi.

Ular o'qishning tub mohiyatini va vazifasini to'la tushunib yetmasalarda kattalarning ko'rsatmalariga (kutubxonachining maslahatlariga) amal qilgan holda tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketishi mumkin.

O'quvchi ma'lum muddat o'tgach o'qishning irodaviy zo'r berish, diqqatni taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan kundalik aqliy mehnat ekanligina anglab yetadi va dastlabki taassurotlar o'zgarib, uning uchun maktabga xos bo'lgan ba'zi belgilar o'z ahamiyatini yo'qota boradi. Aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmagan o'quvchining o'qishdan ko'ngli so'vib ketishining oldini olish maqsadida o'qituvchi va kutubxonachi hamkorligida o'qish-o'rganishning o'quvchi uchun ehtiyojga aylanishini ta'minlash alohida ahamiyatga egadir.

Bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan chambarchas aloqadordir. Ushbu his o'qituvchi va kutubxonachining hamkorlikdagi yordami va rag'batlantirish orqali namoyon bo'ladi, o'quvchiga o'z ustida yanada ko'proq va samaraliroq ishlash mayli paydo bo'ladi.

O'qituvchining har bir so'zi, har bir xatti-harakati, ta'sir o'tkaish uslubi uning uchun haqiqat me'zoni rolini o'ynaydi. Chunki o'quvchilar o'z o'qituvchisiga juda qattiq ishonadi, uning fikr-mulohazalariga quloq soladi, qo'ygan talablariga hamisha amal qiladi. Ana shu boisdan pedagog tomonidan berilgan barcha vazifalarni o'z vaqtda bajarishga harakat qiladi. Shuning uchun ham kutubxonachi o'zining shaxsiy kuzatishidan tashqari o'qituvchilardan har bir o'quvchining oilaviy sharoiti, qiziqish darajasi, qiziqadigan yo'nalishlari bo'yicha aniq ma'lumotlarni olishi va faoliyatida foydalanishi o'qituvchi – kutubxonachi-foydalanuvchi hamkorligida aniq maqsadga erishish imkoniyatini beradi. Ayni shu davrdan boshlab quyidagicha ko'nikmalar vujudga keltirish imkoniyati paydo bo'ladi:

1) o'quvchining psixikasiga tashqi ta'sir ko'rsatish;

2) atrof-mikromuhitdagi kishilarga yordam berishga undash;

3) nima bilan shug'ullanish zarurligi to'g'risida yo'llanma berish;

4) unga oddiy individual yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan burch hissini tushuntirish;

5) uni to'g'ri mulohaza yuritishga o'rgatish;

6) ijobiy his-tuyg'ulari va ezgu niyatlarini quvvatlash;

7) o'qilgan kitobni, san'at asarini birgalikda muhokama qilish.

O'z faoliyatida kutubxonachi o'quvchilarning individual tipologik xususiyatlarini qanchalik chuqur o'rgangan bo'lsa, ularga ta'sir o'tkazish kuchi sezilarli va samarali bo'ladi. Kutubxona – axborot xizmati jarayonida har bir o'quvchining ruhiy dunyosiga oqilona yo'l topish barcha muvaffaqiyatlarning garovidir. Psixologiya fanidagi tadqiqotlar natijalariga ko'ra o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan "o'quvchanlik" darajasi o'quvchilarda har xil bo'ladi. O'quvchanlik fikrlashning faollashuvi bilan bog'liq bo'lgan intellektual xususiyatlar yig'indisi hisoblanadi.

³. J. Yuldashev, O'. Nosirov "Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti". 2020-yil, 360 b.

O'quvchanlik darajasi va ko'rsatkichi past bo'lgan o'quvchilar ta'lim jarayonida juda sust bo'lib, ularda o'qituvchi o'quv materialini to'la tushuntirib beradi degan xotirjamlik mavjud bo'lib, umumlashtirish, analiz va sintez faoliyati ham bo'shashgan holda amalga oshadi.

Kutubxonachilar ular bilan yakka holda ishlashni tashkil qilishda murakkab ilmiy va mavhum tushunchalarni ko'rgazmalilik asosida tushuntirib berishi, axborotga bo'lgan ehtiyoji va bilish motivini muayyan darajada qondirish uchun intilish tuyg'usini kuchaytirishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tavsiya etiladigan ma'lumotlar va axborotlar hajmini bosqichma-bosqich oshira borish evaziga ko'rsatiladigan yordamni kamaytirib borishini rejalashtirishga asoslanishi lozim.

Lekin, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar axborotlarni mustaqil tahlil qila olishlariga ishonch hosil bo'lgandagina ularga muayyan topshiriqlarni berish mumkin. Axborotlar hajmini kamaytirib borish esa ularning aqliy jihatdan charchaganliklari aniqlangandagina to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun ham ba'zi holatlarni doimiy qoidalar tarkibiga kiritib bo'lmaydi.

Uquvchanlik darajasi past bo'lgan o'quvchilarga nisbatan kutubxonachi tomonidan qo'yilgan talablar ularning ma'lumotlar, axborotlar va bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga mos tushmogi kerak. Aks holda ularda axborotlarni o'zlashtirishning murakkabligidan cho'chish, hadik-sirash, mustaqil o'zlashtira olishga ishonmaslik singari salbiy xususiyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning fikr yuritishlarini rivojlantirishda ularga yakka tartibda yondashuvda kutubxonachi quyidagi talablarga amal qilishi shart:

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari va aqliy imkoniyatlari darajasini bilish;

Ularga interfaol ta'sir ko'rsatish usullari va metodlarini to'g'ri qo'llashda individual xususiyatlarini hisobga olish;

Kutubxonachi va o'quvchi muloqotining oqibatlarini oldindan ko'rish asosida asosiy maqsadga yo'naltira olish.

Bugungi kunda kutubxona – axborot xizmati ko'rsatishda o'smirlar guruhiga ham alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sabablari quyidagilardir:

Fan-texnikaning rivojlanishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotganligi;

Axborot tizimining misli ko'rilmagan darajada kengayishi tufayli o'smirlar onglik darajasining oshishi;

O'smirlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan yetarli darajada xabardorligi;

Jismoniy va aqliy kamolotlarining jadallashganligi;
O'smirlar bilan ishlashda ma'naviy – ma'rifiy tartibga alohida yondashish zarurligi;

Shaffoflik, ijtimoiy adolat, demokratiya normalarining ijtimoiy hayotdan to'la o'rin olayotganligi;

O'quvchilarning mustaqil, ijodiy fikr yuritishi, tafakkur erkinligiga, o'zini-o'zi boshqarishi, anglashi, baholashi va nazorat qilishlariga keng imkoniyat yaratilayotganligi.

O'smirlar shaxsining shakllanishida axloq alohida ahamiyat kasb etadi va ularning ko'pchiligi qat'iyatlilik,

mag'rurlik, samimiylik, adolatlilik kabi tushunchalarni to'g'ri anglay boshlaydilar. O'smirlarda o'zini anglash jarayoni shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatlarini, aqliy imkoniyatlari va qobiliyatini anglashi bilan yakunlanadi.

O'smirlarning xatti-harakati, o'z kuchiga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o'z o'rnini topishga intilishi uning o'z-o'zini anglashining takomillashuviga zamin yaratadi⁴.

Ular o'zini anglashning yangi bosqichga ko'tarilishi bilan o'zlari uchun axloqiy namunani tanlay boshlaydilar. Ushbu axloqiy namuna bilan o'zlarini taqqoslashlari natijasida ijobiy yoki salbiy jihatlarni anglab yetadilar. Natijada ularda o'zini o'zi tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan yo'nalish shakllanadi.

Kutubxonachining tajribasi va mohirligi shunda namoyon bo'ladi, u shunday vaziyatda kerakli nashr mashg'ulotlarini, ma'lumotlarni taqdim etish orqali o'smirlarning iroda kuchi va xarakterli xususiyatlarini ishga solib, faoliyatini kerakli yo'nalishga burib yuborishi kerak.

Kutubxonachi o'smirlar bilan muloqotda ularda o'z kuch-quvvati, chidamliligi, bilim saviyasi ortayotganligi natijasida kelib chiqadigan voyaga yetish yoki kattalik hissini o'rinsiz homiylik, ortiqcha nazorat, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan holi bo'lish istagini hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatishi zarur.

Ilk o'spirinlik yoshidagilarning o'zlari ta'lim olayotgan shart-sharoitlar ta'sirida ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarni hal etishda qatnashishlari, dunyoqarashlarining, barqaror e'tiqodlarining, masalalarga ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlashlarining shakllanishiga olib keladi.

Ular ijobiy fazilatlarini ongli, izchil va muntazam rivojlantirib borishga ehtiyoj sezganliklari uchun oqilona o'lcham, me'zon, mukammal timsol obrazini izlaydi.

Masalan, o'zlarining idealarni taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsoliga tasavvur qiladi. Ular burch, vijdon, g'urur, mas'uliyat, or-nomus kabi tushunchalarni tahlil qilishga harakat qilishadi, ammo axloqiy tushunchalarning mohiyatini to'la anglab yetmaydi.

Ilk o'spirinlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish uchun ularga eng saralangan kitoblar mutolaasini tavsiya etish, eng yaxshi filmlarni ko'rish, tahlil qilish asosida xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Ularning ruhiyatiga va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi "asarlarni" ta'siridan asrash pedagoglar bilan hamkorlikda kutubxonachilarning ham asosiy burchidir. O'spirinlarning kitoblar, jurnal maqolalari, turli ma'lumotlarni va axborotlarni o'rganishlari ular haqida o'z shaxsiy fikrlarini bildirishi, bahslashuvi orqali insoniy xislatlarining ishtiroki ular tafakkuridagi tanqidiylikning ko'rinishidir.

Tabiat va jamiyatga nisbatan shakllangan nuqtai nazar va qarashlar, e'tiqodlar mustaqil fikrlash, to'g'ri xulosa chiqarishning natijasidir.

Kutubxonachining ana shu paytdagi asosiy vazifasi – ular tafakkuridagi tanqidiylikni o'qib chiqilgan har bir manbaning mohiyatini ilmiy jihatdan chuqur anglab yetishga o'rgatish haqqoniylik darajasini ko'tarish, voqelikni odilona baholay bilishga o'rgatishdir. Buning uchun foydalanuvchilarga tavsiya etiladigan manbalar oddiydan murakkablikka tomon takomillashtirib borilishi talab qilinadi.

⁴. J. Yuldashev, O'. Nosirov "Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti". 2020-yil, – B. 360.

SAN‘ATGA MUHABBAT SHAKLLANISHIDA MUMTOZ ADABIYOTNING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni haqiqiy san‘atni farqlashga o‘rgatish, chin san‘atga muhabbat, san‘atga fidoyilik ruhida tarbiyalash hamda ularda san‘atkorga xos bo‘lgan odob va madaniyatni shakllantirishda mumtoz pandnoma asarlar, jumladan, Kaykovusning “Qobusnoma”si va Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asaridagi san‘atkorlarga oid fikrlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: san‘at, “ommaviy madaniyat”, qo‘shiqchi, xonanda, hofiz, cholg‘uchi, sozanda.

Хилола АБДУЖАББОРОВА,

преподаватель кафедры “Узбекского языка и литературы” ГИИКУз

РОЛЬ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛЮБВИ К ИСКУССТВУ

Аннотация. Эта статья о том, как научить молодёжь различать настоящее искусство, воспитывать их в духе истинной любви к искусству, преданности искусству и формировать у них этикет и культуру, на основе дидактических произведений Кайкавуса и Алишера Навои.

Ключевые слова: искусство, «массовая культура», певец, музыкант.

Khilola ABDUJABBOROVA,

chair teacher “Uzbek language and literature” of UzSIAC

THE ROLE OF CLASSIC LITERATURE IN THE FORMATION OF LOVE FOR ART

Annotation. This article is about how to teach young people to distinguish real art, to educate them in the spirit of true love for art, dedication to art and to form etiquette and culture in them, based on the didactic work of Kaikavus and Alisher Navoi.

Key words: art, “popular culture”, singer, musician.



Mamlakatimizda yoshlarni ham jismonan, ham ma‘nan yetuk qilib tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, ularni san‘atga oshno qilib tarbiyalash, buzg‘unchilik, johillik, qahri qattqlik kabi salbiy illatlardan himoyalashning kafolati sifatida qaralmoqda. Chunki qalbida san‘atga mehri bo‘lgan insondan yomonlikni kutib bo‘lmaydi, iqqidorli boladan buyuk ijodlar, kashfiyotlar kutish mumkin.

San‘at keng qamrovli tushuncha bo‘lib, adabiyot ham so‘z san‘ati sifatida uning tarkibiga kiradi. Shu jihatdan, san‘atni adabiyotdan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”[1].

San‘at va adabiyot inson ruhiyatini poklashning asosiy vositasi bo‘lib, u insonda nafaqat axloqiy sifatlarini, balki yuksak estetik didni, haqiqiy san‘atni farqlay olish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Xususan, hozirgi “ma‘naviy tahdidlar zamoni”da “ommaviy madaniyat” niqobi ostida inson ma‘naviyatiga salbiy ta‘sir etuvchi yot ta‘silardan yoshlarimizni himoyalashda san‘atning o‘rni beqiyosdir.

Buning uchun biz farzandlarimizni milliy qadriyatlar va an‘analardan, ajdodlar boy merosi ta‘sirida madaniy kamolotga yetkazishimiz, ajdodlarimiz hayoti va ijodini yorqin namuna sifatida keltirishimiz lozim.

Asl san‘at namunasi davrlar o‘tsada, o‘z qiymatini yo‘qotmaydi va barcha davrlarda ham insoniyat hayratini oshirib boraveradi.

Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” (XI) asari pandnoma ruhida yozilgan bo‘lib, unda farzand tarbiyasiga

ta‘sir qiluvchi barcha omillar nazardan chetda qolmagan. Asarning “Hofiz va sozandalik zikrida” nomli o‘ttiz oltinchi bobida hofiz va sozandalarga juda ham foydali nasihatlar va ma‘lumotlar aytilgan. Jumladan, hofizlarga nisbatan: “Ey farzand, agar hofiz bo‘lsang, xushfe‘l, quvnoq bo‘l, hamisha pok, mutayyab (xushro‘y) va xush zabon bo‘lg‘il va o‘z ishingga mashg‘ul va o‘z ishingga mashg‘ul bo‘lg‘il, yaramas xulq, qo‘pol bashara bo‘limg‘il”[2], – deya nasihat qiladi. Darhaqiqat, hamisha xalq e‘tiborida bo‘ladigan hofizlar, xonandalar xushfe‘l, ochiq chehrali, muloyim, shirinso‘z, tashqi ko‘rinishidan ham doim ozoda, chiroyli ko‘rinishda bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir.

San‘atkor odobi va madaniyatiga doir quyidagi nasihatlar ham juda qimmatli: “Agar seni bir majlisga olib borsalar, unda ikki kishi nard o‘ynab o‘tirg‘on bo‘lsa, garchi sen nardboz bo‘lsang ham hofizlikni tark etib, ularning ta‘lim va tomoshasiga mashg‘ul bo‘lma, chunki seni hofizlik uchun keltirmishlar, nardbozlik uchun keltirg‘on emaslar”[3]. Ya‘ni Kaykovus hofiz xizmatga borgan joyida xizmatini unutib, boshqa ishlarga chalg‘imasligi, xizmatini to‘liq ado etishi lozimligiga to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, muallif hofizlarga biror ashula yoki qo‘shiq o‘rgansang, vaznidan uzoqlashmagin, vaznsiz qo‘shiq aytmagin va g‘azal yozmagin, aytganda, ashulang boshqa joydan, kuying boshqa joydan chiqmasin, faqat o‘zingga yoqqan qo‘shiqni aytavermagin, u senga yoqqani bilan davrdaqilarga xush kelmasligi mumkin, deya o‘rinli maslahatlarni aytadi.

Asarda muallif ashula, qo‘shiqni “surud” so‘zi bilan beradi va uni ohangiga ko‘ra turlarga bo‘lib, qanday ohang qaysi toifadagi insonlarga mos kelishini ham aytib o‘tadi. Davraga yig‘ilganlarning barchasini bahramand qilish

uchun keksalarga ham, yoshlarga ham ma'qul keladigan taronalarni kuylashni tavsiya qiladi.

Shuningdek, "Qobusnoma"da she'r va g'azal yodlash haqida ham to'xtalib o'tilgan. Kaykovus xonanda va hofizlarga ko'p she'r va g'azalni yod bilishni, she'r va g'azallarni har vaqtning o'ziga munosibini, ya'ni mavsumga qarab o'qishini va she'r yozadiganlarga turli mavzularda yozishini tavsiya qiladi.

Asarda hattoki, xonanda va hofizlarning o'zini tutishiga ham alohida e'tibor qaratgan. "Hofiz bo'lsang arbada (to'polon, qiy-chuv) qilg'uvchi bo'lmag'il, toki arbada sababidin hofizlik tangasi qo'lingdin ketmasin va boshing yorilib, to'ning yirtilib, tanburing sinib uyingga qaytib bormag'il, nedinkim hofizlar mastlarning muzduri bo'lurlar. Arbada va gustohlik qilg'on muzdurga muzd bermaslar"[4].

Muallif agar davrada biror odam seni maqtasa, ta'rif qilsa, unga mehribonlik qilishni, qaysi qo'shiqni so'rasa, shu qo'shiqni aytib berishni aytadi. Agar mastlar qo'shiq so'rasa, albatta, aytsin, chunki san'atkorlarning ulug' hunari mastlarning ishiga sabr qilishdir. Agar hofiz bir majlisga borsa, u yerda ko'rgan va eshitgan narsalarini boshqa joyga borib aytmasin, shunda u aziz va arjumand bo'ladi.

G'azal mulkingning sultoni Hazrat Mir Alisher Navoiy bobomiz bu borada ham eng arziqli namuna bo'la oladi. Shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlarda Navoiy bolaligidan san'atga oshufta oilada voyaga yetganligi aytiladi. Xususan, o'zining "Majolis un-nafois" hamda "Nasoyim ul-muhabbat" tazzkiralarda otasini she'rsevar va darveshparvar, ijod va irfon ahliga muhabbatli inson sifatida xotirlaydi. Alisherning tog'alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiy ham ta'bi nazmga ega bo'lib, zullisonayn shoir bo'lishgan[5]. Shuningdek, ularning musiqa ilmidan ham yaxshigina xabardorligi, soz chalganligi ham ko'pchilikka ma'lum. Ana shunday ijodiy muhitda ulg'ayganligi uchun ham Navoiy nozik ta'beb egasi sifatida kamolga yetdi.

Biz ham ajdodlarimiz kabi farzandlarimizga oilada ana shunday erkin ijodiy muhitni shakllantirishimiz va ularda so'zga, ijodga va soz chalishga, musiqaga bo'lgan intilishlarini rivojlantirishimiz lozim.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ibratli fikrlarni keltirib o'tadi. Haqiqiy xonanda va sozandalarga, soz va cholg'ularga yuqori baho beradi va ularni juda chiroyli o'xshatishlar bilan ta'riflaydi. Shu bilan birga, sayoq yuruvchi qo'shiqchi va sozandalarni, ya'ni, san'atni pulga sotuvchilarni keskin qoralaydi.

"Shodlik keltiruvchi xonanda, g'amni tarqatuvchi sozandaga dard-u hol ahli (dard – oshiqlik, hol – ishq tufayli behud bo'lish) uchun jon fido qiladilar. Ular muloyim tarona bilan kuylasalar, eshitguvchining naqd joni fido bo'lsa ne ajab. Ko'ngil xush ohangdan quvvat oladi. Ruh esa xush ovozdin quvvat oladi. Ovozni yoqimli bo'lsa, dard ahlining ishq o'ti alanga oladi, agar malohatli bo'lsa, hol

ahli o'rtasida qiyomat ko'tariladi. Har sozanda dardmanroq chalsa, uning nag'masi dardli yurakka qattiqroq ta'sir qiladi. Go'zal yuzli xonanda yoqimli ovoz bilan kuylasa, dard ahlining ko'ksidan tutun chiqib ketadi. Fahm-farosatli sozandaning ijrosi tosh ko'ngilni ham eritib yuboradi. O'zi cholib, o'zi kuylasa, ko'ngil mulkiga qo'zg'olon soladi"[6].

Ushbu fikrlar bilan Hazrat Navoiy haqiqiy san'atning ilohiy qudratini juda chiroyli ta'riflagan. Yana shunisi muhimki, bu asar orqali o'sha davrlarda ham xonanda va sozandalarning ijro mahoratidan tashqari, tashqi ko'rinishi, axloqi va aql-farosatiga ham alohida e'tibor qaratilganligini bilishimiz mumkin.

Navoiy turli soz va cholg'ularga ham takrorlanmas ta'rif bergan. Jumladan, kuy ta'sirida may ichgandek mast bo'lgan insonni unga ta'sir etayotgan soz va cholg'ular bilan munosabatini mohirona tasvirlagan. Butxonadan yangrayotgan arg'anun (organ) ovozi ko'p tariqat ahliga zarar yetkazishi mumkinligi, ya'ni organ ovozigacha mast bo'lib butxonaga kirib qolishi va boshqa sozlarning uni yo'ldan urishiga ishora beriladi.

"Inson musiqa ovozi tinglar ekan, parishonhol bo'lishi tabiiy va odamning bu jon ofatidan qutilishi maholdur. Ammo xonanda va sozandalarning sayoqlari, garchi g'amni tarqatib, shodlik tartuvchi bo'lsalar ham, pastkash va tilanchidirlar. Bu toifalar zorlanish va yalinchoqlik qilib pul topadilar. Agar buyurtmachilar tomonidan in'om-ehson bo'lib tursa, xizmat qilaveradilar. Suhbatda dasturxon to'kin bo'lsa, har qanday amr-farmonni bajaradilar. Agar bazmda maishat oz bo'lsa, bularning noz-u firoqi kuchayadi. Agar ne'mat tamom bo'lsa, ular ham sendan tamom ko'ngil uzadilar..."

Masnaviy:

Kishiga bo'lmasun bu fitna duchor

Ki, unidin najoti tayri uchor.

Yonsa qo'nmoqqa tabl urar har dam,

Kim o'shul qushqa ko'prak o'lg'ay ram.

Sharhi;

Hech kishi bu fitnaga duchor bo'lmasin, chunki uning ovozdin najot qushi uchib ketadi. Qush qaytib qo'nmoqchi bo'lsa, u nog'orasini cholib, o'sha najot qushini ko'proq qo'rqitadi"[7].

Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, Navoiy davrida ham san'atni beqadr qiluvchilar bo'lgan va bu masala hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa, san'atni daromad manbaiga aylantirib, uni sanoatga, biznesga aylantirish naqadar xatoligi va bu yosh avlod tarbiyasiga, asl milliy san'atimiz rivojiga salbiy ta'sir qilayotganligini aynan Navoiy ta'kidlab o'tgan fikrlardan ham anglashimiz, bunga imkon qadar tezroq nuqta qo'yishimiz zarur. Buning uchun esa aynan shu purma'no fikrlarni yosh avlodga yetkazishimiz, ularni asl san'atni farqlay oladigan, uni qadrlaydigan, unga sadoqatli va fidoyi qilib tarbiyalashimiz lozim. Zero, asl san'at hech qachon pulga sotilmaydi va u bebahodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.

2. Kaykovus. "Qobusnoma". T.: "Yangi asr avlodi". 2018-yil, 163-bet.

3. O'sha manba.

4. O'sha manba.

5. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov "Navoiyshunoslik", T.: "Akademnashr". 2020-yil, 19-bet.

6. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" Hozirgi o'zbek tiliga tabdil, T.: "Sano-standart". 2018-yil, 38-bet.

7. O'sha manba.

Sayram SOBIROVA,
teacher Uzbekistan state institute of arts and culture

FATE OF A MAN CONTEMPORARY FEATURE FILMS

Abstract. *Art is a humanism, where such important questions as the fate of humanity, their thoughts, character, dreams, their relationship, their worldview, their aspirations are raised. Art teaches and educates people both spiritually and intellectually.*

Key words: *shot, symbol, expressive means, color, scene, sequence, narration, structure, element.*

Sayram SOBIROVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

ZAMONAVIY BADIY FILMLARDA INSON TAQDIRI

Annotatsiya. *San’at insonshunoslik bo‘lib, unda insoniyatning murakkab taqdir yo‘li, o‘y kechinmalari, xarakteri, orzu-intilishlari, e’tidoqi, dunyoqarashi, atrofdagilar bilan munosabati kabi muhim masalalar o‘z ifodasini topadi. San’at insonni ham qalban, ham ruhan, ham intellektual jihatdan tarbiyalaydi.*

Kalit so‘zlar: *kadr, ramz, ifoda vositalari, rang, sahna, ketma-ketlik, hikoya, tuzilish, element.*

Сайрам СОБИРОВА,
преподаватель Государственного института искусства и культуры Узбекистана

СУДЬБА ЧЕЛОВЕКА В СОВРЕМЕННЫХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФИЛЬМАХ

Аннотация. *Искусство - это гуманизм, где поднимаются такие важные вопросы, как судьба человека, его мысли, мир, мечты и стремления; межличностные отношения. Искусство учит и воспитывает людей духовно и интеллектуально.*

Ключевые слова: *кадр, символ, выразительные средства, цвет, сцена, последовательность, повествование, структура, элемент.*



While Baran is one of Majidi's most progressive films, thematically, dealing with issues of racism, poverty, refugees, and love, it is also one of his most stylistically impressive films. Majidi uses long continuous shots of the workers moving throughout the construction site, bright colors, and many scenes with either snow or rain falling. These elements not only represent Majidi's growth as a cinematic storyteller, they also suggest Iran's growing film industry as an art and as a business¹.

"Baran" tells a story of love of an Iranian boy Latif who works with Afghan refugees in the construction of a building. The most part of the story takes place mainly in this construction.

There are two types of symbols to which filmmakers recourse in their works. They are universal symbols and personal ones that are created by filmmakers in their particular work of art and which will carry different meaning in other contexts. So we should admit here that Majid Majidi mainly uses the second type of symbols widely and effectively in his works, his shots are dense of meaning and "Baran" is no exception.

The opening scene of the film shows how a man's hand makes a bread from dough. What does a filmmaker suggest with this shot? Is it a simple shot in a sequence of moving image and just shows the process of making an Iranian flat bread or does it carry some other meaning too? If it does, how we should interpret it? Can we make a guess based on this simple shot or should we see it in a sequence of shots?

So, if we take it as a completed scene – the man takes a piece from risen dough then makes a ball and puts it to place where was laid previous balls and another man gives them shape, lays to the oven that rotates around an axis, the other one takes the baked breads from this oven one by one. And the main hero Latif buys around fifty of them.

In other words this scene is embodied with a deeper meaning but the viewer will discover it according to personal experience. Interpretation of this scene will vary from person to person. For

this reason we can acclaim without any hesitation the scene has some symbolic meaning. Bread here may symbolize spiritual life, food, and so on. Furthermore, it can maintain its symbolic meaning not only within this particular context but also in other situations too. Consequently, we can admit this scene carries some symbolic meaning that ought to be interpreted in some way.

A note that appears on screen at the beginning of "Baran" on a black background says that by the time the Soviets withdrew the country had become a ghost of its former self; and according to the United Nations estimations Iran hosts 1.5 million Afghan refugees, most of the young generation was born in Iran, and has never been home. From this note given the brief information why the Afghan people had to flee their motherland. Here the film director gives really tragic, alarming situation which has been remaining since 1979. So he applied black colour which in this case comes to express an idea of bad or evil.

The next prominent thing that we come across is the setting where the main actions take place. It is the construction of the building where Latif works with Iranians and illegal Afghans. What can this construction say about the main idea of the film? Does this setting serve the main purpose of the story?

As the story progresses the film offers possible answers to these and other questions one by one. We acquainted with the place when Latif returns from the shopping. Meanwhile, there has been occurred a serious accident. Najif – one of the Afghan refugees, a widower who has five children – has fallen down from the third floor and has injured his leg. Of course, it advances the story in the chain of actions and in the film structure, thus fulfills the cause and effect scheme. Because after this unpleasant event begins the main story of the film.

Besides, the building construction has not been completed even in the end of the film. In fact, there were carried out some actions but in some cases it looked like a chaotic world. It gives a sense of real building construction: outside of structure is already shaped and has its counters, but couldn't say it about the inside. What do we meet inside of the building? We find here lots of fire, grey smoke, different tool, materials for building, places where the builders live temporarily, and only men. In some places they erect

1 Gregory, Annie (2008) "Majid Majidi and New Iranian Cinema," *Journal of Religion & Film*: Vol. 12 : Iss. 1 , Article 4. Available at: <https://digitalcommons.unomaha.edu/jrf/vol12/iss1/4>

walls, in some places they pull down them with axes. We observe here a state of confusion, uncertainty, and disorder. Furthermore, it evokes a strange emotion that the building has been built for decades. So we may interpret it as a symbol of the motherland of the Afghan refugees. As in some shots we see completed, bright coloured other buildings around this construction. Why does the film director show these images? What is the reason of this contrast? May be the thought that fleshed through our mind is far from the authors intention. Meanwhile this setting, the ways that it is presented call to mind some feelings that its purpose from the beginning of the work is to create display of the motherland of the Afghan refugees. Because it is the place where the Afghan family deprived temporarily from the head of the family, Najaf has been injured in this building, and now his family should strive with hunger. To feed the family he has to send his daughter to the construction disguised as a boy, and she should survive in the territory where there is no place for women. Because when there is a war, especially long lasting, women have to go through extreme brutality, great sufferings which are far from the nature of women.

The unpleasant atmosphere while she appears with Sultan – her father’s friend, another Afghan worker – in the construction for the first time. It is raining heavily. The sound of nasty thunderclap which is similar to the sound of fire from gun. Sultan comes with the Najaf’s “son” who is dressed in grey and brown. The image is given in the earthy colours, we notice prevalence of grey and brown. So why does film director depicted this scene in this colours. What does he want to convey depicting the picture in this mood? What kind of idea does he offer in this particular scene?

So Baran enters to the world where comes face to face to fire, smoke, in every step.

The next interesting moment is the usage of red colour. Above we suggest an idea that colour is more than just what we see. Especially, it helps directors to set a tone and mood of the film. We realize again and again how auterly Majidiy uses colours in his work. In this particular case the red colour has an important role to convey the meaning of the scenes.

So Latif, who fetches groceries and serves tea at the construction, is replaced by, Najaf’s disguised daughter, who is too weak to carry heavy sacks or perform Rahmat other tasks that need a lot of effort and energy. Thus Rahmat soon is appointed to Latif’s job by Mehmar, the construction boss. Latif is very angry because he has been forced to leave his relatively easy job. He continues to dislike Rahmat and this feeling is given not only by actions but also with the aid of colours too. Just remember the scene where Rahmat in the windy weather washes the workers’ clothes. Noticing his red shirt in the hands of Rahmat he hurries to Rahmat and withdraw it from her hands. Red Colour represents Latif’s feelings. Here red colour symbolizes anger and aggression.

After some time he finds out that Rahmat is a girl. Now he begins to protect her among these sufferings, and his anger is slightly replaced with love.

In the scene where he waits impatiently for her arrival he wears the same shirt, which is now represents his tender feelings: his love. Now looking at himself into the real mirror he finds the boy for whom he searches for in the beginning of the

film when he looks at himself in the black window of the door.

In the given two scenes Majidi embodies the red colour with two contrasting ideas. He skillfully manipulates the red and manages to represent with its help two edges of passion in one thing. Of course, if Latif was dressed in shirt of different colour, it would not affect the meaning of the scene. But the usage of the red shirt gives the director a chance once more to emphasize the idea that he wants to put forward. This colour helps us to better understand the main meaning of these scenes and the psychological state of the hero. When he goes to search for Rahmat he is in completely different clothes, however he is still captured by the deep feelings.

Another symbolical scene connected with a setting is a place where the Afghan women hold one of their milk boiling ceremony. Here they are dressed in colourful costumes. Searching for Sulton, the Afghan man who knows how to find Rahmat, Latif occurs in this ceremony, which is held in the place where all Afghans gathered. Here we meet people of different ages: little children playing with each other, women boiling milks in cauldrons, serving milk, and singing traditional cheerful songs, men quietly chatting with each other, and one of them is reading a book. There is we meet Rahmat – Zahra Bahrami, who have not to disguise herself – in women’s clothes, but Latif does not become aware of it, because, she noticing him hides from the view.

At long last Latif meets Sultan and finds out that Rahamt now works in Kan Sulerun close to Shoeb shrine.

These two completely different scenes evoke totally different feelings, emotions of the recipient. If we contrast these two shots, we can see the intention of the film director. What is Majidiy going to say with it to his audience? What does he originally intend to express to the whole world? Do these scenes just tell about the travel of Latif or do they carry some implied meaning? How we should interpret them? Are these scenes used in this particular art work to convey message indirectly? Do these shorts can stand for something else? If it does, we can state that they have been symbolically embodied.

A symbol arises when an image is surrounded by a complex of conscious and unconscious associations. Its impact depends on its cultural context. Film directors integrate symbols with theme, character, and predicament².

Symbols are more important for their subject matter and content than for design and composition. So, even if the idea presented in these scenes is implicit, it is not hard work to find out their connotative meanings. However, symbolism in a film can be so subtle that the audience may be unaware of its existence.

The above given two scenes perhaps serve as main scenes that precisely show the intentions of the film director. If we analyse these scenes we can make a decision that Majidi tries to depict not just Latif’s hunt but also some issues which perhaps impacted him to shot this film.

While depicting male/female relationships Majidiy tackles women’s issue.

Like the art of film itself, symbols are eclectic. They arise from and reflect the total spectrum of human experience. Their study can be a vital part of that ferment and catalyst that film helps impart to a liberal arts education. It is in this context that the study of symbolism can be most illuminating³.

While Baran is one of Majidi’s most progressive films, thematically, dealing with issues of racism, poverty, refugees, and love, it is also one of his most stylistically impressive films. Majidi uses long continuous shots of the workers moving throughout the construction site, bright colors, and many scenes with either snow or rain falling. These elements not only represent Majidi’s growth as a cinematic storyteller, they also suggest Iran’s growing film industry as an art and as a business⁴.

² Bakony, Edward. Symbolism in the Feature Film. University Film Association Conference Winsor, Ontario August, 1974

³ Available at: <https://digitalcommons.unomaha.edu/jrf/vol12/iss1/4ibi>

⁴ Gregory, Annie (2008) "Majid Majidi and New Iranian Cinema," Journal of Religion & Film: Vol. 12 : Iss. 1 , Article 4. Available at: <https://digitalcommons.unomaha.edu/jrf/vol12/iss1/4>

BAHODIR YO‘LDOSHEVNING SO‘NGGI SUHBATLARIDAN BIRI..

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbek milliy teatr san’atining ulug‘ rejissori, buyuk san’atkor Bahodir Yo‘ldoshev yaratgan ijod maktabi, rejissurasi va milliy aktyorning shakllanishi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shuningdek, suhbatda ustoz sahnalash tirgan “Maysaraning ishi” hamda “Kelinlar qo‘zg‘aloni” spektakllari xususida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: spektakl, masxaraboz, musiqa, rok, estrada, improvizatsiya, rejissor, reflektiv, raqs, vokal, plastik, nota, tonallik, grimyor.

Зайнаб ХУДОЁРОВА,
самостоятельный соискатель по специальности “Театральное искусство” ГИКИУз

ОДИН ИЗ ПОСЛЕДНИХ БЕСЕД С БАХОДЫРОМ ЮЛДАШЕВЫМ..

Аннотация. В данной статье рассказывается о творческой школе, режиссуре и становлении национального актёра, а также об особенностях узбекского национального театрального искусства, созданного великим режиссёром, великим деятелем искусства Баходиром Юлдашевым. Также затронуты спектакли “Проделки Майсары” и “Бунт невесток”, которые мастером были поставлены на сцену.

Ключевые слова: спектакль, клоун, музыка, рок, эстрада, импровизация, режиссёр, рефлектив, танец, вокал, пластичность, нота, тональность, гримёр.

Zaynab KHUDOYOROVA,
independent researcher of the specialty “Theater Arts” UzSIAC

ONE OF THE LAST CONVERSATIONS OF BAHODIR YULDASHEV..

Annotation. The article deals with the formation of the school of creativity, created by the great director of the Uzbek National Theater, the great artist Bahodir Yuldashev, his skills of directing art and forming of a national performer with its peculiarities. The conversation also touched upon the performances “The Case of Maysara” and “Bride’s Revolt” staged by the Master.

Key words: performance, clown, music, rock, variety, improvisation, director, reflective, dance, vocal, plastic, note, tonality, make-up.



Bahodir Yo‘ldoshevning Diydor teatr studiyasiga qatnab yurganimda kelgusidagi tadqiqotlarim uchun ko‘p intervyular olganman. Suhbatlarimizning asosiy mazmuni ko‘proq milliy aktyorning shakllanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida bo‘lar edi. Ana shunday suhbatlardan biri ustozning ko‘p bora murojaat etgan “Maysaraning ishi” pyesasi tevaragida kechgan edi. Taassufki, mazkur suhbat ustoz hayot ekanliklarida chop etilmadi. Quyida uni to‘laligicha havola etmoqchimiz.

Muxbir: Ustoz, Hamzaning “Maysaraning ishi” pyesasi o‘zbek dramaturgiyasining eng yorqin va salobatli sahna asarlari sirasiga kiradi. Mazkur pyesaga siz qayta-qayta murojaat qilgansiz. Abror Hidoyatov nomidagi O‘zbek davlat drama teatri siz sahnalash tirgan spektakl, nafaqat respublikada, balki mintaq miqyosida katta shuhratga erishdi. Aynan mana shu spektakl zamonaviy o‘zbek rejissurasidagi siz yaratgan uslub va mustahkam yo‘lni keng targ‘ib etishda ahamiyatli bo‘ldi. Ma‘lumki, Olmaota shahrida o‘tkazilgan “Navro‘z” mintaq teatrlarining Xalqaro festivalida “Maysaraning ishi” maydon tomoshasi bosh sovrinni qo‘lga kiritdi. Bu esa sizning o‘ziga xos mahorat maktabingiz badiiy quvvatiga berilgan baho va e‘tirof edi. Ammo, siz bu yutuq bilan kifoyalanib qolmadingiz, balki bu asarga yana bir necha bor murojaat etib, har gal asarning yangi qirralarini kashf qildingiz. Xo‘sh, mazkur “Maysaraning ishi” asarining biz bilgan va bilmagan qanday badiiy qiymati mavjud? Asarni o‘ziga tortadigan ohanrabosi haqida fikringizni bilmochi edim.



Bahodir Yo‘ldoshev: “Maysaraning ishi” butun dunyoda sahnalash tirilgan. Sulaymon Yudakovning uy muzeyida ushbu faktlarga aloqador bir qancha manbalarni topish mumkin. Ana shu manbalarda “Maysaraning ishi”ni yaratilish tarixi bor. Sulaymon Yudakov musiqa yozgan “Maysaraning ishi” operasida asosan syujet oldingi o‘ringa chiqqan. Uni Hamzaning “Maysaraning ishi” pyesasiga aloqasi ko‘p, deb ayta olmayman. Chunki pyesadagi she‘rlarni boshqa odam yozgan. Men “Maysaraning ishi” pyesasini juda uzoq o‘rgandim va turli talqinlarini kuzatdim. Hamzaning arxiv materiallarini o‘rganib, bitta narsaga amin bo‘ldimki, “Maysaraning ishi” tom ma‘nodagi o‘zbek pyesasidir. Demak, u o‘zbek aktyorini tayyorlashda ham muhim vosita hisoblanadi.

Muxbir: “Hamza pyesasi bo‘yicha sahnalash tirilgan spektakl, to‘g‘rirog‘i, teatr “maydon – tomoshasi”, milliy

an'analarni qayta tikladi, undan ijodiy fantaziya uchun hayotiy epkinlarni oldi. Teatrimiz o'z tarixiy ildizlariga, ko'cha tomoshalariga, bayram sayllariga murojaat qildi va bu shaklni rejissor "maydon tomoshasi" deb nomladi. Sababi hamma narsa shartlilik va improvizatsiyaga qurildi", – deydi teatrshunos M. To'laxo'jayeva o'zining "Globallashuv va milliy an'analar" maqolasida[3]. Bu fikrga siz yana nimani qo'shgan bo'lardingiz?

Bahodir Yo'ldoshev: O'zbek aktyorlarini va umuman san'at instituti talabalarini "Maysaraning ishi"ga o'xshagan pyesalar asosida tayyorlash kerak. Chunki "Maysaraning ishi" xalq ijodiyotining o'ziga xos jamlanmasidir. Unda xalq badiiy madaniyatining barcha jihatlari aks etgan, masxarabozlik elementlari ustunlik qilgan. Masxarabozlik xalq badiiy ijodiyotining alohida qismi sifatida mana shu pyesaga singdirilgan. Mening kuzatishlarimcha, o'zbek aktyorlari - masxarabozlikning sir-asrorlarini, o'ziga xos xususiyatlarini bilmas ekan, o'z rolini o'ynolmaydi. Masxarabozlik – milliy aktyorning o'ziga xos san'at maktabi. Shuning uchun bo'lajak aktyorlarni "Maysaraning ishi"ni sahnalashtirish orqali tarbiyalash hamda vaqt o'tgan sayin, teatrlar ham, teatr san'ati instituti ham bot-bot unga murojaat qilib turishi kerak. Bo'lajak o'zbek aktyorini tayyorlashda "Maysaraning ishi" muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Muxbir: Bahodir aka "Diydor" teatr-studiyasida ham "Maysaraning ishi" pyesasiga murojaat qilganingizning boisi shu ekan-da?

Bahodir Yo'ldoshev: Albatta, men studiyada bo'lajak aktyorlarni tayyorlar ekanman, uning alifbosi sifatida birinchi olgan ishim "Maysaraning ishi" bo'lgan edi. Mazkur asarga e'tibor qilganimni boisi, ularga o'zbek aktyorini xususiyatlarini singdirish edi. Demak, "Maysaraning ishi" o'zbek masxarabozligi haqida bo'lsa, "Arshin mol olon" esa Ozarbayjon san'atida ana shunday asar hisoblanadi. Har ikkala xalq teatrining asosida xalqning milliy badiiy ijrochiligi an'analari yotibdi. Endi tasavvur qiling, san'at institutida aktyorlik san'ati alifbosini o'rganayotgan yoshlarga, G'arb mamlakatlari dramaturglari, pyesalarini tiqishtirishimiz, ularni umuman G'arb madaniyati asosida tarbiyalashimiz nechog'li o'zini oqlaydi? Talabalarning ruhiyatiga ko'proq o'zimizning o'zbek badiiy ijodkorligi, badiiy ijodiyoti, milliy masxarabozligi yaqin turmaydimi? "Arshin mol olon" – Chexov yoki Shekspirning mashhur asaridan ko'ra bizning aktyorimizga, xalqimizning madaniyatiga yaqinroq emasmi?

Kechagina qishloqdan kelgan bolaga Gamletdan ko'ra milliy masxarabozlik yaqinroq. Chunki aktyor oldin o'zligini, o'zbek san'ati nima ekanligini anglab olishi kerak va undan keyin g'arb dramaturgiyasiga o'tishi lozim. An'anaviy teatrning ijro uslublari, nimalardan boshlanganini, ayniqsa, qiziqchilar san'atini, askiyabozlik talablarini o'rganib bo'lgandan so'ng, Shekspirga yoki Chexovga o'tilsagina ularni tushunish osonroq kechadi. Shuning uchun teatr-studiyada san'at alifbosiga taalluqli asarlar qayta-qayta qo'yilaveradi. Studiyaga yangi bolalarni oldikmi, biz yana "Maysaraning ishi"ni qo'yamiz. Negaki, ular asar orqali masxarabozlar san'atini, o'zbek teatri an'analarni o'rganadi.

Muxbir: Ma'lumki, 1983-yillarda Abror Hidoyatov nomidagi drama teatriga borganingizda, ilk qo'lyan spektakllaringiz "Maysaraning ishi" hamda "Arshin mol olon" bo'lgan. Buni sababini esa endi tushungandekman!

Bahodir Yo'ldoshev: Shunday desak ham bo'ladi...

O'zbek teatri 1920-yilda G'ulom Zafariyning "Halima" pyesasini qo'lyan edi. Bu asar keyinroq Muqimiy teatrida sahnalashtirilgan. Aynan mana shu spektaklning

sahnalashtirish jarayonida ham an'anaviy teatr talablariga suyanilgan. Keyinchalik bu asar "Nurxon", "Gulsara" nomli musiqiy dramalarga yo'l ochdi. Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" operasiga yozgan musiqalari ham o'zbek an'anaviy ashulariga asoslangan. Ko'rinib turibdiki, "Maysaraning ishi" juda ko'plab asarlarning yaratilishiga imkon bergan, ularga poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Diydor teatr studiyasiga keladigan yigit-qizlar, hali institutni ko'rmagan, endigina sohaga kirib kelishni orzu qilganlar bo'ladi. Ularda teatrga, umuman sahna san'atiga bo'lgan muhabbatni uyg'otish uchun "Maysaraning ishi" pyesasiga murojaat qilaman. Spektaklga zamonaviy musiqa: rok, estrada vositasini kiritganimiz ham bejiz emas, biz shu orqali zamonaviy bolalarni, yoshlarni e'tiborini milliy pyesamizga qaratishni maqsad qilganmiz. Hozirgi folklorini o'rgatishda ham yoshlarga mos uslubni, yo'lni topish orqali jalb qilish mumkin, deb o'ylayman.

Bir narsa meni juda ko'p qiynaydi, bizning milliy folklorini targ'ib qilishda bir xillik ustuvorlik qiladi. Ko'pincha, bir hudud bilan chegaralanib qolish, ko'proq Surxon hududi folklorini targ'ib qilish, o'zga hududdagi milliy liboslardagi, raqslardagi yoki qo'shiqlardagi xilma-xillikni o'zbek milliy folklorining ulkan, rang-barang olamini to'liq o'rganishga xalaqit beradi. Chunki bizning o'zbek milliy folklori bundan-da keng va rang-barang. Har bir viloyatning o'ziga xos folklori bor. Demak, uning targ'ibotida liboslardagi, kuy-qo'shiqlardagi, raqs ohanglaridagi farqga, o'ziga xos ranglariga e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa, libos dizaynerlarining o'zbek milliy liboslarini yaratishdagi bilimsizligidan, uquvsizligidan ehtiyot bo'lish kerak. Muhsin Qodirovning "An'anaviy o'zbek teatri" kitobi qiziqchilar san'ati, masxarabozlik masalalariga qaratilgan. Loaqal, folklor bilan shug'illanadiganlar mana shu kitobdan foydalanishlari kerak. Chunki unda masxarabozlarning haqiqiy liboslari hamda ko'rinishi o'zining ilmiy aksini topgan. Bu gaplarim folklor ansambllariga ham tegishli. Har qaysi hududning o'z ohangi, tempo-ritmidagi o'ziga xoslikni musiqada ifodalash kerak.

Muxbir: Mening tushunishimcha, "Maysaraning ishi" singari xalq badiiy ijodkorligiga qaratilgan asarlar aktyorning tarbiyasidagi birinchi qadamlarni o'ziga xos alifbosi bo'lib xizmat qiladi. Keyingi qadamlar nimalardan iborat bo'ladi?

Bahodir Yo'ldoshev: Albatta, biz aktyorning ilk qadamini to'g'ri qo'ydira olgan bo'lsak, uning keyingi qadami o'zbek milliy mumtoz adabiyoti bilan bog'lanadi. O'zligini anglagan aktyor yoki inson kamolotga eltuvchi asosiy sifatlarni mumtoz adabiyotdan o'rganishi kerak. "Nodirabegim" hamda "Bobur" spektakllari ikkinchi qadamimizning ifodasidir.

Institutdagi o'qituvchilar ta'limda asarni, voqeani tushuntirishdan boshlashlari kerak. Iymonim komil-ki, institutdagi talabalarning ko'pchiligi o'zbek klassikasi bilan yaxshi tanish emas. Alisher Navoiy yoki Bobur g'azallarini o'qishni biladi, ammo mohiyatini tushunmasdan yod o'qishadi. Sababi, ular Alisher Navoiy, Bobur yoki Nodirabegim ijodi bilan yaxshi tanish emas. Aslida, talabalar Bobur, Alisher Navoiy she'riyatini bilishi kerak.

Bizni teatr-studiyaga keladigan yoshlar didini va badiiy saviyasini ko'tarish uchun kelishgan. Demak, ular alifboni o'zlashtirgach, "Nodirabegim" va "Bobur" asarlaridan hamda pyesalar ichidan o'tadi. Bu jarayondan keyin ular komillikka intilishning sir-asrorlarini tushungandek bo'lishi mumkin. Ana shundan keyin Gamlet obrazini yaratish qiyin kechmaydi. Yana shu narsa muhimki, agar sen san'at deb atalmish ma'nodan bahra olmoq istasang, u holda badiiyatni bot yujuding bilan his etmog'ing, san'at olamining ziyolisi bo'lmog'ing darkor.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, "Diydor" teatr-studiyasining spektakllarida men hamisha musiqani keng qo'llayman. Chunki musiqani biladigan aktyor oddiy aktyorlardan kuchli bo'ladi. Ularni miyasi boshqacha ishlaydi. Masalan, raqqosalar harakatlarini reflektiv tarzda bajarar ekan, ularning miya fiziologiyasi mana shu harakatlarga moslashadi va ular o'z hissiyotlarini tizimli harakatlarda ko'rsatishga qodir bo'ladi.

Musiqali teatr aktyorlari esa raqs, vokal, plastik harakatlarni sintezlashgan ifodasini namoyish qilishga qodir. Agar dramatik aktyor o'z mahoratini so'zda ifodalasa, musiqali teatr aktyori esa so'zda hamda ashulada ifodalay oladi. Dramatik aktyorda bunday imkoniyat yo'q. Shuning uchun musiqali teatrning aktyorlari kuchliroq, hissiyotliroq bo'ladi. Chunki ular nota, tonallik, parda singari tushunchalarni biladi. Dramatik aktyorlar faqat so'zni biladi.

Mening kuzatishimcha, musiqali teatr aktyorlarida, drama aktyorlariga nisbatan xotira ham kuchli bo'ladi. Boisi, drama aktyori faqat asarni biladi, musiqali teatr aktyorlari esa pyesani musiqasi bilan birga o'rganadi. Shuning uchun ham studiyada bo'lajak aktyorni tarbiyalashda musiqa va so'z uyg'unligiga alohida e'tibor qilamiz.

Muxbir: *Dramatik spektakllarda musiqani qo'llash dastlabki yillar ijodida ham ko'p kuzatilgan edi. Xususlan, 1976-yillarda Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)da qo'yilgan "Kelinlar qo'zg'aloni" spektaklida doira usullari har bir personaj xarakterini ochuvchi vosita bo'lganligini ko'plab teatrshunoslar e'tirof etgan. Bu ham o'zbek teatrlarini yodda qoladigan sahifalaridan biri bo'lib qolgan. Ayni shu jarayon xususida to'xtalib o'tsangiz?*

Bahodir Yo'ldoshev: Doira usullari "Kelinlar qo'zg'aloni" spektakli ijrochilariga yordamchi vosita bo'lgan. O'zbekni kattayu kichigi qo'shiq aytadi, kuylaydi, ashulani, she'riyatni barcha o'zbek birdek yaxshi ko'radi. Qishloqda yurgan oddiy cho'pon ham bilsa-bilmasa loaqal hirgoyi qiladi. Shunday ekan o'zbek teatri tomoshalariga ko'proq musiqa, ritm qo'shilishi kerak. Bizning xalqni ritmi boshqacha. Har birimizni o'z ritmimiz bor. Nimaga Xorazm san'atini hamma yaxshi ko'radi. Chunki ritmi, ya'ni "Lazgi"si bor. Uning ritmiga o'xshashi yo'q. Men har bir spektaklning o'z ritmi bo'lishi va bu ritm tomoshabinga yaqin turishi kerak, deb hisoblayman. Agar tomoshabin o'sha ritmni egallab olsa, spektaklni oxirigacha ko'radi.

Teatr tomoshabini shu darajada turli-tuman va sirli hilqatki, uni muhokama qilishning o'zi, nazarimda, nodonlik. Lekin bir narsani yaxshi bilaman, tomoshabin – biz doimo kurashadigan raqib. Raqib bo'lganda ham o'ta kuchli va ayyor raqib. Uning kuchiga past baho berganlar yanglishadi. Spektaklning muvaffaqiyatsizligida dramaturg, rejissyor yoki aktyor aybdor bo'lishi mumkin, lekin tomoshabin emas. Demak, har bir spektakl ustida ishlayotganimda albatta tomoshabin haqida o'ylashga majburman. Lekin teatrning chin tomoshabini haqida... uni nima bezovta qilyapti-yu, unga nima qiziq. Doim aytadiganlarim lo'nda, ta'sirchan, yorqin bo'lishiga intilaman. Darvoqe, menga spektakl tomoshabinlarining soni ahamiyatli emas.

Muxbir: *San'atshunoslik fanlari doktori Sarvinoz Qodirova "Kelinlar qo'zg'aloni" haqida "kuldirib turib, odamlarning ruhini ko'targan. Spektakl o'zining milliy ruhi,*

tomoshaviyligi, xalq ijodiga yaqinligi, musiqaviyligi bilan ajralib turgan... Spektaklning barcha komponentlarida tomoshaviylik hukmron. Barcha aktyorlar bu sahnada o'yin ruhi bilan yashaydi. Shartlilik, improvizatsion yengillik, bo'rtirma aktyorlar ijrosida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Childirmachilar voqealar ruhiga, qahramonlar xarakteriga mos usul berib turadilar. Spektakl aynan doira usullari bilan boshlanib, ular bilan tugaydi", deb yozgan [1].

Bahodir Yo'ldoshev: Komediya ilk bor Hamza teatri sahnalashtirilgandan so'ng, butun respublikamiz teatrlarida, xorijiy mamlakatlarda qo'yildi. Bizningcha, komediyaning bu qadar shuhrat topishida Hamza teatri sahnaviy talqinning mukammalligi sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda teatrlarimizga e'tibor shu darajada katta-ki, yaxshi grimyor, jihozlangan sahnalar, zamonaviy chiroqlar bor. Lekin yaxshi spektakllar yo'q. Agar yaxshi spektakl bo'lmasa, jihozlangan binoni nima keragi bor? Bizni o'zbek tomoshabini teatri, umuman, tomoshani nihoyatda yaxshi ko'radi. Lekin hozirda namoyish qilinayotgan tomoshalarimiz nihoyatda oqsoq. Shu narsa aniqki, odamlarni teatsiz tarbiyalay olmaymiz. Millatni tarbiyalash uchun teatr juda katta vosita. O'zbekistonning rejissorlari, haqiqiy aktyorlari bor. Faqat ularni qo'llab-quvvatlashimiz, to'g'ri tarbiyalashimiz va yordam berishimiz kerak. Yoshlar uchun maxsus teatr-studiya maktablari ochish, chet eldan sahna san'ati pedagoglarini taklif qilish zarur. Studiyada ta'lim olayotgan rejissyorlar va aktyorlar chet tillarini ham yaxshi bilishi hamda chet el teatrlarini borib ko'rishi kerak. Shundagina biz siljiymiz...

Qolaversa, har bir ijodkor san'atda o'zini anglashi va "men"ini, g'ururini sindirishi zarur. Buning uchun u o'zi bilan o'zi yolg'iz qolishi kerak, o'zi bilan o'zi ruhan kurashishi zarur...

Ustoz bilan suhbatimiz mana shu joyda uzilgan edi. Keyingi rejalashtirilgan suhbat nasib qilmadi.

"Hozirgi davr teatrining kuchini, istiqbolini rejissura san'ati belgilar yekan, bu avvalo, teatrning estetik tabiati boyib borishi, uning g'oyaviy va emotsional ta'sir qudratining oshib borishini ko'zda tutadi. Bahodir Yo'ldoshev rejissurasi aynan shu maqsadga qaratilgan. U har bir spektaklda sahnaning bepoyon imkoniyatlarini ishga solishga, butun sahna sahnidan, nur ifodasidan, musiqa va xoreografik vositalardan, bezak mo'jizalaridan aynan teatr manbalari sifatida, spektaklning ichki mohiyatini chuqurlashtirish, tashqi obrazlilikini ta'minlash ma'nosida foydalanishga urinadi", – deb yozgan edi teatrshunos S.Tursunboyev o'zining "Yoshlar jasorati" maqolasida [4].

Diydor teatr-studiyasidagi Bahodir Yo'ldoshev o'rnatgan tartib va talablar zamonaviy aktyorlik maktabiga singdirilishi zarur bo'lgan muhim sifatlarni o'zida jamlagan, deb o'ylayman. Men mazkur teatr-studiyaning ilk talabalaridan biri sifatida Bahodir Yo'ldoshev qo'lida sahna san'ati sirlaridan saboq olganim, bular teatr sahnasida, hozirda esa ilmiy tadqiqot ishlarimda qo'l kelayotganini faxr bilan tilga olaman.

Bahodir Yo'ldoshevning ushbu so'nggi suhbatda bildirgan fikrlari biz – yosh ijodkorlarga, yosh pedagoglarga va umuman o'zbek milliy teatr san'atiga xizmat qilmoqchi bo'lgan yoshlarga ustozimizning vasiyatlarini bo'lib qoldi. O'zbek milliy teatr san'atining ulug' rejissori, buyuk san'atkor yaratgan ijod maktabi hali yana uzoq yillar milliy san'atimiz ravnaqiga xizmat qilishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova S. Bir spektakl tarixi. – Toshkent: Teatr jurnali, 2012. – № 6. 5-7 bet.
2. Qodirova S. Komediya san'ati tarixi. – Toshkent: "San'at" jurnali nashriyoti, 2008. - 209 bet.
3. To'laxo'jayeva M. Globallashuv va milliy an'analar. – Toshkent: Teatr jurnali, 2000. – 12-bet.
4. Sayfullayev B. Isyonkor qalb. – Toshkent: Teatr jurnali. 2015. – № 5.6 - bet.

YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER MADANIYATI VA OILAVIY MUNOSABATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgani, oilada xotin-qizlarning tugan o'rni, farzand tarbiyasida ayollarning xizmati beqiyos ekanligi va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan masalalar xususida fikrlar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: oila, xotin-qizlar, madaniy, ijtimoiy tenglik, gender, salohiyat, bandlik, huquq, barqarorlik.

Дильноза КУРБАНОВА,

независимый исследователь (PhD) кафедры «Искусствоведения и культурологии» ГИИКУз

ГЕНДЕРНАЯ КУЛЬТУРА И СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье описывается внимание Президента к проблемам женщин на уровне государственной политики, роль женщин в семье, неоценимая роль женщин в воспитании детей, а также вопросы социальной защиты и улучшения условий труда.

Ключевые слова: семья, женщины, культурное, социальное равенство, гендер, потенциал, занятость, закон, стабильность.

Dilnoza KURBANOVA,

chair of Art Studies and Cultural Studies of the UzSIAC independent researcher (PhD)

GENDER CULTURE AND FAMILY RELATIONS IN NEW UZBEKISTAN

Annotation. This article describes the President's attention to women's issues at the state policy level, the role of women in the family, the invaluable role of women in child rearing and the issues of social protection and improvement of working conditions.

Keywords: family, women, cultural, social equality, gender, potential, employment, law, stability.



“Bugungi kunda Yangi O'zbekiston strategiyasi xalqimizni yorug' kelajakka chorlab va yangilanishga safarbar qilib, umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanib bormoqda” [1, B 14]. “Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro'yogba chiqarish yo'lida amaliy harakatlarga undab keldi” [2, B 16]. Shu bois, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot darajasiga baho berishda gender tenglikni ta'minlash borasida erishilayotgan natijalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaydi: “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi” [3].

Darhaqiqat, ayollarning o'rni oila qo'rg'onidan tortib, deputat kursisigacha ko'rishimiz mumkin. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga yangi tuzilma – Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha qo'mita tuzish taklifini kiritdi. Bu tuzilma mamlakatimiz hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularga keng imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Gender” tushunchasi – lotincha “genus” etimologik ma'nosi “jins” demakdir. Agar biologik jins insonlarni

ayol va erkaklarga ajratadigan bo'lsa, gender – bu ayol erkaklarning jamiyatdagi o'rni ajratishga qaratilgan bo'lib, barcha ijtimoiy masalalarda ularning teng huquq va imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi. Gender tenglik – xotin-qizlar va erkaklarning ijtimoiy tengligidir. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rni topishi hamda belgilashi uchun davlatning ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, “Gender tenglik” tushunchasi butun dunyoda ma'lum: Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha hujjatlarida, jumladan, xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasida uning funksional xususiyatlari belgilab berilgan.

Bu borada yurtimizda so'nggi yillarda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha dadil qadamlar qo'yildi.

Davlatimiz rahbarining “Ayollarni davlat va jamiyat hayotiga keng jalb etish islohotlar samaradorligi hamda iqtisodiy o'sishini ta'minlashi – amaliyotda o'z isbotini topgan haqiqat. Jinslar tengligiga erishish mohiyatan insonga shaxs sifatida namoyon bo'lishga halal beruvchi barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va bartaraf etishdan iborat”, – degan so'zlari bizning oldimizga katta mas'uliyat yuklaydi [4, B 63]. Mazkur takliflar “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi 562-sonli O'zbekiston Respublikasi

Qonunida mujassamlashgan[5]. Mazkur qonun gender, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat organlari va tashkilotlari, muassasalari, shuningdek, davlat ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari mas'ul etib belgilangan. Ayollarning jamiyatdagi o'rni va rolini oshirish, davlat boshqaruvi ularni yanada kengroq jalb qilish, mamlakatning siyosiy boshqaruvi sohasida ularning faolligini yanada oshirish vazifalari keng ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda yetuklikka erishib kelayotgan opa-singillarimiz chinakam To'marislar avlodi ekanini alohida namoyish qilishmoqda.

Ayolning ilmi bo'lishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh-urug'lari va qolaversa, butun jamiyatning ilmi, madaniyatli bo'lishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda Xitoy faylasufi Konfutsiy aytganidek: *"Erkak ilmi bo'lsa – nari borsa bir kishi ilmi bo'ladi, ayol ilmi bo'lsa – millat ilmi bo'ladi"* [6: 48 b]. Yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e'tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta'lim va hatto harbiy sohada xizmatlari beqiyosdir.

Gender tenglikda eng asosiysi, har birimiz o'z dunyoqarashimizni o'zgartirishimiz lozim. Xotin-qizlar va erkaklar har jihatdan teng ekanligi va huquqlar davlat himoyasida ekanligini tushunishimiz kerak. "Tashqarida demokratiya bo'laversin, uyimizda diktatura bo'ladi", – degan egoistik qarashlarimizga ham barham berishimiz lozim [7: B 66].

Tarixga nazar salsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikr bildirgan. Masalan, Fitratning "Oila" asarida shunday fikrlar bor: "Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur" [8, B 97 – 98].

Shu o'rinda, ayolni har tomonlama avaylab-ardoqlash, ularning izzat-hurmatini joyiga qo'yish borasida mamlakatimizda boy tajriba to'planganligini ham aytib o'tish joiz.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Ayollarimiz hayotiy muammolarni, oila va mahalladagi o'tkir masalalarni, ularni bartaraf etish yo'llarini jamiyatning tomir urishini boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladilar. Ular o'zlarining mehribonligi, yuksak mas'uliyat tuyg'usi, mehnatsevarligi bilan barchaga o'rnak bo'la oladilar" [9].

"Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Holbuki, bundan 5 yil avval biz bu borada 128-o'rinda edik" [10].

Tashabbuskor va tashkilotchi ayollarimiz tuman va shahar hokimi lavozimiga tayinlanib, bugungi kunda olti nafar hokim sifatida faoliyat yuritmoqdalar. Shaxsan davlatimiz rahbari yurtimiz ayollarini ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishida boshchilik, g'amxo'rlik, e'tibor qilayotganliklari bu – baxtli ayol, baxtli ona, baxtli kelajak uchun g'amxo'rlikdir.

Biroq yurtimizda ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi faol jarayoni hamda ayollarning erkaklar bilan tengligiga erishish borasidagi muayyan yutuqlariga qaramay, afsuski, jamiyatimizning ba'zi qatlamlarida gender tenglikka to'siq bo'ladigan illatlar bor, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyevaning "Prezident ayollarni hokimlikka tasdiqlayman – deb turganda, biz ularni zo'rvonlikdan asray olmayapmiz", [11] – degan so'zlarini keltirishni joiz bildik.

Shu o'rinda aytish joizki, bir necha yillardan buyon e'tiborda turgan bu masalaga nisbatan qarashlarda tushunmovchiliklar ham yo'q emas. Emishki, gender tenglik degani – "Ayollarning erkaklar, oilasi, farzandlari oldidagi burchi, vazifalarini unutilishga sabab bo'lar ekan". Bizda erkaklar ayollarga nisbatan qattiq gapirsa ham, kuch ishlatsa ham: "Er bo'lgandan keyin uradida", degan qarashlar shakllangan. Bunday munosabat noto'g'ri ekanligini tushunish kerak. Afsuski, ayolni faqat uydagi xizmatkor sifatida ko'radiganlar ham bor. Ammo ayollik, onalik, bekalik vazifalarini ishlab turib ham bekamiko'st bajara oladigan xotin-qizlarimiz ko'p. Vaqtida o'qib, oliy ma'lumotli bo'lgan bilimi, salohiyati bilan farzandlar tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashgan ayol har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadilar. Oddiy qilib aytganda, tarozining bir pallasida erkaklar manfaati, ikkinchi pallasida ayollar manfaati turishi, muvozanat saqlanishi lozim.

Asosiy Qonunimizning 26-moddasida hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatining kamsituvchi boshqa tarzidagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. [12, B 11].

Donishmandlar: "Jamiyatning madaniy darajasi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi", – deb bejiz ta'kidlashmagan. Zero, buyuk shaxsni buyuk ona tarbiyalaydi, degan naql bor. Buyuk insonlarni tarbiyalash esa yana o'sha oila atalmish muqaddas dargohning holati va muhitiga bog'liqdir. Ona hurmat topgan oilada farzand ham oqil bo'lib o'sadi. Bolalikda ayolga hurmatsizlik namunalarini ko'rib ulg'aygan bola esa kelajakda o'z oilasini ham mustahkam saqlay olmaydi. Oilasining sha'ni va nomusini himoya qilishga qobil bo'lmaydi. Shu bois, farzand bu mas'uliyatning nechog'lik sharaf ekanini bolalikdanoq ko'rib, tushunib yetishi kerak. Ona hurmat ko'rmay o'tgan oilada balog'atga yetgan qiz ham turmush shunday ekan, degan tasavvur bilan ulg'ayadi. E'tirof etish lozimki, ma'naviy yetuk oila ma'naviyati yuksak jamiyatning tayanchi sifatida qadrlanadi.

"Bir narsani unutilmasligimiz lozim: xonadonlarimizdagi tinchlik-totuvlik, avvalo oiladagi sog'lom muhit, mustaqil hayot ostonasida turgan qizlarimizni oilaviy turmushga tayyorlash bilan bevosita bog'liq. Afsuski, bu muhim

masalaga loqaydlik va e'tiborsizligimiz natijasida joriy yilning o'tgan 11 oyida yosh oilalar o'rtasida 25 ming ajrimlar qayd etilgan. Bu salbiy holat barchamizni jiddiy bezovta qilishi va qattiq tashvishga solishi kerak" [13].

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 14-bobi aynan "Oila" deb nomlanadi. Unda to'rtta modda mavjud. Bu moddalarda ham milliy ham umuminsoniy qadriyatlar mohiyati aks etgan [14, B 21].

Oila bilan bog'liq milliy va umuminsoniy qadriyatlar esa bizdan ko'pdan-ko'p tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Har o'n ajralishdan 10 – 15 bola tirik yetim bo'lib qolyapti. Oila tinchligi – jamiyat tinchligi. Ushbu qo'rg'onning mustahkamligiga har birimiz bevosita mas'ulmiz. Zotan, oila – jamiyat poydevori [15, B 31]. Gender tenglikni ta'minlash esa oiladan boshlanadi. Bu o'rinda nafaqat erkak va ayol, balki oilada er-xotin va farzandlar, qaynona va kelin, ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun ham gender tengligi, ya'ni adolatli qarashlarga asoslangan qonun va qoidalarga ehtiyoj katta. Jamiyat taraqqiyoti esa mana shu munosabatlar to'kisligiga bevosita bog'liqdir [16].

Shu bois, oilani himoya qilishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgan bir paytda gender tengligi masalasini to'g'ri va ijobiy hal qilishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

– xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash;

– xotin-qizlarga nisbatan barcha shakldagi kamsitish va zo'rvonlikka yo'l qo'ymaslik;

– jamiyatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

– ayol va erkakning mas'uliyati, o'zlarining oiladagi

burchini to'liq his qilishi, o'zaro hurmati va oilaviy muammolarning yechimini bafurja hal qilishida imkoniyatlar yaratish;

– ayollarning huquqiy madaniyati va diniy savodxonligini oshirish;

– oila va bolalar bilan ishlashda ma'naviy tarbiya xususiyatlariga e'tibor berish;

– mahalla fuqorolar yig'inida ota-onalarning mafkuraviy, pedagogik, psixologik bilim saviyasini oshirib borish;

– ayollarning ilmli bo'lish darajasini oshirishni ta'minlashda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

– mahalla fuqorolar yig'inida bepul kasb-hunar o'rgatish tizimini yo'lga qo'yish shakllantirish orqali bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish;

– telekanallar orqali oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xorij seriallarini ko'paytirgandan ko'ra, milliy mentalitetimizga xos oilaviy munosabatlarni aks ettiradigan dasturlar sonini ko'paytirish;

– mahalla fuqorolar yig'inida psixologik treninglar tashkil etish va unga aholini qiziqtirish.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, donolar aytganidek: "Erkaklar millatning buguni bo'lsa, ayollar uning kelajagidir". Dunyo muvozanat asosiga qurilgan. Me'yor tushunchasi esa muvozanatning tayanchi hisoblanadi.

Xalqimiz yangi O'zbekistonni qurish, Uchinchi Renesans poydevorini bunyod etishdek ezgu va ulug'vor maqsad yo'lida bormoqda. Bu jaryonlarlarda mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar albatta o'z samarasini beradi. Zero, jamiyatda gender tenglikni ta'minlashdan maqsad xalqimiz demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyati barpo etishdek niyatlarni ro'yobga chiqarish, yurt taraqqiyotini yuksaltirishdir. Shubhasiz, ushbu maqsad sari tashlangan har bir dadil qadam farovonlikka erishishda muhim poydevor boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston Strategiyasi: Matn – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 464.
2. O'sha manbaa. 16-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutq. // Yangi O'zbekiston 2020. 24-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – B. 278.
5. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni // Xalq so'zi 2019. 3-sentabr. 182-son.
6. Konfusiy "Sultonlarga nasihat" risolasi. Istoriya kitayskoy filosofii. – Moskva, 1989. – B. 48.
7. O'sha manba. – B. 66.
8. A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B.112.
9. https://parliament.gov.uz/uz/events/committee/34148/?sphrase_id=7360683
10. parliament.gov.uz
11. <https://kun.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – B.76 .
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. // Xalq so'zi 2020. 26-dekabr, 273-son.
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2014. – B.76.
15. Oila va jamiyat yoxud mikrojamiyat va makrooila. -Toshkent: Nishon noshir, 2017. – B.46.
16. T.Narboeva. Gender tengligi faqat ayollar uchunmi? // Madaniyat 2020. 12- noyabr 44-son.

TIL VA MADANIYATNING MENTAL-AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning avvalo inson ichki dunyosi, tafakkur tarzi, ruhiyati va kamolotini belgilaydigan vosita ekanligi, muayyan milliy madaniyat va milliy mentalitetning asosini tashkil etishi, aloqa vositasi sifatida madaniyatlararo hamkorlikda muhim o'rin tutishi, dunyo tillariga tegishli statistikalar, shuningdek, o'zbek tili va uni umumjahon tillar doirasidagi qadriyatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar borasida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, mentalitet, madaniyatlararo hamkorlik, Internet tili, kommunikatsiya, aloqa vositasi, ijtimoiy hodisa.

Ильхом ХУДОЙНАЗАРОВ,

кафедра «Искусствоведения и культурологии», магистрант направления «Культурология» ГИКИУз

МЕНТАЛЬНО-АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассказывается о том что язык является прежде всего инструментом, определяющим внутренний мир, образ мышления, менталитет и зрелость человека, он составляет основу определенной национальной культуры и национального менталитета, играет важную роль в межкультурном сотрудничестве. как средство общения, кратко обсуждаются статистические данные, касающиеся мировых языков, а также узбекского языка и его предложений и рекомендаций, направленных на повышение его ценности в рамках универсальных языков.

Ключевые слова: язык, культура, менталитет, межкультурное взаимодействие, интернет-язык, общение, средства общения, социальное явление.

Ihom KHUDOINAZAROV,

chair of "Art studies and cultural studies". Master's student of "Cultural studies" UzSIAC

MENTAL-AXIOLOGICAL FEATURES OF THE LANGUAGE AND CULTURE

Abstract. In this article, the language is primarily a tool that determines the inner world, way of thinking, mentality and maturity of a person, it forms the basis of a certain national culture and national mentality, it plays an important role in intercultural cooperation as a means of communication, statistics related to world languages, as well as the Uzbek language and its suggestions and recommendations aimed at increasing its value in the framework of universal languages are briefly discussed.

Key words: language, culture, mentality, intercultural cooperation, Internet language, communication, means of communication, social phenomenon.

Til – bu dunyoda har bir millatning avvalo, borligi, mavjudligi, qolaversa, xarakteri, qadriyatlari, urf-odat va an'alarini aks ettirib turadigan muhim omillardan biri, ya'ni u mavjudlik belgisidir. U real voqelikni namoyon qiladi. Gumanitar fan tizimida metodologik ahamiyatga ega ekani tilning o'zi aks ettirgan voqelikni tahlil qila olishi, shu bilan birga reallikni yaratishi bilan belgilanadi.

"Har bir xalqning milliy o'zligi, eng avvalo, uning tilida zukur etadi. O'zbek tilining tabiati va mantig'ida xalqimizning saviyasi va tafakkur tarzi o'z tajassumini topgan. Aslida so'zimiz bizning o'zimizdir".¹

Bugun yer yuzida yetti mingga yaqin til² mavjud bo'lsa, ularning har biri muayyan milliy madaniyat va milliy mentalitetning asosidir. Ularning har biri mutlaqo o'ziga xos siru asrorlar mujassam bo'lgan bebaho boylik.

Shuning uchun ham bu boylik sinoatlarini o'rganish, bu sinoatlarni bolalikdan, yoshlikdan egallash jamiyatda qadim davrlardan aql egalarini o'ylatgan. Yer yuzidagi eng ko'hna muassasalardan bo'lmish qadim Sharq bag'rida tavallud va kamol topgan.

Eramizdan oldingi uchinchi ming yillikning boshlarida, bundan besh ming yillar burun qadimgi Shumerda maktablar faoliyat ko'rsatgan va bu maktablarning ta'lim dasturlarida ikki asosiy tayanch mavjud edi. Ularning biri matematika, ikkinchisi esa ona tili hisoblangan. Ularning biri qorin qayg'usi ehtiyoji uchun, ikkinchisi – til ta'limi esa ruh, ya'ni qadr qayg'usi talabini qondirishga xizmat qilgan. Bugun ham shunday, ona tili ta'limining bosh mo'ljali inson ruhiy, ma'naviy olamidir. Maqsad, avvalo, millat qiyofasi va ma'naviyatini salomat saqlashdan iborat.

"Tarixga nazar solsak, Buyuk Ipak Yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy, ilmiy madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir

¹ Mahmudov N. O'zimiz va so'zimiz. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. – B. 112.

² Mahmudov N. Til siyosati va siyosat tili // O'zbek tili va adabiyoti, 2016. 4-son.

qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi".³

Tilshunos olim Baxtiyor Mengliyevning ta'kidlashicha, turli hisob-kitoblarga ko'ra dunyoda taxminan 3000 dan (ba'zi manbalarda keltirilishicha, 7000 mingga yaqin) ortiq til bor. BMT rasman 2976 tilni qayd etgan. Tillarning ayrimida bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishi gaplashsa, ba'zida bir necha ming, yuz, hatto siz aytgandek, sanoqli kishigina muloqot qiladi. Masalan, Kongoda aholi 500 tilda, Indoneziyada 250 tilda, Sudanda 117 tilda gaplashadi. Xitoy tilida hozirgi kunda bir milliardga yaqin kishi so'zlashsa, chukot va vele tilida bor-yo'g'i bir necha yuz ming kishi muloqot qiladi, xolos. Dog'istonda 1 mln dan ortiq kishi bo'lib, ular 40 ga yaqin tildan foydalanadi.⁴

Filologiya fanlari doktori, professor Ma'rifjon Yo'ldoshevning ma'lumotlariga tayanib aytadigan bo'lsak, "Etnolog: Dunyo tillari" deb ataladigan ma'lumotlar resursining 2015-yil, 18-sonida 7472 til va lahja haqida ma'lumot berilgan. Mazkur resursning 15-sonida dunyoda 6912 til borligi ta'kidlangan. "Les langues du monde" deb nomlangan manbada 2500-3500 til borligi aytiladi. Ikkinchi jahon urushidan oldin o'tkazilgan bir tadqiqotda, lahjalar hisobga olinmaganda 2796 til borligi ta'kidlangan. "Britannica" deb nomlangan ensiklopediyada bu miqdor 2500-5000 deb ko'rsatilgan.⁵

Tilshunos olim Baxtiyor Mengliyev bilan bo'lgan 20.10.2019dagi kun.uz saytida e'lon qilingan suhbatda keltirilishicha, YUNESKO hisob-kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi XXI asrda o'zining "so'nggi sohibi"dan ajralishi mumkin. Ba'zi farazlarga ko'ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o'layotgani esa barchamizni sergaklantirishi kerak.

Maktab amaliyotida ona tili ta'limi ham, xorijiy til ta'limi ham favqulodda muhim ahamiyatga molik. Faqat ona tili ta'limida maqsad tildan tafakkurga qarab borish bo'lsa, noqarindosh til ta'limida ta'lim mantig'i tafakkurdan tilga olib boradi. Mamlakatimizda turli millat vakillari bir davlat fuqarolari o'laroq istiqomat qiladilar. Yurtimizda shakllangan odil til siyosati bois bugun yetti tilda ta'lim olib borilmoqda.

Til shunchaki so'zlashish instrumenti emas, balki madaniyatlararo kompetentlikda yetakchi o'rin tutadigan aloqa vositasi, shuningdek, xalq ruhiyati va madaniyatini ifodalovchi muhtasham hodisadir. Uning ishtiroki va yordamisiz madaniyatni o'rganishning imkoni yo'q. Demak, til va madaniyat tushunchalarini bir-biridan ayro tasavvur etib ham bo'lmaydi. Yangilanayotgan O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida ham ona tilimizga e'tibor berish va uning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning asosiy omillaridan biri deb hisoblanishida ham katta ijtimoiy ahamiyat borligi bizdan tilimizga e'tiborli bo'lishni talab etadi.

Bugungi tezkor jarayonda yoshlarning madaniy saviyasini oshirish masalasi yetakchi o'rinda turar ekan, avvalo, ularni

³ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – T.: Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464-bet.

⁴ Mengliyev B. Til – millat timsoli, xalq g'ururi // ziyouz.uz, 2009.

⁵ https://myuldashev.blogspot.com/2016/02/blog-post_15.html

⁶ Vohidov E. Saylanma. 3-jild. Umrin daryosi. – T.: Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.

o'zga til madaniyati bilan tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, madaniy saviya faqat milliy madaniyatni bilish, uni teran tafakkur qila olish darajasi bilan o'lchanmaydi, zamonaviy tendensiyalar talabidan kelib chiqib, bugunning odamidan dunyo xalqlari, o'zga millatlar madaniyati borasida ham atrofficha bilimga ega bo'lish ham talab etiladi.

Muayyan til madaniyati boshqa tillar madaniyatiga ta'sir ko'rsatib, pirovardida umumbashariy ahamiyat kasb etishi mumkin. Fikrimiz isboti o'laroq, bir misolni keltirmoqchimiz.

O'zbekiston Qahramoni, shoir Erkin Vohidovning "Inson" qasidasi⁶ Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilganligining 75 yilligiga bag'ishlangan "UN75" onlayn-tadbirda o'zbek, qozoq, turk, arab, ingliz, rus, italyan va tojik tillarida baralla yangradi. Bu degani o'zbek shoiri ilgari surgan umumbashariy g'oyaga dunyoning muhim strategik minbaridan turib kuchli xayrixohlik bildirildi.

Agar ustoz Erkin Vohidovning ijodiy bisotida tanho shugina she'ri bo'lsa ham edi, u zotning pokiza ruhi baribir abadiyatga daxldor bo'lib qolaverardi. Zero, bu muhtasham misralarni bitish uchun shoirimiz jahon mutafakkirlari zehniyatining necha buloqlaridan to'yib-to'yib simirgan, nechalab durdona asarlarning ma'no maxzanlaridan quvvat olgan va ularni ona tilimizga o'girib, butun o'zbek xalqining ham bahramand bo'lishiga hissa qo'shgan. Shoir zahmatlari tufayli o'zbek tiliga tarjima qilingan Gyotening "Faust" asarini ne baxtki, o'z ona tilimizda angladik. Til va madaniyat kesishuviga farazlab aytadigan bo'lsak, ma'lum ma'noda shoir boshqa tillar madaniyati bilan o'z tili madaniyatini uyg'unlashtira olgan.

Donishmand o'zbek shoirining aqlini, ko'nglini zirillatgan cho'ng falsafa bugun dunyoning turfa millat vakillari qalblarini hali hamon titratib turibdi. Orada necha avlod tug'ilib ulg'aydi, necha suvlar oqib o'tdi... Olam butkul o'zgardi, lekin shoh asar – "Inson" qasidasining qadri o'zgarmadi. Mag'zining to'qligi, mazmuniga singgan g'oyaning baquvvatligi tufayli qasida zamoni va makonini kengaytirib yashab kelmoqda. Ayniqsa, bugun bani bashar mana shunday kuchli mafkuraga tashna. Dunyoda kechayotgan g'alati voqealar to'fonida insoniyat asliyatini, mohiyatini yangidan eslab olishi bugun nihoyatda zarur. Insonga o'zlikni tanituvchi kuchli mafkura esa til orqali, tillarning o'zaro hamkorligi natijasida yaraladi va umumbashariy ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz taqdim etgan g'oya asosida "Inson" qasidasini umumbashariy qo'shiqqa aylantirish ishiga jamoa bo'lib kirishildi. She'rga Nodir Umarov kuy bastaladi, Aziz Xolmurodov kuyni sayqalladi, Dilmurod Matkarimov ovozlarni yozish ishiga mas'ul bo'ldi, Sanjarbek Matkarimov klip konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Yozuvchilar uyushmasining ko'magi bilan she'r boshqa tillarga tarjima qilindi. "Inson" qasidasi o'zbek tilida Ozodbek Nazarbekov, qozoq tilida Omirqul Ayniyazov, arab tilida Ahmad Al-Xuraybiy, turkchada Rafet El-Roman, italyan tilida Alessandro Safina, ingliz tilida Dilafruz Rustamova, tojik tilida Zafar Abdualimov, rus tilida Oleg Gazmanov tomonidan ijro etildi.

Shoirning ijodiy mahsuli bo'lgan qasida aynan til orqali jahon madaniyatining durdonasi sifatida baralla jarangladi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, demak, bugun har bir millat vakillari qatori, ayniqsa, ijodkor ziyolilar – shoir-yozuvchilar, tarjimonlar, dramaturglar, ssenaristlar tilimiz sofligini saqlash, boyitish va uni umumjahon tillar doirasidagi qadriyatini oshirishga kamarbasta bo'lishi lozim.

Avar elining farzandi, XX asr jahon she'riyatining yorqin vakili Rasul Hamzatovning "Mening dog'istonim" asari Vatan tuyg'usi, millat ravnaqi, til madaniyati, urf-odatlar davomiyligi va sof muhabbat haqidagi eng ibratli kitoblardan biri bo'lgani uchun ham ko'plab kitobxonlarning bebaho boyligiga aylandi.

Shoir o'z asarida tilni o'rganmasdan she'r yozishga uringan odamni suzishni bilmasdan cho'milish uchun o'zini sarkash daryoga tashlagan telbaga o'xshatadi. Shoir nazdicha, ba'zan odamlar miyasida fikr bo'lgani uchun emas, shunchaki tili qichib turgani uchun gapiradi. Ba'zan odamlar yuragiga tuyg'ular sig'mayotgani uchun she'r yozishmaydi, balki... To'g'risi, ularning nima uchun she'r yozishayotganini ham tushuntirish qiyin... Bunday odamlar she'r boshlashdan avval dunyoda nimalar ro'y berayotganiga bir qur nazar tashlamaydi. Dunyo qanday musiqa, qo'shiq va ohanglarga yo'g'rilganini tushunishni istamaydi.

"Mening dog'istonim" kitobidan o'rin olgan til haqidagi yana bir ta'sirli hikoyani ko'pchilik yaxshi eslaydi.⁷ Shoir o'zga yurtda adashgan o'g'ilning qismati haqida uning onasiga gapirib berganida, ona "*Sen o'g'lim bilan qaysi tilda so'zlashding?*" deb so'raydi. – Ajnabiy tilda suhbatlashdik, u avar tilini esdan chiqaribdi, deb javob beradi shoir. – Rasul, sen yanglishibsan, mening o'g'lim allaqachon o'lgan ekan. Agar mening o'g'lim hayot bo'lganida, avar onasi o'rgatgan tilni unutmagan bo'lardi, deydi ona.

Bugun xorijiy tillarni o'rganishga berilib ketgan ba'zi yoshlar o'z tilimizga nisbatan befarqlik bilan munosabatda bo'layotganini ham inkor etib bo'lmaydi. Ijtimoiy tarmoqda tilimizga shu qadar hurmatsizlik bilan qaraymizki, o'zaro yozishmalardan xato jumlar, to'g'ri so'zimizdan noto'g'risi ko'p. Buning ustiga har ikki jumlamiz birida xorijiy so'zlarini qistirib o'tamiz. Go'yoki, bu bizning "zamonaviy" ekanimizni belgilab beradi. O'z tili oldidagi mas'uliyatini chuqur anglagan shoir Muhammad Yusufning quyidagi misralari bizga ham ona tilimiz oldidagi burchimizni bot-bot eslatib turishi kerak:

*Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,
Bu dunyoda tili yo'qda, dil yo'q derlar.
Bahoying-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*⁸

"Ona tili xalq ruhiyatining baquvvat zamini va ayni paytda mustahkam ihota qobig'i sifatida sobit bo'lmas ekan, xorijiy til, masalan, ingliz yoki rus tili bolaning birinchi tiliga aylanan ekan, undagi milliy ruh ham inglizcha yoki ruscha va yoki mutlaqo muallaq bo'lishi tabiiy. Ruhan o'zbek bo'lib, o'zbek emas, rus bo'lib, rus emas, milliy-ruhiy arosatning aro yo'lida qolgan bandaga vatanparvarlik, milliy hurlikka posbonlik, ona yurtga adoqsiz muhabbat kabi ulug' tuyg'ularni tushuntirish, undan bularni talab etish qiyin".⁹

Milliy ma'naviyat, milliy madaniyat, milliy tafakkur millatni millat sifatida tanitadigan, uning borligini bildirib turadigan muhim unsurlardan biri bo'lsa-da, bularning bari

⁷ Hamzatov R. *Mening Dog'istonim*. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2011.

⁸ Muhammad Yusuf, Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Xotiralar. — T.: "Sharq", 2007. – B. 351–352.

⁹ Mahmudov N. *Tilimizning tilla sandig'i*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 152.

¹⁰ Maqola "Turkiston" gazetasining 1923-yil 11-aprel sonida "Q" imzosi bilan bosilgan, keyin "Adabiyot nadir" maqolalar to'plamida qayta chop etilgan.

milliy til orqali yuzaga chiqadi. Dunyo olimlarining faraziga tayanadigan bo'lsak, globallashuv sabab 600 ta til iste'moldan chiqib, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Tillarning yo'qolishi esa, madaniyatlarining, tarixlarning, millat va mamlakatlarning yo'qolib ketishi demakdir. Shu o'rinda, sergak tortishimiz zarur. O'zbek tilimizni globallashib borayotgan davr muammolaridan qanchalik asray o'lyapmiz. Uning barhayot yashashi uchun nima karomatlar ko'rsatayapmiz?

Jadid ma'rifatparvarlari bu o'rinda ham bizga ibrat bo'la oladi. Abdulhamid Cho'lponning (1897–1938) "Tilimizning ishlanishi" nomli maqolasi yozilganiga va bosilganiga qariyb 100 yil to'ldi. Uni o'qiyturib, shu muddat ichida ona tilimizning boshidan kechirganlarini his qilib, ichingiz uziladi. Shoyadki, ushbu dilgir maqola bugunning millionlab tarmoqparastlari "til"ni sal bo'lsa-da isloh qilsa.

"Qog'ozlarining yaxshilig'i, harflarining ochig'lig'i, rasmlik chiqib turishi jihatidan bu gazetalarimiz orasida birinchi o'runni tutadir. Xalqimiz nodon, kitob mutolaaga rag'batsiz. Uni shunga o'rgatmak va qiziqitirmoq uchun matbuotning ochiq, aniq, chiroyliq bosdirilishi juda ahamiyatlidir. Turkiston, Buxoro va Xiva gazetalariga bunga ayrim diqqat qilishlari kerak".¹⁰

Biz bugungi murakkab davrda tilimiz himoyasi uchun maydonga chiqishimiz va uni asrab qolish uchun bosh qotirishimiz shart. Milliy tilimiz kelajagi haqida qancha ko'p o'ylab, shunga monand amaliy harakatlarimizni amalga oshirsak, milliy madaniyatimiz, milliy tariximizga ham bap-baravar munosabat qilgan bo'lamiz. Avvalo, tilning o'zi katta bir madaniyat bo'lsa, madaniyat ham o'z navbatida til orqali yuzaga chiqadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, biz milliy madaniyatimizni asramoqchi va bu bilan o'zbek xalqining borligini dunyoga bot-bot eslatib turmoqchi bo'lsak, birinchi o'rinda milliy tilimiz kelajagi, ravnaqi haqida qayg'urishimiz shart.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarimizni aytib o'tishni lozim topdik.

Eng avvalo, ona tilimizning o'z yozuviga, davlat tili maqomiga egaligi, 40 mln dan ortiq so'zlashuvchisi borligi kishini xursand qiladi. Biroq uning axborot kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tili darajasiga ko'tarilmayotganini tan olishimiz kerak. Bu borada tegishli ilmiy tadqiqot muassasalari va markazlar konseptual xarakterdagi nazariy, amaliy va tashkiliy ishlarni muntazam olib borishlari lozim.

Ikkinchidan, *xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan ekan, madaniyatni xorijiy til bilan birga o'rgatish amaliyotini yanada keng va chuqurroq qo'llay boshlash kerak.*

Uchinchidan, *jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti, ayniqsa, kelajagini o'ylasak, lotin alifbosini mustahkamlashimiz zarur. G'arb sivilizatsiyasi tomon harakat qilar ekanmiz, alifboni tanlashda buni albatta hisobga olishimiz shart. G'arb dunyosidagi taraqqiy etgan millatlarning deyarli barchasi lotin alifbosi asosidagi milliy alifbolar bilan ish yuritadi. Umuman, lotin alifbosi – dunyoda keng tarqalgan alifbo.*

To'rtinchidan, *til va madaniyat kombinatsiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilishi kerak. Bu madaniyatlararo kompetentlikni faol yuzaga chiqarish, samarali va unumli muloqotni ta'minlashda asosiy o'rin tutadi.*

Beshinchidan, *so'zlashuvchilarning muhabbatiga ega-ligidan tashqari, ziyolilarning tillarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida qayg'urishlari va mutasaddilarning esa bir yoqadan bosh chiqarib tashkiliy yo'l bilan kurashishlari juda ham zarur.*



VI BO' LIM

KO'NGIL SO'ZLARI

Hikmat RAJABOV,
O'zDSMI "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasi professori v.b.

ABDREIM SULTONOV IJODIGA BIR NAZAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Berdaq nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, sozanda, dirijyor va kompozitor Abdreim Sultonovning qoraqalpoq xalq musiqa san'ati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi bayon etiladi. Shuningdek, bu xassos san'atkorning ijodiy faoliyati, bizgacha yetib kelgan asarlari, qoraqalpoq xalq musiqasining boy hazinasini tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, drama, kompozitor, dirijyor, pyesa, komediya.

Хикмат РАДЖАБОВ,

и.о. профессор кафедры «Инструментального исполнительства» ГИИКУз

ВЗГЛЯД НА ТВОРЧЕСТВО АБДРЕИМА СУЛТАНОВА

Аннотация. В данной статье описано деятельность Заслуженного деятеля Узбекистана и Каракалпакстана, лауреата Государственной премии имени Бердаха, музыканта, дирижера и композитора Абдреима Султанова – одного из самых известных представителей каракалпакской музыки. Он является представителем искусства, сохранивший в своем творчестве богатейшие сокровища каракалпакской народной музыки.

Ключевые слова: музыка, искусство, драма, композитор, дирижёр, пьеса, комедия.

Hikmat RADJABOV,

associate professor, of "Instrumental Performance" chair of UzIAC

A LOOK AT THE WORK OF ABDREIM SULTANOV

Annotation. This article described Honored Artist of Uzbekistan and Karakalpakstan, laureate of the Berdakh State Prize, musician, conductor and composer Abdreim Sultanov is one of the most famous representatives of Karakalpak music. He is a representative of the arts who have preserved with their creativity the richest treasure of the Karakalpak folk music.

Key words: music, art, drama, composer, conductor, piece, comedy.



O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Berdaq nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, sozanda, dirijyor va kompozitor Abdreim Sultonov qator yaratgan asarlarida Qoraqalpoq xalq musiqasining boy musiqa merosini tiklash yo'lidagi xizmatlarining mevasi o'laroq O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi¹ safiga 1989-yilda qabul qilingan².

A.Sultonovning Qoraqalpoq xalq musiqasi hazinasiga qo'shgan hissasi naqadar beqiyos ekanligi, uning Qoraqalpoq an'anaviy musiqa uslubiga zamondosh shoirlarning she'rlari asosida bastalagan rang-barang qo'shiqlari-yu, raqs kuylari va boshqa bir qator janrlarda yaratgan asarlari orqali

namoyon bo'ladi. Uning jozibali qo'shiqlari, musiqali drama va komediyalari, xalq cholg'ulari orkestri uchun yaratgan bir qancha asarlari yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lgan.

Ana shunday musiqiy merosni, ijodkorning ibratli hayoti va samarali faoliyatini o'rganish va targ'ib qilish, kelajak vorislarga bekamu-ko'st yetkazish ijod ahlining yuksak vazifasi hisoblanadi.

Abdreim Sultonov 1930-yilning 15-avgustida Qoraqalpog'istonning Chimboy shahrida, dehqon oilasida dunyoga kelgan. 1937-yildan shahardagi umumta'lim maktabida o'qiydi. Bu yerdagi musiqa to'garagida garmon, mandalina va skripka chalishni qunt bilan o'rganadi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanganda yosh Abdreim Chimboy tumanlararo kolxoz-sovhoz teatridagi cholg'u ansamblida skripka chalishga taklif qilinadi³. Bu yerda u o'zining chiroyli ijrolari va namunali xulqi bilan yosh iste'dod egasi kelajakda mohir musiqachi bo'lib yetishishini namoyon qiladi. Shuningdek, Abdreim Nukus musiqa bilim

¹ Hozirgi vaqtda "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi" deb yuritiladi.

² Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 338-bet.

³ Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 339-bet.

yurtida o'qib yurgan kezlarda o'zining ijrochilik mahorati bilan har tomonlama yuqori texnika sohibi, qoraqalpoq musiqasining ajoyib targ'ibotchisi ekanligi bilan ajralib turadi. U 1950-yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlaydi. Qoraqalpoq Respublikasi rahbariyatining taklifi bilan Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga yuboradi. U konservatoriyada professor B.Reyson sinfida skripkadan 3-kursgacha saboq olib, so'ngra g'ijjak sinfida tugatadi. U bir vaqtning o'zida kompozitorlik fakultetida ham tahsil oladi. 1955-yilda Toshkent davlat konservatoriyasini tamomlaydi⁴.

O'sha yildan Qoraqalpoq musiqali teatrlarining simfonik orkestriga bosh dirijor sifatida o'z faoliyatini boshlaydi. U bu dargohda ikki yil davomida turli musiqali spektakllarga dirijorlik qilib, o'zining mahoratini yanada oshiradi. Uning simfonik orkestr uchun Boris Giyenko bilan hamkorlikda "Qoraqalpoqcha syuita" poemasi (1956) va kompozitor Fattoh Nazarov bilan hamkorlikda "Ravshan" (J.Oymirzayev pyesasi asosida) musiqali komediyasi (1956) musiqi ixlosmandlariga tuhfa etiladi. Kompozitor 1957-yilda O.Halimov bilan hamkorlikda "Baxt" musiqali dramasi, 1961-yili "Kirli sokpaklar" (S.Xojaniyozov, Seytniyazov va Kalibetov pe'salari asosida) musiqali drama va komediyasini, X.Turdiyulov bilan hamkorlikda "Arular" (S.Xojaniyozov pyesasi asosida) musiqali komediyalarini yaratadi.

Abdreim Sultonov 1957–1963-yillarda Berdaq nomidagi filarmoniya qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri badiiy rahbari va bosh dirijori lavozimida, 1963–1965-yillarda Nukus davlat musiqa va xoreografiya bilim yurtida o'qituvchi va mudir vazifasida, 1965–1968-yillarda filarmoniyaning ashula va raqs ansambliga badiiy rahbar, 1968–1972-yillarda Stanislavskiy nomidagi musiqali teatrlarining simfonik orkestri bosh dirijori, 1972–1977-yillarda qoraqalpoq teleradiosi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri badiiy rahbari va bosh dirijori lavozimida ishlab, o'zining pedagogik faoliyatini davom ettiradi.

Uning kompozitorlik faoliyati quyidagi asarlarida yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Ayniqsa, 1968-yili "Aktrisaning iqboli" (I.Yusupov pyesasi) musiqali dramasi, xalq cholg'ulari orkestri uchun "Qozoqcha rapsodiya", "Oramal raqs", "Xarmaniz raqs", "1-syuita", "Qoraqalpoqcha xor-raqs" syuitasi, "2-syuita", "3-syuita", "Altin kadli jaslar kosigi" valsi, "Ballada", "Xorezmcha syuita"si, "g'ijjak va orkestr uchun syuita"si, "Qoraqalpoq yoshlari syuita"si, kompozitorga katta shon-shuhrat keltiradi. Kompozitorning ijodida qo'shiq janri ustivor ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "Bog'man qiz", "Belarus do'stlar", "Gulzarxon", "Dugonalarim", "O'zbekistonim", "Qizlar", "Turkmeniston go'zali", "Selikesh qizga" (J.Aymurzayev so'zi), "Amangul", "Guljon", "Jaslik salti" (T.Saytjonov so'zi), "Saudigim", "Amudan solinda dostlik", "Bir pari", "Barsanba", "Sadaga", "Kecha kelmedi", "Bar sen be", "Beri kel", "Shitki jan", "Kerak", "Dilbarim", "Bibigul", "Gul" (Ajiniyazov so'zi), "Muhabbatim salam", "O'zbek qizi lolaxon", "Altin daryalik tinch", "Emuli atlagan jollaring sening", "Kizding keuli kizil gul" (I.Yusupov so'zi bilan) kabi va boshqa⁵ ko'plab qo'shiq janrida ijod qilgan asarlari xalq musiqasi shinavandalari ko'nglidan joy olib ulguradi.

4. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1996. 112-bet.

5. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2004-yil, 340-bet.

6. Azimov K. O'zbekiston dirijyorlari. – T.: 2001-yil. 166-bet.

7. Azimov K. O'zbekiston dirijyorlari. – T.: 2001-yil. 166-bet.

Abdreim Sultonovning "Baxt", "Dilbarlar", "Qirli so'qmoqlar", "Artist taqdiri", "Orol ovozi" kabi dramatik spektakllarga yozilgan musiqalari yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lgan. 1956-yilning oxirida Toshkentda bo'lib o'tgan qoraqalpoq san'ati va adabiyoti o'n kunligida A.Sultonov rahbarligidagi qoraqalpoq xalq cholg'ulari orkestri birinchi bor o'zining ijrochilik san'atini namoyish etadi. Bunda orkestr Fattoh Nazarovning "Qoraqalpoq rapsodiyasi" va A.Sultonovning "Bagman qiz" qo'shig'ini ijro etgan. A.Sultonov ushbu yillar davomida orkestrni takomillashtirilgan xalq cholg'ulari bilan ta'minlaydi, orkestr tarkibini professional sozandalar bilan kuchaytirdi, orkestr repertuarini boyitdi⁶.

1957-yili "Qoraqalpoq'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi", 1969-yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" faxriy unvoni, 1974-yili "Berdaq nomidagi Davlat mukofoti laureati" unvonlariga munosib ko'riladi.

Ayniqsa uning Qoraqalpoq'iston xalq cholg'ulari orkestridagi faoliyati mazkur orkestr repertuaridagi boy musiqa asarlarini yangrashiga sazovor bo'ldi. Shu o'rinda Qoraqalpoq'iston xalq cholg'ulari orkestrining yaqin tarixi va ayni davrdagi faoliyati xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Orkestrda dunyo xalqlarining musiqalari ijro etilishi, orkestr o'z repertuariga ko'plab millatlar kuy va qo'shiqlarini kirishi uchun harakat qiladilar. Buning natijasida orkestrda rang-barang repertuarlar shakllanib boradi.

A.Sultonov "orkestr bilan ko'p ijodiy safarlarda bo'lib, tinglovchilarni qoraqalpoq xalq kuylari va qo'shiqlari, kompozitorlar asarlari, ko'povozlik klassik musiqalar bilan tanishtirib bordi. Shu yillari A.Sultonov rahbarligidagi qoraqalpoq xalq cholg'ulari orkestri respublikada yagona jamoa bo'lib, cholg'u musiqasining targ'ibotchisi bo'lib qoldi"⁷.

Abdreim Sultonov 1982-yildan umrini oxirigacha J.Shomurodov nomidagi musiqa bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishladi.

Hozirgi kunda orkestr repertuaridan joy olgan bir qancha asarlar, shuningdek, Qoraqalpoq'iston filarmoniyasi konsert dasturlarida ijro etilgan jami yuzdan ortiq asarlar filarmoniya fonotekasida saqlanib kelmoqda.

2021-yilning 5–16-aprel kunlari yoshlarni kasb mahoratini oshirish ularni musiqa san'atiga bo'lgan qo'shiqlarini yanada oshirish maqsadida Qoraqalpoq'iston davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestri hamda yoshlar xalq cholg'ulari orkestri bilan hamkorlikda Qoraqalpoq'iston Respublikasining bir qator tumanlariga konsertlar, ijodiy uchrashuvlar va mahorat darslari tashkil etildi. Jumladan, Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlari bolalar musiqa va san'ati maktablari hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialida bo'lgan mahorat darslari juda samarali bo'ldi.

Qoraqalpoq'iston Respublika Madaniyat vazirligining ikkinchi bor taklifiga binoan 2021-yilning 1–5-noyabr kunlari ham yana ijodiy safarda bo'ldim. Bunda O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali va O'zDSMI Nukus filiallarida mahorat darslari hamda konsertlar tashkil etildi.

Qoraqalpoq'iston Respublikasi musiqa ijrochilik madaniyatini qanchalik jadal rivojlanib borayotganligini, ustozlar an'anasini davom etayotganligini guvohi bo'ldik. Yetuk mutaxassis professorlar xalq cholg'ulari ijrochiligi san'atini targ'ib etib, Qoraqalpoq musiqa madaniyatini yanada ravnaq toptirish uchun astoydil harakat qilishmoqda.

Iqbol MELIQO‘ZIYEV,
O‘zDSMI “Ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini mudiri, professor v.b.

ABDURAHIM ISMOILOV – KINOOPERATOR, KINOREJISSOR, USTOZ

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek badiiy kinematografiyasi kinooperatorlik maktabining yorqin namoyondasi, usta ijodkor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, davlat mukofoti sovrindori, professor Abdurahim Ismoilovning ijod yo‘li, uning kinooperator sifatidagi tasviriy uslubi tadqiq qilinadi. Shu bilan birga atoqli kinooperatorning yaratgan filmlari, ulardagi tasviriy ifodalilik, obrazlilik, tasviriy yechim xususiyatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari Abdurahim Ismoilovning teatrdagi, kino san‘atidagi rejissorlik faoliyati, rejissor sifatida yaratgan ilk filmlari tahliliy o‘rganilgan, taniqli kinooperatorning mustaqillik yillarida suratga olgan badiiy filmlari, ulardagi tasviriy stilistika, ijodkor shaxsning pedagogik faoliyati ham o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: san‘at, kino, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, badiylik, yorug‘lik, rang.

Икбол МЕЛИКУЗИЕВ,
заведующий кафедрой “Звукорежиссуры и операторского мастерства”,
и.о. профессора ГИИКУЗ

АБДУРАХИМ ИСМАИЛОВ – КИНООПЕРАТОР, КИНОРЕЖИССЕР, УЧИТЕЛЬ

Аннотация. В данной статье исследуется творческий путь профессора Абдурахима Исмаилова, яркого представителя узбекского художественного кинематографа, узбекской школы кинематографии, заслуженного деятеля искусства Узбекистана, лауреата Государственной премии, его живописный стиль как кинематографиста. При этом изучались фильмы, созданные известным кинооператором, особенности их выразительности, образности, визуальных решений. Кроме того, аналитически исследована режиссерская деятельность Абдурахима Исмаилова в театре и в киноискусстве, его первые фильмы как режиссера. Также изучаются художественные фильмы, созданные кинооператором за годы независимости, их изобразительная стилистика, а также педагогическая деятельность творческой личности.

Ключевые слова: искусство, кино, кинооператорская школа, творчество, выразительность.

Iqbal MELIKUZIYEV,
acting professor of “Sound direction and cameraman skill” chair of UzSIAC

ABDURAKHIM ISMAILOV – GREAT CAMERAMAN, DIRECTOR AND TEACHER

Abstract. This scientific article explores the creative path of Professor Abdurakhim Ismailov, a prominent representative of Uzbek art cinema, the Uzbek school of cinematography, Honored Artist of Uzbekistan, laureate of the State Prize, his painting style as a cinematographer. At the same time, films created by a famous cameraman were studied, the features of their expressiveness, imagery, visual solutions. In addition, the directorial activity of Abdurakhim Ismailov in the theater and in the cinema, his first films as a director is analyzed analytically. It also studies feature films created by the cameraman during the years of independence, their pictorial style, as well as the pedagogical activity of a creative person.

Keywords: art, cinema, cinematography school, creativity, expressiveness.



Inson ongiga ma‘lum g‘oyani singdirishda kino san‘atining o‘rni va imkoniyatlari beqiyosdir. Teatr, tasviriy san‘at, musiqa, adabiyot unsurlarini o‘zida mujassam etgan ekran san‘ati bir tomondan – jamiyatda kechayotgan jarayonlarga badiiy, falsafiy, estetik umumlashmalar nuqtai nazaridan yondashsa, ikkinchi tomondan – unga xos bo‘lgan ommaviylik bu umumlashmalarni katta-katta auditoriyalarga maroqli va ta‘sirchan shakl-shamoyilda yetkazib berish imkonini yaratadi.¹

Sintetik san‘at turi – kinoning o‘ziga xosligi kinoqahramonlarning ichki dunyosi so‘z bilan, o‘y-xayollari operator orqali yirik, o‘rta va umumiy planlarda, rejissorning topilmasida,



kompozitorning qahramon tabiatiga monand kuy-qo‘shiq yarata bilishida o‘z aksini topadi. To‘g‘ri tanlangan mavzu, g‘oya, muhimi, rejissorlik yechimi kabi umumlashmalar tomoshabinni film davomida ro‘y berayotgan voqea joyiga pinhona yetaklaydi.

¹ Iqbal Melikuziyev. (2020). Cinematographer’s ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554 - 1567. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>

Kino san'atining o'ziga xos qonun-qoidalari asosida yaratilgan ekran asari namoyishi davomida tomoshabin kinoqahramon yashab turgan makonda birga nafas oladi, dardlariga darmon, shodliklariga shirik bo'ladi.

Milliy kino san'ati tarixidan ko'plab badiiy tajribalar, ijodiy parvoz va inqirozlar, kino san'ati an'analari, o'ziga xos milliy maktabning shakllanishi, janr-mavzuviy izlanishlar joy olgan. Tan olib aytish kerak, yil sayin o'zbek kino san'ati badiiy, uslubiy, g'oyaviy, tasviriy va ifodaviy jihatdan takomillashib bormoqda.

Hozirda o'zbek kino san'ati dunyo miqyosida o'tkazilayotgan kinofestivallarda qatnashib kelmoqda. So'nggi yillarda yoshlar ijodida o'ziga xos filmlar soni ortib bormoqda. Yutuqlar bilan faxrlanish yaxshi, ammo hali kino san'ati oldida o'z yechimini kutayotgan muammolar anchagina. Shu nuqtai nazardan qaralganda, atoqli ustoz kinooperatorlarning ijodini, ularning tajribalarini, ijodiy uslublarini chuqurroq o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Shu o'rinda aytish lozimki, operator Abdurahim Ismoilov bugungi kunda ham iqtidor, ham iste'dod sohibi hisoblanadi. Ana shu inson haqida gap ketganida, iqtidor, istedod degan tushunchalar xayolga kelaveradi.

Abdurahim Ismoilovda bolalikdan suratga olish qobiliyati rivojlana boshlagan. Urushdan keyingi yillarda 1950 – 1960-yillar Toshkentdagi 85-umumta'lim maktabida tahsil oldi. 1957–1960-yillarda “Kinofoto” to'garagiga qatnashgan. Shu orqali o'zida mavjud bo'lgan qobiliyatini tarbiyalashga kirishgan. Kinochilik va fotografiya sirlarini o'rgana boshlagan. Mustaqil ravishda fotolar ola boshlagan. Filmlar suratga tushirgan. 1960-yil maktabda o'qib yurgan chog'lari Chexoslovakiyaning Karlovo-Vari shahrida o'tkazilgan I-Xalqaro yosh havaskor filmlar kinofestivalida “Eng yaxshi havaskor filmi uchun” nominatsiyasida 1-o'rinni egallagan, “Oltin sovrin” va Diplom bilan mukofotlangan. Bu o'z navbatida Abdurahim Ismoilovda mavjud qobiliyatning dastlabki bahosi bo'ldi. Omilkorlik bilan tarbiyalanayotgan qobiliyat endi iqtidor darajasiga o'sib boradi.

1963 – 1969-yillari O'zbekiston televideniyesida operatorlik lavozimida ishladi. 1963-yili o'z bilimini yanada oshirish va iqtidorini mustahkamlash maqsadida, Butunittifoq davlat kinematografiya institutining “Kinooperatorlik” bo'limiga o'qishga kirdi va uni 1967-yili muvaffaqiyatli tamomlagan.

Shu yildan e'tiboran “O'zbekfilm” kinostudiyasida faoliyat yuritdi. 1970 – 2006-yillar ichida Abdurahim Ismoilov postnovkachi operator sifatida yuzdan ortiq badiiy va hujjatli filmlarni suratga oldi. Ularning aksariyati mutaxassislar va tomoshabinlar tomonidan yuksak baholandi, Respublika va xalqaro darajadagi kinofestivallar mukofotlariga sazovor bo'ldi. Sharafli mehnati, o'zbek kino ravnaqiga qo'shgan ulkan hissi uchun 1979-yili Abdurahim Ismoilov O'zbekiston davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston kino san'ati taraqqiyotiga qo'shgan hissi uchun unga 1983-yili O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berildi.

Abdurahim Ismoilov iqtidorini iste'dodga aylantirish yo'lida yana bir muhim qadam qo'ydi. 1979 – 1983-yillar Toshkent davlat teatr va rassomlik institutining rejissorlik bo'limida tahsil oldi. Uning rejissorlik diplom ishi F.Dyurrenmatning “Avariya” televizion spektakli Respublika bosqichida katta muvaffaqiyat qozondi. Xalqimizda: “Bir oqqan daryo yana oqadi”, degan naql bor. Ajdodida buyuk siymolar o'tgan avlod farzandlari orasidagi biror iste'dod egasi bo'y ko'rsatganida, bu ibora tilga olinadi. Iste'dod tug'ma, irsiy ne'mat hisoblanadi.

Iste'dod egalari kamyob bo'lishadi. Demak iste'dod egasi noyob hodisa ekan, ularni avaylash va qadrlash zarur. Iste'dod egalari millat yuzi va ma'naviy boyligidir.

Abdurahim Ismoilov yorqin iste'dod sohibi sifatida 1991-yil Toshkent davlat san'at institutida “Kinoteleoradio san'ati” fakultetini tashkil etishda bevosita ishtirok etdi. Fakultet qoshida “Kinoteleoperatorlik” bo'limi va kafedrasiga asos soldi. Shu yildan e'tiboran Abdurahim Ismoilov ijodiy faoliyatini murakkab pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda olib bormoqda. Hozirgacha mashhur operator-pedagog yuzlab yuksak mahoratli operator va rejissor shogirdlarni tayyorlagan. Bu bilan Abdurahim Ismoilov o'zini faqat yetuk ijodkor sifatidagina emas, balki yuksak malakali pedagog sifatida namoyon etdi.

Kinoteleoperatorlik sohasi murakkab hisoblanadi. Bu sohaga talabalarni o'qitish uchun ham nazariy, ham ommaviy tayyorgarlik talab qilinadi. Yuksak malakali operator bo'lganligi uchun Abdurahim Ismoilov ommaviy tomonini hech qanday tayyorgarliksiz darsliklarni olib boraverdi. Darslikning nazariy asosini ta'minlash maqsadida, urushdan keyingi yillarda o'ndan ortiq dastur, sakkizta o'quv qo'llanma yaratdi, yaqinda esa “Kinoteleoperatorlik mahorati” nomli yagona darslikni chop etdi. “Kinoteleoperatorlik” bo'limi o'qituvchilari va talabalari uning o'quv qo'llanmalari va darsligidan samarali foydalanmoqdalar. O'n sakkiz bosma taboqdan iborat ushbu darslik mustaqillik yillarida san'at pedagogikasi sohasida erishilgan muhim yutuq hisoblanadi.

Abdurahim Ismoilov chet ellardagi hamkorlar bilan birga ijod qilish sohasida barakali natijalarga erishmoqda. 1980-yillar oxirida Marokashlik iqtidorli rejissor Suxiel Benbarka bilan hamkorlikda sakkiz qismli “Uch qirol jangi” nomli televizion film hamda ikki seriyali universal ekranli “Uch qirol jangi” badiiy filmni postanovkachi rejissor sifatida tasvirga oldi. Bu film Marokash, Italiya, Ispaniya hamda O'zbekiston davlatlari bilan hamkorlikda suratga olindi. Filmni suratga olish chog'ida Abdurahim Ismoilov dunyodagi mashhur ijodkorlar bilan muloqotda bo'ldi, ulardan ko'p narsalar o'rgandi, ular ham o'z navbatida, Abdurahim Ismoilovdan rejissorlik va operatorlikning sirlarini o'rgandilar. Bu uchrashuvlar uning professional darajasini oshishga ijobiy ta'sir qildi.

“O'zbekfilm” kinostudiyasida rejissor sifatida “Ehtiros qurbonlari” (1993-yil), “Qismat” (2002-yil) badiiy filmlarni yaratdi. Bu filmlar uchun Abdurahim Ismoilov kinematografiya uyushmasining maxsus sovriniga sazovor bo'ldi. Filmlarda zamonga xos bo'lgan muammolar ko'tarib chiqiladi va ikki yoshning muhabbati misolida hal qilinadi. Qahramonlar bizning zamondoshlarimiz, bizning hayot tarzimiz ularga ham xos. Shuning uchun Abdurahim Ismoilov yaratgan kartinalar qalbga yaqin. Mazkur filmlarda rejissorning ijodiy dastxati va husnixati yaqqol seziladi.

Abdurahim Ismoilov rejissorlik va operatorlik faoliyatining dastlabki paytlarini shunday eslaydi: “1958-yili “Moskva” jurnalining qaysi bir sonida Toshkentlik yosh havaskor kinochilar “Moskva tabassumi” nomli film olayotganimiz haqida yozildi. Keyinchalik bu “Yunfilm” bolalar kinostudiyasi lentasi mashhur bo'lib ketdi, urushdan keyingi yillarda ko'paytirilib mamlakatdagi barcha telestudiyalarda namoyish etildi. Ishimiz “Karlova-Varida” o'tkazilgan hafaskor filmlar xalqaro kinofestivalida faxrli diplom bilan taqdirlandi. Bunga ham ancha yillar bo'lib qoldi. Bu havaskorlik filmni yaratishda ishtirok etgan barcha yigitlar keyinchalik professional kinematografchi bo'lib ketdi. Temur Komilov Moskvadagi hujjatli filmlar markaziy studiyasida rejissor, Yevgeniy Ginzburg markaziy televideniye rejissori bo'lib ishlayapti. Men ham professional operator sifatida “O'zbekfilm” kino studiyasida ishlayapman...

Mashhur rejissor, O'zbekiston xalq artisti Shuxrat Abbosov bilan birga “Olovli yo'llar” nomli ko'p qismli televizion filmni suratga oldik. Operator sifatida yigirmadan ortiq

hujjatli va badiiy filmlarda ishtirok etdim. Ulardan ko'pchiligi kinofestivallarning diplomlari va mukofotlariga sazovor bo'ldi. Shu asosda Moskvada havaskor sifatida film olib yurib, havaskorlardan haqiqiy mutaxassis bo'lib ketdik. Ana shu dastlabki qadamim mening keyingi hayotimni belgilab berdi. Men o'z taqdirimdan mamnunman”...

Darhaqiqat, Abdurahim Ismoilov uchun kino hayot tarziga aylanib qoldi.

Birinchi navbatda, Abdurahim Ismoilov kino sohasiga osoyishta, shov-shuvsiz kirib keldi.² Negaki, urushdan keyingi yillarda dastlab, “O‘zbekfilm”ga kelganida u yerda M.Krasnayanskiy, X.Fayziyev, D.Fatxullin, T.Eftimovskiy, D.Salimov kabi yetuk operatorlar ishlar edi. O‘z ishini ustasi bo‘lgan bu operatorlar yosh mutaxassislarga ta‘sir etmay qolmadi. “Shiddat” filmi Abdurahim Ismoilovning dastlabki ishlaridan biri hisoblanadi. Asar syujeti, konflikt yo‘nalishi bo‘yicha unchalik yangilik emas edi. Lekin operator ham, rejissor ham film qahramonlariga bo‘lgan munosabatini postanovkani izchil, puxta hal etganligidan bilsa bo‘ladi. Film ekranga chiqqandan keyin yosh operator sha‘niga iliq fikrlar bildirildi. 1970-yillardan boshlab Abdurahim Ismoilov haqiqiy professional operator sifatida o‘nlab filmlarni suratga oldi.

Operator suratga olgan “Tog‘ mirobi” hujjatli filmi Olmatoda bo‘lgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Respublikasi kinofestivalida “Eng yaxshi operatorlik ishi uchun” diplom bilan taqdirlandi.

XX asrning 70-yillarida “Saraton”, “Birinchi yo‘lovchilar”, “Chegara shu yerdan o‘tadi”, “Qo‘qon voqeasi”, “O‘zgal baxti” filmlarini suratga oldi. Bu filmlarda yosh ijodiy izlanuvchan operatorning yuksak professional mahoratini e‘tirof etamiz.

“Birinchi yo‘lovchilar” filmni yaratilishi oson kechmadi. Syujetdagi g‘alazliklar sabab, ssenariy yo‘l-yo‘lakay qayta ishlanar edi. Shularga qaramay, film ijodkorlari bu qiyinchiliklardan cho‘chimadi va zamon ruhi bilan yo‘g‘rilgan chinakam ijod mahsulini yuzaga keltirdi. Bu muvaffaqiyatda Abdurahim Ismoilovning hisssasi katta bo‘ldi.

Abdurahim Ismoilov “Qo‘qon voqeasi” filmi uchun “Hamza” mukofotiga sazovor bo‘lgan edi. Negaki, o‘sha davrlarda film ekranlarga chiqishi bilan unga san‘atdagi voqea sifatida qaraldi, unga nisbatan tomoshabinlarning qiziqishi ortdi. Operatorning mahorati o‘laroq film yaxshi tabiiy sharoitda, eng maqbul muhitda olingan edi. Shuning uchun filmda tasvirlanayotgan voqealar ham, qahramonlar ham bo‘rtib ko‘rinib turar edi. Nozik didli tomoshabinning talabiga to‘la javob berar edi.

Abdurahim Ismoilovga navbatdagi muvaffaqiyatni “O‘zgal baxti” filmi keltirdi. Ashxabodda bo‘lib o‘tgan Butunittifoq kinofestivalida bu film qishloq hayotini haqqoniy aks ettirgan asar sifatida tan olindi.³ Negaki asarda qishloq hayoti, muammolari, qiziqishlari, intilishlari badiiy jihatdan to‘lato‘kis ochib berilgan. Operator Abdurahim Ismoilov film uchun eng yaxshi sharoitlarni tanlagan edi. Filmda ishtirok etayotgan qahramonlar xarakteriga mos bo‘lgan muhit tanlandi. Shuning uchun ham har bir qahramon xususiyati yuqori darajadagi aniqlikda ochib berildi. Filmlarni suratga olish chog‘ida operator o‘zining eng yaqin hamkori bo‘lgan rejissor bilan har bir ishorasini darhol ilg‘ab oladi. Shu o‘rinda Abdurahim Ismoilovning rejissura sohasida olgan bilimlari ham unga katta yordam beradi.

² Melikuziyev, I. (2020). Cinematographer's ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1554–1567.

³ Абул-Касымова Х., Тешабаев Ж., Мирзамухаммедова М. Кино Узбекистана. – Т.: Изд-во лит. и искусства им. Г.Гуляма, 1985 г.-80 б.

⁴ Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari - T.: o'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 78-bet.

Mustaqillik yillarida Abdurahim Ismoilovning faoliyati yanada kengaydi. U endi yangidan-yangi rejalar asosida ijod qila boshladi, millatimizning o‘ziga xosligini badiiy ifodalab berishga intilyapti. Shu yillarda u 17 qismli “Turkistonda so‘nmagan quyosh” nomli filmni suratga oldi. Bu filmda vatanimiz va vatandoshlarimiz taqdiri hikoya qilinadi. So‘ngra 5 qismli “5-raqamli kamera”, 1992 – 1994-yillari Turkiyaning “Afitash” filmlarini suratga olishda ishtirok etdi. Har bir filmga operator o‘z qalb qo‘rini bag‘ishlagani uchun ham uning filmlari muvaffaqiyat qozonaverdi.

A.Ismoilov 2004-yili Gollivud kinostudiyasining rejissori K.Mashaexning “Umar Xayyom” nomli filmni suratga olishda postanovkachi-operator sifatida qatnashdi. Bu Abdurahim Ismoilovning iqtidorini kinosanoatining eng cho‘qqisi bo‘lgan joylarda ham tan olinganligining belgisidir.

Keyingi yillarda ustoz ijodkor “O‘zbekfilm” kinostudiyasida “Kichkina tabib”, “Oyijon”, “Ayol zoti”, “Osmondagi bolalar 1, 2”, “Vatan” nomli badiiy filmlar, “Imom al Buxoriy”, “Ahmad al-Farg‘oniy” singari hujjatli filmlarni kinotasvirga olishda sahnalashtiruvchi operator sifatida ishtirok etdi.

Suratga olingan har bir film o‘zining haqqoniyligi, hayotiyligi, ixtirolarga boyligi, jamiyat hayotidagi muhim muammolarni dadil ko‘tarib chiqishi, oddiy kishilar hayotiga esh bo‘lishga intilish singari xislatlari bilan ajralib turadi. Abdurahim Ismoilov operatorlik va rejissorlik mahorati takomillashib borgan sayin mevasiz daraxt bo‘lib qolish nojoiz ekanligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham ijodiy faoliyatni pedagogik faoliyati bilan qo‘shib olib boryapti. U bugungi kunda bo‘lajak operator va rejissorlarning mehribon murabbiysidir.

Uning shogirdlaridan T.Bekmambetov Rossiya va AQShda, A.Darajinskaya Avstraliyada, Abdulla Najib Afg‘onistonda, V.Nikitin Belorussiyada ijod qilmoqda. Ular o‘z ustozlari o‘g‘itlari, o‘zbek operatorlik maktabini unutmaydi. O‘zbekiston teleradiokompaniyasida uning yigirmadan ortiq shogirdlari faoliyat ko‘rsatmoqda.⁴

Abdurahim Ismoilov televideniye va davriy nashrlarda chiqishlar qilib, kino san‘ati haqidagi fikrlar bilan doimo o‘rtoqlashib turadi. A.Ismoilov o‘z malaka va mahoratini oshirish uchun hamon izlanishda, o‘z shogirdlarining tirishqoqligini qadrlaydigan talabchan ustoz. Kino san‘atiga fidoyi, o‘z kasbining mohir ustasi. U doim shogirdlari davrasida.

Ko‘rinadiki, o‘zbek operatorlik san‘ati tarixi ma‘lum darajada Abdurahim Ismoilov nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, bu san‘atning keyingi taraqqiyoti uning faoliyati bilan uyg‘unlashib ketgan. Abdurahim Ismoilov o‘zining tolmas ijodi bilan mustaqillik davrida yangicha ijodiy rivojlanish pallasiga kirgan o‘zbek operatorlik san‘atiga tamal toshini qo‘yganlardan biri bo‘lib qoladi.

Atoqli ustoz operator, professor Abdurahim Ismoilov o‘z ma‘ruzasida shunday degan edi: “...operatorning tasvirga olgan har bir kadri bevosita uning biografiasiga yoziladi. Ertaga kelajak avlod shu tasvirlar orqali bu operatorga baho beradilar. Uning bu tasvirlarni qanday muammolar iskanjasida olganining tomoshabiniga zarracha ahamiyati yo‘q. Shuning uchun ham operator har bir kadri olishda kamera tugmasiga bosishdan oldin yetti o‘lchab bir kesishi lozim...” degan edi. Yana aytgandi-ki, “...operatorning tasvirga olgan filmlariga qarab uning qanaqa inson ekanini, uning tafakkurini, ruhiyatini, ichki dunyosini bilib olish mumkin...”. Haqiqatdan ham shunday.

Kim bo‘lishidan va qaysi yo‘nalishda ijod qilishidan qat‘i nazar, ijodkor eng avvalo, san‘atkordir. San‘at esa xalqni yaxshilikka chorlovchi, o‘z ortidan ergashtirib uni tarbiyalovchi go‘zallikdir. Ana shunday mas‘uliyatli sohada ijod qilayotgan har bir inson avvalo, san‘at, vatan va kelajak avlod oldidagi burch va mas‘uliyatlarini unutmasa bas.

OLIMLAR KAFEDRASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Sahna nutqi" kafedrasining ilk professori Lola Xo'jayevaning mudirlik faoliyati hamda uning rahbarligida kafedraning oliy ta'lim tizimidagi eng tufuzli ilmiy dargohga aylanganligi haqida muhim ma'lumotlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: kafedra, ilmiy daraja va unvon, tashkilotchilik qobiliyati, bag'rikenglik.

Mamur UMAROV,
профессор кафедры «Искусствоведение и культурология» ГИИКУз,
кандидат философских наук

КАФЕДРА УЧЕНЫХ

Аннотация. В данной статье представлена важная информация о деятельности первого профессора кафедры "сценическая речь" Лолы Ходжаевой и о том, как под ее руководством кафедра стала самым престижным научным учреждением в системе высшего образования.

Ключевые слова: кафедра, ученая степень и звание, организаторские способности, толерантность.

Mamur UMAROV,
"Art studies and cultural studies" professor of the chair, etc., candidate of philosophy UzSIAC

DEPARTMENT OF SCIENTISTS

Abstract. This article presents important information about the activities of the first professor of the department "stage speech" Lola Khodzhaeva and how under her leadership the department has become the most prestigious scientific institution in the system of higher education.

Keywords: кафедра, academic degree and rank, organizational ability, tolerance.



Kafedra atamasi yunoncha "kathedra" so'zidan olingan bo'lib, "o'rindiq", "kursi" ma'nosini anglatadi. Uning bugungi ma'nosi – "Oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir necha o'zaro yaqin fanlar bo'yicha ish olib boruvchi professorlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning tashkiliy birlashmasi va shu birlashma joylashgan xona" tushunchalarini anglatadi. Oliy ta'lim tizimida kafedrani mutaxassis olim, o'quv yurtini boshqarayotgan rektor tayinlagan rahbar boshqaradi[1].

O'tgan davr shuni ko'rsatdiki, mutaxassislar jamlangan bunday ilmiy-ijodiy birlashmani kim boshqarishi bilan bog'liq jarayon kafedraning salohiyatini oshiradi yoki tubanlashtiradi. Sababi, kafedra professor-o'qituvchilarini ilmiy xodim darajasiga ko'tarish, ularni o'z sohasining olimiga aylantirish kafedra mudirining tafakkuriga, insoniy salohiyatiga va tashkilotchilik qobiliyatiga bog'liq. 1945-yilda tashkil etilgan Toshkent davlat san'at institutining "Sahna nutqi" kafedrasini boshqargan, O'zbekiston xalq artisti, professor Nazira Aliyeva iqtidorli shogirdlaridan bir qismini kafedraga ishga olib qolgan. Ularning pedagogika salohiyatini oshirib, ilm yo'lida sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlab kelgan. Ana shunday yoshlardan biri Lola Xo'jayeva bo'lgan.

U 1957-yilda Moskvada, "Sahna nutqi" fani mavzusiga oid dissertatsiya yoqlab, san'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi. Lola Xo'jayevaning harakati esa kafedraning yosh xodimlarida ilmga intilishni kuchaytirgan bo'lsa, o'zlariga nisbatan ishonch tuyg'usini jo'sh urishiga xizmat qildi. Oradan ko'p o'tmay olim dotsent unvoniga ega bo'ladi va "Sahna nutqi" kafedrasini mudiri etib tayinlanadi. Shundan so'ng kafedrada Sotimxon Inomxo'jayev, Inoyatulla Po'latov, Mahkam Isroilov, Keldivoy Uzoqov, Adiba Nosirova, Sodiqjon Nosirov, Go'zal Xoliqulovlar kabi olim va olimalar yetishtirishni boshladi.

Kafedraning ijodiy salohiyatini namoyish qilish borasida ham Lola Xo'jayeva yetakchi edi. Masalan, mamlakat miqyosida o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalar yoki davlat tadbirlarida shogirdlari bilan biror she'riy parcha yoki monologni tayyorlab, tadbir dasturiga kiritar edi. U 1975-yili ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 30 yilligiga bag'ishlangan davlat tadbirida ishtirok etish uchun Nikolay Mayorovning "Ми" ("Bizlar") nomli she'rini maqola muallifi bilan ishlab, harbiy libosda kiyintirib, tantana dasturiga kiritgan. Ikkinchi kurs talabasi uchun davlat tadbirida ishtirok etish va rus tilida she'r o'qish katta mas'uliyat edi. Ustoz sahna ortiga o'tib, duo berib, tomosha zaliga tushib ketdilar. Ustozda menga nisbatan ishonch paydo bo'ldi nazarimda, chunki, kafedraning yetakchi olimi Sotimxon Inomxo'jayevga bu talabani Respublika miqyosida o'tkaziladigan – "San'at yoshlar nigohida" nomli ilmiy konferensiyaga tayyorlashni tayinlagan edilar.

Sotimxon Inomxo'jayev menga "Sayram shevasini sahna nutqi fanida tuzatish masalalari" nomli mavzu va masalani yoritadigan adabiyotlar ro'yxatini berdi. Men mavzuga oid olti sahifa qo'lyozma olib kelgan edim. Ustoz esa yana qo'shimcha qaysi adabiyotlardan foydalanish lozimligini ta'kidlab, maqolani qayta ishlash topshirilgan edi. Ustoz qayta ishlangan maqolani uyiga olib ketib, tahlil qilib, konferensiya talablariga mosladi. Menga bir nusxasini berib, qolganini tadbir tashkilotchilariga jo'natdi. Oradan ko'p o'tmay Respublika miqyosida o'tkazilgan konferensiyada ikkinchi o'rinni egallab, g'urur bilan institutga keldim.

Erishilgan natijadan quvongan Lola Xo'jayeva — "Endi bolam, qo'lingga daftar-qalam olib, kafedra o'qituvchilarining darslariga kirgin. Ustozlarning dars o'tishidagi o'ziga xosliklarini sanama-sana yozib yurgin", – dedilar. (Lola Xo'jayeva bilan o'tkazilgan suhbatdan.

1975-yil) Talabalik davrimning uchinchi kursi shunday o'tdi. To'rtinchi bosqichga kelib ham shu amaliyotni davom ettirayotgan edim, badiiy rahbarim Nina Ivanovna – “Nega doim daftar ko'tarib qaysidir kurslarga qatnab yuribsan? – deya so'radi. Shunda Lola Xo'jayevadan ustozlar uslubini o'rganish uchun topshiriq olganligimni aytdim. Biroz o'ylanib turgan Nina Ivanovna esa o'qishni tamomlab, ikki yil “Yosh gvardiya” teatrida ishlashimni, keyin Moskvadagi GITIS institutiga o'qishga borishimni, kafedra mudiri Tursunboy Isroilov bilan shunday fikrga kelishganini ta'kidladi. “Aktyorlik mahorati” fanidan dars beradigan ustozlar kurslariga kirib, ularning uslubini o'rganishimni tayinladilar. Talabalik yillarim doim mehribon ustozlar nazoratida, yetuk olimlar e'tiborida o'tdi.

Oradan yillar o'tib, olimlar safiga qo'shildim. Ustozlar yo'lidan borib, ilmiy daraja olishga intilganlardan

shogirdlar tayyorlayapman. Bugun soch oqarganda, shu darajaga kelishimga kimlar sabab va asos bo'lgani haqida o'ylasam, darhol Lola Agzamovna ko'z oldimga keladi. Ilk bor rus tilida she'r yodlatib sahnaga olib chiqqan, mavzu berib, konferensiyalarda qatnashtirgan, qo'limga daftar-qalam olib, ustozlar uslubini o'rganishga da'vat qilgan, olima, institutning ilk ayol professori Lola Xo'jayeva edi.

O'qishni tamomlaganimdan so'ng “Sahna nutqi” kafedrasiga ishga taklif qilganlarida, kurs rahbarim Nina Ivanovnani fikrlarini aytdimda – “Shunday ulug' dargohda o'qisang, men roziman”, – degan edi. (Nina Ivanovna bilan o'tkazilgan suhbatdan. 1976-yil.)

Bugun Lola Xo'jayevani yuzlab shogirdlari eslaydi. Chunki ilk o'zbek ayol professori, “Sahna nutqi” kafedrasini – olimlar dargohiga aylantirgan va oliy ta'lim tizimidagi eng nufuzli ilm markaziga aylantirgan ustoz bo'lgan.



Foydalanilgan adabiyot:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston, 2020-yil, – B. 335.

Fotimaxon ZUPAROVA,
O'zDSMI "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

USTOZNI YOD ETIB...

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent davlat madaniyat instituti tashkil etilganidan, to umrining oxirigacha shu institutda faoliyat yuritib, o'z bilimi, mahorati va tajribasini shogirdlariga sidqidildan o'rgata olgan kamtarin inson, bag'rikeng ustoz, professor Karimjon Azimovning hayot va ijod yo'li yoritiladi.

Kalit so'zlar: ustoz, yakka dars, badiiy havaskorlik, ko'rik-tanlov, festival, folklor, maqom ansambli, katta ashula, shogird.

Фотимахон ЗУПАРОВА,
старший преподаватель кафедры «Инструментальное исполнительство» ГИИКУз

USTOZNI YOD ETIB...

Аннотация. В данной статье рассказывается наставник Каримджан Азимов, который работал о дня основания Ташкентского государственного института культуры до последних дней своей жизни и преданно посвятил своему делу всего себя отдавая молодёжи свои знания, опыт и мастерство.

Ключевые слова: наставник, индивидуальные занятия, художественная самодеятельность, конкурс, фестиваль, фольклор, ансамбль макаристов, катта ашула, ученик.

Fotimakhon ZUPAROVA,
Great teacher of "Instrumental Performance" chair of UzIAC

USTOZNI YOD ETIB...

Annotation. the present article deals professor Karimdzhan Azimov bright way of life. Being a well educated, person excellent teacher he devoted his full lite to the development of Tashkent institute of culture from its beginning steps, who taught his knowledge, experience and skills to his apprentices and students.

Key words: teacher, conducting art, an individual lesson, artistic hobby, contest, festival, folklore, maqom ensemble, a big song, apprentice.



Ustozim Karimjon Azimov bilan 1974-yil Toshkent davlat madaniyat institutiga kirish imtihoni topshirayotganida tanishganman. Ana shu yili ustozim "Orkestr dirijorligi" kafedrasida mudiri va "Madaniy-ma'rifiy ishlar" fakulteti dekani bo'lib faoliyat yuritardi. Talaba bo'lish baxtiga erishganimdan so'ng, K. Azimovdan "Orkestr sinfi" va "Dirijorlik" fanlaridan saboq oldim.

Karimjon Azimov dirijorlik fanidan yakka darslarni juda qiziqarli o'tardi va shu san'at turiga tegishli qiziq voqealar haqida so'z yuritardi.

Xususan, 1968 – 1970-yillarda maktab o'quvchilaridan iborat badiiy havaskorlik o'zbek xalq cholg'ulari orkestrini tuzib rahbarlik qilganini hamda orkestr jamoasi respublikada o'tkazilgan ko'rik tanlovlarda, festivallarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallaganligini, 1971-yili Moskva shahrida havaskorlik xalq cholg'ulari orkestrlari laureatlarining umumiy konsertida ishtirok etishganini so'zlab bergan edi.

Karimjon Azimov 1987 – 1992-yillari O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi Madaniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha boshqarma boshlig'i, Xalqaro va Respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rik tanlovlarda va folklor festivallarida hay'at raisi, qator xorij davlatlari Germaniya, Fransiya, Belgiya, Shvetsariya, Ispaniya va Hindistonda O'zbekistonning folklor san'atini targ'ibotchisi bo'lgan.

Ustoz "Buyuk Ipak Yo'li" festivali uchun hududlardan yig'ilgan musiqiy jamoalar va yakka ijrochilarga jamoa rahbari etib tayinlandi. Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlaridan guruh to'plash maqsadida kelgan Fransuza Gryund O'zbekistondagi havaskor ijrochilar va jamoalarning ijrosidan ruhlaniib, guruhga kiradigan barcha



ijrochilarni O'zbekistonning o'zidan to'plashga qaror qilgan. Natijada, namanganlik, farg'onalik katta ashula ijrochilari, toshkentlik, samarqandlik maqomchilar va folklor guruhi, shuningdek, bir qator yakka ijrochilardan tashkil topgan guruh bir oy davomida Fransiya, Germaniya, Belgiya, Gollandiya, Ispaniya va Shvetsariya davlatlarida "Buyuk Ipak Yo'li mamlakatlari san'ati festivali"da ishtirok etishgan. Ansambllning musiqa rahbari etib, Toshkent davlat madaniyat institutining katta o'qituvchisi O'rozali Toshmatov tayinlangan edi.

"Dastlabki konsert dasturi Shvetsariyaning Bazel shahrida bo'lib o'tdi. Shundan keyin Jeneva, keyin esa Germaniyaning Myunhen, Manhaim shaharlarida va keyinchalik Fransiyaning Parij, Gollandiyaning Amsterdam va Belgiyaning Bryussel kabi qator shaharlarida o'zbek

milliy musiqa san'atini namoyish etildi. So'nggi konsert dasturi Ispaniyada o'tkazilishi kerak edi. Shuning uchun biz Bryusseldan samolyotda Ispaniyaning Malaga shahriga uchdik va u yerdan avtobusda dovon oshib, Ispaniyaning janubida joylashgan Granada shahriga yetib keldik. Aeroportda va mehmonxonada ispan musulmonlari kutib olishdi va konsertga chipta topa olmaganliklari uchun biz bilan birga konsertga kirish uchun ruhsat so'radilar", – deydi Karimjon ustoz.

Ma'lumki, Ispaniyaning janubida salkam 7 asr davomida "Andaluziya" nomi bilan ataladigan arab davlati bo'lgan. Ushbu tarixiy muhtasham saroyda hech qanday ovoz kuchaytirish moslamalarisiz konsert dasturi tashkil etilishi kerak edi. Besh ming kishi sig'adigan ushbu amfiteatrning usti ochiqligi esa yanada hayratlanarli holat edi.

Ustozning eslashicha, repetitsiya paytida ansambl ijrochilari bir-birini yahshi eshitmayotganligini ma'lum qilishgan. Shunda K.Azimov barcha ishtirokchilarni sahnaning orqasiga to'plagan va Farg'onaning Toshloq tumanidan kelgan havaskor katta ashula ijrochilarini eshitishni taklif etgan. Ikki nafar ijrochining ovozi shu qadar tiniq va baland jaranglaganki, barcha ijrochilarning ko'ngli to'lib, konsert juda katta muvaffaqiyat bilan o'tgan.

Karimjon Azimov ushbu guruhga rahbarlik qilib, ularning bunday katta halqaro tadbirda muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashda o'zining tashkilotchilik va rahbarlik mahoratini namoyish etgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir konsert bir-biridan farq qilishini ta'minlash uchun alohida dasturlar tuzilar va repetitsiya jarayonida barcha asarlar sayqallanar edi.

Safar davomida Fransiyaning Parij shahridagi ovoz yozish studiyasida guruh tarkibidagi ijrochilarning bir

qismidan qo'shiq va musiqalar kompakt disk (u paytda lazer disk deyilardi)ga yozib olingan.

Ustoz 1996 – 2002-yillarda Toshkent davlat konservatoriyasi Ma'naviy-ma'rifiy va o'quv ishlari bo'yicha prorektori, 2002 – 2004-yillarda O'zbekiston davlat konservatoriyasi rektori vazifasini bajaruvchisi lavozimlarida faoliyat yuritgan. Karimjon ustoz o'zining pedagogik faoliyati davomida ko'plab o'quv-uslubiy ishlar, o'quv qo'llanmalar va darsliklar chop ettiradi. Jumladan "O'zbekiston dirijorlari", "Xalq cholg'ulari havaskorlik orkestri bilan ishlash uslubiyoti" darsliklari misol bo'la oladi.

Karimjon Azimov musiqa pedagogikasi sohasida 1968-yildan buyon o'zbek xalq cholg'ulari va orkestrlari rivojida samarali ish olib bordi. Ustoz sinfida tahsil olgan talabalardan ikki nafari hozirda professor ilmiy unvoniga egadir. Xususan, Tohir Yo'ldoshev hamda O'rozali Toshmatov (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori).

Hamkasblari ularni juda hurmat qilishar, shogirdlari yaxshi ko'rishar, ularning ochiq darslarini katta qiziqish bilan kuzatishardi. O'qishni tamomlab, pedagogik faoliyatini olib borayotgan shogirdlari tez-tez yonlariga kelib, maslahat olib turishardi. Karimjon Azimov yetakchi ustozlar qatoridan joy olib, professor ilmiy unvoniga ega bo'ldi. Hayotlik chog'ida mehnatlari munosib baholangan. Bunday ustozlar hozirgi kunda ham shogirdlar tilidan tushmaydi. Beqiyos mehnatlari samarasi bo'lgan bebaho kitoblar esa yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Bu kabi ustozlarni hamisha yod etishimiz va yosh avlodga o'rnak qilib ko'rsatishimiz lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov K. "O'zbekiston dirijorlari" T.: 2001-yil. – B 264.
2. Azimov K. "O'zbek xalq cholg'ulari havaskorlik orkestri bilan ishlash uslubiyoti" T.: 2002-yil. – B 106.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi

Nashrga tayyorlovchilar:

G'ani Xudoyev,
Faxriddin Abduvohidov,
Anvar Qobilov.

Sahifalovchi-dizayner:

Abdug'ani Sodiqov



Bosishga ruxsat etildi: 30.06.2022-yil Ofset bosma usulda bosildi.
“Times New Roman” garniturasida. Bichimi 60×841/8.
Shartli bosma tabog'i 12,25.
Buyurtma raqami № 2. Adadi: 165 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal “NISO POLIGRAF” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, “Mashal” mahallasi, Markaz – 1.



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurdi. Mazkur ta'lim dargohida yaratilgan shart-sharoitlar, amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorli bilan yaqindan tanishildi.

Institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev boshchiligida ta'lim dargohi

hududida ekilgan mevali va manzarali daraxtlar, turfa gullar mehmonlarning hayratini oshirdi. Mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan yuksak samarali hamda juda xayrli ishlarga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shayotgani e'tirof etildi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor, taniqli rejissor Hamida Mahmudovaning 75 yillik tavallud ayyomi nishonlandi.

Institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, ishchi xodimlar, mehmonlar, talabalar ishtirok etgan tadbirda mamlakatimizda san'at va madaniyat sohalarida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar xususida aytib o'tildi.

Tadbir avvalida institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev so'zga chiqib, uzoq yillardan buyon mamlakatimizning madaniyati hamda san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, ko'plab buyuk san'atkorlarning ustози bo'lgan Hamida Mahmudovaning tavallud ayyomi bilan qutladi va o'zlarining samimiy tilaklarini bildirdi.

Ijodiy kecha davomida qayd etilganidek, ijodkor kadrlarni tayyorlash pedagoglardan nihoyatda katta mas'uliyatni talab etadi. Boisi, ular bo'lajak san'atkorning iqtidorini, iste'dodini yanada shakllanishida katta ko'mak ko'rsatishadi. San'at va madaniyat sohasida mehnat qilayotgan pedagoglar o'z kasbiga va talabalariga mehr qo'ygani, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs ekanligi ham aytiladi.

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi Rayosatining
2017-yil 29-noyabrdagi 245/6-sonli qarori bilan
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro‘yxatiga kiritilgan**

**O‘zbekiston davlat san‘at va
madaniyat instituti
xabarlari**



[www dsmi.uz](http://www.dsmi.uz)



O'ZDSMI DUNYO

ISSN: 2181-8932



XABARLARI

2022/2 (22)



Bugun O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yuldashevning Turkiya Respublikasi Nishantash universiteti xalqaro aloqalar bo‘yicha koordinatori Hazar Do‘rdinchi bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Samimiy ruhda o‘tgan uchrashuvda ikkala tomon ilm-fanga oid o‘zaro tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvini muntazam yo‘lga qo‘yish kabi bir qator masalalar yuzasidan kelishuvga erishildi.



Joriy yilning 25-iyun kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengashning 17.00.03 – Kino san’ati. Televideniye ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan Iqboljon Meliqo‘ziyevning “O‘zbek badiiy filmlarida kinooperatorlik mahorati” mavzusidagi dissertatsiyasi muhokamasi bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan qiziqchilik yo‘nalishi bo‘yicha “Xush kayfiyat” deb nomlangan tanlov bo‘lib o‘tdi. Ushbu tanlovda Respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan yosh qiziqchilar o‘z mahoratlarini namoyish etishdi.



O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida Respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan madaniyat muassasalari rahbarlari uchun Buyuk Britaniyaning Goldsmith universiteti professori Gerald Lidstone tomonidan “Madaniyat va san’at sohasida ijtimoiy loyihalarga mablag‘ yig‘ishda xorij tajribasi” nomli seminari bo‘lib o‘tdi.